

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**B.O.Tursunov, J.Sh.Tuxtabayev**

**MILLIY VA MINTAQAVIY IQTISODIY  
XAVFSIZLIK**

**(Kredit-modul bo'yicha)**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif  
vazirligi tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan**

**Toshkent – 2021**

**UO'K: 330.13.131.7**

**KBK 65.2/4-65.9**

**T 56**

**T 56** **B.O.Tursunov, J.Sh.Tuxtabayev.** Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 –304 b.

**ISBN 978-9943-7528-9-4**

O‘quv qo‘llanmada milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning nazariy asoslari va ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan mavzular yoritilgan. Ushbu mavzularda milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikka oid tushunchalarning mohiyati, ularning mamlakatimiz iqtisodiyotida namoyon bo‘lish shakllari, xavfsizlikni aniqlash va baholashning chegaraviy parametrlari, milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlari, xorijiy davlatlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash tajribalari, milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ochib berilgan. O‘quv qo‘llanmada keltirilgan mavzularda mamlakatimizda milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning o‘ziga xos asosiy kontseptual yo‘nalishlari tahlil qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 5232400 - Iqtisodiy xavfsizlik bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan, shuningdek, milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar, professor-o‘qituvchilar, izlanuvchilar, magistrantlar va shu sohaga qiziquvchi ko‘p sonli kitobxonlarga mo‘ljallangan.

**UO'K: 330.13.131.7**

**KBK 65.2/4-65.9**

**Taqrizchilar:**

**H.P.Abulqosimov** – i.f.d., professor, O‘zbekiston Milliy Universiteti “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedras;

**A.U.Burxanov** – i.f.d., professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Moliya va buxgalteriya hisobi” fakulteti dekani.

**ISBN 978-9943-7528-9-4**

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021.

## **KIRISH**

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik alohida o‘ringa ega bo‘lib, uning holati turli ijtimoiy-iqtisodiy qarorlar qabul qilishda muhim o‘rin tutadi.

Bizga ma’lumki, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash har bir davlat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning dolzarbligi uning milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik, barqarorlikni ta’minlash masalalari, jahon hamjamiyatining zamonaviy sharoitlarida asosiy tahdid va iqtisodiy tizimdagи har qanday o‘zgarishlar turli xavf-xatar va tahdidlarning namoyon bo‘lishi bilan birga kechadi. Shuning uchun milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, unda bo‘ladigan tahdidlarning oldini olish masalasi yuzaga keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”dagi PF-4947-sonli Farmoniga muvofiq tasdiqlangan dasturning “Iqtisodiyotni yanada rivojlanirish va liberallashtirish” deb nomli uchinchi yo‘nalish 3.2-bandida “Tarkibiy o‘zlashtirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish” vazifalari belgilangan. Dasturning 5-bo‘limi “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar” nomli yo‘nalishning 5.1-bandida “O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suverentiteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish; axborot xavfsizsizligini ta’minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga qarshi o‘z vaqtida va munosib harakatlarni tashkil etish; davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O‘zbekiston qurolli kuchlarining jangovor qudrati va salohiyatini oshirish; atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genefondiga zarar yetkazadigan ekologik muammolarning oldini olish; favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish; favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish” kabi vazifalar belgilangan. Shundan kelib

chiqib qayd etish lozimki, mamlakatimizda milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ilmiy va amaliy asoslarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, mazkur o'quv qo'llanmada milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional yo'nalishlari bo'yicha maqsad va vazifalar bayon etilgan<sup>1</sup>.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik fanining maqsadi talabalarga milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va uning munitsipial shakllanishini baholashga oid nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan zarur bilimlar berishdan iborat.

Ushbu fanning vazifasi talabalarga iqtisodiy xavfsizlikning nazariy asoslarini milliy va mintaqaviy iqtisodiy darajada o'rgatish; milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni aniqlash, tahlil qilish uslublari va vositalarini tushuntirish; milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni bartaraf etish yo'llarini o'rgatish; milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik darajasini belgilovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanib tahlil qilish va ularni baholash bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish; turli darajadagi milliy manfaatlarning ziddiyatini hisobga olgan holda milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning alohida yo'nalishlarini strategik va taktik boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash va rivojlanish usullarini o'zlashtirib, iqtisodiy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish bo'yicha zaruriy bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish hisoblanadi.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik o'quv fanini talabalar tomonidan o'zlashtirilishi jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- haqiqiy faktlarni iqtisodiy nuqtai-nazardan tahlil qilish va izohlash imkonini beradigan milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik bo'yicha bilimlarga ega bo'lish;

- milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni o'rganishning asosiy tadqiqot usullari va uni shakllanish omillarini tushunish;

- milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik darajasini belgilovchi tizim indikatorlaridan foydalanib milliy va mintaqada iqtisodiy xavfsizlik darajasini monitoring qilish va baholash qobiliyatি;

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

- milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikga erishishda analitik mulohazalardan foydalana bilish;
- iqtisodiy muammolarni topish va hal qilish uchun analitik tadqiqotlardan foydalanish;
- mavjud milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik muammolarni jamoaviy ravishda tushunish va tahlil qilish;
- turli iqtisodiy muammolarning ahamiyatini, shuningdek ushbu muammolarni hal qilishga qaratilgan siyosatning ijtimoiy ta'sirini tanqidiy baholay olish;
- milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik bo'yicha olib borilayotgan islohotlarni tahlil qila olishi, bu borada taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasida milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning mazmun va mohiyatini hamda uni qo'llashda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlarga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlariga, farmon va qarorlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asoslanadi.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi talablari va Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'naliishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning qarori bilan tasdiqlangan hamda 5232400 - "Iqtisodiy xavfsizlik" ta'lim yo'naliishlarining "Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik" fanining o'quv dasturi asosida yozilgan bo'lib, ushbu o'quv qo'llanmada o'qitishning yangi ta'lim texnologiyasidan foydanilgan holda har bir mavzu bo'yicha maqsad, mazmuni, mohiyati va ahamiyati yoritilgan hamda mavzu bo'yicha nazorat va muhokama uchun savollar, tayanch iboralar, glossariylar va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

"Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik" fanining o'quv qo'llanmasi asosan oliy o'quv yurtlarining bakalavriat ta'lim yo'naliishining 5232400 – Iqtisodiy xavfsizlik talabalari uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari, milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik muammolari bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, talabalar, tadqiqotchilar, ilmiy izlanuvchilar hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi soha xodimlari ham foydalanishlari mumkin.

Ushbu o‘quv qo‘llanma milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik bilan bog‘liq muammolar, masalalar va ularni joriy etish uchun imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi degan fikrdamiz.

Mualliflar “Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik” fanining o‘quv qo‘llanmasi sifatida unga bildirilgan fikr, mulohazalar hamda takliflarni minnatdorlik bilan qabul qiladilar va nashrlarga tayyorlash va chop etish jarayonida yordam berganlarning barchasiga samimiy minnatdorchilik bildiradilar.

# **1-MODUL. MILLIY VA MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIK TIZIMINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI**

## **1-BOB. “MILLIY VA MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIK” FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI**

### **1.1. “Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik” fanining fan sifatida o‘rganilishi**

“Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi mamlakatimiz iqtisodiy boshqaruv va huquq tartibot organlari faoliyatida nisbatan yangi tushuncha hisoblanadi. Bu tushuncha ko‘proq G‘arb mamlakatlari tuzilmasida keng tarqalgan. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik - bu iqtisodiy mustaqillik va qaramlik, barqarorlik va zaiflik, iqtisodiy bosim, shantaj, majburlash va tajovuz va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy kategoriylar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy va siyosatshunoslikning sintetik toifasidagi tushunchasi hisoblanadi.

XXI asrning boshlarida “xavfsizlik” va “milliy xavfsizlik” tushunchalarining dolzarbligi oshishiga: insoniyatning rivojlanishi; yadro, atom va boshqa ommaviy qirg‘in qurollarining keng tarqalishi; ekologik vaziyatning yomonlashuvi; yangi xavfli kasalliklarning vujudga kelishi (koronavirus); terrorizm xavfining kuchayishi; yangi mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi sabab bo‘ldi.

“Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik” mazmunini ma’nosini tushunish uchun avvalo “xavfsizlik” atamasini tavsiflash va uning mohiyati nima ekanligini anglash lozim bo‘ladi. “Xavf” va “xavfsizlik” tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, iqtisodiy va iqtisodiy bo‘lmagan tahdidlarni o‘rganmasdan iqtisodiy xavfsizlikni to‘liq o‘rganish mumkin emas. Buni, masalan, resurslardan foydalanishdan mahrum qilish, ochlikka olib keladigan yoki pul muomalasining buzilishi, mamlakatning iqtisodiy tizimining izdan chiqishi yoki hukumatning iqtisodiyotni boshqarish qobiliyatini yo‘qotishi kabi tushuniladi. Xavfsizlik muammosining

muhim jihatni bu mamlakatning xalqaro iqtisodiy tizimda institutsional qismi bilan aloqalaridir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalasi doimo ustuvor vazifa hisoblanadi, chunki xalqaro iqtisodiy tartiblarga amalga qilgan holda choralarini ko'rish lozim bo'linadi. Xavfxatarning namoyon bo'lish shakllari: tabiiy kataklizmalar (tabiiy ofatlar), ijtimoiy kataklizmalar (ocharchilik, kambag'allik, qashshoqlik, ijtimoiy larzalar), urushlar (qo'rolli to'qnashuvlar, terrorizm, ijtimoiy revolyusiyalar), inqirozlar (siyosiy, iqtisodiy, energetik, ma'naviy, g'oyaviy, mafkuraviy)dan iboratdir. Xavfxatar davlat va jamiyat rivojlanishiga tahdid soluvchi kuch hisoblanib, har bir mamlakat iqtisodiy barqarorlikga erishish uchun iqtisodiyotda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashi zarurdir.

Tadqiqotchilar tahdidlarni tasniflashga va umumlashtirishga harakat qilmoqdalar. Barcha tahdidlar xalqaro, milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik tahdidlarga, shuningdek xo'jalik subyektlar va jismoniy shaxslarning iqtisodiy xavfsizlik tahdidlariga bo'linadi. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ikkita tahdid vujudga keltiradi, bu ichki va tashqi tahdidlardir. Ichki tahdidlar umumiyligi mintaqqa iqtisodiyotining hozirgi holati ta'siri ostida yuzaga keladi. Shunday qilib, agar mintaqada ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarni samarali rivojlantirishga e'tibor qaratilmasa, iqtisodiy, siyosiy va ekologik vaziyat keskinlashgan taqdirda mintaqaviy iqtisodiy mustaqillikga putur etkazadigan omillar bo'lishi mumkin. Tashqi tahdidlar esa mamlakat tashqarisidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarni anglatadi.

“Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik” fanining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi tutgan o'rnini tasniflasak, har bir davlat o'z mamlakat iqtisodiyotini turli xildagi xavf va xatarlardan saqlash borasida jamiyatda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy qonuniyatni yaratib xavfsizlikni ta'minlashga erishadi. Xavfsizlik muammosi mustaqil davlatchilikning shakllanishi va jamiyatda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy manfaatlarning qaror topishi bilan bir paytda vujudga keladi. Chunki shu vaqt dan boshlab, barqarorlik, rivojlanish bilan bir qatorda xavfxatar, turli-tuman tahdidlar ham paydo bo'lib, ularni hisobga olish, ularga asoslanib davlat strategiyasi va siyosatini

ishlab chiqish hamda amalga oshirish milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Milliy xavfsizlik bu davlat va jamiyatni ichki va tashqi tahdidlardan, fuqarolarni shaxsiy holatini himoya qilish, ularning konstitutsiyaviy huquqini, erkinligini, turmush darajasini yuqori sifatli tashkil qilishni, hududiy yaxlitlikni va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini ifodalaydi. Mintaqaviy xavfsizlik esa, bu mamlakat viloyatlari manfaatlarining ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganligini ifodalaydi.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik fanining predmeti milliy iqtisodiy xavfsizlik nuqtai-nazaridan davlat, jamiyat va shaxslarning hayotiy qiziqishlarini, jami ehtiyojlarini progressiv rivojlanishining imkoniyatlarini ta'minlash, mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik jihatidan mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining aniq bir funksional yo'nalishi bo'yicha uning manfaatlarini farqlanishi, ularning faoliyatini amalga oshirishda differensional tizimdan foydalanish, ularni himoya qilish uchun ustuvor yo'nalishlarini ta'minlash imkonini yaratishdan iborat.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik fanining tuzilishi o'z ichiga xavfsizlik tizimini shakllanishining tarixiy jihatlarini, uning konseptual asoslarini yaratishning huquqiy-me'yoriy asoslarini, ichki va tashqi xavfsizlik va uni ta'minlash yo'nalishlari, respublikaning milliy xavfsizlik strategiyasini o'rganish, iqtisodiy xavfsizlikga tahdidlar, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy xavfsizlik tizimi va uni ta'minlashning mintaqaviy tizimlarini o'rganishdan tashkil topgan.

## **1.2. Fanning tuzilishi va uning iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o'rni hamda boshqa o'quv fanlari bilan bog'liqligi**

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalari XVII-XVIII asrlarda jadal rivojlandi, Yevropada kapitalizm shakllangan va etakchi iqtisodiy tizim barpo etila boshlagan edi. Bu davrda xavfsizlikning kafolati sifatida davlatning roli to'g'risida nuqtai-nazar shakllandı. Masalan, xavfsizlik holatini ta'minlashi kerak bo'lgan davlat uchun xavfsizlik maqsadlarining

ahamiyatini J.J.Russo o‘zining “Ijtimoiy shartnoma to‘g‘risida”gi asarida keng bayon qilib o‘tgan. Faqat 1930 yillarda yuzaga kelgan AQSH iqtisodiy inqirozi bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy jarayonlarga davlat aralashuvi zarurligi to‘g‘risida tushunchalar paydo bo‘ldi. Bularning barchasidan kelib chiqadiki, milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikga tahdidlarga qarshi kurashish siyosatining asosi iqtisodiy kontseptsiyaga bog‘liqdir.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik muammolari haqidagi qarashlarni quyida kurib tasniflaymiz (1-jadval):

- 1) davlatning hal qiluvchi rolini oshirish (XVI-XVII asrlar) merkantilizm tarafdforlari;
- 2) klassik kontseptsiya (XVIII – XIX asrlar), bunda davlatning roli faqat bozorning ishlashi uchun shart-sharoitlar yaratish bilan cheklanishi lozim;
- 3) mahalliy tovarlar savdosi bilan bog‘liq protektsionizmni anglatuvchi kameralistik tushuncha (XIX-asrning o‘rtalaridan);
- 4) Keynsning kontseptsiyasi (XX asrning ikkinchi yarmidan) mamlakatda yuzaga keladigan tahdidlarga qarshi kurashish choralarini shakllantirishda davlatning rolini oshirish;
- 5) byurokratik funktsiyalarini ratsionalizatsiya qilish bo‘yicha institutsional kontseptsiya (XX asr oxiridan).

Merkantilizm tarafdforlari ishlab chiqaruvchilar va savdogarlarning strategiyalarini belgilashda davlat ustuvorligini ilgari surishadi. Merkantistik g‘oyalar bugungi kunda rivojlangan mamlakatning mintaqaviy darajada muhim rol o‘ynaydi. Bir tomonidan, ularning mavjudligi bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga byurokratik to‘silalar yaratса, boshqa tomonidan esa, merkantilizm g‘oyalaridan samarali foydalanish mumkin, masalan, qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash masalasini ko‘rib chiqishda<sup>2</sup>.

---

<sup>2</sup> Савкин В.И. Развитие меркантилизма и его роль в современной аграрной экономической политике России // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. - М., 2014. - № 38. - с. 2-8.

## 1-jadval

### **Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikga turlicha yondashuvlar<sup>3</sup>**

Tasniflar nomi	Merkantilizm yo‘nalishi	Klassik yo‘nalish	Kameralistik yo‘nalish	Keyns yo‘nalishi	Institutsional yo‘nalish
Tushunchaning vujudga kelgan davri	XVI-XVII asrlar	XVIII-XIX asrlar A.Smit	XIX asr	1930 yillar J.M.Keyns	1980-yillar, Hernando de Soto
Milliy iqtisodiy xavfsizlikga asosiy tahdidlarni tushunish	Davlatning asosiy roli	Xususiy mulkchilikni davlat himoya qiladi	Raqobat yoki xorijiy davlatlarning boshqa harakatlari	Iqtisodiy inqirozlar, bandlikning pasayishi, inflyatsiya jarayonlari	Davlat tuzilmalari tomonidan haddan tashqari ma’muriyatchilik, ushbu tuzilmalarning jamiyatdagi mavqeidan ustunliklarni izlash
Milliy iqtisodiy xavfsizlik uchun kurashning maqsadi	Davlat maqsadlariga muvofiqligi	Davlatning minimal aralashuvi bilan milliy iqtisodiyotning normal ishlashi uchun sharoit yaratish	Iqtisodiy mustaqillik	Iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik	Mulkchilik huquqini himoya qilish
Milliy iqtisodiy xavfsizlik uchun kurash usullari	Davlat tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish choralarini ko‘radi	Davlatning ta’siri minimaldir	Proteksionist ik savdo siyosati	Ishlab chiqarish jarayonlariga, ishsizlikga, pul muomalasiga ta’sir ko‘rsatishda davlat tomonidan turli vositalardan foydalanish	Davlat tomonidan tartibga solish darajasining pasayishi, korruptsiyaga qarshi kurash

<sup>3</sup> Нуреев Р.М. Экономика развития: модели становления рыночной экономики: учебное пособие. М.: ИНФРА-М, 2001. См. также: Лист Ф. Национальная система политической экономии. - М.: Европа, 2005.; Витте С.Ю. По поводу национализма. Национальная экономия и Фридрих Лист. - СПб.: Тип. Брокгауз-Ефрон, 1912.; Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. - М.: Экономика, 1993.; Сочинения де Сото Э. Иной путь. Невидимая революция в третьем мире. - М.: Catallaxy, 1995.

Klassik yondashuv namoyondasi bo‘lgan A.Smit tomonidan ijtimoiy rivojlanish manbai shaxsning manfaatlarini amalga oshirish, davlat ishtirokisiz avtonom ravishda amalga oshiriladi deb ta’kidlagan.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik rivojlanishi bo‘yicha yondashuvlarning ayrimlarini ko‘rib chiqamiz. 1930-yillarda Buyuk depressiya davrida rivojlangan davlatlar iqtisodchilari iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalash muammolariga e’tibor qaratdilar. Ular iqtisodiy inqirozlar ichki sabablarga ko‘ra ham bo‘lishi mumkinligini aniqladilar. Shuni aniqlagan olimlardan biri bu J.M.Keyns hisoblanadi, u mamlakat iqtisodiyotidagi asosiy tahdidlar ishsizlik darajasi va iqtisodiy tushkunlik bilan bog‘liqligini asoslagan<sup>4</sup>.

Keyns konsepsiyasiga muvofiq, ushbu salbiy omillarga qarshi kurashish davlat idoralari tomonidan nafaqat bilvosita chora-tadbirlar (davlat buyurtmalari, subsidiyalar va boshqalar) amalga oshirilishi orqali, balki raqobat muhitining holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatish orqali ham ta’sir ko‘rsatishi lozimligini qayd etishgan.

XX-asrning oxirlariga kelib Keynsning milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalashdagi nazariyasi o‘zining mashhurligini biroz yo‘qotdi. Iqtisodiy rivojlanish haqidagi neoklassik g‘oyalar o‘z o‘rnini egalladi. Ammo, neoklassik nazariyasida ular iqtisodiy shaxsning rolini tasdiqlasalar, iqtisodiy sohada amaliy qadamlarni belgilashda ular umuman davlat bilan bog‘liq tizimli muammolar mavjudligini ilgari so‘rishadi. Ular bunday muammolar, masalan, asosiy muammo sifatida inflyatsiya, ishsizlik, iqtisodiy rivojlanishning past dinamikasi haqidagi qarashlari shular jumlasidan.

XX-asrning oxirida paydo bo‘lgan institutsional yondashuv xufyona iqtisodiyotning mavjudligi va uning o‘sishi uchun asosiy sabab - bu raqobatning haddan tashqari cheklanganligi deb e’tirof etuvchi institutsional yondashuv vakillari paydo bo‘ldi. Ya’ni, institutsionalistlarning fikriga ko‘ra, jinoiy bo‘lmagan iqtisodiyotda merkantilizm ustunlik qiladi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy xavfsizlik muammolarini tahlil qilishda bir-birini to‘ldiradigan turli yondashuvlar mavjud, chunki iqtisodiyotning holatiga ta’sir etuvchi salbiy omillar ham xorijiy kompaniyalarning raqobati, ham ichki bozor sabablari yoki davlat

<sup>4</sup> Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. - М.: Экономика, 1993.

institutlari faoliyatining samarasizligi tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Iqtisodiy sohada xavfsizlikni ta'minlashga muayyan yondashuvlardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi, asosan, mamlakatning jahon hamjamiyatidagi mavqeiga bog'liq. Keyns paradigmasi iqtisodiyoti rivojlanayotgan va eng rivojlangan mamlakatlarda ko'proq qo'llaniladi. Institutsional muammolar birinchi navbatda rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan hal qilinishi kerak. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan protektsionizm barcha mamlakatlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan yordamchi chora hisoblanadi.

Milliy iqtisodiy xavfsizlik muammosiga ushbu umumiyl iqtisodiy yondashuvlar va mamlakatlarning milliy manfaatlarini shakllantirish va amalga oshirishda xavfsizlik masalalarini o'rganish vazifalarining vujudga kelishi bilan milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik fani vujudga kelgan.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik fani ko'p jihatdan: iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, ekologik, muhofaza sohasidagi fanlar bilan umumlashadi. Xavfsizlikni ta'minlash qadimgi davrdan hozirgi kungacha mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashning muhim tomonlaridan biri hisoblanib kelindi. Shu sababli "Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik" mustaqil fan sifatida shakllandi va o'z nazariyasiga, uslubiga hamda tamoyillariga ega bo'ldi. Shu bilan bir qatorda "Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik" fani iqtisodiy xavfsizlik, xavfsizlik va texnologiya, davlat va huquq nazariyasi, mintaqal iqtisodiyoti, risklarni boshqarish kabi fanlar bilan chambarchas aloqaga asoslanadi. Ushbu fanlar bir-biridan tadqiqot qilinadigan yoki o'rganiladigan obyektlarining turi bilan farq qiladi. Lekin, umumiy holatda barcha turdag'i bog'lanishlar bir vaqtida yuzaga keladi va shu sababli xavfsizlik bir necha omillar bilan bog'lanadi hamda o'zaro ta'sirda bo'ladi. Shu sababli, milliy va mintaqaviy hususiyatdagi umumlashgan xavfli omillarning namoyon bo'lishi va uni bartaraf etish orqali xavfsizlikni ta'minlashni alohida mustaqil fan – "Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik" fani o'rganadi.

### **1.3. “Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik” fanining asosiy vazifalari**

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi, uni ta’minlashning eng muhim sharti yoki omili, ko‘rsatkichi iqtisodiy xavfsizlikdir. Taniqli rus iqtisodchisi L.I.Abalkin ushbu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi uch elementni ko‘rsatib bergen<sup>5</sup>:

- iqtisodiy mustaqillik. Hozirgi jahon xo‘jaligi sharoitida iqtisodiy mustaqillik mutloq xarakterga ega emas, chunki xalqaro mehnat taqsimoti milliy iqtisodiyotlarni bir-biriga o‘zaro bog‘liq qilib qo‘yadi. Bunday jarayonda iqtisodiy mustaqillik davlatning iqtisodiy resurslar ustidan nazorat o‘rnata olish imkoniyatini, jahon savdosi, kooperatsiya aloqalari, ilmiy-texnika yutuqlarini ayriboshlashda teng ishtirok etish va raqobatbardoshlikni ta’minlaydigan ishlab chiqarish, samaradorlik va sifat darajasiga erishishni anglatadi;

- milliy iqtisodiyotning barqarorligi. Bu shaklidan qat’iy-nazar mulkchilikning himoya qilinishi, tadbirkorlik faolligi uchun ishonchli sharoit va kafolatlarning yaratilishi, mamlakatdagi holatning yomonlashuviga, beqarorlikga olib keluvchi omillarning jilovlanishini (ya’ni iqtisodiyotdagi kriminal tuzilmalarga qarshi kurash, daromadlar taqsimlanishida jiddiy farqlar, tabaqlananishning kelib chiqishi, ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik) toqazo etadi;

- o‘z-o‘zidan rivojlanish va taraqqiy etishga qodirlilik. Bu esa investitsiyalar va innovatsiya uchun qulay muhitning yaratilishi, ishlab chiqarishning muntazam modernizatsiyalashuvi, yangilanishi va takomillashib borishi hamda xodimlarning bilim, kasb-malaka, umumiy madaniy darajalarining o‘sib borishi milliy iqtisodiy barqarorlik mavjudligining zaruriy shartiga aylanishini ifodalaydi (1-rasm).

---

<sup>5</sup> Спанов М. Экономическая безопасность: сущность, критерии, формы // Транзитная экономика, 1998. – с. 3.



### **1-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik mazmunini ifodalovchi elementlar**

Ushbu fikrlarga asoslangan holda “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasini tor ma’noda milliy iqtisodiyot mustaqilligi, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va o‘z-o‘zidan takomillashib borishga qodirligini ta’minlovchi shart-sharoitlar va omillar yig‘indisi, deb ta’riflash mumkin.

Ichki iqtisodiy sohalarda xavfsizlik tabiiy, texnikaviy-iqtisodiy, infratuzilmaviy, ijtimoiy, mikro va makroiqtisodiy rivojlanishning boshqa omillari, shuningdek, beqarorlik, tanglikni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi tahdidlar ta’siridan himoya qiluvchi ichki immunitetlar bilan bog‘liqdir. Tashqi iqtisodiy sohadagi xavfsizlik mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshliligi, milliy valyuta barqarorligi, davlatning moliyaviy ahvoli bilan tavsiflanadi.

Turli iqtisodiy tahdidlar, noxush holatlar oqibatida ko‘rilgan zararlarning o‘rnini qoplash uchun zarur bo‘lgan xarajatlarni prognoz qilish ham muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida favquloddagi holatlar oqibatida ko‘rildigan zararlarni qoplash, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga yo‘naltirilgan resurslarni baholash va o‘z vaqtida shakllantirish uchun imkoniyat yaratiladi.

Iqtisodchi olim A. V. Gukovaning fikricha, moliyaviy xavfsizlik uzoq muddatli davrda korxonaning moliyaviy muvozanati, barqarorligi, to’lov qobiliyati va likvidligini ta’minlashga imkon beradi. Korxonaning moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirib, yetarli moliyaviy mustaqilligini ta’minlaydi. Korxonaga moliyaviy zarar yetkazishni yoki kapital tarkibini salbiy o’zgartirishni yoki korxonani majburan tugatishni ko’zda tutadigan xavf va tahidlarga qarshi tura oladi. Qolaversa, moliyaviy qarorlarni qabul

qilishda yetarli darajada moslashuvchanlikni va korxona egalari moliyaviy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi<sup>6</sup>.

Olimlar Blank I.A.<sup>7</sup>, Zagorodniy A.G.<sup>8</sup>, V.K. Senchagov<sup>9</sup>, V.A. Bogomolova<sup>10</sup>, Gaponenko V.F. , Protsenko Ye. A. tadqiqotlarida moliyaviy xavfsizlik deganda, xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi, likvidliliqi va takror ishlab chiqarishni kengaytirish qobiliyatini saqlagan holda, rejali rivojlantirish qobiliyati tushuniladi.

K. S. Goryachevaning ta'rifiga ko'ra, moliyaviy xavfsizlik — bu birinchidan, korxona tomonidan foydalaniladigan moliyaviy vositalar, texnologiyalar va xizmatlar to'plamining muvozanati va sifati, ikkinchidan, tashqi va ichki tahdidlarga qarshilik ko'rsatish, uchinchidan, korxona moliyaviy tizimining moliyaviy manfaatlari, maqsad va vazifalarini yetarli miqdorda moliyaviy resurslar bilan ta'minlashni amalga oshirish qobiliyati, to'rtinchidan, butun moliya tizimining rivojlanishini ta'minlaydiyigan moliyaviy holatdir<sup>11</sup>.

Mahalliy olimlardan A.U.Burxanov tomonidan korxonaning moliyaviy xavfsizligiga chuqurroq ta'rif berilgan: "korxonaning moliyaviy xavfsizligi korxona moliyaviy barqarorligining zaruriy sharti bo'lib, korxonaning moliyaviy holati yomonlashuvi bo'yicha ehtimoliy tahdidlarning oldini olish va bartaraf qila olish imkoniyati" deb ta'riflangan. Shuningdek, olimning fikriga ko'ra, korxonaning moliyaviy xavfsizligi korxona faoliyatida yuzaga keladigan risklarni minimallashtirish, korxonaning ichki va tashqi xavflardan himoyalanish darajasidir<sup>12</sup>.

---

<sup>6</sup> Гукова А.В. Роль финансовой безопасности предприятия в системе его экономической безопасности / А.В. Гукова, И.Д. Аникина — [Электронный ресурс]. — Режим доступа: [http://www.jeducation.ru/3\\_2006/98.html](http://www.jeducation.ru/3_2006/98.html).

<sup>7</sup>Бланк И.А. Управление финансовой безопасностью предприятия. / И.А. Бланк. — К.: Эльга, Ника-Центр, 2004. — 784 с.

<sup>8</sup>Загородний А.Г. Фінансово-економічний словник. / А.Г. Загородній, Г.Л. Вознюк. — К.: Знання, 2007. — 1079 с.

<sup>9</sup> Экономическая безопасность России: Общий курс / Под ред. акад. РАН В.К. Сенчагова. — М.: Дело, 2005.

<sup>10</sup> Экономическая безопасность: учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по специальностям экономики и управления. / В.А. Богомолов и др.; под ред. В.А. Богомолова. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2009. — 295 с.

<sup>11</sup> Горячева К.С. Механизм управления финансовою безопасностью : автореф. дис. на здебуття наук. ступеня канд. екон. наук : спец. 08.06.01 / К.С. Горячева. — К., 2006. — 17 с.

<sup>12</sup> Бурханов А.У. Молиявий хавфсизлик. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Маънавият, 2019. -37 бет.

Biroq, jahonda 2109 yilda yuzaga kelgan Covid-19 pandemiyasi oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz barcha biznes sub'ektlarining moliyaviy manfaatlari va strategik maqsadlariga erishishga keskin xavf soldi. Korxonalarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashga bo'lган kontseptual yondoshuvlarni o'zgartirishni talab etdi.

Yuqoridagi olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni umumlashtirigan holda, hamda strategik rivojlanishni inobatga olgan holda korxonaning moliyaviy xavfsizligiga yangi ta'rif berdik.

Shunday qilib, korxonaning moliyaviy xavfsizligi bu – korxonaning moliyaviy manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoyalangan holda uning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi, likvidliligi va takror ishlab chiqarishni kengaytirish hamda strategik moliyaviy maqsadlarga erishish qobiliyatini saqlash darajasidir.

Kompensatsion resurslar o‘z mazmuniga ko‘ra sug‘urta, zaxira resurslarini anglatadi. Kompensatsion salohiyat (potensial) mamlakat iqtisodiyotining tanglik, noxush holatlarga qayishqoqligini, uning oldini olish va uni engib o‘ta olish, xo‘jalik jarayonlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi va mustahkamligini tiklay olish qobiliyatini anglatadi. Kompensatsion salohiyat milliy iqtisodiyot, xalq xo‘jaligining biron-bir tarmog‘i yoki biron-bir yirik hududda noxushliklar vujudga kelganida ularni tiklay olishga qodirligini ifodalaydi.

Mamlakat iqtisodiy tizimining turli darajalaridagi iqtisodiy munosabatlar milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik obyektlari bo‘ladi:

- makroiqtisodiy darajadagi mamlakat iqtisodiyoti;
- hududiy va tarmoq darajasidagi hudud va tarmoq iqtisodiyoti;
- oila va shaxs darajasidagi mamlakat fuqarolarining har birining iqtisodiy manfaatlari.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga asosan xulosa qilib, keng ma’noda iqtisodiy xavfsizlikni milliy iqtisodiyotning samarali, dinamik o‘sishiga, uning jamiyat, davlat, shaxs ehtiyojlarini qondirishning, tashqi bozorda raqobatga bardoshlilagini ta’minlovchi, turli tahdid va yo‘qotishlardan kafolatlovchi ichki va tashqi sharoitlar yig‘indisi deb ta’riflash mumkin bo‘ladi.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik fanining asosiy

vazifalari davlat va jamiyatni ichki va tashqi tahdidlardan, shaxs iqtisodiy havfsizligi va ularning konstitutsiyaviy huquqini, erkinligini, yashash turmush darajasini yuqori sifatli tashkil qilishni, hududiy yaxlitlikni va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanishi hamda siyosatning ijtimoiy yo‘naltirilganligini ta’minlashdan iborat.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Xavf-xatar, xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiy mustaqillik, barqarorlik, mintaqaviy xavfsizlik, mintqa iqtisodiyoti.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. “Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasini tavsiflang?
2. “Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasining xususiyatini tushuntiring?
3. “Xavfsizlik” va “milliy xavfsizlik” tushunchalarining dolzarbligini asoslang?
4. Xavf-xatarning namoyon bo‘lish shakllarini tavsiflang?
5. “Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik” fanining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi tutgan o‘rnini asoslab bering?
6. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik muammolari haqidagi qarashlarni tushuntirib bering?
7. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
8. Kompensatsion resurslar o‘z ichiga nimalarni oladi?

## **2-BOB. MILLIY VA MINTAQAVIY XAVFSIZLIKTIZIMINI SHAKLLANISHINING TARIXIY JIHATLARI**

### **2.1. Xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik tushunchalarining mazmuni va mohiyati**

“Xavfsizlik” tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, turli ma’nolarda talqin etiladi. Shunga qaramasdan ularda umumiyl g‘oya ham mavjud bo‘lib, bunga ko‘ra xavfsizlik insoniyat hayotining turli sohalarida vujudga keladigan xavf-xatardan himoyalanish, kafolatlanish ma’nosini anglatadi. Xavf-xatar esa davlat va jamiyat rivojlanishiga, normal amal qilishiga tahdid soluvchi potensial yoki real kuch, omil hisoblanadi. Xavf-xatar namoyon bo‘lishining keskin shakllariga tabiiy, ijtimoiy kataklizmalar, inqirozlar, urush, qurolli to‘qnashuvlar kiradi.

“Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi davlat milliy xavfsizligini ta’mind etuvchi asosiy elementlardan biri, mamlakat iqtisodiy ehtiyojlarini kafolatli ta’minalash yullari, vositalari va usullariga asoslanuvchi qarashlar yig‘indisidir. Konseptual kurinishda u davlat iqtisodiy potensiali holatidan kelib chiqadigan iqtisodiy xavfning asosiy omillari tahliliga asoslanadi. Kuchsiz va samarasiz iqtisodiyot davlat xavfsizligini ta’minalashi mumkin emas. Bu ijtimoiy nizolarga tula jamiyatda, ayniqsa yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Iqtisodiy xavfsizlik asosida rivojlanish va rivojlanish barqarorligini ta’minalovchi muhitga uxshash muhitni tashkil etuvchilar yotadi. Rivojlanishsiz iqtisodiy taraqqiyot bo‘lishi mumkin emas. Barqarorlik - bu, jamiyatning favqulodda holatlarda hamda o‘z manfaatlarini qondirish qobiliyati, vaziyatni tiklash imkoniyatidir.

Xavfsizlik qanday sohada, qanday shakl va qiyofada namoyon bo‘lmisin ularning barchasi umumiyl xususiyatiga egadir. Umuman, xavfsizlik xavf-xatardan himoyalanish sharti va strategiyasi sifatida ijtimoiy tizim, shaxs, jamiyat va davlat faoliyatining normal amal qilishini ta’minalashga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

“Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasiga ko‘plab olimlar tomonidan berilgan tariflar va birinchi paragrafda berilgan tor va keng miqiyosdagi tariflarni umumlashtirgan xolda oladigan bo‘lsak,

iqtisodiy xavfsizlik - bu, davlatning iqtisodiy tizimiga ta'sir qiluvchi va uning eng kam sarflar bilan barkoror rivojlanishi, shu asosida jamiyatning potensial imkoniyatlarini har tomonlama amalga oshirish uchun, milliy manfaatlar eng kup ifodalanishiga imkon beruvchi shart va omillar yig'indisi, shuningdek, davlatning turli xil xavflar va yuqotishlarga qarshi turish qobiliyatidir.

Milliy xavfsizlik jamiyatning barcha bo‘g‘in va darajalaridagi xavfsizlikni ifodalaganidek, iqtisodiy xavfsizlik mamlakat hamda uning mintaqalari iqtisodiy xavfsizligini ham o‘z ichiga oladi. Milliy xavfsizlik davlat manfaatlarini himoya qilishning umumiyligi shakli hisoblanadi. Shuningdek, u mamlakat milliy manfaatidagi ehtiyojlarni o‘zida namoyon etish shakli hamdir. Boshqacha qilib aytganda, manfaat ehtiyojlarini qondirish va moddiy, ma’naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo‘lish va farovonlikka intilish to‘g‘risidagi tasavvurlarning jamini o‘zi ifoda etadi.

Milliy xavfsizlik shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shaxs, fuqaro manfaatlari o‘z ichiga ularning konstitutsion huquq va erkinliklarini, yashash xavfsizligini ta’minalash, turmush darajasi va sifatini oshirish, jismoniy, ma’naviy, intellektual rivojlanishini ifoda etadi.

Mamlakatning milliy xavfsizligi uning milliy manfaatini turli siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g‘oyaviy, axborot va boshqa omillar hamda tahdidlardan himoya qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shu boisdan milliy xavfsizlik tarkibi murakkab tuzilishga ega bo‘lib, siyosiy, harbiy-mudofaa, g‘oyaviy, iqtisodiy, ekologik, energetik, oziq-ovqat va axborot xavfsizliklarini o‘z ichiga oladi.

Milliy xavfsizlik tushunchasi jamiyatning barcha bo‘g‘in va darajalaridagi xavfsizlikni ifodalaganidek, iqtisodiy xavfsizlik mamlakat hamda uning mintaqalari iqtisodiy xavfsizligini ham o‘z ichiga oladi. Mintqa tushunchasining keng ma’nosи jahon yoki mamlakat hududining bir qismiga nisbatan qo‘llaniladi. Mintqa jahon hududining bir qismi sifatida o‘z ichiga geografik, siyosiy, iqtisodiy, ekologik, etnomadaniy, axborot, harbiy va boshqa mezonlar hamda yondashuvlar asosida bir nechta mamlakatlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Masalan, Sharqiy Evropa, G‘arbiy Evropa, O‘rta Osiyo, Markaziy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo va boshqa mamlakatlar turkumi mintaqalari mavjud. Bir alohida olingan mamlakat ichidagi

viloyatlar, tuman va shaharlar geografik, iqtisodiy, siyosiy, etnomadaniy, ekologik, axborot va boshqa mezonlar bo‘yicha ma’muriy hududiy birlik sifatida uning mintaqalarini tashkil etadi.

Mintaqaviy xavfsizlik mamlakat viloyatlari (tumanlari) manfaatlarining ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganligini ifodalaydi. Mintaqaviy xavfsizlik o‘z ichiga tabiiy-texnogen, oziq-ovqat, umumiqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy (shaxsiy va mulkiy) xavfsizliklarni oladi. Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanishi, mintaqaning davlat boshqaruvi o‘rtasidagi muvozanatli holat bo‘lib, bu holat mintaqada milliy manfaatlarning himoyalanganligi hamda siyosatning ijtimoiy yo‘naltirilganligini, shuningdek mamlakat viloyatlari manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganligini ifodalaydi.

## **2.2. O‘zbekiston Respublikasida milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minalash siyosati va uning bosh maqsadlari**

O‘zbekiston Respublikasida milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minalash siyosatini amalga oshirishda huquqiy asoslarga tayaniladi. Bunday huquqiy asoslar mamlakatning milliy va uning mintaqalarida xavfsizlikni ta’minalashga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjalalar hisobladi. Milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minalashning davlat siyosati o‘z oldiga davlat tuzilmasi va davlat chegaralari daxlsizligini ishonchli himoya qilish, inson huquqlari va erkinliklariga og‘ishmay rioya etish, jamiyatdagi millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, tinchlik va osoyishtalik - demokratik huquqiy davlat qurishi, konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi, iqtisodiy va mudofaa salohiyatini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish hamda mamlakatni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadini quygan.

Mazkur maqsadlar mamlakatni rivojlantirishning hozirgi bosqichidagi ustuvor yo‘nalishlar, davlat va ijtimoiy hayotning barcha sohalarini isloh qilish borasidagi vazifalarni samarali amalga oshirish davlat xavfsizligini ta’minalashning sifat jihatdan yangi tizimini shakllantirishni taqozo etadi. Bu o‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish borasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida, shuningdek,

2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi vazifalarini inobatga olib quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish lozim: birinchidan, xavfsizlikni ta’minlash sifatidagi huquqiy maqomini belgilab beruvchi mustahkam qonunchilik bazasini yaratish; ikkinchidan, mavjud xavf-xatarlar va tahdidlarga qarshi kurashishning ta’sirchan shakl hamda uslublarini joriy etish; uchinchidan, yuzaga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni inobatga olgan holda xavfsizlikni ta’minlash borasidagi vazifalarni bajarishda mavjud kuch hamda vositalardan samarali foydalanish imkonini beruvchi tashkiliy tuzilmani shakllantirish; turtinchidan, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga og‘ishmay rioya etilishini kafolatlaydigan ta’sirchan mexanizmlarni joriy qilish; beshinchidan, mamlakat manfaatlarini munosib himoya qilishga qodir, har tomonlama etuk va vatanparvar yoshlarni voyaga etkazish, kadrlarni tanlash va tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini yaratish; oltinchidan, mehnatga munosib haq to‘lash, uy-joy va maishiy shart-sharoitlarni yaxshilash, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish orqali ijtimoiy himoyani kuchaytirish.

Ushbu ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish uchun quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

- milliy va mintaqaviy xavfsizlikni va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishni ta’minlash, mazkur sohada qonuniylik va qonun ustuvorligini mustahkamlash, huquqbazarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish;

- mamlakatning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligiga tajovuzlarning oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga barham berish bo‘yicha xavfsizlikning turli faoliyatini amalga oshirish;

- O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari va mudofaa-sanoat majmuasini xavfsizlikka xavf-xatarlar hamda tahdidlardan himoya qilish, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash;

- milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash uchun terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilikka, qurol-yarog‘, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish;

- davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib etishga qaratilgan buzg‘unchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash va unga barham berish;
- iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy va axborot sohalarida xavfsizlikni ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi xalqining tarixiy-madaniy va boy ma’naviy merosini himoya qilish;
- mamlakatda davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi korrupsiya holatlariga qarshi kurashish;
- telekommunikatsiya va transport sohasida xavfsizlikni ta’minlash, favqulodda holatlarni yuzaga keltiruvchi omillarning oldini olish, aniqlash va ularga barham berish;
- milliy va mintaqaviy manfaatlar va xavfsizligiga tahdid soluvchi huquqbazarliklar sodir etilishiga imkon beradigan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;
- mamlakatning xarbiy jangovar va safarbarlik tayyorgarligi holatini takomillashtirish va saqlab turish, kuch va vositalarni favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan hamda harbiy holat joriy qilingandagi harakatlarga doimiy tayyor turish.

### **2.3. Milliy va mintaqaviy iqtisodiyot va uning o‘ziga xos xususiyatlari**

Har bir mamlakat iqtisodiyoti o‘ziga xos milliy, diniy, siyosiy xususiyatlarga ega. U shu mamlakat ichida milliy hamjamiyatlar, ya’ni ijtimoiy guruhlar va kishilar hamjamiyatlari iqtisodiy aloqalarini tashkil qilishning o‘zaro ichki aloqalar bilan bog‘lik va integratsiyalashgan shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Bu milliy iqtisodiyotning ta’rifidir. Endi millat o‘zi nima ekanligiga tuxtalamiz.

Millat ikki ma’noda tushuniladi:

- kishilarning tarixiy tarkib topgan shakli;
- mamlakat, davlat.

“Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fanida millat tushunchasiga yondashuv doimo o‘zgarib turishini ta’kidlaydi. David Rikardo millatning tabiiy omillariga unumдорлиги notejis bo‘lgan tuproqga ega jo‘g‘rofiy makon sifatida qaraydi. U bu omillar iqtisodiy faoliyat xarakterini belgilab beradi (Portugaliya vino, Buyuk Britaniya esa gazlama ishlab chiqaradi) deb hisoblagan.

Styuart esa millat, bu hudud, ayni paytda shunday hududki, uning ichkarisida ishlab chiqarish omillari harakatchan va bu harakatchan davlat chegaralari bilan cheklangan, deb ta’rif bergan.

R.Bar iqtisodiy jihatdan millat tushunchasini yanada murakkabroq ta’riflaydi, ya’ni millatning iqtisodiy konsepsiyasini beradi. Uning fikrcha:

1. avvalo millat – bu, o‘z tabiatiga, kelib chiqishiga, xarakteriga va faoliyat sharoitlariga ko‘ra, farqlanuvchi faoliyat markazi;

2. millat – bu, kuchlar markazidir. Uning ta’siri geografik va qiyosiy makon doirasidan kelib chiqadi;

3. millat - iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sabablarga ko‘ra, imtiyoz beruvchi birdamlik markazidir.

Shunday qilib, millat dunyoning undan boshqa millatlarni farq qildiruvchi va ular bilan o‘zaro aloqada bo‘lish zaruriyatini tug‘diruvchi siyosiy va ma’naviy xarakterga, o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan bir bo‘lagidir.

Ayni paytda millat tushunchasiga uning iqtisodiy atamasi izohini berib o‘tish ham zarur:

1. iqtisodiy munosabatlar yig‘indisi;

2. hudud, guruhlar;

3. iqtisodiy munosabatlarning funksional yoki tarmoq jihatlarini o‘rganuvchi fan sohasi.

Shunday qilib, milliy iqtisodiyot – bu, mamlakat xo‘jaligi, uning tarkibi (strukturasi) alohida elementlarining o‘zaro aloqasidir. Milliy iqtisodiyot bir mamlakatdagi individlar, oilalar, guruhlar va davlatning iqtisodiy faoliyati ma’lum integratsiya va o‘zaro bog‘likligi bilan xarakterlanadi. Shu sababli milliy iqtisodiyotni faoliyatning turli qaror va faktlari oddiy yig‘indisi, deb tushunmaslik lozim. Iqtisodiyotning vazifasi turli iqtisodiy subyektlar faoliyatini birlashtirib turuvchi aloqalarni ko‘rsatib berishdan iborat.

Milliy iqtisodiyotda ro‘y berayotgan jarayonlarni baholashda, albatta, makroiqtisodiy tomondan yondashiladi. Demakki, butun mamlakat miqyosida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar kuzatiladi va tahlil qilinadi. Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida mamlakatimizda eng muhim vazifalardan biri iqtisodiyotda jami ishlab chiqarish natijalarini hisoblab borishdir. Buning uchun milliy hisob-kitoblar tuzish borasida kerak bo‘ladigan ba’zi muammolarni hal qilish lozim.

Bir butun iqtisodiyot uchun ham ijtimoiy hisob-kitoblarning zaruriyati ana shunga misol bo'la oladi.

Milliy iqtisodiyot jarayonlarini baholashga makroiqtisodiy yondashuv uni barqarorlashtirish, milliy valyutamizni mustahkamlash, kapital qurish dasturi, iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan yangilanish yo'lini davom ettirish rejasini yangilash, qonunchilik yoki huquqiy tartibni mustahkamlashdan iboratdir.

Respublikamizda iqtisodiyotning asosini tashkil etuvchi ishlab chiqarish sohasiga alohida e'tibor berilmoxda. Ushbu sohaning eng asosiy tarmog'i sanoatning an'anaviy rivojlangan turlari qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati kabilar bilan bir qatorda mutlaqo yangi sanoat sohalarini tashkil etish zarur.

Davlatimiz nisbatan katta hududga ega va uning geografik o'rni ham alohida xususiyatlarga molik. Bu holat qurilish va transportni ham jadal sur'atlar bilan rivojlantirish vazifasini qo'yadi. Yalpi ishlab chiqarish maydonlarini, uy-joy, madaniy-maishiy muassasalar, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarining mustaqil moddiy-texnik poydevorini yaratish qurilish sohasining mazmunini tashkil etadi.

Mintaqaviy iqtisodiyotning mavqeい darajasi ularni qo'llab-quvvatlashga bog'lik bo'ladi. Bu qo'llab - quvvatlash hududlarda ilmiy - texnik tashkilotlarni tashkil etish uchun qaror qabul qilish, shuningdek, turli hududlararo va hududlar ichida shu hududning ilmiy-texnik rivojlanishiga oid ko'rsatkichlar tizimini solishtirish orqali yuz beradi. Bu tizimga quyidagilar kiradi:

- hudud ilmiy-texnik sohasining mehnat potensiali;
- hududning ilmiy-texnik va ishlab chiqarish – texnik jihozlanishi;
- hududni bilim talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilganlik darajasi, ishlab chiqarish - texnik maqsadlarga mo'ljangan mahsulotlar sifati, uning eksport imkoniyatlari;
- hudud ilmiy-texnik potensialining tuzilishi.

Mintaqaning ilmiy-texnik sohasi potensiyali ko'rsatkichlari quyidagilarni aniqlaydi:

- xududni takror ishlab chiqarish imkoniyatlari;
- ilmiy-pedagogik kadrlarni rivojlantirish darajasi (professor, o'qituvchilar tarkibi);
- hudud aholisining umumiy ma'lumot darajasi;

- hududda ilmiy mehnat potensiali konsentratsiyasi darajasi.

Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mintaqaviy siyosatning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bu borada ko'zlangan asosiy maqsad mamlakat va uning mintaqa (hudud)lari raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish quyidagilarga yo'naltiriladi:

- mamlakat va uning mintaqalarini xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashuvini ta'minlash, mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarini mintaqa va hududlar bo'yicha oqilona joylashtirish, ularning o'zaro aloqadorligini, ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvini ta'minlash orqali mamlakat va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga, barqaror va mutanosib iqtisodiy o'sishga erishish;

- mintaqalar infratuzilmalarini rivojlantirish;

- mantaqalarda ishlab chiqarish sohalarining raqobatbardoshligini oshirish;

- mintaqalar rivojlanishidagi farqlarni qisqartirish.

O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishida mintaqalarning o'rni so'ngi yillarda sezilarli darajada oshdi. Mintaqalarning iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan maqsadli milliy va mintaqaviy iqtisodiy dasturlar amalga oshirilmoqda.

## **2.4. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashdagi asosiy vazifalari**

Oxirgi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida davlatning roli va ishtirokini qisqartirish, iqtisodiyot tarmoqlarini boshqarishga bozor tamoyillari va mexanizmlarini keng joriy qilish, shuningdek aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, iqtisodiyotning o'zgarishi sharoitida mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asoslangan maqsadli yo'nalishlarini (indikatorlarini) shakllantirish, shuningdek mavjud ichki va tashqi omillarni hamda islohotlarning strategik ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini aniqlash tizimi joriy etilmoqda.

Iqtisodiyotning mintaqaviy va tarmoq taraqqiyoti, shu jumladan urbanizatsiya salohiyatini amalga oshirish orqali mutanosiblikni ta'minlash uchun ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish tizimi shakllanmoqda.

Bozor tamoyillarini keng joriy etish, mahalliy ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, bozorni raqobatbardosh tovarlar bilan to‘ldirish va ularni tashqi bozorlarga yo‘naltirish hajmlarini oshirish bo‘yicha zarur tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Natijada, barqaror ishchi o‘rniali yaratish darajasi oshmoqda, aholini, ayniqsa qishloq aholisini barqaror daromad manbai bilan ta’minlash choralar ko‘rilmoxda va sifatli inson kapitalini rivojlantirish amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat samaradorligini tubdan oshirish, mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish “lokomotiviga” aylantirish, iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmlarini joriy etish maqsadida, shuningdek 2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga asosan belgilangan vazifalarni inobatga olgan holda mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda quyidagi asosiy yo‘nalishlarni amalga oshirish ustuvor hisoblanadi:

- mintaqaviy iqtisodiy indikatorlarni tahlil qilish va prognozlash asosida mintaqqa iqtisodiyotini boshqarishning bozor mexanizmlarini joriy etish va iqtisodiyotning real sektori holati, tashqi bozorlari kon'yunkturasi hamda global va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari bilan bog‘liq holda mintaqqa iqtisodiyotining asosiy sohalarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish;

- mintaqada xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va “xufyona” iqtisodiyot ulushini qisqartirish uchun qulay sharoit yaratish, jumladan iqtisodiy jarayonlarda davlat ishtirokini qisqartirish, byurokratik to‘sislarni bartaraf etish, moliyaviy va ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish qulayligini ta’minlash, shuningdek mintaqalarda kichik sanoat zonalarini tashkil etish va ularning salohiyatidan samarali foydalanish;

- milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va diversifikatsiya qilishni, shuningdek mintaqalar va tarmoqlarni rivojlantirish uyg‘unligini ta’minlash maqsadida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish, mintaqalarning mavjud tabiiy va

iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanish asosida milliy sanoatni rivojlantirish strategiyalarini (modellarini) ishlab chiqish;

- mintaqalarda innovatsion ishlanmalar va texnologiyalarni joriy qilish, mehnat samardorligini oshirish, ishlov berish tarmoqlarini jadal rivojlantirish va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish asosida tovar bozorlari muvozanatini ta'minlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- mintaqaning eksportbop mahsulotlarini ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgan sanoat siyosatini amalga oshirish, ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni chuqurlashtirish asosida mintaqaning importga qaramligini kamaytirish orqali mintaqa iqtisodiyotining eksport salohiyatini oshirish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda mintaqa va xorijiy davlatlar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini kengaytirish;

- mintaqaning urbanizatsiya sohasida davlat siyosatini kuchaytirish, ishlab chiqarishlarni oqilona joylashtirish, turar joylarni muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilma bilan birgalikda qurishni inobatga olgan holda urbanizatsiya jarayonlarini davlat tomonidan samarali tartibga solishni ta'minlash, shuningdek yer uchastkalariga oid zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish;

- mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, mintaqa iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, sanoat salohiyatini mustahkamlash va mintaqalarni kompleks rivojlantirish maqsadida investitsiyalarni jalg qilish sohalari va tarmoqlarini aniqlash orqali mintaqaning faol investitsiya siyosatini ishlab chiqish;

- mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish va uning raqobatdoshligini oshirishning asosiy resurslari va omillaridan biri sifatida inson kapitalining darajasi va sifatini, ustuvor ravishda mintaqaning qishloq joylarida, yaxshilash bo'yicha kompleks tahlil olib borish va chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

- mintaqa iqtisodiyotining barcha soha va tarmoqlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishini ta'minlash, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

- mintaqada mahalliy va Davlat byudjeti hamda maqsadli jamg‘armalar mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan mintaqaviy loyihalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish;

- mintaqani rivojlantirishning davlat va mintaqa dasturlari va investitsiya dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish;

- mintaqalarda sanoatni rivojlantirish bo‘yicha aniq maqsadga qaratilgan hududiy dasturlarni ishlab chiqish hamda ushbu dasturlar ijrosini nazorat qilish;

- mintaqalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalg etish bo‘yicha belgilangan dasturlar asosida import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish;

- mintaqaning yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish va qishloq xo‘jaligi ekinlarini maqbul joylashtirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish, urug‘chilik va seleksiya ishlarini rivojlantirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni va suvdan tejamkor foydalanish usullarini joriy etish, yerkarning meliorativ holatini yaxshilash;

- mintaqalarda klaster asosida xom-ashyoni, shu jumladan paxta, meva-sabzavot, parrandachilik, baliqchilik va go‘sht-sut mahsulotlarini chuqur qayta ishlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

- mintaqalarda muhandislik, yo‘l-transport va kommunikatsiya infratuzilmalarini rivojlantirish, transport xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, uy-joy communal xizmatlar ko‘rsatish darajasi va sifatini tubdan yangilash, sanitariya tizimlarini yaxshilash va aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash ishlarini muvofiqlashtirish;

- mintaqalarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan orqada qolayotgan tuman va shaharlarda sanoat va xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish, ularning tabiiy boyliklari, geografik joylashuvi, mehnat resurslari va boshqa salohiyatidan samarali foydalanilishini hamda bu borada kompleks dasturlarning amalga oshirilishini ta’minlash;

- mintaqalar aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, shu jumladan mintaqalarda ishsiz aholini, ayniqsa, yoshlarni doimiy mehnatga jalg etish, turmush darajasi va sifatini oshirish, yashash sharoitlarini yaxshilash, tibbiyat, ta’lim va xizmat ko‘rsatish sohalarini

rivojlantirish bo‘yicha ko‘rيلотган чора-тадбирларни доимий мониторинг қилиш ва о‘заро мувоғиqlashtirish.

Mazkur asosiy yo‘nalishlarni amalga oshirilishi mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash imkoniyatlarini kengaytiradi va milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashdagi ustuvor maqsadlarga erishish imkonini beradi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Xavfsizlik, milliy xavfsizlik, shaxs manfaati, jamiyat manfaati, davlat manfaati, milliy iqtisodiyot, makroiqtisodiy yondashuv, urbanizatsiya, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. “Iqtisodiy xavfsizlik”ning davlat milliy xavfsizligini ta’min etishdagi o‘rnini tushuntirib bering?
2. “Xavfsizlik” tushunchasining ko‘p qirraligini tavsiflang?
3. Xavfsizlikni sohalar bo‘yicha tushuntirib bering?
4. Milliy xavfsizlikning turli manfaatlarni himoya qilishini asoslab bering?
5. O‘zbekiston Respublikasida milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash siyosatini amalga oshirishda huquqiy asoslarni tavsiflang?
6. Milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashning davlat siyosati o‘z oldiga qanday maqsadlarni quyadi?
7. Milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda qanday asosiy vazifalar belgilangan?
8. Milliy va mintaqaviy iqtisodiyot va uning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflab bering?

### **3-BOB. MILLIY VA MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIK NAZARIYASINING MOHIYATI, MAZMUNI VA KONSEPTUAL ASOSLARI**

#### **3.1. Milliy xavfsizlik va mintaqaviy xavfsizligi ob'yekti, subyekti va predmeti**

Iqtisodiy fanlar orasida “Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik” kursining o‘rni beqiyos salmoqlidir. Barcha iqtisodiy fanlar iqtisodiyotning turli jabhalarini o‘rganish, “milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik” xavfsizlikni ta’minlashning yagona bir tizim sifatida yoritadi. Milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashdagi jarayonlarni o‘rganish, ularni tahlil qilish, kelgusidagi rivojlanishini takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatish va iqtisodiyotni tartibga solishni bevosita shu fan o‘rganadi. Nainki bu, balki milliy xavfsizlik va mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik va boshqa xavfsizlik kabi ko‘rsatkichlar tahlili asosida milliy xavfsizlik va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik xususida ham aynan u fikr yuritadi. “Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik” fani mamlakatdagi xavfsizlikni o‘rganadi. Siyosat borasida u xavfsizlikni mohiyatini, shu bilan bir qatorda xavfsizlikni ta’minlash yo‘llarini ko‘rsatadi. Iqtisodiy xavfsizlikni tartibga solishda xavfsizlik tizimi orqali tartibga solishni ko‘rsatib, xavfsizlik faoliyatining ahamiyatini ochib beradi.

Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash quyidagi vazifalarni yoritish ko‘zda tutilgan: milliy va minqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash tizimi, xavfsizlik ko‘rsatkichlariga erishish, xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida xavfsizlikni tartibga solish, xavfsizlikning tashqi va ichki omillarini tartibga solish muammolari, konsepsiya va prognozlashtirish ishlarini tashkil qilishdan iborat. Bundan tashqari xavfsizlikni milliy iqtisodiyotning asosiy muammolaridan biri bo‘lgan xavfsizlik darajasi va dinamikasini aniqlash ham muhim hisoblanadi. Tarkibiy tuzilishini nazarda tutganda, albatta xavfsizlikni vujudga keltiruvchi omillar ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyotning turli subyektlariga tegishli bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: milliy xavfsizlikning subyekti: davlat organlari, jamoat tashkilotlari, xo‘jalik

yurituvchi subyektlar va mamlakat aholisi tashkil etadi. Milliy xavfsizlik subyektlari xalqaro maydonda o‘z qiziqishlari va maqsadini amalga oshirish borasida ishtirok etadi. Mintaqaviy xavfsizlikning subyektini hududiy hokimiyatlar tashkil etadi.

Milliy va mintaqaviy xavfsizlikning obyekti esa:

- aholining ehtiyojlarini qondirish va turmush farovonligiga erishish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar;

- jamiyatning intelektual salohiyati, moddiy boyliklari, ma’naviy-ahloqiy, atrof muhit, axborot makoni;

- ishlab chiqarish, ijtimoiy, ekologiya sohasi bilan bog‘liq tizimlar;

- davlat mustaqilligi, ijtimoiy vazifalarning echimi, milliy iqtisodiy o‘sish va samaradorlikni ta’minlovchi iqtisodiy kompleks, hududlar hisoblanadi.

“Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik” fanining predmetiga yuqorida qisqacha izoh berib o‘tildi. U xavfsizlikni yagona tizim sifatida o‘rganadi. Mamlakatning milliy va mintaqaviy xavfsizligini ta’minalashning har bir tarmog‘ida xavfsizlik, tartibga solinishi va ularning doimiy xavfsizligini ta’minalash yo’llarini o‘rganish ana shular jumlasiga kiradi.

### **3.2. Milliy xavfsizlik konsepsiysi**

O‘zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishi mavjud xavflar tabiatini qanchalik tug‘ri tushunish, ularning manbalari va o‘zaro bog‘lanishini vaqtida aniqlash, jamiyatdagи barqarorlikni saqlash sharoitlarini aniqlashi va ulardan samarali foydalanishga bog‘liq. Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida hayot faoliyatining hamma sohalarida sifatli o‘zgartirishlar qilish toqazo etiladi. Ular Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan belgilangan yangilanish va taraqqiyot yuliga asoslangan prinsipial usullarga asoslanadi.

Respublikamizda mustaqillikning ilk kunlaridanoq milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik muammosi alohida keskinlik va dolzarblik kasb etdi. Bu “milliy xavfsizlik” tushunchasining juda murakkabligi bilan bog‘liqdir. An’anaviy yondashish va usullar iqtisodiy xavfsizlikning tuliq tavsifini bermaydi, demak iqtisodiy

munosabatlar barqarorligini saqlashning amaliy va avvaldan aytib berish mumkin bo‘lgan yullarini ko‘rsatmaydi. Ammo, shuni aytish kerakki, milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash O‘zbekistonda jamiyat xayotining hamma sohalarini isloh qilishning maqsadi va shartidir. Bu yunalishda amaliy qadamlar quyilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev boshchiligidagi milliy xavfsizlik kengashi, shuningdek, davlat xavfsizlik xizmati, milliy gvardiya, iqtisodiy rivojlanish vazirligi, boshqa turli xil xavfsizlikni ta’minlovchi davlat organlari faoliyati milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash buyicha muayyan asosga ega.

O‘zbekiston uchun milliy xavfsizlik keng ma’noda nimani anglatadi, bu xavfsizlikni qanday tushunamiz? Birinchidan, O‘zbekiston xavfsizligi bo‘linmaslik to‘g‘risidagi asosiy prinsiplarga amal qilishi, uni xar tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi. Xavfsizlik - uzluksiz holat, uning chegarasi yuq; Ikkinchidan, “sovuq urush” tomom bo‘lganidan so‘ng umumiy xavfni etnik, mintaqaviy, tarmoq nizolar va davlatlar ichidagi jangovar separatizm olib keladi. Ayniqsa agar bunday qarama-qarshi turushlar, ularning o‘z manfaatlari va ta’sir zonalarini saqlab qolish va himoyalash uchun yoki ularning foydasiga kuchlarning strategik balansini o‘zgartirish uchun alohida olgan mamlakatlar qulida siyosiy ta’sirning baqquvat quroli bo‘lib qolsa; Uchinchidan, O‘zbekiston o‘zining geosiyosiy holatiga kura, xavfsizlik tizimi tartibga solinmagan mintaqada joylashgan, u ham xavf tug‘dirish sababi bo‘ladi; To‘rtinchidan, mintaqalarda nizolar ko‘pincha terrorizm, narkobiznes va qurol-yaroqning noqonuniy savdosi, inson huquqining ommaviy buzilishi kabi chegara bilmas xavfli tahdidlar va chiqishlarning turg‘un manbaiga aylanmoqda; Beshinchidan, xalqaro munosabatlar amaliyotida har qaysi mustaqil mamlakatning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda uning mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash maqsadida, u yoki bu xalqaro tuzumlar va jamoa xavfsizlik kelishuvlarida ishtiroki darajasini aniqlash huquqi kuzda tutilgan bo‘lishi kerak; Oltinchidan, ekologik va yadro xavfsizligi muammolariga alohida e’tibor berilishi lozim.

Mamlakatning milliy xavfsizlik holatini ta’minlashda turli darajadagi tarkibiy siyosatni amalga oshirish lozim bo‘ladi. Buning uchun davlat hokimiyat organlari milliy xavfsizlikni ta’minlash uchun ma’lum tarmoq va sohalarni selektiv qo‘llab-quvvatlashi kerak bo‘ladi.

Milliy xavfsizlikni ta'minlashning makro darajasidagi tarkibiy siyosatni amalga oshirish jarayonlarida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- jami talabni oshirish;
- jamg'arish normasini o'stirish va uni investitsiyaga aylanishini ta'minlash;
- rivojlanishdan to'xtab qolgan tarmoqlardagi barcha turdag'i resurslarning rivojlanayotgan sektorlarga oqib o'tishini rag'batlantirish;
- yalpi investitsiyalarni ko'paytirish;
- eksportni rag'batlantirish;
- umum qabul qilingan tartib qoidalar doirasida milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida importni tartibga solish.

Milliy xavfsizlikni ta'minlashning mikro darajasida tarkibiy siyosatni amalga oshirish jarayonlarida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- iqtisodiy nuqtai-nazardan samarali korxona va ishlab chiqarishlarning rivojlanishini rag'batlantirish hamda qo'llab-quvvatlash;
- samarasiz ishlab chiqarishlar va korxonalarini tugatish yoki reorganizatsiya, ya'ni qayta tashkil etish;
- yangi monopolistik tuzilmalarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik;
- tarmoqlararo kapital oquvchanligini ta'minlash maqsadida fond bozorining rivojlanishini tartibga solish va rag'batlantirish;
- narx o'sishini to'xtatish chora-tadbirlarini ko'rish;
- iqtisodiy subyektlar xatti-harakatining bozorga xos normalarini joriy qilishni rag'batlantirish.

Iqtisodiy nuqtai-nazaridan milliy xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim tarmoqlar qatoriga yoqilg'i, energetika, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi, agrosanoat majmuasining boshqa tarmoq va sohalari, shu jumladan, oziq-ovqat sanoati, transport va aloqa kiradi. Ushbu strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirish orqali, birinchidan, energetika va oziq-ovqat mustaqilligiga erishiladi, ikkinchidan, jahon bozorlariga, resurslarning xalqaro manbalariga chiqish uchun transport yo'llariga ega bo'linadi.

Ilmiy texnika salohiyatini saqlash, qo'llab-quvvatlash, rivojlan-tirish va undan samarali foydalanish mamlakatning iqtisodiy, xarbiy mudofaviy xavfsizligini ta'minlashning muhim strategik yo'nalishi hisoblanadi. Shu bois, mamlakatni ilmiy texnikaviy rivojlantirishning uzoq muddatga mo'ljallangan davlat konsepsiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada, eng avvalo, yaqin istiqbolli davr uchun fan texnika siyosatining ustuvorliklarini aniqlash lozim bo'ladi. Fanni mamlakatning eng muhim strategik ustuvorligi deb tan olib, uni qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirish, olimlarni moddiy ta'minlash va rag'batlantirish bo'yicha tegishli siyosatni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatda milliy xavfizlikni ta'milashda ijtimoiy ziddiyaht-larning oldini olish hamda ijtimoiy siyosiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan davlatning ijtimoiy siyosati muhim ahamiyatga molikdir. Ijtimoiy siyosat aholining turmush darajasini oshirish, fuqarolarning iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun sharoitlar yaratish, aholining pul daromadlarini ko'paytirishga ham yo'naltiriladi.

Aholining turli tabaqalarga, ya'ni boy, o'rtahol va kambag'al qatlamlarga ajralishi kuchayadi. bu jarayonning tez va keskin yuz berishi beqarorlik omiliga, ijtimoiy ziddiyat va keskinliklarni tug'duruvchi tahdidiga aylanadi. Aholining eng boy va eng kambag'al qatlamlari o'rtasidagi farqning nihoyatda kattalashib ketishi o'rta tabaqa, sinf amalda mavjud bo'limgan sharoitda iqtisodiy tahdidni vujudga keltiradi.

O'tish davrida davlat kam ta'minlangan aholi qatlamlarini kuchli ijtimoiy himoya qilish, daromadlarniadolatli qayta taqsimlash orqali jamiyatning keskin qarama-qarshi qutblarga ajralib ketishiga yo'l qymaslikka harakat qiladi. Bularning barchasi ijtimoiy tahidlarning salbiy ta'sirini yumshatishda muhim o'rin tutadi.

Har bir mamlakatda ba'zi mintaqalari rivojlangan, ba'zilari esa unchalik rivojlanmagan bo'ladi. Mintaqaning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi farqlar, ularga ishlab chiqaruvchi kuchlar-ning nomutanosisib joylashuvi oqibatida vujudga keladi. Bu farqlar oqibatida aholi daromadlari va turmush darajalarida ham hududiylar farqlar vujudga keladi. Natijada, aholi o'rtasida mamlakat ichki migratsiyasi yuz beradi.

Ijtimoiy iqtisodiy tahdidning kelib chiqishini oldini olish maqsadida aholining ichki migratsiyasi, ya’ni iqtisodiy nochor hududlardan aholining ahvoli yaxshi hududlarga oqib o’tishini cheklash, tartibga solish chora-tadbirlari amalga oshiriladi. Aholining ichki migratsiyasini tartibga solish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- yangi o‘zlashtirilyotgan, istiqbolli hududlarga ko‘chib boruvchilar uchun qo‘srimcha imtiyozlar va ijtimoiy kafolatlar belgilash, joriy qilish, iqtisodiy ijtimoiy nochor, qoloq hududlardan aholining chiqib ketishini to‘xtatish uchun ularga ham qo‘srimcha imtiyoz va rag‘batlar berish;

- turli hududlardan ko‘chib kelgan migrantlarni ish bilan ta’milash, joylashtirish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish;

- qishloq joylarida aholining mustahkam qo‘nim topib yashashi uchun zarur huquqiy va ijtimoiy iqtisodiy baza yaratish, sanoatni qishloqqa olib kirish orqali, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish natijasida qishloq xo‘jaligida bo‘sh qolgan ortiqcha ishchi kuchi uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish.

Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalash uzoq muddatli, strategik vazifa hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalash davlat strategiyasi, ya’ni doktrinasi amal qiladi. Ushbu davlat strategiyasi oliy milliy davlat manfaatlariga javob bera olishi kerak.

Iqtisodiy xavfsizlik davlat strategiyasida erishiladigan pirovard maqsad va uni amalga oshirish bosqichlari o‘z ifodasini topishi lozim. Bu erda shuni aytib o’tish lozimki, o’tish davrida iqtisodiy tahidlarning ko‘pligi va keskinligi, birinchi navbatdagi zaruriy chora tadbirlarni amalga oshirishga katta e’tibor berishni toqazo etadi. Shu davrda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalashning kafolati bo‘lgan davlatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- xavfsizlikni ta’minalash bo‘yicha xo‘jalik va siyosiy xarakterdagi qarorlarni qabul qilish;

- ijtimoiy jarayonlarni boshqarish mexanizmiga tahidlarning paydo bo‘lganligi to‘g‘risida signal beruvchi indikatorlarni kiritish;

- iqtisodiy tahidlarni yumshatish, bartaraf etishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishni amalga oshirish.

Mamlakatimizning milliy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiysi doimo uzoq muddatli milliy davlat manfaatlariga asoslanadi. Boshqacha aytganda, mazkur konsepsiya mamlakatning kelajagi to‘g‘risidagi tasavvurga, islohotlar natijasida vujudga keladigan ijtimoiy iqtisodiy modelga, shuningdek, barqaror, mustahkam rivojlanish strategiyasiga bog‘liq bo‘ladi.

### **3.3. O‘zbekiston hududlarida institutsional tizim**

Har qanday hududlarda institutsional muhitni tashkil etuvchi ma’lum bir institutlar faoliyati o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Vaqt o‘tishi bilan ushbu institutlar va ularning tarkibiga kiruvchi aksariyat huquqiy-institutsional normalar hamda mexanizmlar hudud taraqqiyotining ichki talablari va tashqi omillar ta’sirida “eskiradi” hamda rivojlanishga to‘siq bo‘lib qoladi. Shu jihatdan olganda institutlar va institutsional normalar shakllanishi va takomillashib borishi qonuniyatlarini bilish hudud va uning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi rivojida muhim o‘rin tutadi.

Tahlillarning ko‘rsatishicha, ko‘plab xorijiy mamlakatlarda institutsional omillarning davlat va hudud rivojlanishidagi rolini oshirish, ularning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini tahlil qilish va barqarorlashtirishning muhim vositalaridan biriga aylantirish bo‘yicha keng va chuqur nazariy, ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilayotgani kuzatilmogda. Masalan, Rossiyada ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni isloh qilishning institutsional yo‘nalishlarini ishlab chiqish, iqtisodiy o‘sish uchun jozibali institutsional muhit yaratish, korporativ tuzilmalarni institutsional rivojlantirish va shu kabi boshqa yo‘nalishlarda ilmiy-amaliy vositalar yaratilgan bo‘lib, ular amalda yuqori samarasini bermoqda. Dunyoning boshqa davlatlarida ham hududlarda institutsional cheklowlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo‘llarini asoslash bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini o‘z ichiga olgan strategik harakatlar negizida amalga oshirilayotgan iqtisodiy va institutsional islohotlar jarayonida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida mutlaqo yangi institutlar yaratildi. Shuningdek, xo‘jalik faoliyatining yuritilishi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi

rasmiy va norasmiy normalarni o‘z ichiga oluvchi institutsional muhit shakllantirildi. Ushbu muhit hudud iqtisodiyoti rivojini belgilovchi umumiyl institutsional model sifatida mulkchilik, ishlab chiqarish va taqsimot munosabatlariga hamda yangicha boshqarish tizimini barpo etishga, moddiy, tabiiy, mehnat va boshqa resurslardan samarali foydalanishga, iqtisodiy o‘sishga kuchli ta’sir ko‘rsatidi.

Albatta, hududlarning o‘rtaligida istiqbolda iqtisodiy rivojlanishning barqaror o‘sish sur’atlarini saqlab qolish hamda aholi turmush sifatini yuksalib borishga salbiy ta’sir etuvchi jihatlar namoyon bo‘lishini bilish muhim hisoblanadi. Shularni hisobga olganda, hududlarda shakllangan institutsional muhit sifatining va undagi o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini baholash hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiruvchi institutsional normalarni takomillashtirish o‘ta dolzarb vazifa hisoblanadi. Buning uchun mavjud institutsional normalar va mexanizmlarning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligini, ular o‘rtasida yuzaga kelgan nomutanosibliklarni, uzilishlarni aniqlash va yangi yoki tarkibiy jihatdan takomillashgan institutlar, institutsional qoidalar va mexanizmlarni asoslashni zarurat etadi.

Hozirgi kunda ayrim shakllangan, kundalik hayotda foydalanilayotgan, ammo takomiliga etmagan, nisbatan murakkab bo‘lgan institutlar mamlakatimizning barqaror rivojlanishiga xalaqit berayotgan to‘siqlardan hisoblanadi. To‘g‘rirog‘i, ular orqasida yashirinib turgan aniq tarkibga ega, mutanosib, qarama-qarshiliklarsiz institutlarni amalga kiritish iqtisodiy o‘sishga yangi turtki beradi, o‘zaro iqtisodiy munosabatlarni tezlashtiradi va soddalashtiradi, xalqaro maydonda O‘zbekistonning obro‘sini yanada oshiradi.

Ammo har qanday yangi institut yoki institutsional normalar, qoidalar tezda paydo bo‘lmaydi yoki ularni amalga kiritish birdan yuz bermaydi. Aksincha, ayrim institutlar qanchalik jozibali bo‘lmisin, ularni qonunchilikka kiritish hamisha ham maqsadga muvofiq hisoblanmaydi yoki bunday harakat rivojlanishga to‘siq bo‘lib, mavjud hududiy institutsional mutanosiblikni buzishi mumkin. Shularni hisobga olganda, O‘zbekiston hududlarida islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyiliga amal qilgan holda, o‘zini oqlagan huquqiy institutsional norma va mexanizmlarni taraqqiyotning strategik maqsadlariga muvofiq takomillashtirish talab etiladi.

Institutsional nuqtai-nazardan qaralganda, davlat va hududning asosiy funksiyalaridan biri xususiy mulk huquqini himoya qilish hisoblanadi. Xususiy mulk – iqtisodiy raqobatni harakatga keltiruvchi asosiy kuch hamda iqtisodiy o’sishni, yangi ish o’rinlarini yaratishning samarali mexanizmidir. Shu bois mulkchilik munosabatlarida institutsional normalar ta’sirini baholash, xususiy mulk huquqini himoya qilish va shartnomalar bajarilishida davlat kafolatining institutsional mexanizmlarini takomillashtirish zarurdir. Xorijiy investitsiyalar va investorlarni himoya qilish, turli tadbirkorlik shakllari rivojlanishini qo’llab-quvvatlash va ularni rag’batlantirish institutlari, institutsional normalari hamda mexanizmlari shular jumlasiga kiradi.

Islohotlarning hozirgi bosqichida O’zbekiston iqtisodiyotining institutsional tarkibi va uning iqtisodiy o’sish uchun zaruriy sharoitlar (imkoniyatlar) yaratishdagi rolini baholash, iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta’sir etayotgan institutsional cheklovlarini aniqlash ham muhim hisoblanadi. Shuni hisobga olib, hududlarda yirik korporativ tuzilmalar (korxonalar) rivojlanishida institutsional omillarni tahlil qilish va institutsional cheklovlarini bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish zarur.

Raqobat sharoitida iqtisodiy o’sish ko‘p jihatdan transaksiyalar bajarilishiga va ular uchun sarflanayotgan xarajatlarga bog‘liq. Bu boradagi muammo yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar nazariy tasnifga ega bo‘lib, ularda transaksiya xarajatlarining amaliy jihatlari hisobga olinmagan. Shuning uchun bozor tuzilmalarida transaksiya xarajatlarini optimallashtirishning yo‘llari va institutsional mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ustuvor mavqega ega. Shundan kelib chiqib, kichik biznes faoliyatini, ayniqsa, uning oilaviy tadbirkorlik shaklini institutsional rivojlantirish bosqichlari samaradorligini baholash hamda ularning istiqbolda iqtisodiy o’sishni ta’minlashdagi rolini oshirishning institutsional-huquqiy normalari va mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-tadqiqotlarni kengaytirish lozimdir.

Qayd etish kerakki, hududlarda institutsional muhitning hozirgi holati, uning tarkibiy tuzilishi hamda iqtisodiy o’sish sur’atlarining kutilganidan ortda qolishining institutsional sabablarini aniqlash,

shuningdek, yangi qiymat yaratishga yo‘naltirilgan investitsiyalarning YaIMga nisbatan o‘sish sur’atlari va samaradorligining statistik bog‘liqligi ekonometrik modellarga institutsional omillarni kiritish orqali baholash talab etiladi. Shu bilan bir vaqtida, ijtimoiy-iqtisodiy tizim barqaror rivojining asosiy omili sifatida inson kapitalini shakllantirish va undan foydalanish, professional ta’lim institutini rivojlantirish normalarini ishlab chiqish lozim.

Umuman olganda, istiqbolda hududlar iqtisodiyotini institutsional rivojlantirishni ta’minalashdagi yuqorida qayd etilgan muammolar ushbu yo‘nalishlarda keng miqyosda ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish zarurligini ko‘rsatmoqda.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Innovatsion iqtisodiyot, milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik, obyekt, sub’ek, makro daraja, mikro daraja, kichik biznes, tarkibiy siyosat.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalashning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyotning subyektlari nimalardan iborat?
3. “Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik” fanining predmetini tavsiflang?
4. O‘zbekiston uchun milliy xavfsizlik keng ma’noda nimani anglatadi?
5. Mamlakatning milliy xavfsizlik holatini ta’minalash darajasini tavsiflang?
6. Milliy xavfsizlikni ta’minalashning makro darajasidagi tarkibiy siyosat nimalardan iborat?
7. Mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rnini tushuntiring?
8. Istiqbolda hududlar iqtisodiyotini institutsional rivojlantirishni ta’minalash muammollari nimalardan iborat?

## **4-BOB. MILLIY VA MINTAQAVIY XAVFSIZLIK TIZIMINING TUZILISHI. MILLIY VA MINTAQAVIY XAVFSIZLIK TURLARI**

### **4.1. Davlat va shaxs, jamiyat xavfsizligi muammolarini bilish evolyusiyasi**

Davlat va shaxs, jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni keng tushunishlik uchun avval, davlat o‘z mohiyatiga ko‘ra qanday tuzilma ekanini va yaralish tarixini ko‘rib chiqamiz.

Qadimgi ajdodlarimiz jamoalarga birlasha boshlaganlarida, ular o‘zaro ahil yashash va taraqqiy etish uchun umumiyligini qoidalarni joriy qilganlar. Jamoa ichida mehnat taqsimoti yuzaga kelgan va jamoa yashab qolishi uchun tegishli qoidalari o‘rnatalgan. Hamma amal qilishi kerak bo‘lgan qoidalari joriy qilinishi bilan birga, ana shu umumiyligini qoidalarga bo‘ysunishni istamaydiganlar paydo bo‘lgan. Umumiyligini qoidalarga tayanib, bir maromda kechib borayotgan jamoa hayotiga tahdid beradigan harakatlar qiladigan bunday a’zolarni tartibga chaqirish ehtiyoji paydo bo‘lgan. Shunda jamoa orasidan baquvvat a’zolar qoidaga bo‘ysunmaganlarni kuch ishlatib bo‘lsa ham tarbiyalashni, tarbiya kor kelmasa qoida buzarni jazolash yoki jamoadan haydashni o‘z zimmalariga olganlar. Vaqt kelib, bu kuchli a’zolar guruhi jamoani boshqa qabilalardan himoya qilishga ham javobgar bo‘lishgan. Ichki tartib va jamoa xavfsizligini ta’milaganliklari evaziga bu kuchlilar guruhini butun jamoa o‘z mehnati hisobidan boqqan va kiyintirgan. Eng soda ko‘rinishda davlat xavfsizligi ana shunday vujudga kelgan.

Yashab qolish uchun ichki tartib va xavfsizlikni ta’minalash uchun tuzilgan askar guruhlar ilk davlatda xavfsizlikni ta’minlovchi odamlaridir. Keyinchalik, ularni oziq-ovqat, kiyim-bosh va boshpana bilan ta’minalashga mas’ul tuzilmalar ham yuzaga kelgan. Jamoaning yillik hosilidan va ov o‘ljalaridan askarlarga tegishli ulushini ajratib olish, bu zaxiralarni saqlash va askarlarga etkazishga javobgar a’zolar (ilk soliqchilar) ham ibtidoiy davlat xodimlariga aylanishgan.

Shu tarzda davlat tuzilmasi asta-sekin kengayib, murakkablashib borgan. Jamiyatning yangi va yangi ehtiyojlarini qoplash uchun davlatning shu ehtiyojlarga javobgar bo‘limlari shakllanib borgan. Shu

bilan birga, u yoki bu sohani tartibga solishga hamma uchun majburiy qoidalar keyinchalik esa qonunlar ta'sis etila boshlangan.

Davlat va shaxs, jamiyat xavfsizligi muammolarini bilish evolyusiyasida davlat xavfsizligi, shaxs xavfsizligi va jamoat xavfsizligi tushunchalarini bilish ham muhim hisoblanadi.

Davlat xavfsizligi – O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining, suverenitetining, hududiy yaxlitligining va boshqa davlat manfaatlарining tashqi hamda ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishini hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi.

Davlat manfaatlari (O‘zbekiston Respublikasining davlat manfaatlari) – jamiyatda qonun ustuvorligini, xavfsizlik va barqarorlikni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishni ta’minlashga bo‘lgan davlatning anglanilgan ehtiyojlari.

Insoniyat jamiyatining barcha bosqichlarida inson, shaxs xavfsizligi muhim masala hisoblangan. Ammo har bir bosqichda bu masala o‘ziga xos mazmun, tavsif va uni hal etishning dastak va usullariga ega bo‘lgan. Hozirgi zamon innovatsion iqtisodiyoti sharoitida shaxs xavfsizligi va uni ta’minlash o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan dolzarb muammoga aylangan.

Inson xavfsizligi konsepsiysi birinchi bo‘lib Pokistonlik mashhur olim Mahbub ul-Haq tomonidan taqdim qilingan bo‘lib, «muhtojlikdan holilik» va «qo‘rquvdan xolilik» sifatida aniqlangan va «ocharchilik, kasallik va tushkunlikdan saqlanish, shuningdek, odatdagi turmush, ya’ni uy, ish yoki jamiyatda kutilmagan va halokatli hodisalardan himoyalanishdir», deb ta’riflangan (BMT Taraqqiyot Dasturi, Inson taraqqiyoti ma’ruzasi, 1994). Ushbu ma’ruzada inson xavfsizligining ettita toifasi sanab o‘tilgan: iqtisodiy xavfsizlik, oziq-ovqat xavfsizligi, salomatlik xavfsizligi, atrof-muhit xavfsizligi, shaxsiy xavfsizlik, ijtimoiy xavfsizlik va siyosiy xavfsizlik<sup>13</sup>.

BMTTD ta’rifiga asosan inson xavfsizligi «muhtojlikdan xolilik», «qo‘rquvdan xolilik» va «o‘z qadr-qimmatini his qilib turmush kechirish» ma’nolarini anglatadi va ularga asoslanib,

<sup>13</sup> Abulqosimov M.H. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning nazariy jihatlari va yo’llari. Iqtisod va Moliya, 2017. - № 5.

xavfsizlik xatarlari bilan bir qatorda rivojlanish va inson haq-huquqlarini hurmat qilish muammolariga asosiy e'tibor qaratiladi.

Inson xavfsizligi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. Qashshoqlikdan xolilik, qo'rquvdan xolilik va o'z qadr-qimmatini his qilib turmush kechirish;

2. Zulmning an'anaviy uslublari doirasidan chiqib ketuvchi yangi tahdidni bartaraf qilish;

3. Xavfsizlikning yangi tizimi faqatgina mamlakat xavfsizligiga qaratilmasligi (insonlarga urg'u berish bilan);

4. Rivojlanish, inson haq-huquqlari va xavfsizlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik;

5. Insonlar uchun xavf-xatar ularning tirikligi (jismoniy ekspluatatsiya, jabr-zulm, ta'qib, o'lim), hayot kechirish (ishsizlik, salomatlik, xavf-xatar, oziq-ovqat taqchilligi va h.k.) va o'z qadrini bilishga (inson haq-huquqlarining cheklab qo'yilishi, tengsizlik, segregatsiya (irqiy kamsitish shakllaridan biri), siqib chiqarish, kamsitish va h.k.) tahdid hisoblanishi mumkinligini anglash;

6. Odamlarning imkoniyatlarini ta'minlaydigan va kengaytiradigan, ularning himoyasini kafolatlaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan ushbu maqsadlarga erishish.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson o'z kelajagi, yaxshi yashash, o'zining turmush darajasining oshib borishi, yashash sharoitlarining yaxshilanishi, tinch, xavf-xatarsiz yashashga umid qiladi va bunga ishonch, kafolat bo'lishini istaydi. Insonning ehtiyojlari, manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, ularni ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiladigan omillardan himoyalanganligi shaxs xavfsizligi deb ataladi. Shaxs xavfsizligi o'z ichiga uning hayoti, salomatligi, erkinligi va shaxsiy daxlsizligi, qadr-qimmati, sha'ni va obro'si, mol-mulkiga qilingan tajovuzlardan himoyalanishni oladi<sup>14</sup>.

Inson xavfsizligining muhim tarkibiy qismlaridan biri uning iqtisodiy xavfsizligi bo'lib, iqtisodiy adabiyotlarda shaxs iqtisodiy xavfsizligi ham keltiriladi. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi uning hayotiy manfaatlari, ya'ni yashash va shaxsiy daxlsizlik, erkin mehnat qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, mulkdor bo'lish, hayotiy iste'mol ehtiyojlarini qondirish, salomatligini saqlash, bilim olish va kasbga ega bo'lish, qariganda ijtimoiy ta'minot olish

<sup>14</sup> Abulqosimov H.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. – T.: Akademiya, 2012. – 83 b.

huquqlarining himoyalanganligini ifodalaydi<sup>15</sup>. Shaxs manfaatlari, xavfsizligiga tahdidlar ko‘p qirrali bo‘lib, ular quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- shaxsning o‘z oldiga noto‘g‘ri maqsadlarni qo‘yishi, uni belgilashda xatoga yo‘l qo‘yishi;
- boshqa, tashqi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar tahdidi;
- ichki ijtimoiy-iqtisodiy tizimda vujudga keladigan tahdidlar;
- tabiiy tavsifdagi tahdidlar.

Inson xavfsizligiga tahdidlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur’atlarining jamiyat ehtiyojlari o‘sishiga nisbatan orqada qolishi, siklik o‘zgarishlar, bozor kon'yunkturasidagi tebranishlar, iqtisodiy inqirozlar, hududlar rivojlanishidagi nomutanosiblikning kuchayishi, tabiiy yoki inson, kapital resurslarining etarlimasligi, jamiyatda urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi, tashqi atrof-tabiiy muhitning zararlanishi yoki yomonlashuvi hamda ma’lum ijtimoiy harakatlar tufayli vujudga keladi. Tahdidlar, shuningdek, turli davlatlar hamda ular bilan hamkorlik qiluvchi siyosiy va ijtimoiy hamkorlik kuchlari o‘rtasidagi nizo, ziddiyat, qarama-qarshiliklarning kuchayishi sababli ham vujudga kelishi mumkin.

Tahdidlar ichida shaxsga tajovuz, zo‘ravonlik alohida xususiyatga ega. Zo‘ravonlik ma’lum ijtimoiy guruhning boshqasiga nisbatan iqtisodiy yoki siyosiy hukmronlikni saqlash yoki qo‘lga kiritish maqsadida qilingan tajovuz, majburlash hamda jismoniy yoki psixologik ta’sir etishga urinish hisoblanadi.

Ijtimoiy jihatdan zo‘ravonlik inson shaxsini kamsitish, diskriminatsiya qilish, uning erkinligi va huquqlarini cheklash orqali shaxsning hayoti va normal faoliyatiga tahdid solishda namoyon bo‘ladi.

Iqtisodiy sohada inson shaxsiga nisbatan tajovuz reketda, tovlamachilik va firibgarlikda o‘z ifodasini topadi. Shaxsning xavfsizligiga nisbatan jinoiy mazmunga ega tahidlarning yangi shakllari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ma’lum haq evaziga shaxsning mol-mulkini qo‘lga kiritish maqsadida buyurtma asosida shaxsni o‘ldirish, qo‘rqtish, zo‘ravonlik qilish;

<sup>15</sup> Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H. Iqtisodiyot: qisqacha izohli lug‘at. - T.: “Noshirlik yog‘dusi”, 2015. - 291-292 b.

- boyish maqsadida iqtisodiy-tashkiliy jinoyatchilik bilan birikib ketish;

- tovlamachilik maqsadida odamlarga tazyiq o'tkazish, mol-mulkini firibgarlik yo'li bilan qo'lga kiritish.

Shaxs bilan bog'liq tahdidlar ichida ijtimoiy-iqtisodiy tahdidlarni ham ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- Ishsizlik. Ishsizlik kelib chiqishining uch xil sababi va shakli mavjud. Friksion ishsizlik – kishining biron joyga ko'chishi, yuqori haq to'lanadigan, mehnat sharoitlari yaxshi bo'lgan boshqa ishlarga o'tishi yoki boshqa sabablarga ko'ra vaqtincha ishsiz qolishi. Bunday ishsizlik ko'pgina hollarda ixtiyoriy tavsifga ega bo'ladi. Iqtisodiyotda sodir bo'layotgan tarkibiy o'zgarishlar natijasida, ma'lum kasbdagi xodimlarga talab kamayadi yoki bu kasbkorlar yo'q bo'lib ketganligi uchun ularga talab bo'lmay qolganda vujudga keladigan ishsizlik tarkibiy ishsizlikdir. Ushbu ikki ishsizlik shakli tabiiy bo'lib, ularning darajalari tabiiy ishsizlik darajasi hisoblanadi. Siklik ishsizlik esa iqtisodiyotdagi siklik tebranishlar, krizis va tanglik, turg'unlik holatlarining kuchayishi tufayli vujudga keladi;

- kambag'al bo'lib qolish;

- jamiyatda aholining ijtimoiy va mulkiy tabaqalanishi, daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi, kambag'al aholi qatlamlarining ko'payishi, aholi turmush darajasining pasayishi;

- mehnat sharoitlarining yomonlashuvi, ishchi kuchi malakasi va sifatining pasayishi;

- aholi umr uzoqligi, davomiyligining qisqarishi, tug'ilish darajasining pasayishi, o'lim darajasining o'sishi, aholi tabiiy o'sishi sur'atlarining haddan tashqari pasayib ketishi;

- uysiz va ishsiz, daydi kishilar, gadoylar hamda qarovsiz bolalar, lyumpen proletariatning ko'payishi;

- xufyona iqtisodiyot ko'laming kengayishi, poraxo'rlik, korrupsiya, tovlamachilik, uyushgan jinoyatchilikning kuchayishi;

- sog'lijni saqlash, ta'lim, uy-joy communal xizmat ko'rsatish narxlarining haddan tashqari o'sib ketishi va sifatining pasayishi, aholi ko'pchilik qismining davolanish va ta'lim olish imkoniyatlaridan mahrum bo'lishi;

- aholi ayniqsa, yoshlar o'rtasida ommaviy axborot vositalari, internetda madaniy oqartuv tadbirlarida ahloqsizlik, buzg'unchilik,

ma’naviy qashshoqlik turmush tarzining zo‘r berib targ‘ib va tashviqot qilinishi juda xavfli tahdid hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotida shaxs iqtisodiy xavfsizligi uning ishsizlik, bozori kasod (bankrot) bo‘lish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sabablar oqibatida kambag‘al bo‘lib qolishi xataridan saqlanishda ifodalanadi. Kambag‘allik va qashshoqlik inson uchun eng dahshatli xavf hisoblanadi. Kambag‘allik – turmush kechirish, mehnat layoqatini saqlab turish, avlodlar uzviyligini davom ettirish uchun zarur bo‘lgan eng kam ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo‘lman shaxs yoki ijtimoiy guruhlar iqtisodiy ahvolining ko‘rsatkichidir. Kambag‘allik boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy guruh yoki individning hayot uchun zarur bo‘lgan eng kam ehtiyojlarini qondira olmasligining iqtisodiy sharoitini aks ettiruvchi xususiyat hamdir. Kambag‘allik nisbiy tushuncha hisoblanib, har bir jamiyatdagi turmush darajasining umumiyligi standartiga bog‘liq bo‘ladi. Kambag‘allik holati resurslarning uzoq muddat davomida etarli bo‘lmasligini avvalgi jamg‘armalar bilan ham, qimmat tovarlarni xarid qilishdan vaqtincha tejash hisobiga to‘plangan mablag‘ bilan ham qoplash imkoniyati mavjud emasligini ko‘rsatadi. Kambag‘allik sabablari turlicha bo‘lib, ular quyidagi guruhlardan iborat:

- iqtisodiy (ishsizlik, ish haqining kamligi, mehnat unumdarligining pastligi, tarmoqning raqobatbardosh emasligi);
- ijtimoiy-tibbiy (nogironlik, qarilik, kasallanish darajasining yuqoriligi);
- demografik (to‘la bo‘lman oilalar, oilada boqimandalarning ko‘pligi);
- ijtimoiy-iqtisodiy (ijtimoiy kafolatlar darajasining pastligi);
- ta’lim-malaka (ta’lim darajasining pastligi, kasbiy tayyorgarlikning etarli emasligi);
- siyosiy (harbiy mojarolar, majburiy migratsiya);
- mintaqaviy-geografik (mintaqalarning bir xil rivojlanmaganligi).

Shaxs xavfsizligi quyidagi sharoitlar mavjud bo‘lganida real voqealikka aylanadi:

- jamiyat, tabiatga va o‘ziga-o‘zi ziyon etkazmaydigan insonlar tipining ommaviy tarzda shakllanishi;

- har bir fuqaroni xalq tinchligi, uni qurolli to‘qnashuvlar va turli xavf-xatarlardan saqlash uchun kurashga jalg etish;

- o‘z faoliyatini insoniyat, jamiyat, xalq manfaatlariga yo‘naltirishi;

- har bir oilaning o‘zini jismoniy jihatdan chiniqtirish va ma’naviy jihatdan rivojlantirish uchun moddiy mablag‘lari hamda bo‘sh vaqtি etarli bo‘lishiga erishish;

- xalqning kuchli, adolatli, huquqiy, demokratik jamiyat qurishga bo‘lgan xohish irodasini mustahkamlash;

- jamiyatda huquqiy davlat darajasida insonni hurmat qilish va sog‘lom turmush tarziga asoslangan muhitni shakllantirish;

- inson jamiyat va jahon tinchligini saqlashga bo‘lgan xohish iroda hamda intilish har bir shaxs turmush tarzining ajralmas qismiga aylanishi<sup>16</sup>.

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta’minalash, kambag‘allikdan qutilishning muhim yo‘li ta’lim-tarbiya, bilim olish, kasb-hunar o‘rganish jismoniy va ma’naviy jihatdan o‘zini chiniqtirish hisoblanadi. Shaxsning xavfsizligini ta’minalashda davlatning ijtimoiy siyosati muhim rol o‘ynaydi. Davlatning ijtimoiy siyosati, uni amalga oshirish mexanizmlari odamlarning mehnatdagi faolligi va tadbirkorligini o‘stirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilishi lozim. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekistonda davlatning ijtimoiy siyosati quyidagilarga qaratilgan:

- fuqarolarning erkin iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat, kasbkorlik turlari hamda sohalarini erkin tanlash kabi konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minalash;

- mehnat motivatsiyasining kuchli mexanizmini kiritish, aholining iqtisodiy faolligini oshirish uchun sharoitlar yaratish;

- aholini maqsadli va manzilli ijtimoiy himoya qilish hamda kam ta’minalangan guruhlarning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

- ta’lim, ijtimoiy sug‘urta, sog‘liqni saqlash tizimlarini isloh qilish yo‘li bilan aholining ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan zarur kafolatni ta’minalashga<sup>17</sup>. Shuningdek, davlat ijtimoiy siyosati aholining daromad va mulkka egalik darajasi bo‘yicha keskin tabaqalashuvining

<sup>16</sup> Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. – М.: РАГС, 2001. - с. 245.

<sup>17</sup> Abulqosimov H.P. Shakllanayotgan bozor iqtisodiyotida inson omili va uni faollashtirish yo’llari. – Т.: TMI, 2005. - 182 b.

oldini olish hamda aholining to‘lov talablarini keng miqdorda qondirish va uning o‘sishini ta’minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish.

Davlat ijtimoiy siyosatida aholini ijtimoiy himoyalash muhim o‘rin tutadi. Davlatning bu sohadagi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- davlat ijtimoiy iste’mol fondlarini tashkil etish va ulardan jamiyatning har bir a’zosining foydalanishini kafolatlaydigan qonunlarni qabul qilish;
- davlatning markazlashgan ijtimoiy sug‘urta fondini tashkil etish;
- ko‘rsatilgan xizmatlar va samarali mehnatlari uchun davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar;
- ish haqi va pensiya minimumining davlat tomonidan kafolatlanishi;
- ko‘p bolali oilalarga to‘lanadigan nafaqalar;
- kam ta’minlangan aholi tabaqalariga moddiy yordam ko‘rsatish;
- bolalikdan nogiron va boshqa mehnat qobiliyatini yo‘qotganlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;
- talabalar uchun to‘lanadigan davlat stipendiyalari;
- ishsizlik nafaqasi;
- eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari turlarining belgilangan narxlarda sotilishini ta’minlash;
- ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xizmatlar baholaridagi farqlarni davlat byudjeti hisobidan qoplash;
- ijtimoiy sohaning eng muhim tarmoqlari (sog‘liqni saqlash, ta’lim jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy bazasini qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash<sup>18</sup>.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar natijasida shaxs iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari ancha yaxshilandi. Jamiyatda mafkuraviy, g‘oyaviy, siyosiy va iqtisodiy plyuralizmning rivojlanishi, iqtisodiy faoliyat, tanlash va so‘z, vijdon erkinliklarining kengayishi

<sup>18</sup> Abulqosimov H.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. – T.: Akademiya, 2012. - 94-95 b.

har bir shaxsning o‘zining va boshqa kishilarning hamda mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan iqtisodiy va ijtimoiy faolligining o‘sishiga olib keladi.

Jamiyatda muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lgan jamiyat xavfsizligini ta’minlashning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri tushunish, “jamoat xavfsizligi” tushunchasini mohitini to‘g‘ri anglab etishga bog‘liqdir. “Jamoat xavfsizligi - bu shaxs, jamiyat va davlatning huquqbuzarliklar, boshqa g‘ayri ijtimoiy hulq-atvor ta’siri, tabiiy, texnogen va ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lgan favqulodda holatlar oqibatlaridan himoyalanganligi holati hisoblanadi”<sup>19</sup>.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash jamoat tartibi buzilishiga olib keluvchi omillarning oldini olishga xizmat qilsa, o‘z navbatida tizimli ravishda jamoat tartibini saqlash jamoat xavfsizligining samarali ta’minlanishiga olib keladi. Shu bilan birga jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyati ichki ishlar organlari va boshqa huquqiy tartibot organlari faoliyat yo‘nalishlari bilan ham uzviy bog‘liq. Xususan, jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyati huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, jamoat tartibini saqlash orqali huquqbuzarliklar oldi olinadi, huquqbuzarliklar profilaktikasi orqali jamoat xavfsizligini ta’minlashga erishiladi. Jamoat xavfsizligini ta’minlashning yana muhim hususiyati shundaki, u ichki ishlar organi tizimidagi boshqaruvning tarkibiy qismi bo‘lib, bu jarayonda ichki ishlar organlari davlat organlari va muassasalari, jamoatchilik tuzilmalari hamda fuqarolar bilan tashkiliy-huquqiy munosabatlarga kirishadi.

## **4.2. Milliy va mintaqaviy xavfsizlik tizimining tuzilishi va tarkibi**

Milliy xavfsizlik manfaatlarni himoyalashning umumiy shakli hisoblanadi. Shuningdek, u mamlakat milliy manfaat ehtiyojlarining namoyon bo‘lish shakli hamdir. Boshqacha aytganda, manfaat ehtiyojlarini qondirish va moddiy, ma’naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo‘lish va farovonlikka intilish to‘g‘risidagi tasavvurlarning jamini ifodalaydi.

<sup>19</sup> Ziyodullayev M. Jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi tushunchalarining mohiyati va hamda o‘zaro bog‘liqligi. Huquqiy tadqiqotlar jurnali, 2018. - № 7. – 59 b.

Milliy xavfsizlik fuqarolar, ya’ni shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shaxs, fuqaro manfaatlari o‘z ichiga ularning konstitutsion huquq va erkinliklari, yashash xavfsizligini ta’minalash, turmush darajasi va sifatini oshirish, jismoniy, ma’naviy, intellektual rivojlanishini oladi.

Ushbu manfaatlar bir-birlari bilan o‘zaro bog‘langan bo‘lib, ular jamiyat a’zolarining mustaqilligini ta’minalash, xalq farovonligi va turmush darajasini oshirish, uning madaniyati ma’naviy qadriyatlarini saqlashga bo‘lgan intilishlarini ifodalaydi. Shu boisdan har qanday mamlakat manfaatlari uchta muhim maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi: 1) xalq farovonligini oshirish; 2) mamlakat hayot faoliyati va hududini himoya qilish hamda obod etish; 3) milliy madaniyatni rivojlantirish.

Mamlakatning milliy xavfsizligi uning milliy manfaatini turli siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g‘oyaviy, informatsion va boshqa omillar hamda tahdidlardan himoya qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shu boisdan milliy xavfsizlik tarkibi murakkab tuzilishga ega bo‘lib, siyosiy, harbiy-mudofaa, g‘oyaviy, iqtisodiy, ekologik, informatsion xavfsizliklarni o‘z ichiga oladi.

Siyosiy xavfsizlik – mamlakatning milliy-davlat tuzilishi hamda konstitutsion tuzumni himoya qilishga yo‘naltirilgan xavfsizlikdir.

Xarbiy-mudofaa xavfsizligi – mamlakat mustaqilligi, hududiy yaxlitligini va sarhadlar daxlsizligini ta’minalashga qaratilgan xavfsizlikdir.

G‘oyaviy, mafkuraviy xavfsizlik – jamiyat hayotida mavjud bo‘lgan mafkurani saqlab qolish, begona mafkuralarning suqilib kirishiga qarshi kurashish xavfsizligi.

Ekologik xavfsizlik – tabiat va insonning o‘zaro munosabatlaridagi muayyan qonuniyatlarining buzilishi oqibatida yuzaga keladigan ekologik falokatlarning oldini olishga qaratilgan xavfsizlik.

Iqtisodiy xavfsizlik – mamlakatning iqtisodiy jihatdan mustaqil, barqaror rivojlanishini ta’minalashga qaratilgan xavfsizlikdir.

Informatsion xavfsizlik – milliy xavfsizlikning barcha shakllarini, ayniqsa, g‘oyaviy, mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashning vositasi sifatida namoyon bo‘ladigan xavfsizlik.

“Milliy xavfsizlik” tushunchasi ko‘p qirrali va xilma-xil shakllarda namoyon bo‘ladi. Ammo shunga qaramay, u quyidagi xususiyatlarga ega:

Birinchidan, milliy xavfsizlik aniq tarixiy mazmunga ega, ya’ni jamiyatga qaysi sohalarda va qanday darajada tahdidlarning vujudga kelayotganligini aniqlashga qaratilgan aniq holatlardagi aniq tahlillarni talab qiladi.

Ikkinchidan, milliy xavfsizlik bir-biriga zid o‘lchamlar, jamiyatga xavf soluvchi tahdidlar va ularni bartaraf etadigan ijtimoiy-iqtisodiy parametrlar hamda ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi.

Uchinchidan, milliy xavfsizlik muammosining ahamiyati va keskinligi jahon hamjamiyati hamda ayrim mamlakat, hudud taraqqiyotining burilish davrlarida g‘oyatda oshadi.

To‘rtinchidan, milliy xavfsizlik tomoyillari va parametrlari, ko‘rsatkichlari o‘zgaruvchan hamda turli mamlakatlarda o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi. Ammo shunga qaramasdan, har bir mamlakatning milliy xavfsizligi insoniyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining umumiyligi tendensiyalari bilan bog‘liqdir. Shuningdek, umumbashariy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘zgarishlar milliy xavfsizlikka ta’sir o‘tkazib turadi.

Beshinchidan, milliy xavfsizlikka milliy davlat manfaatlari va milliy g‘oya, milliy mafkura ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Oltinchidan, milliy xavfsizlikni ta’minlashda iqtisodiy xavfsizlik muhim o‘rin tutadi.

#### **4.3. Milliy va mintaqaviy xavfsizlikning turlari**

Mintaqaviy xavfsizlik mamlakat viloyatlari (tumanlari) manfaatlarining ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganligini ifodalaydi. Mintaqaviy xavfsizlik o‘z ichiga tabiiy-texnogen, oziq-ovqat, umumiqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy (shaxsiy va mulkiy) xavfsizliklarni oladi (2-rasm).

## Mintaqaviy xavfsizlik

- ijtimoiy (shaxsiy va mulkiy) xavfsizlik
- ijtimoiy-siyosiy xavfsizlik
- umumiqtisodiy xavfsizlik
- oziq-ovqat xavfsizligi
- tabiiy-texnogen xavfsizlik

### 2-rasm. Mintaqaviy (hududiy) xavfsizlik tarkibi<sup>20</sup>

Mintaqa iqtisodiy xavfsizligi mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanishi, iqtisodiyot bilan mintaqaning davlat hokimiyati va boshqaruvi muassasalari o‘rtasidagi muvozanatli holat bo‘lib, bu holat mintaqada milliy manfaatlarning himoyalanganligi hamda siyosatning ijtimoiy yo‘naltirilganligini ifodalaydi. Mintaqa (hudud)dagи iqtisodiy xavfsizlikni aniqlashda quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlardan foydalilaniladi:

- aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot;
- yashash minimumi;
- ish haqi;
- ish haqi bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik;
- ishsizlik darajasi;
- ishsizlar sonining bo‘sish ish o‘rinlariga nisbati;
- aholining savodxonlik darajasi;
- aholi daromadlari bo‘yicha tabaqalanishi va boshqalar.

Mintaqa iqtisodiy xavfsizligi obyektlariga quyidagilar kiradi:

- mintaqa aholisining ish bilan bandligi;
- aholi turmush darajasi;
- mehnat motivatsiyasi;
- aholining mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga munosabati;

<sup>20</sup> Общая теория национальной безопасности. Учебник // под общ. ред. А.А.Прохожева. – изд. 2 доп. – М.: Издво. РАГС, 2005. – с. 227.

- ichki mintaqaviy bozor;
- aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganligi;
- mintaqalish lab chiqaruvchilarining raqobatbardoshligi;
- mintaqaning ekologik holati;
- mintaqalish lab chiqarishining tarkibi va boshqalar<sup>21</sup>.

Mintaqa xavfsizligiga tahdidlar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- ijtimoiy-siyosiy tahdidlar;
- tizimli boshqarish tavsifidagi tahdidlar;
- tashqi iqtisodiy tahdidlar<sup>22</sup>.

Mintaqaviy rivojlanishga ta'sir ko'rsatuvchi tahdid ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo'yicha mantaqlar o'rta sidagi tabaqlanishning kuchayishi, ayrim mintaqalish lab chiqarishidagi turg'unlik va tanglik holatining yuzaga kelishi hisoblanadi.

Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- xavfsizlik va himoya obyektlari;
- xavf-xatar va tahdid subyektlari;
- xavf-xatar va tahdidlar yuzaga kelishi hamda tarqalishi xususiyatlari;
- yuzaga kelish mumkin bo'lgan zararlar;
- xavfsizlikni ta'minlovchi tizimlarning maqsadi, vazifalari va amal qilish mexanizmlari.

Mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligini baholashda esa quyidagi ko'rsatkichlar guruhidan foydalaniladi:

- 1) aholi turmush darajasi;
- 2) mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligi;
- 3) demografik holat;
- 4) ishlab chiqarish salohiyati;
- 5) ilmiy-texnikaviy salohiyat;
- 6) byudjet-moliya sohasi;
- 7) investitsiyaviy muhit;
- 8) ekologik holat;
- 9) huquq tartibot.

---

<sup>21</sup> Вечканов Г.С. Экономическая безопасность. Учебник. - СПб.: Питер, 2007.

<sup>22</sup> Безопасность экономического пространства хозяйствующего субъекта // Петренко И.Н. – М.: Аникан, 2005.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga asosan xulosa qilib, keng ma'noda iqtisodiy xavfsizlikni milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning samarali, dinamik o'sishiga, uning jamiyat, davlat, shaxs ehtiyojlarini qondirishning, tashqi bozorda raqobatga bardoshlilagini ta'minlovchi, turli tahdid va yo'qotishlardan kafolatlovchi ichki va tashqi sharoitlar yig'indisi sifatida qayd etish mumkin.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Ijtimoiy (shaxsiy va mulkiy) xavfsizlik, ijtimoiy-siyosiy xavfsizlik, umumiqtisodiy xavfsizlik, oziq-ovqat xavfsizligi, tabiiy-texnogen xavfsizlik, jamoat xavfsizligi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning obyektlari va subyektlari nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik qanday ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi?
3. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni qanday baholash mumkin?
4. Qanday omillar mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi?
5. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligining mazmunini tushuntirib bering?
6. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligiga qanday tahdidlar mavjud?
7. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak?
8. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun qanday dasturlar ishlab chiqish lozim?

## **5-BOB. MILLIY VA MINTAQAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH TIZIMIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNING O'RNI**

### **5.1. Millat xavfsizlikni ta'minlovchi kuchlar**

Bozor munosabatlariga o'tishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat xo'jalik subyektlari faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va fuqarolarga ziyon keltirilishiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'radi. Ushbu maqsadlarda davlat, eng avvalo, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kichik va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini kupaytirish, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va raqobatbardoshligini rivojlantirish, fond bozori, ko'chmas mulk bozorlarini shakllantirish va boshqa chora-tadbirlarni ishlab chiqadi. Bundan tashqari, hokimiyatning barcha bo'g'inlarida qonun loyihibalarining sifati va asoslanganlik darajasini oshirish hamda qonunga barchani hatto davlat hokimiyati organlarining ham qatiy rioya etishlari bo'yicha tadbirlar amalga oshirilishi zarur bo'лади.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun davlat quyidagilarni ko'zda tutadi:

- ijtimoiy institutlar strategiyasini bir-biriga yaqinlashtirish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirishga imkon beradigan institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish;

- xo'jalik jarayonlarining barcha ishtirokchilari uchun lobbizmni qonuniy cheklash, qonunchilikni maksimal unifikatsiyalash uchun iqtisodiy va ijtimoiy xatti-harakatlarning umumiyligi tamoyillarini ishlab chiqish hamda qabul qilish;

- iqtisodiyot subyektlari va davlat boshqaruvi organlari tomonidan qonunlarga, faoliyat tartib-qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish;

- iqtisodiy munosabatlar sohasida vujudga keladigan munozara va ziddiyatlarni hal qilish mexanizmini yaratish;

- kadrlarni korxonalar xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va investitsiya loyihibalarini baholashning zamonaviy usullariga o'qitishni tashkil qilish;

- jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni oshirish va ijtimoiy keskinlikning o'sishiga yo'l qo'ymaslik;
- mamlakat iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish.

Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitidagi mamlakatlarda yaqin istiqbolda quyidagi vazifalarni amalga oshirilmoqda:

- samarali va raqobatbardosh ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va istiqbolli tarmoqlarni rivojlantirish;
- tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan iqtisodiyot infratuzilmalarini rivojlantirish;
- iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash;
- mavjud ilmiy texnika salohiyatining eng qimmatli elementlarini saqlash;
- iqtisodiyot tarkibining deformatsiyalashuviga barham berishda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarish tarkibini to'lovga qodir talab bilan uyg'unlashtirish;
- korxonalarining bozor sharoitlariga moslashuvini tezlashtirish;
- eksport salohiyatini diversifikatsiyalash;
- ekologik xavfsizlikni oshirishni ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligini ta'minlashda birinchidan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Milliy xavfsizlik konsepsiysi va boshqa qonun hujjatlariga asoslanadi, xalqaro huquqning, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining prinsiplari va normalariga; ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi ishtirokchisi bo'lgan xalqaro shartnomalarga tayanadi, shuningdek, mamlakatning milliy manfaatlaridan, jahondagi va mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyatdan, harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo'lgan tahdidlar darajasidan, zamonaviy harbiy mojarolarning xususiyatidan kelib chiqadi; uchinchidan, tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasining va mamlakat mudofaaсини rejalashtirishga doir boshqa hujjatlarning asosiy qoidalarini inobatga oladi; turtinchidan, harbiy mojarolarning oldini olish, hayotiy muhim milliy manfaatlarni himoya qilish bo'yicha davlat, jamiyat va fuqarolar faoliyatini tashkil etish yo'nalishlari va usullarini ochib beradi; beshinchidan, davlatning kelajakda mudofaa sohasidagi siyosati ustuvorliklarini, O'zbekiston Respublikasi Qurolli

Kuchlarini tayyorlash, qurish va qo'llashning asosiy prinsiplari va yo'nalishlarini belgilaydi.

Xavfsizlikni ta'minlashda harbiy-siyosiy vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari quyidagidan iboratdir:

- globallashuv davom etayotgan va xalqaro munosabatlarning butun tizimi o'zgarib borayotgan sharoitlarda jahondagi harbiy-siyosiy vaziyat xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka xavf-xatar hamda tahdidlar ko'lami kengayib borayotganligi - geosiyosiy qarama-qarshilikning kuchayishi, mojarolar va tang vaziyatlarni kuch ishlatib hal etishga bo'lган yondashuvning ustunlik qilishi, kuch ishlatish, shu jumladan ommaviy qirg'in qurolini qo'llash ehtimoli oshganligi, harbiylashtirish, xalqaro terrorizm va ekstremizm faollahganligi, axborot makoni va kibermakonda o'zaro kurash kuchayganligi bilan tavsiflanadi;

- xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalarining erkin talqin etilishi hamda tanlab qo'llanilishi hollari tobora kuchaymoqda;

- o'z navbatida Markaziy Osiyodagi vaziyatga terrorizm, ekstremizm, narkotrafik va transchegaraviy jinoyatchilikning saqlanib turgan xavf-xatarlari va tahdidlari salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Afg'onistondagi noqonuniy qurolli tuzilmalar faoliyati mintqa xavfsizligiga alohida xavf solmoqda;

- davlatning mudofaa salohiyati harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo'lган tahdidlarni jilovlash, neytrallashtirish va tugatishning asosiy vositalaridan biri bo'lib qoladi.

Mamlakatning harbiy sohadagi xavfsizligini ta'minlashdagi asosiy tahdidlarga:

- harbiy harakatlarning O'zbekiston Respublikasi hududiga ko'chishi xavfi bo'lган harbiy mojarolar;

- O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi yaqinida qo'shinlar turkumlarini mintaqada kuchlar mutanosibligi buzilishiga olib keladigan tarzda hamda O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuzga tayyorgarlik ko'rileyotganidan darak beradigan tarzda namoyishkorona ko'paytirish;

- O'zbekiston Respublikasining suverenitetiga va hududiy yaxlitligiga tajovuz qilish;

- bevosita O‘zbekiston Respublikasi hududiga yoxud qo‘shni davlatlarning chegara oldi tumanlariga tashlash uchun noqonuniy qurolli tuzilmalarni tashkil etish, o‘qitish va qurollantirish;
- narkotrafik, qurol-yarog‘, o‘q-dori, zaharli va portlovchi moddalar, qo‘poruvchilik-terorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun foydalanimadigan boshqa vositalar kontrabandasini bilan bog‘liq transchegaraviy va xalqaro uyushgan jinoiy faoliyat;
- axborot-kommunikatsiya makonida O‘zbekiston Respublikasining suverenitetiga, mustaqilligiga, hududiy yaxlitligiga qarshi qaratilgan hamda aholining tinch hayotiga tahdid soluvchi mafkuraviy va psixologik harakatlar.

O‘zbekiston Respublikasida xavfsizlikni ta’minlash borasidagi mudofaa siyosati quyidagi maqsadlarni nazarga tutadi:

- mustaqillikni, suverenitetni, hududiy yaxlitlikni va konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish;
- davlatning harbiy xavfsizligini ta’minlash;
- Markaziy Osiyoda xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni, xavfsizlikni, barqarorlikni va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlash;
- davlatning harbiy tashkilotini muntazam ravishda rivojlantirish, uni O‘zbekiston Respublikasini qurolli himoya qilishga shay holatda saqlab turishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi tinchliksevar siyosatni olib borar ekan, harbiy mojarolarning oldini olishda faol ishtirok etishni ustuvor vazifalardan biri deb hisoblaydi.

O‘zbekiston Respublikasining ushbu sohadagi siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- a) milliy darajada:
  - davlat harbiy tashkilotining o‘z maqsadiga muvofiq harakat qilishga shayligini saqlab turish;
  - o‘z mudofaa sanoati kompleksini va uning ilmiy-ishlab chiqarish bazasini rivojlantirish;
  - ijtimoiy institutlarga va hokimiyat organlariga bo‘lgan ishonchga putur etkazishga, shuningdek davlatning ichki ishlariga aralashish maqsadida aholining ommaviy ongiga axborot-mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish bilan bog‘liq xavflarni kamaytirishga qaratilgan ilg‘or texnologik echimlarni va boshqa echimlarni qo‘llash;
- b) mintaqaviy darajada:

- mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, mintaqaviy xavfsizlikning eng muhim muammolarini hal etish, shu jumladan Afg’onistonidagi vaziyatni tartibga solishga ko‘maklashish, transchegaraviy suv oqimlari resurslaridan foydalanish masalalarini hal etish, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonlarini tugallash, ekologik barqarorlikni ta’minlash, favqulodda vaziyatlarga hamda tabiiy va texnogen xususiyatdagi transchegaraviy tahdidlarga e’tibor qaratish yuzasidan ta’sirchan chora-tadbirlarni ko‘rish;
  - mintaqadagi tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikka tashqi hamda ichki tahdidlar bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik va ularni neytrallashtirish, ekstremizm, terrorizm, uyushgan hamda transchegaraviy jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida Markaziy Osiyodagi barcha mamlakatlar bilan o‘zaro hamfikrlik va amaliy hamkorlikni mustahkamlash;
  - mintqa davlatlari o‘rtasida harbiy sohadagi hamkorlikni kengaytirish, ishonch va xavfsizlikni mustahkamlash;
- v) xalqaro darajada:
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining, boshqa xalqaro tashkilotlar va institutlarning xalqaro xavfsizlikni ta’minlash va hamkorlikni rivojlantirish borasidagi ishtirot etish;
  - O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligining uzoq muddatli manfaatlaridan kelib chiqqan holda manfaatdor mamlakatlar bilan strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish va saqlab turish hamda davlatlararo o‘zaro manfaatli, mustahkam aloqalarni yo‘lga qo‘yish;
  - ommaviy qirg‘in quollarini tarqatmaslik borasidagi global sa’y-harakatlarga ko‘maklashish;
  - ekstremizm va xalqaro terrorizm ko‘rinishlarining oldini olish va ularga chek qo‘yish;
  - xalqaro harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish.

## **5.2. Milliy xavfsizlikni baholovchi ko‘rsatkichlar**

Davlatning milliy iqtisodiy xavfsizligini baholashda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi. Makroiqtisodiy

ko'rsatkichlardan foydalangan holda, makroiqtisodiy natijalarni baholash va natijalarni olish uchun shart-sharoitlarni tahlil qilish ham mumkin. Mamlakatda fuqarolar farovonligi darajasini aniqlash uchun, sof iqtisodiy farovonlik kabi umumlashtiruvchi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning ahamiyati juda katta, chunki ular mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'rsatkichlar ichki va tashqiga bo'linadi. Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari umumiylashtiruvchi umumiy, asosiy va xususiy ahamiyatga ega.

Xavfsizlik tushunchasining mohiyatidan kelib chiqqan holda xavfsizlik obyektining miqyosiga qarab quyidagi ko'rsatkichlar mavjud:

- mikroiqtisodiy ko'rsatkich - korxona, kompaniya, muassasa, shuningdek oila va jismoniy shaxslarning holatini belgilaydigan ko'rsatkichlar;
- mezoiqtisodiy ko'rsatkich - mintaqani yoki sohani tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
- makroiqtisodiy ko'rsatkich - mamlakatning umumiylashtiruvchi holatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar.

Turli mamlakatlarning ko'p yillik tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlatning milliy iqtisodiy xavfsizligi ishidagi muvaffaqiyatsizliklar milliy iqtisodiy xavfsizlikka tahdidni noto'g'ri baholash bilan bog'liq ekanligi aniqlangan. Milliy iqtisodiy xavfsizlik darajasi va ko'rsatkichlarining butun yig'indisi milliy iqtisodiy xavfsizlik holati to'g'risidagi yagona mamlakatning yalpi ma'lumotlar bazasida to'planishi maqsadga muvofiqdir, bu haqiqatga mos keladi.

Bir qator mamlakatlarda, BMTda va boshqa xalqaro tashkilotlarda to'plangan ijtimoiy ko'rsatkichlar tizimini yaratishda ijobjiy tajribani hisobga olgan holda xavfsizlik ko'rsatkichlarini hosil qilish lozim. Xavf-xatarlarni etarlicha baholamaslik va milliy iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni e'tiborsiz qoldirish davlatning shakllanishi va rivojlanishining dolzarb masalalarini hal etishda mablag'lar va manbalarning asossiz ravishda sarflanishiga olib kelishi mumkin.

Milliy iqtisodiy xavfsizlik holatini baholash uchun zarur bo'lgan asosiy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari, shaxsiy va mulkiy manfaatlarining, shu jumladan jinoiy tajovuzlardan himoyalanish darajasidan qoniqishi;
- mamlakatimizning Qurolli Kuchlarida, boshqa qo'shinlarda, harbiy tuzilmalarda va organlarda zamonaviy qurol, harbiy va maxsus jihozlarning ulushi;
- aholining umr ko'rish davomiyligi;
- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot miqdori;
- pasayish koeffitsienti (daromad darajasi eng badavlat aholining 10 foizi va eng kam ta'minlangan aholining 10 foizi);
- inflyatsiya darajasi;
- ishsizlik darajasi;
- fan, texnika va ta'limi rivojlantirish uchun yalpi ichki mahsulotdagi xarajatlar ulushi;
- madaniyat sohasini rivojlantirish uchun yalpi ichki mahsulotdagi xarajatlar ulushi;
- ekologik me'yorlarga javob bermaydigan mamlakat hududining ulushi.

Milliy iqtisodiy xavfsizlik holatining asosiy ko'rsatkichlari ro'yxati uning monitoringi natijalari asosida yangilanishi mumkin. Milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va aniqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Xavfsizlik Kengashi tomonidan muvofiqlashtiriladi. Milliy iqtisodiy xavfsizlik holatini davlat monitoringining natijalari Xavfsizlik Kengashining mamlakat Prezidentiga milliy xavfsizlikning holati va uni kuchaytirish choralarini to'g'risidagi yillik (choraklik) hisobotlarida o'z aksini topadi.

### **5.3. MDH mamlakatlarining iqtisodiy sohadagi xavfsizlik konsepsiysi**

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) – bu postsovetskiy hududidagi davlatlararo hukumatlararo tashkilotdir. MDH mamlakatlari dunyo hududining 16 foizini, dunyo aholisining 5 foizini (283 million kishidan ziyod), dunyo tabiiy gaz zaxiralaring 40

foizini, neftning 20 foizini, ko‘mirning 25 foizini egallaydi. MDH yalpi mahsuloti dunyoning 5 foizini tashkil qiladi.

MDH ixtiyoriylik, tenglik, o‘zaro manfaatli sheriklik tamoyillariga asoslangan, bir-birining manfaatlarini hisobga olgan holda, siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarda ham yaqin aloqalar o‘rnatalishiga asos bo‘ldi. Shu bilan birga, MDH o‘z faoliyati davomida, hamdo‘stlik doirasida ham, undan tashqarida ham sodir bo‘layotgan iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarga ta’sir ko‘rsata oladi. Ularning manbalari a’zo davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi farqlar, ularda amalga oshirilayotgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar shakllari va natijalari, jamiyatlarni demokratlashtirishdan iboratdir.

MDHga a’zo davlatlarning milliy iqtisodiy xavfsizligini mezon sifatida baholash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- resurs salohiyati va uni rivojlantirish imkoniyatlari;
- resurslari, ulardan foydalanish samaradorligi, kapital va mehnat resurslaridan foydalanish darajasi;
- a’zo davlatlar iqtisodiyotlarining raqobatbardoshligi;
- yaxlitligi va umumiy iqtisodiy makon rivojlantirish hamdo‘stligi;
- tashqi tahdidlarga qarshi kurashish imkoniyatlari;
- ijtimoiy barqarorlik va ijtimoiy mojarolarning oldini olish va hal qilish uchun sharoitlar.

MDHga a’zo davlatlar milliy xavfsizlik ko‘rsatkichlari tizimida quyidagilar muhim parametr hisoblanadi:

- hayot darajasi va sifati;
- iqtisodiy o‘sish;
- jahon iqtisodiyotiga integratsiya darajasi;
- inflyatsiya darajasi;
- ishsizlik darajasi;
- byudjet taqchilligi;
- davlat qarzi;
- oltin-valyuta zaxiralalarining holati;
- xufyona iqtisodiyotining keng tarqalishi.

Tashkilotni evolyutsion takomillashtirish zarurati va yo‘llari 2007 yil 5 oktyabrdan Hamdo‘stlik davlatlari rahbarlari tomonidan tasdiqlangan MDHni yanada rivojlantirish kontseptsiyasida va uni

amalga oshirish bo'yicha asosiy tadbirlar rejasida aks etgan. Kontseptsiya kelgusidagi konstruktiv hamkorlik uchun asos bo'ldi. Uning qabul qilinishi postsoviet hududida mavjud bo'lgan sharoitda ishslashning maqbul shakli va mexanizmlari bo'yicha ko'p yillik munozaralar natijasi bo'ldi. Ushbu kontseptsiya MDHning xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan va integratsiyalashuv salohiyatiga ega bo'lgan, mintaqaviy davlatlararo tashkilot sifatida rivojlanib borayotganini tasdiqladi. Hujjatda siyosiy, parlamentlararo munosabatni mustahkamlash, kelishilgan migratsiya siyosati, ekologik muammolarni birgalikda hal etish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish zarurligi ta'kidlangan.

Kontseptsiya MDH va uning mexanizmlarini yanada takomillashtirishni ko'zda tutadi. Kontseptsiyaning ahamiyati shundan iboratki, har bir ishtirokchining Hamdo'stlikni rivojlantirish borasidagi fikrlarini inobatga olgan holda, u birgalikda ishslash tajribasiga asoslanib, mavjud tuzilmalarni buzmasdan va oldinga siljish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. MDHni rivojlantirish konsepsiysi 2008 yil oktyabr oyida qabul qilingan Konsepsiya va asosiy faoliyat rejasi asosida, MDHning 2020 yilgacha bo'lgan davrda iqtisodiy rivojlanish strategiyasi tasdiqlandi. 2011 yil oktyabr oyida MDHga a'zo bo'lgan sakkiz davlat (Armaniston, Belorusiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Ukraina) Hamdo'stlik mamlakatlarining o'zaro savdo hajmining 90% dan ko'prog'ini tashkil etgan Erkin savdo zonasi to'g'risidagi Bitimga imzo qo'ydilar, va bu savdo-iqtisodiy hamkorlik asoslarining elementiga aylandi. 2013 yilda O'zbekiston ushbu shartnomaga qo'shildi. Qabul qilingan qarorlarning bajarilishi MDHdagi integratsiya jarayonlariga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi. Iqtisodiy va gumanitar hamkorlik sohasidagi keskin o'zgarishlar, tashkilotning butun atrofidagi xavfsizlik tizimi Hamdo'stlik davlatlarini MDHning keng, ko'p tomonlama formati muhimligini anglatdi.

Shu bilan birga, dunyoda ro'y berayotgan voqealarning tezkorligi, mintaqaviylashtirish jarayonlarining xalqaro munosabatlardagi ahamiyati tobora ortib borayotganligi Hamdo'stlikni zamonaviy voqelikka doimiy moslashtirish zarurligini taqozo etmoqda. Hamdo'stlik mamlakatlari rahbarlari MDHni yangilash, integratsiyalashuv uchun qo'shimcha rag'batlar, iqtisodiy o'sish uchun

manbalar, ishning tarkibi va printsiplaridagi o‘zgarishlar va me’yoriy-huquqiy bazani yangilash yo‘llarini izlash masalalarini bir necha bor Hamdo‘stlik mamlakatlari rahbarlari tomonidan ko‘tarilgan. Ularning mohiyati Hamdo‘stlikni asosan a’zo davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga va ular o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tashkilotga aylantirishdan iboratdir.

2016 yil sentyabr oyida Bishkekda Hamdo‘stlikka a’zo davlatlar rahbarlari tashkilotni zamonaviy voqelikka moslashtirish, uning ustav va tarmoq organlarining samaradorligini oshirish to‘g‘risida qaror qabul qildilar. 2017 yil oktyabr oyida Sochida bo‘lib o‘tgan sammitda Davlat rahbarlari kengashi va hukumatlar rahbarlari kengashi o‘rtasida vakolatlar qayta taqsimlandi va tashqi ishlar vazirlari kengashi (vazirlar kengashi) va iqtisodiy kengash faoliyatini yanada optimallashtirish bo‘yicha takliflar ma’qullandi.

Hamdo‘stlikni yanada takomillashtirish bo‘yicha ishlarning bir qismi sifatida 2007 yil 5 oktyabrdagi amaldagi Konsepsiyanı yangilash va 2025 yilgacha o‘rta muddatli davr uchun yangi faoliyat rejasini ishlab chiqish masalasi ko‘rib chiqildi. 2018 yil aprel oyida Minsk shahrida bo‘lib o‘tgan vazirlar kengashining navbatdagi yig‘ilishida Kontseptsiya qoidalarini yangilash va uni amalga oshirish bo‘yicha yangi harakatlar rejasini ishlab chiqish bo‘yicha ishlarni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Ixtisoslashgan ekspert guruhining yig‘ilishlari bo‘lib o‘tdi.

Qisqa va o‘rta muddatli istiqbolda MDH iqtisodiy sohaga ko‘proq e’tibor qaratadi. Shu sababli, Kontseptsiyaning yangilangan variantida ilg‘or texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotni yaratish, "Internet-iqtisodiyot"ni rivojlantirish, "raqamli kun tartibini" amalga oshirish, moliyaviy xavfsizlikni ta’minalash mexanizmlari va vositalarini ishlab chiqish, ilmiy-texnik va innovatsion hamkorlik, transport va kommunikatsiya, sarmoyaviy aloqalarni chuqurlashtirish, sanoat va texnologik hamkorlikni rivojlantirish mavzulariga yanada ko‘proq e’tibor qaratish, qisqa muddatda 2020 yildan keyingi davr uchun iqtisodiy hamkorlik strategiyasini va hamkorlikning yo‘l xaritalarini ishlab chiqish vazifalari belgilangan.

Erkin savdo zonasi to‘g‘risidagi bitimning potentsialidan foydalanish bo‘yicha ishlarni davom ettirish, xizmatlarning erkin savdosini to‘g‘risida bitimni iloji boricha tezroq imzolashni maqsad

qilish va tovarlar va xizmatlar harakatidagi qolgan to‘siqlarni bartaraf etish zarur.

MDHning gumanitar sohada yanada izchil rivojlanishi ta’lim sifatini baholash va malaka sertifikatlashi, Hamdo‘stlik mamlakatlari universitetlari o‘rtasida akademik harakatchanlik va tarmoqni rivojlantirish, yagona ta’lim standartlari va innovatsion ta’lim dasturlarini tayyorlash, turizm, sport, yoshlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni, shu jumladan barqaror rivojlanishni, yoshlar orasida ommabop axborot texnologiyalaridan foydalanish talab qiladi.

Konsepsiyaning xavfsizlik sohasidagi vazifalarida jinoyatchilikka qarshi kurash, terrorizm va uni moliyalashtirish bartaraf etish, giyohvandlik tahdidi, noqonuniy migratsiya belgilangan. MDH davlatlarining umumiyligi xavfsizligini ta’minlashning istiqbolli vazifasi 2025 yilga qadar Hamdo‘stlik hududida mavjud havo hujumiga qarshi mudofaa tizimiga asoslangan qo‘shma kosmik mudofaa tizimini yaratish vazifasi maqsad qilingan.

Siyosiy yo‘nalishda, asosiy vazifa MDHning siyosiy muloqot sohasida keng imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish, tashkilotning makonida va dunyoda vaziyatni rivojlantirishning turli jihatlari bo‘yicha yondashuvlarni muvofiqlashtirish hisoblanadi. Hamdo‘stlikning jahon miqyosidagi rolini oshirishga, yirik xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirishga, a’zo davlatlarning tashqi siyosiy faoliyatini yanada muvofiqlashtirishga qaratilgan sa’y-harakatlarni davom ettirish.

Kontseptsiyada MDHda integratsion hamkorlikning institutsional mexanizmlarini yanada modernizatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasi belgilangan. Davlatlararo tizilmalar tizimini takomillashtirishni davom ettirish, Hamdo‘stlikning vakolatli organlarining vakolatlarini aniqlashtirish, ushbu tashkilot ijroiya qo‘mitasining roli va mavqeini oshirish, sanoat kooperatsiyasini optimallashtirish zarur. Shubhasiz, MDH davlatlari, integratsiya dinamikasini hisobga olgan holda, maqsad va vazifalarga erishish uchun zarur bo‘lgan vakolatlarga ega bo‘lishi kerak.

Qaror qabul qilishning qonuniy asoslari, qoidalari va tartibini va ularning ijrosini nazorat qilishni takomillashtirish talab qilinmoqda. Hamdo‘stlikning huquqiy maqomi va majburiy hujjatlari darajasi aniq belgilanishi kerak. Ba’zi hollarda, milliy qonunchilikda Davlat

rahbarlari kengashi, hukumat rahbarlari kengashi va boshqa organlarning bevosita ishtirokchi davlatlar uchun har qanday majburiyatlarni belgilovchi qarorlarini amalga oshirish uchun qoida bo‘lishi kerak. Xalqaro shartnomalar va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tayyorlash bo‘yicha ishlarni takomillashtirish, xususan, majburiyatlar, tomonlarning majburiyatlari va nizolarni hal etish mexanizmlarini belgilab beradi.

MDHni yanada rivojlantirish bo‘yicha yangilangan Konsepsiyaning integratsion yo‘nalishi nafaqat postsoviet hududidagi aloqalarni saqlab qolish va rivojlantirishga, balki yangi raqobatdosh makon - Evroosiyo rivojlanishining istiqbollariga yo‘naltirilishi kerak. YEIH, Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqa integratsion birlashmalarning manfaatlariga yaqinlashishiga hissa qo‘sishi mumkin. Kontseptsiya, uni amalga oshirish uchun tasdiqlangan choralar dasturi ma’lum darajada Evroosiyo sherikligini shakllantirishdek ulkan vazifalarni hal qilish imkonini beradi.

#### **5.4. Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar. Ichki va tashqi tahdidlar**

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni namoyon bo‘lish shakli bo‘yicha ikkiga bo‘lish mumkin, ya’ni ichki va tashqi tahdidlarga. Ichki iqtisodiy xavfsizlik tabiiy, texnika-texnologik, infratuzilmaviy, ijtimoiy va boshqa rivojlanish omillari orqali ta’minlanadi. Iqtisodiy xavfsizlikga tahdid soluvchi ichki tahdidlar sifatida<sup>23</sup>:

- ilgarigi tizimdan biryoqlama, tarkibi deformatsiyalashgan iqtisodiyotning meros bo‘lib qolgani;
- ko‘pchilik tarmoqlarning qoloq texnologik bazaga, yuqori energiya va resurs sig‘imiga egaligi sababli milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining pastligi;
- iqtisodiyotning yuqori darajada monopollashuvi;
- yuqori darajadagi inflyasiya;
- infratuzilma obyektlarining etarli darajada rivojlanmagani va mustahkam emasligi;

---

<sup>23</sup> Abulqosimov H.P. Iqtisodiy xavfsizlik. - T.: Akademiya, 2006. – 57 b.

- mineral xom-ashyo bazalarining kam o‘rganilgan va xo‘jalik oborotiga tortilish imkoniyatlarining etarli emasligi;
- mamlakat ilmiy-texnika salohiyatining yomonlashuvi, fan-texnika rivojlanishining ayrim yo‘nalishlarida ilg‘or o‘rnlarning boy berilishi, boshqa faoliyat sohalarida intellektual mehnat nufuzi va obro‘-e’tiborining tushib ketishi;
- ichki bozorlardan chet el firmalari tomonidan mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining, jumladan, iste’mol tovarlarining siqib chiqarilishi;
- hududiy separatizm tendensiyasi va boshqarish qarorlarini qabul qilishda tarmoq lobbizmining yuqori darajada ekani;
- investitsion faollikning sustligi;
- kapital xarajatlar o‘rniga joriy xarajatlarni afzal ko‘rish;
- sotsial konfliktlarning (ziddiyat) kelib chiqish xavfining mavjudligi. Bunday ijtimoiy ziddiyatlar mehnatga haq to‘lash mexanizmining takomillashmagani, ishsizlik darajasining yuqoriligi, aholi o‘rtasidagi tabaqlanishning keskinlashib ketishi, aholi bilim darjasini va ishchi kuchi sifatining pasayishi tufayli vujudga keladi;
- qonunchilikning rivojlanmagani, bir qancha iqtisodiy subyektlarning ichki va tashqi bozorda monopol o‘rin tutgani, g‘ayriqonuniy faoliyat ko‘rsatishi hamda ularning huquqiy intizomining pastligi;
- iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy va shartnomaviy intizomining pastligi;
- iqtisodiyotning kriminallashuvi va korrupsiyaning kuchayishi;
- daromadlarni yashirish va soliq to‘lashdan qochish hollarining ko‘payishi;
- moliyaviy mablag‘larni chet ellarga noqonuniy tarzda o‘tkazilishi namoyon bo‘ladi.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikga ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi iqtisodiy tahdid omillariga quyidagilar kiradi:

- eksport tarkibida xom-ashyo tovarlarining ustuvorligi, an‘anaviy mashinasozlik va harbiy sanoat tovarlari bozorlarining yo‘qotilishi;
- mamlakatning ko‘p turdagি mahsulotlar, shu jumladan, strategik ahamiyatdagi va oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramligi;
- tashqi qarzlarning o‘sib borishi;

- eksport va valyuta nazoratining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, bojxona chegaralarining ochiqligi;
- raqobatga bardoshli eksportni qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy, tashkiliy va axborot infratuzilmalarning rivojlanmaganligi va import tarkibining ratsional emasligi;
- eksport-import operatsiyalariga xizmat ko‘rsatuvchi transport infratuzilmalarining rivoj topmaganligi.

Mamlakatdan chetga chiqarilayotgan eksport tovarlariga narxlarning keskin ko‘tarilishi yoki aksincha, import tovarlariga narxlarning keskin oshishi tashqi bozorga bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyot uchun o‘ta xavfli hisoblanadi. Shuningdek, ma’lum bir mamlakatdan yoki mamlakatlar guruhidan ayrim turdagи mahsulotlarni keltirishda yuqori darajadagi qaramlikka, bog‘liqlikka yo‘l qo‘ymaslik lozim. Chunki bu iqtisodiy qaramlikdan siyosiy jihatdan ta’sir ko‘rsatishda foydalanishlari mumkin.

Mamlakatning nafaqat iqtisodiy, shuningdek, siyosiy ahvoliga ham jiddiy xavf tug‘diruvchi tashqi tahdidlardan biri tashqi qarz muammosidir. Tashqi qarzning yuqori darajadaligining o‘ziyoq tashqi siyosat yuritishni shubha ostiga qo‘yadi. Mamlakat qarz bergen yirik kreditor mamlakatlar oldida majburiyatning mavjudligi sabab iqtisodiy va siyosiy qaram bo‘lib qoladi. Tashqi qarzlarni to‘lash uchun mamlakat ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirishda foydalanishi hamda yangi obyektlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportini kengaytirishi hisobidan vaqtida kredit mablag‘larini qaytarish imkonini paydo bo‘ladi.

Davlat tomonidan milliy va mintaqaviy iqtisodiy manfaat va xavfsizlikka tahdidlarni aniqlab, ularning oldini olish uchun iqtisodiy siyosatning maqsad va strategiyalarini ishlab chiqadi. Shu orqali iqtisodiy tahdidlarni bartaraf etish uchun ta’sirchan choralar yaratiladi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Ehtiyoj, iqtisodiy manfaat, shaxs, korxona, jamiyat va davlatning iqtisodiy manfaatlari, tahdid, ichki tahdid, tashqi tahdid.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Iqtisodiy manfaatning mohiyati nimada?
2. “Iqtisodiy manfaatlarga tahdidlar” deganda nimani tushunasiz?

3. Kriminal iqtisodiy tahdidlar qanday turlardan iborat?
4. MDH mamlakatlarining iqtisodiy sohadagi xavfsizlik konsepsiysi mohiyati nimadan iborat?
5. Ichki tahdidlar qanday shakllarda namoyon bo‘ladi?
6. Tashqi tahidlarning namoyon bo‘lish shakllari nimalardan iborat?
7. Tahdidlarning o‘zaro bog‘liqligi nimalarda ko‘rinadi va ularning oldini olish uchun nima qilish kerak?
8. O‘zbekiston iqtisodiy xavfsizligiga qanday ichki va tashqi tahdidlar mavjud?

## **2-MODUL. MILLIY VA MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI**

### **6-BOB. MILLIY VA MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI**

#### **6.1. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni tartibga soluvchi asosiy huquqiy-me'yoriy aktlarning strukturasi**

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni tartibga soluvchi asosiy me'yoriy-huquqiy bazasini ishlab chiqish quyidagi asosiy qoidalarga asoslanadi:

- “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasini iqtisodiy sohaning holati va institutsional muhit sifatida aniqlash, har qanday mumkin bo‘lgan salbiy omillarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi, millat manfaatlarini himoya qiladigan, yuqori turmush darajasi va mamlakatning zarur himoya darajasini ta’minlaydigan;

- tegishli huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish orqali amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan tahdidlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish choralarini ishlab chiqish orqali tovarlarni ishlab chiqarish, tarqatish sohalarida, almashinish va iste’mol qilish sohalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlaydigan jamoat munosabatlarining shakllanishi;

- iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashga yondoshuvlar ustuvorligi, masalan:

- ilmiy-tadqiqot, iqtisodiy jarayonlar;

- iqtisodiy sohada xavflarni amalga oshirishni kutishga qaratilgan chora-tadbirlarni shakllantirish;

- innovatsion texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqishni tashkil etish;

- iqtisodiyot sohasida xalqaro faoliyatda maqsadlarni shakllantirish va ularga erishish;

- iqtisodiy sohada xavfsizlikni ta’minlashning strategik maqsadlariga erishish uchun xavfsizlik tuzilmalarining kelishilgan harakatlarini tashkil etish;

- investitsiyalarni samarali boshqarishning oqilona siyosatini shakllantirish;

- O‘zbekiston Respublikasi Xavfsizlik Kengashining iqtisodiy sohada xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar tizimini tashkil etuvchi Idoralararo komissiyasining faoliyati samaradorligini ta’minlash;

- tegishli huquqiy choralar, jamiyatdagi munosabatlar, iqtisodiyotga tahdidlar sabablarini o‘rganish, qonun ijodkorligi va huquqni qo‘llashga asoslangan iqtisodiy sohada xavfsizlikni ta’minlash tizimini yaratish.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik tizimining faoliyati zamonaviy kontseptsiyalarga javob beradigan ilmiy tushunchalar va huquqiy normalarni, huquq subyektlarining o‘zaro muvofiq ishlashini rivojlantirishning muhimligini belgilaydigan huquqiy sohada amalga oshiriladi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash millatning rivojlanishi uchun muhim sharoitlarni yaratadi.

Agar “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasini huquqiy tomondan ko‘rib chiqsak, unda: birinchidan, bu huquqiy sohada tartibga solinadigan tovarlarni ishlab chiqarish, ayriboshlash, taqsimlash va iste’mol qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning holati; ikkinchidan, bu iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash vazifalari bilan belgilanadigan me’yoriy-huquqiy sohaning holatini ifoda etadi. Shunday qilib, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi qonun hujjatlarini tartibga solish predmeti bu sohada amalga oshiriladigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Davlat va jamiyat institutlarini o‘z ichiga olgan huquq sub’yektlari, shuningdek, shaxslar iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash maqsadlariga erishish uchun huquqiy sohada birgalikda harakat qilishlari kerak. Iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarga tahidlarni aniqlash bu harakat emas, balki jarayon, chunki vaqt o‘tishi bilan ko‘plab tahidlар o‘zgaradi. Shu sababli, huquq sohasidagi tartibga solish tahidlarni faol aniqlashga, ularni tahlil qilishga va tegishli mezon va ko‘rsatkichlardan foydalangan holda oqilona qarshi choralarini ishlab chiqishga yo‘naltirilishi kerak.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi strategik qarorlarni tayyorlash Milliy xavfsizlik kontseptsiyasiga asoslanishi kerak. Strategiya hokimiyat tomonidan tegishli qonuniy hujjatlarni

qabul qilish orqali amalga oshirilishi kerak. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muammolari byudjetni rejalashtirish, pul-kredit sohalarida qarorlar qabul qilishda hisobga olinishi kerak.

Iqtisodiy xavfsizlik ta'minlanadigan huquqiy bazani shakllantirish ma'lum tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi, unga ko'ra, quyi darajadagi normativ-huquqiy hujjatlar ba'zi turdag'i ijtimoiy munosabatlarga nisbatan yuqori darajadagi aktlarga zid bo'lmashligi kerak, bu esa o'z navbatida ushbu munosabatlarni tartibga solmasligi kerak.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishida huquqiy tizimni rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal qilishni talab qiladi:

- amaldagi huquqiy normalar va yangi qonun hujjatlariga muvofiqligini ta'minlash;

- iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash talablariga javob beradigan yangi qonunchilik bazasini shakllantirishdan iborat.

Tegishli huquqiy bazani shakllantirish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning zaruriy sharti bo'lsa ham, qonunlarning amalda bajarilishi muhimdir. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar tizimining uslubiy tarkibi quyidagicha. Xavfsizlik sohasidagi (xususan, iqtisodiy) shaxs, jamiyat va davlatning obyektiv ehtiyojlari to'g'risida subyektiv xabardorlik milliy manfaatlarni belgilashdan iborat. Ya'ni, milliy manfaatlar inson, jamiyat va davlatning iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi obyektiv ehtiyojlarini ifoda etishning subyektiv shaklidir. Bundan tashqari, iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni aniqlash orqali normativ huquqiy xavfsizlikning tuzilishi shakllantiriladi. Keyingi qadam milliy manfaatlarga tahdidlarga qarshi kurashish siyosatini aniqlash, ya'ni tegishli qarshi choralarini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

Mamlakatimizning xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 1997 yil 29 avgustdagi 467-I-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan printsiplari va normalari, xalqaro shartnomalar va boshqa hujjatlardir. Xavfsizlik sohasida o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari.

Davlatning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha davlat tomonidan ko'rilayotgan choralar milliy xavfsizlik subyektlarining birgalikdagi harakatlari natijasida amalga oshiriladi. Xavfsizlik choralarini shakllantirish va ularni amalga oshirishga rahbarlik qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan amalga oshiriladi. Bunday harakatlarning muvofiqlashtirilishini O'zbekiston Respublikasi Xavfsizlik Kengashi amalga oshiradi, u mamlakat ichkarisida va xalqaro miqyosda mamlakat Prezidenti tomonidan belgilanadigan masalalarni ko'rib chiqadi.

Davlatning xavfsizlik strategiyasini aks ettiradigan hujjatlar tizimining eng muhim elementlari orasida:

- O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida rivojlanishining kontseptual qoidalari;
- rivojlantirish dasturlari;
- sanoatni rivojlanish strategiyasi;
- mintaqalarni rivojlanish strategiyasi;
- Xalqaro hamkorlik doirasidagi dasturlar;
- davlat darajasidagi maqsadli dasturlar;
- davlat mudofaasini saqlash tartibi;
- Milliy xavfsizlikning kontseptual qoidalari, asosiy yo'nalishlari va strategiyalarini aks ettiruvchi boshqa hujjatlar.

Millat xavfsizligi bilan bog'liq va keng qamrovli xususiyatga ega bo'lgan ba'zi masalalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining kafolati sifatida davlat rahbarining vakolatlari bajarilishini ta'minlaydigan tegishli vazifalar Xavfsizlik Kengashi, yuqori va qo'yi palatalarning qo'shma majlislarida muhokamasiga kiritilishi mumkin.

O'z faoliyatida milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimi xalqaro va mahalliy huquq normalariga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasining eng muhim normativ hujjatlariga quyidagilar kiradi: Konstitutsiya, qonunlar, mamlakat Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining farmon va qarorlari hamda boshqa normativ hujjatlar.

Mintaqa miqyosida xavfsizlikni ta'minlashning huquqiy asoslari bu mintaqa darajada qabul qilingan qaror va farmonlar hamda boshqa me'yoriy hujjatlar hisoblanadi. Shuningdek, mintaqadagi davlat organlarining huquqiy hujjatlari, mahalliy hokimiyatlar faoliyatidagi qabul qilingan qarorlar va boshqa huquqiy hujjatlardan iborat.

## **6.2. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikga oid huquqiy hujjatlar tizimining metodik mazmuni**

Milliy va minaqaviy tuzilmalarda iqtisodiy xavsizlikni ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklariga og'ishmay rioya etish, jamiyatdagi millatlararo totuvlik, tinchlik va osoyishtalik, mamlakatni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish huquqiy hujjatlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Xavfsizlik mamlakatning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi, iqtisodiy va mudofaa salohiyatini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish tizimidan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy hujjatlar tizimi qonuniylik, tenglik, insonparvarlik va baynalmilallik tamoyillariga asoslangan holda qurilgandir. Mazkur huquqiy hujjatlar o'z oldiga quyidagi vazifalarni belgilaydi:

- davlat xavfsizligi manfaatlariga daxldor bo'lgan terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish;
- O'zbekiston Konstitutsiyasi va mustaqilligini g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilish;
- respublika davlat chegarasining daxlsizligini ta'minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'rish;
- ijtimoiy-iqtisodiy, mudofaa qurilishi va fan-texnika taraqqiyoti, tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq xavfsizlik choralarini ta'minlash;
- maxfiy axborotlarni muhofaza qilish, kriptografik va texnik jihatdan muhofaza qilish;
- xalq xo'jaligining barcha tarmoq va sohalarida xavfsizlikni ta'minlash;
- davlat, jamiyat va shaxs xavfsizligini himoya qilish, shuningdek, transport va aloqa, aholi hayotini ta'minlash obyektlarini, muhim xalq xo'jaligi va harbiy obyektlarda xavfsizlikni ta'minlash;
- xavfsizlik bo'yicha qonunchilik va huquqiy tartibotni tiklash, ommaviy tartibsizliklar, millatlararo nizolarni oldini olishga;
- atom energetikasi obyektlari, neft va gaz mahsulotlari quvurlari, sanoatning mudofaa tarmoqlari obyektlarida, tabiiy ofatlar,

epidemiyalar, ekologik halokatlar va boshqa favqulodda hodisalarni olidini olish bo‘yicha xavfsizlik choralarini ta’minlash;

- maxsus yuklarni tashishning xavfsizligini ta’minlash;

- bojxona, qurok va o‘q-dorilar masalasida xavfsizlikni ta’minlash;

- makroiqtisodiy indikatorlarni tahlil qilish va prognozlash asosida iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmlarini joriy etish;

- iqtisodiyotning real sektori holati, ichki va tashqi bozorlar kon'yunkturasi hamda global va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari bilan bog‘liq holda iqtisodiyotning asosiy sohalarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish;

- iqtisodiyotning real sektoridagi holatni oldindan baholashning zamonaviy indikatorlarini ishlab chiqish va samarali foydalanish tizimini joriy etish;

- inson kapitalini yaxshilash va mehnat unumdarligini oshirish, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash;

- zarur infratuzilmani shakllantirishga asoslangan iqtisodiy rivojlanishning konseptual yo‘nalish va vazifalarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta’minlash;

- makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, shu jumladan inflyasiya darajasini pasaytirish va qo‘yilgan maqsadlarga erishish borasida muvofiqlashtirilgan siyosatni amalga oshirish;

- eksportni qo‘llab-quvvatlash, eksport va importda tarif va notarif tartibga solish siyosatlarini shakllantirish;

- qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasida ko‘zda tutilgan tadbirlar va islohotlar amalga oshirilish;

- xalq xo‘jaligining ishlab chiqarish tarmoqlarida mehnat unumdarligi, mahsulot etishtirish va qayta ishlash hajmlarining o‘sishiga, ish o‘rinlarining yaratilish;

- iqtisodiy o‘sishning inklyuzivligini tahlil qilish va ta’minlash, davlat boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari, xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha strategiya va dasturlarni ishlab chiqish;

- milliy barqaror rivojlanishning maqsad va vazifalariga erishish chora-tadbirlarini amalga oshirish, yashash minimumi va minimal iste’mol savatchasini hisoblash metodologiyasini ishlab chiqish hamda

aholi daromadlari tabaqalashuvini o‘rganish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borish hamda ularning davlat maqsadli dasturlari bilan o‘zaro muvofiqligini ta’minlash;

- mehnat bozori va uning tarkibini sifat jihatdan rivojlantirish, ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlarini tahlil qilish, takomillashtirish hamda mehnat resurslarini taqsimlash;

- hududlarning tabiiy xom ashyo va mehnat resurslarini hamda «nisbiy ustunliklari»ni inobatga olgan holda ularni rivojlantirishga turki beradigan omillar va yo‘nalishlarni belgilab olish hamda amalga oshirish;

- hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari doirasidagi loyihalarni o‘z muddatida va sifatli bajarishga to‘sinqilik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash va bartaraf etish, hududlararo rivojlanishning tabaqalashuvini qisqartirish choralarini ko‘rish;

- hududlarda sanoat zonalarini tashkil etish, ularni joylashtirish yuzasidan uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqish, ularni rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

- ilg‘or xorijiy tajribani o‘rgangan holda hududlarni rivojlantirishning milliy metodologik asoslari va yondashuvlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish;

- mamlakatda kichik va o‘rta biznesni hamda tadbirkorlikning barcha shakllarini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini yuritish;

- iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda kichik va o‘rta biznesni muhim drayverga aylantirishning konseptual va strategik yondashuvlarini hamda sohani rivojlantirish borasida fundamental to‘siq va muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy choralari - yangi vositalar va axborot tizimlarini yaratish, kreditlashning mavjud mexanizmlari va qo‘llab-quvvatlash vositalari orqali ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori samara beruvchi yo‘nalish va loyihalarni amalga oshirish;

- milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va diversifikatsiya qilishni, shuningdek, hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish uyg‘unligini ta’minlash maqsadida ishlab chiqarish

kuchlarini samarali joylashtirish, hududlarning mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanish asosida mamlakat sanoatini rivojlantirish strategiyalarini (modellarini) ishlab chiqish;

- asosiy sanoat tarmoqlari va yirik korxonalarni isloh qilish bo‘yicha strategiya va dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

- sanoat tarmoqlarining rivojlanish darajasini monitoring qilib borishda xalqaro tajribada keng qo‘llaniladigan asosiy indikatorlarni aniqlash, «yashil iqtisodiyot» hamda energiya samaradorlikning asosiy prinsiplari va usullarini amaliyatga joriy etish va monitoring qilish uslubiyotini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- respublika sanoat korxonalarining mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, hajmlari, ichki bozor talabining qondirilish darjasini bo‘yicha hamda ichki va tashqi bozorlarda muhim sanoat mahsulotlari narxlarining o‘zgarish tendensiyalari bo‘yicha tahlillar tayyorlash va ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borilishini tashkil etish;

- iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish maqsadlaridan kelib chiqib, hamda iqtisodiy o‘sishga ta’siri nuqtai nazaridan samaradorligi past bo‘lgan yo‘nalishlarni aniqlash asosida davlat ishtiroki mavjud tarmoq va korxonalarni isloh qilish bo‘yicha takliflarni kiritish orqali yaxlit davlat siyosati amalga oshirilishida ishtirok etish;

- davlat ishtirokidagi korxonalarini xususiyashtirish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratish, xususan ular tomonidan ishlab chiqariladigan xizmat va mahsulotlarning erkin va raqobatbardosh bozorini shakllantirish bilan bog‘liq tarkibiy islohotlar bo‘yicha asosiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta’minlash;

- davlat ulushi mavjud strategik tarmoq va korxonalarda mehnat unumdorligini, energiya va boshqa ishlab chiqarish resurslari tejamkorligini oshirish hamda mahsulot tannarxini kamaytirishda zamonaviy mexanizm va yondashuvlarning qo‘llanilishi bo‘yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish;

- barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, sanoat salohiyatini mustahkamlash va hududlarni kompleks rivojlantirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish sohalari va tarmoqlarini aniqlash orqali mamlakatning faol investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiysi, tarmoqlar va hududlarni rivojlantirish strategiyalari va dasturlarini ishlab chiqish;

- davlat investitsiya dasturlarini makroiqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilish hamda bu borada shakllantirilgan xulosalardan kelib chiqib, investitsiya yo‘nalishlarini belgilash;

- davlat investitsiya siyosatining umumiy investitsiyaviy faollikka, shu jumladan xususiy va xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimiga ta’sirini tahlil qilish, prognozlash;

- shaharlarni rivojlantirish bo‘yicha yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, turar joylarni muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilma bilan birgalikda qurishni inobatga olgan holda urbanizatsiya jarayonlarining davlat tomonidan samarali tartibga solinishini ta’minalash, shuningdek, er uchastkalariga oid zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish;

- jahon amaliyotini hisobga olgan holda shahar aholisini joylashtirish tizimini kompleks rivojlantirishni tartibga solish, kichik, o‘rta, katta va yirik shaharlarning samarali nisbatini shakllantirish;

- uy-joy qurilish bozorini ipoteka kreditlari orqali rivojlantirish hamda mavjud uy-joylar fondini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rgangan holda renovatsiya tizimini takomillashtirish va dasturlar ishlab chiqish;

- iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida boshqarish bo‘yicha institutsional islohotlarni amalga oshirish orqali biznes faoliyati sohasidagi asossiz majburiyatlar, taqiqlar va cheklowlarni olib tashlash, joriy tartibga solish jarayonlarini takomillashtirish hamda sohada amaldagi va qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlarning biznes muhitiga ta’sirini baholash;

- xalqaro iqtisodiy reytinglar bilan ishlashda ilg‘or xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda reytinglarni har bir tarkibiy indikatori kesimida mutasaddi vazirlik va idoralarning malakali mutaxassislaridan iborat maxsus ishchi guruhlarni tuzish hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirish;

- mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish strategiyasidan, shu jumladan o‘rta va uzoq muddatli tashqi iqtisodiy muvozanatni

ta'minlash maqsadlaridan kelib chiqib, xalqaro iqtisodiy hamkorlikning ustuvor yo'nalişlarini ishlab chiqish;

- iqtisodiy sohada turli integratsiya birlashmalari bilan, respublika hududlari xorijiy davlatlar hududlari bilan, shu jumladan chegaraoldi hamkorlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollariga ta'sirini keng qamrovli tahlil qilish va kengaytirish;

- xavfsizlikni ta'minlovchi organlarining moddiy-texnika bazalarini rivojlantirish choralarini amalaga oshirish.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikga oid huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar huquqiy tizimining metodik mazmunini o'zida ifoda etadi.

### **6.3. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi davlat va nodavlat tuzilmalarning huquqiy asoslari**

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi organlarining tuzilishi va ular faoliyatining huquqiy asoslariga odatda milliy xavfsizlik tizimining eng muhim tizimlari: Xavfsizlik Kengashi, Qurolli Kuchlar, boshqa huquqni muhofaza qilish organlar va tegishli vazirliklar hisoblanadi. Milliy xavfsizlik birinchi navbatda o'z fuqarolarining xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Xavfsizlikni ta'minlash ko'p sonli qoidalarga asoslanadi. Eng muhimlaridan ba'zilarini umumiyl holda tavsiflaymiz: "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi", O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", "Fuqarolik Kodeksi", "Mehnat Kodeksi", "Jinoyat Kodeksi", "Jinoyat-protsessual Kodeksi", "Milliy xavfsizlik xizmati to'g'risida", "Davlat xavsizlik xizmati to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida", O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligi to'g'risida", "Prokuratura to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasida safarbarlikka tayyorgarlik va safarbarlik to'g'risida", "Favqulodda qutqaruva xizmatlari va qutqaruvchilarning holati to'g'risida", "Yong'in xavfsizligi to'g'risida", "Ekstremistik faoliyatga qarshi kurashish to'g'risida", "Qurok to'g'risida", "Fuqarolik mudofaasi to'g'risida", "Harbiy xizmatchilarni moddiy javobgarligi to'g'risida"gi va boshqa ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalardagi xavfizlikni ta'minlashga qaratilgan qonunlar, qarorlar, farmon va farmoyishlar shular

jumlasidan. Davlatimizning milliy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi tashqi va ichki siyosati kontseptsiyasini ishlab chiqadigan organ Xavfsizlik Kengashi hisoblanadi. Xavfsizlik Kengashining o'z oldiga quygan vazifalari kengash faoliyatida aks etib boradi.

Xavfsizlik Kengashi milliy xavfsizlikni ta'minlash sohasida eng muhim kontseptual hujjatlarida ichki va tashqi siyosati masalalarida quyidagilar ustuvorlikga ega, xususan:

- iqtisodiyot, jamiyat xavfsizligi, axborot xavfsizligi, atrof-muhitni muhofaza qilish va milliy mudofaa masalalarini ko'rib chiqishda;

- xavflarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan salbiy omillarni aniqlash va ularga qarshi turish bo'yicha davlat loyihalarini ishlab chiqadi va nazorat qiladi.

Alovida qayd etish lozimki, davlatning miliy xavfsizligini ta'minlovchi Xavfsizlik Kengashi rahbari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hisoblanadi. Xavfsizlik Kengashi a'zolari mamlakat Prezidenti tomonidan tayinlanadi, unda Bosh vazir, Xavfsizlik kengashi kotibi, Tashqi ishlar vaziri, davlat xavfsizlik xizmati rahbari, mudofaa va ichki ishlar vazirlarining rahbarlari va boshqa tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organ rahbarlari kiradi. Kengash doirasida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha idoralararo doimiy komissiya faoliyat yuritadi. Ushbu komissiya Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatning tegishli qo'mitalari bilan xavfsizlikni ta'minlashning qonunchilik bazasini takomillashtirish borasida xamkorlik qiladi, shuningdek, Xavfsizlik Kengashiga xavfsizlik sohasidagi davlat siyosatining muhim yo'naliishlari bo'yicha takliflar, tavsiyalar ishlab chiqadi hamda bu boradagi turli vazirlik va muassasalar, hududiy boshqaruvi organlari faoliyatini muvofiqlashtirishga ko'maklashadi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik tizimi, me'yoriy-huquqiy baza, xavfsizlik sohasi, xalqaro va mahalliy huquq normalari, davlat va nodavlat tuzilmalarning huquqiy asoslari.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni tartibga soluvchi asosiy me'yoriy-huquqiy baza qanday asosiy qoidalarga asoslanadi?

2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga yondashuvlar ustuvorligi nimalardan iborat?
3. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik tizimining faoliyati nimalarga javob beradi?
4. Iqtisodiy xavfsizlik ta'minlanadigan huquqiy bazani shakllantirishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishida huquqiy tizimni rivojlantirish qanday vazifalarni hal qilishni talab qiladi?
6. Davlatning xavfsizlik strategiyasini aks ettiradigan hujjatlar tizimining eng muhim elementlari nimalardan iborat?
7. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar o'z oldiga qanday vazifalarni belgilaydi?
8. Xavfsizlik choralarini shakllantirish va ularni amalga oshirishni kim tomonidan amalga oshiriladi?

## **7-BOB. MILLIY VA MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLOVCHI HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR**

### **7.1. Huquqni muhofaza qilish organlarining mohiyati, mazmuni va konsepsiysi**

Davlat organi - davlat funksiyalarini ijro etishda qatnashuvchi va buning uchun hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan davlat mexanizmining bug‘ini (unsuri)dir. Ushbu organ hususiyatlarini o‘rganish umuman davlat mexanizmini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

1. Davlat organi muayyan mustakillikka, avtonomlikka ega bo‘lsada, u yaxlit davlat mexanizmining bir qismidir, davlat tarkibida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, uning boshqa qismlari bilan mustahkam aloqada bo‘ladi.

2. Davlat organi o‘zaro va organ bilan alohida huquqiy munosabatlarda bo‘lgan davlat xizmatchilaridan iborat. Ular rasmiy xodimlar bo‘lib, o‘zaro oilaviy, fuqaroviy va boshqa munosabatlarga kirishmaydi. Davlat xizmatchilarining mavqeい, huquqi va burchlari qonunchilik tomonidan belgilanib, ularning huquqiy maqomini ta’minlaydi. Ular tomonidan hokimiyat vakolatlaridan foydalanish hajmi va tartibi qonunchilik tomonidan belgilanib, lavozim yuriqnomalari, shtat jadvallari va shu kabilarda izohlanadi. Hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan, huquqiy hujjatlar chiqarib, ularni mustaqil ravishda hayotga joriy etuvchi mansabdor shaxslar davlat xizmatchilari qatoriga kiradi. Davlat xizmatchilari bevosita moddiy boyliklar yaratmaydi, shu sababdan ularni jamiyat boqadi. Ular egallab turgan lavozimiga hamda bajargan ishiga muvofiq tarzda davlat tomonidan ish haqi oladi.

3. Davlat organlari ichki tuzilishga (tarkibga) ega. Ular yagona maqsad atrofida uyushgan bo‘linmalardan iborat bo‘lib, hamma uchun bir xil bo‘lgan tartib-intizomga rioya etadi.

4. Davlat organining eng muhim belgilaridan biri vazifa muayyan mohiyatga va xajmga ega bo‘lgan hokimiyat vakolatlari (huquq va majburiyatlar yaxlitligi)ning mavjudligida. Uning vakolat davlat organi tomonidan ular bo‘yicha qabul qiladigan va bajaradigan) aniq masalalar va vazifalar bilan belgilanadi.

5. O‘z vakolatiga muvofiq ravishda davlat organi quyidagi hokimiyat vakolatlariga ega:

a) ijro etilishi majburiy bo‘lgan huquqiy hujjatlar.

Bu hujjatlar me’yoriy yoki individual (huquq me’yorlarini qo‘llashga doir hujjat) bo‘lishi mumkin.


b) davlat organlari huquqiy hujjatlarining ijrosi turli usullar shu jumladan majburlash va ishontirish tarzida ijro etilishini ta’minalash.

6. O‘z vakolatini amalga oshirish uchun davlat organi zarur moddiy baza bilan ta’milanadi moliyaviy mablag‘lar, bankdagi hisobraqami moliyalash manbaiga (byudjet hisobidan) ega bo‘ladi.

7. Davlat organi davlat vazifalarini bajarishda faol qatnashadi buning uchun tegishli shakl va usullardan foydalanadi.

Xuquqni muhofaza qiluvchi organlar – ichki ishlar, prokuratura, adliya organlari, davlat xavfsizlik xizmati, milliy gvardiya, soliq, bojxona xizmati, shuningdek, advokatura, Oliy majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasinnig milliy markazi, Interpolning Milliy markaziy byurosi hisoblanadi (3-rasm).

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tuzilishini belgilab beruvchi konstitutsiyaviy, ma’muriy, iqtisodiy, jinoyat protsessual va boshqa bir qator qonunchilik sohalarining normalari kiradi. Masalan, konstitutsiyaviy huquq normalarida O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va davlat tuzilishi, butun davlatning huquqini muhofaza qilish mexanizmini, jumladan, uning muhim organlari bo‘lgan sud va prokuratura organlarini tashkil etish belgilab berilgan.



**3-rasm. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar**

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning davlat organlari tizimidagi o‘rni shu bilan belgilanadiki, ular davlatning huquqni

muhofaza qilish funksiyasini bajarish uchun maxsus yaratilgan. Bu esa ularning asosiy va bosh ishidir. Shu bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati boshqa davlat va boshqaruv organlarining funksiyasidan ajratib turiladi. Bu ularning davlat organlari bilan aloqasini istisno qilmaydi, lekin huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mustaqilligini talab qiladi.

## **7.2. Huquqni muhofaza qilish faoliyati konsepsiysi va uning asosiy yo‘nalishlari, maqsadi va vazifalari**

Davlat tuzilmasi va davlat chegaralari daxlsizligini ishonchli himoya qilish, inson huquqlari va erkinliklariga og‘ishmay rioya etish, jamiyatdagi millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, tinchlik va osoyishtalik - demokratik huquqiy davlat qurishning hamda mamlakatni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim shartlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish borasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida, shuningdek, 2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi vazifalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018 yil 14 martdagи “O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5379-son Farmoni qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qiluvchi maxsus vakolatli organ etib belgilangan.

Ushbu farmonga muvofiq Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatini tashkil etishning ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

- Xizmatning maxsus vakolatli davlat xavfsizlik organi sifatidagi huquqiy maqomi, vakolatlari va faoliyat yo‘nalishlarini aniq belgilab beruvchi mustahkam qonunchilik bazasini yaratish;

- bugungi kundagi xavf-xatarlar va tahidlarga qarshi kurashishning ta’sirchan shakl hamda uslublarini joriy etish;

- yuzaga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy vaziyatni inobatga olgan holda davlat xavfsizligini ta'minlash borasidagi vazifalarni bajarishda mavjud kuch hamda vositalardan samarali foydalanish imkonini beruvchi tashkiliy tuzilmani shakllantirish;

- xizmat faoliyatini davlat xavfsizligini ta'minlash ishlarining shakl va uslublari, shuningdek, ñizmat harbiy xizmatchilarining idoraviy mansubligi haqidagi ma'lumotlar oshkor bo'lishini istisno etuvchi konspiratsiya tamoyili asosida tashkil etish;

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga og'ishmay rioya etilishini kafolatlaydigan ta'sirchan mexanizmlarni joriy qilish;

- O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini munosib himoya qilishga qodir, har tomonlama etuk va vatanparvar yoshlarni Xizmatga jalg etishga qaratilgan kadrlarni tanlash va tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini yaratish;

- mehnatga munosib haq to'lash, uy-joy va maishiy shart-sharoitlarni yaxshilash, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish orqali Xizmat harbiy xizmatchilarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish.

Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

- O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishni ta'minlash, mazkur sohada qonuniylik va qonun ustuvorligini mustahkamlash, huquqbazarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish;

- O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligiga tajovuzlarning oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga barham berish bo'yicha razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasining Davlat chegaralarini qo'riqlash va himoya qilish;

- O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari va mudofaa-sanoat majmuasini davlat xavfsizligiga xavf-xatarlar hamda tahdidlardan himoya qilish, mamlakat mudofaa qobiliyatini

mustahkamlash bo‘yicha strategik tashabbuslarni amalga oshirishda ishtirok etish;

- terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilikka, quroq-yarog‘, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish;

- davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib etishga qaratilgan buzg‘unchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash va unga barham berish;

- iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy va axborot sohalarida davlat xavfsizligini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi xalqining tarixiy-madaniy va boy ma’naviy merosini himoya qilish;

- davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi korrupsiya holatlariga qarshi kurashish; telekommunikatsiya va transport sohasida davlat xavfsizligini ta’minlash, favqulodda holatlarni yuzaga keltiruvchi omillarning oldini olish, aniqlash va ularga barham berish;

- xizmat tergov qilish vakolatiga kiruvchi jinoyat ishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov olib borish va tezkorqidiruv faoliyatini amalga oshirish;

- davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat sirlari saqlanishi, maxsus aloqa xavfsizligining ta’minlanishi hamda axborotlarni kriptografik himoya qilishni tashkil etish ustidan nazoratni amalga oshirish;

- davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi huquqbazarliklar sodir etilishiga imkon beradigan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

- xizmatning jangovor va safarbarlik tayyorgarligi holatini takomillashtirish va saqlab turish, kuch va vositalarni favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan hamda harbiy holat joriy qilingandagi harakatlarga tayyorlash.

O‘zbekiston Respublikasi davlat organlari tizimida Prokuratura alohida o‘rin tutadi. U mamlakatimizning butun hududida qonunlarnig fuqarolar, mansabdor va yuridik shaxslar tomonidan bir xilda tushunilishi va qullanilishi nazorat qiladi.

Prokuratura organlari qonuniylik, markazlashganlik, birlik, mahalliy va boshqa davlat organlaridan mustaqil prinsiplari asosida

faoliyat ko'rsatadi. Barcha prokurorlar faqat O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuroriga bo'y sunadi.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustah-kamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat.

Prokurorlar qonunlar va Oliy Majlis qabul qilgan qarorlarning hamda quyi turuvchi hokimiyat va boshqaruva organlarining qonun osti hujjatlarining bajarilishini qat'iy nazorat qiladilar, qonuniylik va huquq tartibotning ta'minlanishi bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiradilar.

Prokuratura organlari o'z faoliyatini quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiradi:

- vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

- fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

- tezkor-qidiruv faoliyatni, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

- jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish;

- sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda iqtisodiy nizolarni ko'rishda ishtiroy etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish;

- soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valyuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbazarliklarga qarshi kurashga, shuningdek davlatga

etkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

- ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

- qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish.

Prokuratura organlarining tizimi quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi prokururasi;

- viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari;

- tumanlar va shaharlar prokuraturalari;

- viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururasi, O'zbekiston Respublikasi Transport prokururasi;

- tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar;

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi huzurida Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosi, shuningdek ularning joylardagi bo'linmalari faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori prokuratura organlariga rahbarlik qiladi va ular faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi bilan murojaat etishi mumkin;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi majlislarida ishtirok etadi, muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan fikr bildiradi, qonun hujjatlarini qo'llash bilan bog'liq masalalar bo'yicha Plenum tushuntirishlar berishi xususida takliflar kiritadi;

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi hay'atining tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi takliflarni O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga kiritadi;

- prokuratura organlari xodimlariga darajali unvonlar beradi va oliy darajali unvonlar berish to'g'risidagi taqdimnoma bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat etadi;

- prokuratura organlari xodimlarini O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofotlariga taqdim etadi;
- prokuratura organlari xodimlarini «O‘zbekiston Respublikasi prokuratorasining faxriy xodimi» ko‘krak nishoni bilan taqdirlaydi;
- buyruqlar chiqaradi hamda prokuratura organlarining tarkibiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;
- chet el davlatlarining tegishli organlari bilan hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlar tuzadi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Mamlakatimizda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tarkibidagi Adliya organi huquqni qo‘llash amaliyoti va norma ijodkorligi faoliyatida qonuniylikka qat’iy rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha faoliyati samaradorligini oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida uning rolini kuchaytirish, mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish Konsepsiyasining qoidalarini izchil amalga oshirish maqsadida faoliyat ko‘rsatadi.

Adliya organining asosiy faoliyat yo‘nalishlari quyidagilardan iboratdir:

- norma ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyoti sohasida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni, qonun ustuvorligini, davlat va jamiyat qurilishi sohasida qonuniylikni ta‘minlashga qaratilgan yagona davlat siyosatini izchil amalga oshirish;

- demokratik, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarning qonunchilik bazasini izchillik bilan takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish; amaldagi qonun hujjatlaridagi «oq dog‘lar»ni, shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimida korrupsiyaning kelib chiqishiga, boshqa huquqbuzarliklar sodir etilishiga sharoit yaratayotgan qoidalar va normalarni aniqlash;

- markazda va joylardagi davlat boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat tuzilmalari faoliyatida inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi ustidan samarali nazoratni ta‘minlash;

- sud hokimiyati mustaqilligini yanada mustahkamlashga, sud hujjatlarining so‘zsiz ijro qilinishiga, sudlar faoliyatini har tomonlama moddiy-texnik va moliyaviy ta‘minlashga yo‘naltirilgan davlat

siyosatini izchil amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- nodavlat notijorat tashkilotlar, boshqa fuqarolik jamiyatni institutlari faoliyat ko‘rsatishining qonuniyligini, tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishni, ularning aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qilishda, ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar rivojlanish dasturlarini amalga oshirishda, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalashda faol ishtirokini ta’minlash; mamlakatda ro‘yxatdan o‘tgan xalqaro va xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatida qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan tizimli monitoring o‘tkazish;

- kichik biznes, xususiy tadbirkorlik subyektlari, xorijiy investorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining ishonchli himoya qilinishini ta’minlash; shartnomaviy-huquqiy intizomni mustahkamlash, shartnomalarni tuzish va bajarishda xo‘jalik yurituvchi subyektlarga amaliy huquqiy yordam ko‘rsatish, ularning moliya-xo‘jalik faoliyatiga noqonuniy aralashishlarga, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik subyektlari, fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish sohasida ma’muriy to‘sinq va g‘ovlarni yaratishga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- notariat, advokatura, FHDYO organlari hamda fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tuzilmalar faoliyatining samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan davlat tomonidan tartibga solish tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash;

- tegishli davlat organlari bilan birgalikda xalqaro-huquqiy munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarining ishonchli huquqiy himoya qilinishini ta’minlash;

- jamiyatda aholining huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni oshirishga va qonuniylikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalarining huquqiy targ‘ibot va ma’rifat sohasidagi faoliyatini samarali muvofiqlashtirishni amalga oshirish;

- davlat va jamiyat qurilishi sohasini demokratlashtirishning zamonaviy talablari va jarayonlarini hisobga olgan holda huquqshunos kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish bo‘yicha faoliyatni nazorat qilish va muvofiqlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya tizimining tashkiliy tuzilmasi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi markaziy apparatining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligining tuzilmalari, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalaridan iboratdir.

Adliya organinig asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni, qonun ustuvorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan jamiyat va davlat qurilishi sohasida norma ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosatini izchil amalga oshirish;

- davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat tuzilmalarining norma ijodkorligi faoliyatini tizimli tahlil qilishni tashkillashtirish, ular tomonidan kiritiladigan yoki qabul qilinadigan qonun hujjatlari va boshqa hujjatlar loyihibarining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonun hujjatlariga, mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning maqsad va vazifalariga, shuningdek qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligini aniqlash yuzasidan har tomonlama ekspertizani amalga oshirish; amaldagi qonun hujjatlarida «oq dog‘lar»ni, shuningdek davlat hokimiysi va boshqaruvi tizimida korrupsiyaning kelib chiqishiga, boshqa huquqbazarliklar sodir etilishiga sharoit yaratayotgan qoidalar va normalarni aniqlash;

- fuqarolik jamiyati institutlarining har tomonlama rivojlanishini, ularning aholining turli qatlamlari huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalashda faol ishtirokini huquqiy ta’minlashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalarida mustahkamlangan inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni ta’minlash;

- nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat ko‘rsatishining qonuniyligini, tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishni ta’minlash; mamlakatda ro‘yxatdan o‘tgan xalqaro va xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatida qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan tizimli monitoring o‘tkazish;

- jamiyatda aholining huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni oshirishga va qonuniylikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan davlat

organlari, jamoat birlashmalarining huquqiy targ‘ibot va ma’rifat sohasidagi ishlarini samarali muvofiqlashtirishni amalga oshirish;

- sudlar faoliyatini har tomonlama moddiy-texnikaviy va moliyaviy ta’minalash, sud hujjatlarining so‘zsiz ijro etilishiga, sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlashga yo‘naltirilgan davlat siyosatini, tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- notariat, advokatura, FHDYO organlari hamda fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tuzilmalar faoliyatining samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan davlat tomonidan tartibga solish tizimini izchil takomillashtirib borish;

- bozor islohotlarini chuqurlashtirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik subyektlarining, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta’minalash, bu sohada byurokratik to‘sinqa va g‘ovlarni yaratishga yo‘l qo‘ymaslik;

- shartnomaviy-huquqiy intizomni mustahkamlash, shartnomalarni, eng avvalo qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasida shartnomalarni tuzish va bajarishda xo‘jalik yurituvchi subyektlarga amaliy huquqiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- tegishli davlat organlari bilan birgalikda xalqaro-huquqiy munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarining samarali huquqiy himoya qilinishini ta’minalash;

- davlat va jamiyat qurilishi sohasini demokratlashtirishning zamonaviy talablari va jarayonlarini hisobga olgan holda huquqshunos kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish bo‘yicha faoliyatni nazorat qilish va muvofiqlashtirishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasida sud O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro hujjatlarda e’lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sud yo‘li bilan himoya qilishga da’vat etilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi qonuni 2000 yil 14 dekabr kuni 162-II-son bilan qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasida: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi; O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi; harbiy sudlar; Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudi, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari; Qoraqalpog‘iston Respublikasi jinoyat ishlari bo‘yicha sudi, jinoyat ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari; Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy sudlari; Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma’muriy sudlari; fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari; jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlari; tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlari; tuman (shahar) ma’muriy sudlari faoliyat ko‘rsatadi.

Sudlar - hokimiyatning butun tarmog‘ini tashkil etuvchi maxsus ogandir. Fuqarolarning huqularini qonunga zid ravishda buzuvchi mansabdor shaxslarning xatti harakati ustidan belgilangan tartibda sudga murojaat qilish mumkin. Ma’muriy va jinoiy ishlab bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirish ham qat’iy sudlarning vaklatidir. Shuning uchun ular ma’lum ma’noda jamiyatdagi ahloqiy ruhiy muhitni shakllantiradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning organlari katta murakkab tuzilishga ega. Bu huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidan kelib chiqadi. Ichki ishlar vazirligi va organlarining muhim vazifasi qonuniylik va huquq tartibotini muntazam mustahkamlab borish, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashishdir.

Ichki ishlar vazirligi va uning organlari tezkor qidiruv faoliyatini tashkil qiladilar va ta’minlaydilar, o‘z vakolatlaridagi ishlar bo‘yicha surishtiruv va dastlabki tergovni ta’minlaydilar, tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar, O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar hamda milliy xavfsizlikni saqlash bo‘yicha boshqa tadbirlarning o‘tkazilishiga ko‘maklashadilar.

Ichki ishlar organlari ishining muhimligi huquqiy davlatni shakllantirish, O‘zbekiston Respublikasida huquq tartibotni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishni kuchaytirish zaruriyati, korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha qat’iy tadbirlar ko‘rish munosabati bilan oshib bormoqda.

Advokatura - fuqarolar va tashkilotlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, odil sudlovni amalga oshirish, qonuniylikni saqlash va mustahkamlash, fuqarolarni qonunlarini aniq va so‘zsiz bajarish ruhida tarbiyalash, boshqa shaxslarning huquqlari, sha’ni va qadr qimmatiga hurmatda bo‘lishga ko‘maklashadi.

Interpol - xalqaro politsiya tashkilotidir. U jinoyatchilikka qarshi kurashni muvofiqlashtiradi. Milliy politsiya (militsiya) muassasalariga jinoyatchilikka qarshi kurash, ayniqsa, bir mamlakat hududida jinoyat qilgan jinoyatchini boshqa mamlakatda yashiriningan yoki xalqaro jinoyatchilar guruhi jinoyat sodir etgan hollarda yordam beradi.

Interpol ma’lumotlar va eng yaxshi kriminalistik vositalar, yangi texnikalar, jumladan, turli mamlakatlarning poliyasiyachilari foydalanadigan kompyuterlarning namunalari tuplangan. Interpol orqali uning a’zosi bo‘lgan har qanday mamlakat u yoki bu texnika turini sotib olishda maslahat va yordam olishi mumkin.

Interpol jinoyatlarning yaxshi yulga quyilgan hisobotlariga ega. Uning ishida kontrabanda, narkobiznes, qurol sotish, qalbaki pul yasash, suratlar, ikonalar va boshqa milliy madaniy buyumlarni o‘g‘irlashga qarshi kurash alohida o‘rin tutadi. Oxirgi 10-15 yil ichida Interpol xalqaro terrorizmga ham qarshi kurasha boshladi. Interpol siyosatdan tashqari turishga harakat qiladi va BMT bilan xamkorlik qilayotgan nohukumat tashkilotlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq tizimi - Davlat soliq qo‘mitasi, uning joylardagi organlaridan iborat. Soliq organlari yagona davlat soliq siyosati o‘tkazish, mamlakatimiz iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuzilgan. Davlat soliq qo‘mitasining o‘z vakolati doirasidagi qabul qilingan qarorlari mahalliy hokimiyat organlari, vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar, fuqarolar tomonidan bajarilishi shart. Davlat soliq qo‘mitasi soliq qonunlarini ta’minlash borasidagi yagona davlat organi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasini asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- davlat soliq siyosatini amalga oshirish hamda soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi yuzasidan nazoratni ta’minlash;

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalariga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq o‘z vaqtida va bir xildagi tushumini ta’minlash hisobiga davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalarining daromad qismini barqaror shakllantirish;

- soliq to‘lovchilar va soliq solish obyektlarining o‘z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta’minlash, ularning to‘liq qamrab olinish mexanizmlarini soliq ma’muriyatichiligi jarayoniga ma’lumotlarni to‘liq yig‘ish va qayta ishlashni ta’minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg‘or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish orqali takomillashtirish;

- soliq solinadigan bazani kengaytirish bo‘yicha tahlil qilish va ta’sirchan choralar ishlab chiqish, shu jumladan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali ta’sirchan choralar ishlab chiqish, soliqlar yig‘ilishini oshirish bo‘yicha choralarini amalga oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

- pul mablag‘larining g‘ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining to‘liq va o‘z vaqtida topshirilishi yuzasidan muntazam nazoratni ta’minlash;

- bozorlar va savdo komplekslarining moliya-xo‘jalik faoliyati, ular tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish hamda ularning hududida aniqlangan huquqbazarliklar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazib, jinoyat ishlarini tergovga tegishliligiga ko‘ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish;

- soliq to‘lovchilar o‘z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishi uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish, har bir xodim tomonidan "Soliq xizmati - insofli soliq to‘lovchilarning ishonchli hamkor" degan maqsadli vazifani so‘zsiz bajarish;

- soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish, soliqqa oid huquqbazarliklarning profilaktikasi, ularni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha kompleks tadbirlarni bajarish;

- soliq to‘lovchilarga muloqotsiz elektron xizmat ko‘rsatishga to‘liq o‘tish yo‘li orqali soliq to‘lovchilar bilan ishlashni takomillashtirish;

- qonun hujjatlarini takomillashtirish va soliq to‘lovchilarning faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha takliflar kiritish;

- kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, davlat soliq xizmati organlarini yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan malakali xodimlar bilan to‘ldirish, shuningdek, kadrlarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish;

- davlat soliq xizmati organlari xodimlariga korporativ etikani singdirish, korrupsiya faktlariga keskin barham berish bo‘yicha ta’sirchan choralarni, shu jumladan xodimlar manfaatlarining to‘qnashuvini hal qilish yo‘li bilan amalga oshirish, ishga rasmiyatchilik bilan yondashishga barham berish, shuningdek, xodimlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta’minalash, o‘z xizmat faoliyati samaradorligini oshirish motivatsiyasi tizimini joriy etish va ular uchun xizmatni o‘tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish;

- hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha davlat soliq xizmati organlariga biriktirilgan sektorlarda soliq solish sohasidagi tizimli muammolarni o‘rganish va aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Bojaxona organlari - O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojaxona qo‘mitasi, uning markaziy apparati, Davlat bojaxona qo‘mitasining xududiy boshqarmalari, maxsus bojaxona komplekslari va bojaxona postlaridan tashkil topgan. Shundan kelib chiqib, ushbu bo‘linmalar Davlat bojaxona ko‘mitasining organlari tizimini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bojaxona xizmati to‘g‘risida”gi 472-I-sonli qonuni 1997 yil 29 avgust kuni qabul qilingan. Davlat bojaxona organlari asosiy vazifasi quyidalardan iborat:

- yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish;

- O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va o‘z vakolati doirasida uning iqtisodiy xavfsizligini ta’minalash;

- bojaxona siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

- bojxona haqidagi qonun hujjalariга rioya etilishini nazorat qilish;
- bojxona to‘lovlarini undirish;
- bojxona nazoratidan o‘tkazilishi kerak bo‘lgan tovarlar va transport vositalari shunday nazoratdan o‘tkazilishini ta’minalash;
- bojxona haqidagi qonun hujjalari buzilishining, shu jumladan kontrabandaning oldini olish, uni aniqlash va ularga chek qo‘yish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatga doir bojxona statistikasini hamda tovar nomenklaturasini yuritish;
- O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining bojxona ishiga oid qismidan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta’minalash.

Jamiyat hayotining barcha tomonlarini erkinlashtirish va isloh qilishning hozirgi bosqichi talablariga muvofiq iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, davlat tuzilmalarining hokimiyat vakolatlarini qisqartirish, davlat va xo‘jalik boshqaruvi vazifalarini aniq chegaralab qo‘yish, shuningdek respublika davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini oshirishdan iborat.

Vazirliliklar, davlat qo‘mitalari, agentliklar, shuningdek ular huzuridagi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etiladigan davlat boshqaruvi tuzilmalari respublika davlat boshqaruvi organlari jumlasiga kiradi.

### **7.3. Davlat boshqaruvi organlari tizimi**

Davlat hokimiyatini amalga oshirish masalasi barcha zamonlarda dolzarb bo‘lgan va hozir ham shunday. Davlatning institutsiyaviy elementi - davlat hokimiyatining uyushtirilishi, tashkillashtirilganligi, ya’ni tashkilot sifatida rasmiylashtirilganlidir. Davlatni tashkilot sifatida turli nuqtai-nazardan talqin etish mumkin. Teran ma’noda, davlat - bu mamlakatning butun aholisini qamrab oladigan ierarxik (pog‘onama-pog‘ona uyushgan) tashkilot bo‘lib, bunda aholi davlatning boshlang‘ich elementi hisoblanadi. Aholining bu uyushmasi - tashkilotida, bir tomonda – “boshqariluvchi fuqarolar” bor, ikkinchi tomonda - butun tashkilotni boshqaruvchi organlari mavjud.

Davlatga o‘z hokimiyatini amalga oshirish imkonini beruvchi tashkiliy - moddiy kuch - bu davlat boshqaruv organi(apparati)dir. Bu

apparat davlatning nimadan tashkil topganligini anglatadi. Davlat apparati - davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi organlar tizimi. U davlat oldida turgan maqsad va vazifalarni bajarishga qaratilgan asosiy funksiyalarini ado etadi. Apparat - jamiyatda boshqaruvni amalga oshiruvchi lavozimli xodimlar va boshqaruv organlari yig‘indisidir. Davlat va huquq nazariyasida davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi maxsus tashkilot “davlat apparati” atamasi bilan ifodalanadi<sup>24</sup>.

Davlat organlari bevosita davlat funksiyalarini amalga oshirishga qaratilgan, o‘zaro bog‘liqdir va nisbiy mustaqil bo‘lgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sudlov organlari(tashkiliy tuzilmalar)ning hamkorlikda faoliyat yurituvchi yagona tizimidir. Mazkur organlar davlati apparatining bir qismi hisoblanib, davlat funksiyasini amalga oshiruvchi ma’lum davlat hokimiyati vakolatlariga ega bo‘lgan, bajarilishi majburiy huquqiy hujjatlar chiqaradigan, ma’lum tartibda tashkil etilgan idoralardir. Davlat organlari tuzilishi jihatidan alohida va mustakil tashkilot ekanligi, doimiy personallar - davlat xizmatchilarining mavjudligi, faoliyatining moddiy-moliyaviy jihatdan barqaror ta’minlanganligi bilan ajralib turadi.

Davlat organlarining belgilari quyidagilardan iborat:

Operativ boshqaruvda bo‘lgan ommaviy mulkka ega va byudjet tomonidan moliyalashtiriladi. Davlat organlari o‘z vakolatini amalga oshirish uchun moddiy mablag‘ bilan ta’minlanadi. Shuningdek, moliyaviy qimmatliklar, bankdagi hisob raqami, byudjet hisobidan moliyalanish manbaiga ega bo‘lishi shular jumlasidandir. Masalan, barcha vazirliklar uzining bankdagi shaxsiy hisob raqamiga ega hamda tegishli davlat xizmatchilariga maosh to‘lash, ularning xizmat faoliyati uchun zarur texnik vositalar va boshqa jihozlar sotib olish uchun davlat byudjetidan doimiy ravishda moliyaviy mablag‘lar ajratiladi.

Davlat nomidan muayyan holda uning vazifa va funksiyalarini amalga oshiradi. Davlat organlari jamiyat hayotining turli sohalarida faoliyat yuritadi. Jumladan, davlatdagi huquqiy tartibotni ta’minlash sohasini Ichki ishlar vazirligi, prokuratura organlari amalga oshirsa, davlatning tashqi funksiyalarini Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, mamlakat mudofasini esa Mudofaa

---

<sup>24</sup> Odilqoriyev X.T., Tul’teyev I.T., va boshqalar. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik // prof. X.T.Odilqoriyev tahriri ostida. - T.: Sharq, 2009. - 592 b.

vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati va boshqa organlar amalga oshiradi.

Hokimiyat vakolatlariga egaligi. Davlat organlari muayyan hokimiyat vakolatlariga egaligi bilan boshqa davlat muassasalari va tashkilotlaridan farq qiladi. Davlat organlari ishontirish va majburlash usullaridan foydalangan holda qonun va boshqa normativ - huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlaydilar. Davlat tashkilotlari va muassasalari esa bu kabi hokimiyat vakolatlariga ega emas.

Tarkibiy tuzilishga egaligi. Davlat organlari xizmat turlari va tarkibiy miqdoriga ko'ra muayyan tuzilishga ega. Masalan, ijro etuvchi hokimiyat organlari vazirlik va davlat qumitalaridan iborat; vazirlik (qo'mita) tarkibi esa bosh boshqarma, boshqarmalar, bo'lim, bo'linmalar tarzida tashkil etiladi. Masalan, Adliya vazirligida qonunchilik bosh boshqarmasi, Ichki ishlar vazirligida Tergov bosh boshqarmasi, Jinoyat qidiruv bosh boshqarmasi va boshqa tuzilmalar mavjud.

Hududiy faoliyat miqyosiga egaligi. O'zbekiston Respublikasi markaziy davlat organlarining faoliyat ko'lami butun O'zbekiston hududini qamrab oladi, mahalliy davlat organlarining faoliyati esa faqatgina tegishli viloyat, shahar, tuman hududi miqyosida amalga oshiriladi.

Qonun vositasida tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasida barcha davlat organlari qonun yuli bilan tashkil etiladi va tegishli qonunlarda belgilab quyilgan tartib hamda vakolatlar asosida faoliyat yuritadi. O'zbekiston Respublikasida noqonuniy tashkilotlar tuzish qat'ian man etiladi. Davlatimiz asosiy qonunining 57-moddasida quyidagilar ta'qidlangan: Konstitutsiyaviy tuzumni zurlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib quyuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, halqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, xarbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish qat'ian man qilinadi.

Davlat organlarining turlari. Davlat organlari xilma-xil bo‘lib, ular turli vazifa va funksiyalarni amalga oshiradi. Ular faoliyati mazmuni va mezonlariga ko‘ra turlicha tasniflanadi:

Davlat faoliyatini amalga oshirish shakli bo‘yicha: vakillik, ijroiya, sud organlari va prokuratura organlariga ajratiladi. Davlat organlarini tasniflashning dastlabki asosi - ularning konstitutsiyaviy bo‘linishidir. Yagona davlat hokimiyati Konstitutsiyada belgilangan xalq hokimiyatchiligi va demokratizm prinsiplari asosida tarkibiy-funksional belgiga ko‘ra alohida organlarga bo‘linadi.

Vakillik organlari. O‘zbekiston Respublikasida markaziy va mahalliy vakillik organlari mavjud. O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi respublikada qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi davlatning oliy vakillik organidir. Ikki palatali Oliy Majlis (Qonunchilik palatasi va Senat) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq o‘z vakolatiga kiradigan har qanday masalani o‘z muhokamasiga qabul qilish va hal etish huquqiga ega.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyat va tumanlardagi Xalq deputatlari kengashlari mahalliy davlat hokimiyati organlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘i va Konstitutsianing kafili hisoblanadi. U davlat hokimiyati organlarining faoliyatini muvofiqlashtirib turadi hamda ularning hamkorligini ta’minlaydi. Prezident O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish choralarini ko‘radi; fuqarolarning huquq va erkinliklari ta’minlanishining kafili bo‘ladi; mamlakat ichkarisida va halqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘radi; vazirliklar, davlat qumitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi; O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini parlament tasdig‘iga kiritadi, Bosh vazirning taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a’zolarini tasdiqlaydi va lavozimlaridan ozod qiladi; O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi, qonunchilik tashabbusi huquqlaridan foydalanadi; O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh qumondoni hisoblanadi; Konstitutsiyaviy sud bilan bamaslaxat qabul qilinadigan qaror asosida parlamentni yoki uning palatalaridan birini tarqatib yuborishi mumkin;

Konstitutsiya va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Ijroiya organlar. Vazirlar Maqkamasi - iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy sohalarning samarali faoliyat ko‘rsatishiga, O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va Oliy Majlisning hamda uning palatalarining qarorlarini ijro etilishini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon, farmoyish va qarorlar bajarilishini ta’minlovchi ijro organi. Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir. Ijro etuvchi organlar vazirliklar va davlat qumitalaridan iborat tarzda tarkib topadi.

Sud hokimiyati organlari O‘zbekiston Respublikasida besh yil muddatga saylanadigan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasining Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasining Oliy xo‘jalik sudi, Qaroqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, Qaroqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, xarbiy va xo‘jalik suddaridan iborat. Favqulodda sudlar tuzishga yul quyilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi - barcha normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligini nazorat qiladi. U siyosat va huquq sohalaridagi mutaxassislar orasidan Konstitutsiyaviy sud raisi, rais o‘rribosari va sudyalaridan, shu jumladan Qaroqalpog‘iston Respublikasi vakilidan iborat tarkibda sayланади.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma’muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Qaroqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudlari, viloyat, shahar, tumanlararo, tuman sudlari va Xarbiy sudlarning faoliyati ustidan nazorat olib boradi. Oliy sud

tomonidan qabul qilingan hujjatlar qatiy va bajarilishi barcha uchun majburiydir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sndlari - mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar hamda tadbirkorlar o‘rtasidagi, iqtisodiyot va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo‘jalik nizolarini hal etish masalasi bilan shug‘ullanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Qaroqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudi, viloyatlar xo‘jalik sndlari ustidan nazoratni amalga oshiradi. Xo‘jalik sndlari tumanlar miqyosida tashkil etilmaydi.

Prokuratura organlari. O‘zbekiston Respublikasi hudud qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga buysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga busunuvchi prokurorlar barcha vazirliklar, davlat qumitalari, idoralar, davlat nazorati idoralari, hokimlar, shuningdek, kimning tasarrufida bo‘lishidan va mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, muassasalar, xarbiy qismlar, jamoat birlashmalar, mansabdor shaxslar, fuqarolarning qonunlarni aniq va bir xilda ijro etishlari ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Yuqoridaan quyiga qarab buysunuviga (ierarxiyaga) kura: markaziy va mahalliy davlat organlari. O‘zbekiston Respublikasida davlat organlari pog‘onama-pog‘ona buysunish tamoyili asosida tashkil etilgan bo‘lib, mahalliy organlar markaziy organlarning itoatida bo‘ladi. Markaziy davlat organlari chiqargan normativ-huquqiy hujjatlar mahalliy davlat organlari uchun majburiy hususiyatga ega. Shuningdek, mahalliy davlat organlari tomonidan qabul qilingan huquqiy hujjatlar markaziy davlat organlari tomonidan bekor qilinishi mumkin. Masalan, Vazirlar Mahkamasining barcha qaror va farmoyishlari mamlakatning barcha viloyatlari, Toshkent shahri hokimlari uchun majburiy hususiyat kasb etadi, viloyat, Toshkent shahar hokimining qarori faqatgina u raxbarlik qilayotgan viloyat (shahar) hududda amal qiladi va bu qarorni yuqori turuvchi organ rahbari Bosh vazir yoki Prezident bekor qilish huquqiga ega.

Vakolat muddatiga ko‘ra: doimiy va vaqtinchalik davlat organlari. Doimiy organlar - faoliyat muddati cheklanmagan, doimiy faoliyat olib boruvchi davlat organlari. O‘zbekiston Respublikasidagi

huquqni muhofaza qiluvchi organlarini doimiy faoliyat olib boruvchi organlar sifatida ko'rsatish mumkin. Masalan, prokuratura, ichki ishlar, soliq, bojxona organlari va boqshalar. Vaqtinchalik organlar - jamiyat oldida turgan biron - bir muhim vazifani muayyan muddat davomida amalga oshiruvchi va mazkur ishlar yakun topishi bilan o'z faoliyatini tuxtatuvchi organlar hisoblanadi. Masalan, turli xil tabiiy ofatlar yuz berganda yoki ommaviy tartibsizliklar yuzaga kelganda davlat tomonidan ushbu xavfni bartaraf etish bo'yicha Hukumat komissiyasi yoki "operativ shtab" tashkil etiladi. Mazkur komissiya yoki operativ shtab yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha muayyan muddat davomida faoliyat yuritadi.

Shakllanish manbaiga ko'ra: Birlamchi va ikkilamchi davlat organlari. Birlamchi davlat organlari - halq tomonidan to'g'ridan - tug'ri saylash yuli bilan tashkil etiladigan organlar. O'zbekiston Respublikasida Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati (qisman) saylash yuli bilan tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ham xalq tomonidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudining raislari va sudyalari Senat tomonidan saylanadi. Ikkilamchi davlat organlari - xalq tomonidan saylangan, tashkil etilgan yoki shaxslar tomonidan shakllantiriladigan davlat organlari. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xalq saylagan Prezident va Oliy Majlis tomonidan shakllantiriladi. Vazirliklar va davlat qumitalari Prezident tomonidan tashkil etiladi.

Vakolatni amalga oshirish tartibiga kura, kollegial organlar va yakka tartibda vakolatni amalga oshiruvchi organlar. Kollegial organlar - o'z ish faoliyatini jamoaviy tarzda, ya'ni kollegial asosda tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida qonunlar deputatlarning jamoaviy muhokamasi va umumiyo'vozi asosida qabul qilinadi. Mahalliy xalq deputatlari kengashlari ham kollegial tarzda faoliyat yuritadi. Yakka tartibda faoliyat yurituvchi davlat organlari - mazkur organ rahbarlari xizmat faoliyatida muayyan bir ish yuzasidan jamoa bilan maslaxatlashuv yoki muhokama qilish shaklidan ma'lum bir ma'noda mustaqil bo'ladi va o'zi yakka holda qaror qabul qiladi. Bunga Prezident, Bosh vazir, Bosh prokuror, hokim va boshqalarni misol tarzida ko'rsatib utish mumkin. Ta'kidlash joizki, yakka tartibda qaror qabul qilish va ish

yuritish faqat katta vakolat, huquqina emas, balki ulkan mas’uliyat hamdir.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Davlat organi, ijro etish, hokimiyat vakolati, muhofaza qiluvchi organlar, davlat tuzilmasi, sud hokimiyati, nodavlat notijorat tashkilotlar.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Davlat organi deb nimaga aytildi?
2. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tuzilishini nima belgilab beradi?
3. Davlat tuzilmasi va davlat chegaralari daxlsizligini ishonchli himoya qilish nimalardan iborat?
4. “O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5379-sonli Farmon qachon qabul qilingan?
5. Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatini tashkil etishning ustuvor yo‘nalishlari nimalardan iborat?
6. Interpol nimalardan keng foydalanadi?
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasini asosiy vazifalari nimalardan iborat?
8. Davlatning institutsiyaviy elementlarini sanab o‘ting?

## **8-BOB. MILLIY VA MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI ANIQLASHDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY INDIKATORLAR VA ULARNING ASOSIY YO'NALISHLARI**

### **8.1. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni aniqlashdagi ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar tasnifi**

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllarini uning subyekti va obyektlari nuqtai-nazaridan turkumlash mumkin. Xavfsizlik subyekti nazaridan milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni umumlashtiradi, uning tarkibida: miliy va mintaqaviy ichki iqtisodiy xavfsizligi, miliy va mintaqaviy tashqi iqtisodiy xavfsizligi, xalqaro moliyaviy tashkilotlarda ishtirok etish bilan bog'liq xavf-xatarlar kabi shakllarda namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda xavfsizlik xo'jalik faoliyati sohalarida yuzaga kelishi nuqtai-nazaridan asosan uch yo'naliш, ya'ni ishlab chiqarish-xo'jalik, xo'jalik-iste'mol va moliyaviy sohalar bo'yicha turkumlanadi<sup>25</sup>. Bizning nazarimizda ushbu uch yo'naliш bacha mamlakatlar uchun umumiш bo'lgani bilan, ayrimlari uchun qo'shimcha yo'naliшlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, O'zbekiston uchun halqaro bozorlarga chiqishda yangi transport yo'llari, zamonaviy kommunikatsiyalar ham muhim hisoblanadi. Shuningdek, aholining turmush darajasi, daromadlar bo'yicha tabaqlanishi bilan bog'liq ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash ham katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, bizning fikrimizcha, iqtisodiy xavfsizlikni ishlab chiqarish-xo'jalik, xo'jalik-iste'mol va moliyaviy, transport kommunikatsiyalari va ijtimoiy sohalar bo'yicha turkumlash maqsadga muvofiqdir.

Ishlab chiqarish-xo'jalik sohasida energetik va texnologik xavfsizlikni ta'minlash muhim hisoblanadi. Energetika resurslari iqtisodiy resurslar ichida muhim o'rinn tutadi. Bu resurslar har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik xom ashyo hisoblanib, milliy va mintaqaviy salohiyatini, mustaqil rivojlanish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Mamlakat iqtisodiyoti energetik xom ashyo resurslarining importiga bog'liq bo'lib qolsa, u holda iqtisodiy mustaqillikka erishish

<sup>25</sup> Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. – М.: Изд-во РАГС, 2001. – с. 39.

mushkul muammoga aylanadi. Texnologik xavfsizlikning ta'minlanishi istiqbolda fan, texnika va texnologiya yutuqlaridan o'z vaqtida va to'liq foydalanish imkoniyatini, intelektual salohiyatdan xo'jalik faoliyatida foydalanish darajasini ifodalaydi. Shu boisdan energetik va texnologik xavfsizlikning ta'minlanishi mamlakat iqtisodiyotining salohiyati, qudrati va mustaqilligini, raqobatbardoshligini ifodalaydi.

Energetika xavfsizligini ta'minlash uchun yoqilg'i energetika resurslarini ishlab chiqishni ko'paytirish, iste'molchilarga etkazib berish va ularni sotish tizimini tashkil etish bilan bog'liq muammolarni hal etish lozim bo'ladi. Yoqilg'i energetika resurslarini qidirib topish, qazib olish va dastlabki qayta ishslashni yo'lga qo'yish hamda uning hajmlarini ko'paytirish orqali milliy iqtisodiyot ehtiyojlarini to'liq qondirish mumkin bo'ladi. Buning oqibatida energiya resurslarini chetdan tashib keltirishga barham berilib, energetika mustaqilligiga erishiladi.

Energetika xavfsizligini ta'minlash uchun neft, gaz va boshqa hozirgi davrda ishlatilayotgan energiya resurslaridan tashqari uning yangi turlari, manbalarini izlab topish va ulardan foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirish lozim bo'ladi. Shu boisdan respublikamizda quyosh va shamol energiyasi, geotermal energiya, ya'ni o'rtacha temperaturasi 45 C° (gradus) bo'lgan suvlardan, biomassa va maishiy qattiq chiqindilardan, to'yintirilgan urandan (atom energiyasidan) keng foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, energetika resurslarini ishlab chiqarish hajmlarini o'stirish bilan birga ulardan tejab, samarali foydalanish chora-tadbirlarini ham ko'rish lozim bo'ladi. Buning uchun bu sohada ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnika va texnologiyani yangilash kabi ishlar amalga oshirilishi lozim.

Texnologik xavfsizlik mamlakat iqtisodiyotinnig ilg'or texnika hamda texnologiya bilan jihozlanganligi va qurollanganligi, boshqa mamlakatlardan keltiriladigan texnologiyaga qaram emasligini ifodalaydi. Shuningdek, fan va texnika yutuqlaridan foydalanish darjasini, intelektual, innovatsion va injenerlik salohiyatining himoyalanganligini ham aks ettiradi. Texnologik xavfsizlik milliy va mintaqaviy iqtisodiy qudratini ifodalab, o'zining yuqori texnologiyasiga asoslangan, jahon bozorlarida o'xshashi yo'q,

raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishda o‘z ifodasini topadi<sup>26</sup>.

Uning asosiy ko‘rsatkichlari ilmtalab va yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarilishi hisoblanadi. Ushbu xavfsizlik fan-texnika sohasidagi tadqiqotlar asosida yangi texnika va texnologiyani rivojlantirishni ham taqozo etadi.

Texnologik xavfsizlik iqtisodiyotda mukammal texnologik jarayonni o‘z ichiga olgan, ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, milliy va xorijiy ilg‘or texnologiyalardan, intelektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan to‘liq hamda samarali foydalanish asosida ta’milanadi. Buning uchun respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va chuqur tarkibiy jihatdan o‘zgartirish amalga oshirilmoqda. Bularning natijasi o‘laroq, sanoatda yuksak texnologiyaga asoslangan va istiqbolli tarmoqlarning, chunonchi, mashinsozlik, yoqilg‘i energetika, kimyo va engil sanoat kabilarning hissasi ortib bordi. Shuningdek, respublika uchun tamomia yangi bo‘lgan avtomobilsozlik sanoati vujudga keltirildi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish yo‘li bilan, radioelektronika va elektronika sohalarini rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Engil va oziq-ovqat sanoati uchun asbob-uskunalar, qishloq xo‘jaligi uchun kichik mexanizatsiya vositalari ishlab chiqarishni ta’minlovchi boshqa istiqbolli tarmoqlar va halq iste’mol mollari ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bu esa ishlab chiqarishni jadal modernizatsiya qilish, zamonaviy quvvatlarni ishga tushirish, iste’mol bozorini sifatli va raqobatga bardoshli mahsulotlar bilan to‘ldirish asosida nafaqat texnologik, shu bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ham ta’minalash imkoniyatini beradi.

Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisining asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan etarli darajada ichki imkoniyatlardan foydalangan holda ta’milanishini, importga bog‘liqlikni minimum darajasiga erishishni ifodalaydi.

Har bir mamlakat agrar sektori islohotidan ko‘zlangan bosh maqsad, oziq-ovqat ta’moti mustaqilligiga erishish bo‘lib, bu katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. O‘zini-o‘zi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minalash zaruriyati mamlakatda mustaqillik,

<sup>26</sup> Кушлин Г. Мировые технологические тенденции и экономическое переустройство России // Экономист, 1998. - № 7; Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. – М.: Изд-во РАГС, 2001. – с. 410.

milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish shartlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillika erishganidan so'ng oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun ikki yo'nalishda chora-tadbirlar amalgamoshirildi:

- qishloq aholisi tomorqa maydonlarini kengaytirish va yangilarini ajratib berish;

- qishloq xo'jaligi ekinlari tarkibi qayta ko'rib chiqildi.

Bularning oqibatida payta maydonlari qisqartirilib, don ekinlari, sabzavot, mevali bog', uzumzor va em xashak ekinlari maydonlari ko'paytirildi. Mamlakat don mustaqilligi dasturi qabl qilinib, sug'oriladigan erlardagi bug'doy ekishga ajratilgan er maydonlari kengaytirildi. Buning natijasida tarixan qisqa davr ichida mamlakatimiz don mustaqilligiga erishdi.

Oziq-ovqat xavfsizligi xo'jalik faoliyati natijasida tabiatga texnogen ta'sir etishning kuchayishi muammosi bilan ham bog'liqdir. Hayot faoliyati makonning buzilishi, tabiiy resurslarga iste'mol talabaning o'zgarishi atrof-muhitning, ekologiyaning yomonlashuviga olib keladi. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta'minlash zaruratini keltirib chiqaradi. Ekologik xavfsizlik tabiiy muhitga tuli noxush ta'sirlardan, tabiiy ofat va halokatlardan hamda insonlarning va xo'jalik subyektlarining atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishidan himoyalanganlikni ifodalaydi. Atrof muhitning shunday hususiyatlari majmui mavjuddirki, ularning inson faoliyati natijasida o'zgarishiga hech yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu xususiyatlar iqtisodiy adabiyotlarda "ekologik imperativ" degan tushuncha bilan izohlanadi<sup>27</sup>. Mazkur tushuncha tabiiy muhit bilan insonning fiziologik va ijtimoiy xususiyatlari o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi. Inson va tabiiy muhit, tabiat va jamiyat o'rtasidagi nisbatning buzilishi, avvalambor, inson hayot faoliyatiga, jamiyat rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan atrof-muhit, ekologiyani saqlash va muhofaza qilish hayotiy zaruratga aylanadi.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmi tabiiy resurslardan foydalanish va atrof muhitga ta'sir etish bo'yicha belgilangan norma, normativlar, kvotalarga qat'iy rioya etish, ularga rioya etmaganlik uchun iqtisdiy saksiyalarni qo'llash, ekologik

<sup>27</sup> Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. – М.: Изд-во РАГС, 2001. – с. 49.

xavfsizlik darajasini oshirishni rag‘batlantirish, soliq imtiyozlari berish, imtiyozli kreditlash, byudjetdan moliyalashtirish, shuningdek, favqulodda vaziyatlar uchun moddiy va material resurslar zahiralarini barpo etish va ularning noxush oqibatlarini bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish, qurilish quvvatlarini barpo etishni o‘z ichiga oladi.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik turlaridan yana biri moliyaviy sohadagi faoliyat bilan bog‘liq xavfsizlik hisoblanadi. Moliyaviy xavfsizlik mamlakat va uning hududlari ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va rivojlanish uchun zaruriy moliyaviy sharoit va resurslarning yaratilganligi, moliyaviy tizimning yaxlitligini saqlash hamda ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlar tahdidiga muvaffaqiyatli qarshilik ko‘rsatishni ifodalaydi. Bu xavfsizlik pul, byudjet, kredit, soliqqa tortish va valyuta tizimlarida vujudga keladigan tahidlarning oldini olish, ulardan muhofazalanish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy tavsifdagи xavfsizlik aholining eng boy va eng quyi tabaqlari daromadlari o‘rtasidagi farq, ishsizlik, kambag‘allik va qashshoqlik muammosi, turli yuqumli kasalliklar ko‘لامи kengayishini oldini olish zaruratida o‘z ifodasini topadi.

Mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda, uning jahon iqtisodiy tizimiga integratsilashuvida ichki va tashqi transport yo‘l va aloqa kommunikatsiyalari tizimining yaratilishi oqibatida transport yo‘l va aloqa kommunikatsiyalar xavfsizligi ta’minlanadi.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni aniqlashdagi ijtimoiy-iqtisodiy turlarning mohiyati, vujudga kelish sabablarini o‘rganish, milliy manfaatlarga tahidlarni aniqlash ularning oldini olish va ulardan muhofazalanish chora-tadbirlari ishlab chiqish va vujudga keltirishga imkon beradi. Buning uchun ushbu xavf-xatar va xavfsizlikni ta’minlashdagi ijtimoiy-iqtisodiy tahidlarni o‘rganish lozim bo‘ladi.

## **8.2. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar uning guruhlari**

Tahdid jamiyat, davlat va ularning subyektlari, alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga, ular manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga

to'sqinlik qiluvchi, ziyon-zahmat keltiruvchi, xavf-xatar tug'duruvchi omillar, shart-sharoitlar va voqealiklarni ifodalaydi. Rossiyalik olim L.P.Goncharenko boshchiligidagi bir guruh olimlarning fikrlariga ko'ra tahdid-xavf-xatarning aniq va bevosita shakli yoki davlat, jamiyat, korxona, shaxs, shuningdek, milliy qadriyatlar va milliy turmush tarziga xavf soluvchi sharoitlar va omillardir<sup>28</sup>.

Ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarga tahdidlar ularning ta'sirida vujudga keladigan noxush va salbiy oqibatlar bilan bog'liq ravishda qaralib, xavf-xatar manbai sifatida izohlanadi. Ularni quyidagi belgilar bo'yicha xilma-xil turkumlarga ajratish mumkin:

- tahdidlarning manbalari, kelib chiqishiga ko'ra: ichki va tashqi guruahlarga ajratiladi;

- inson faoliyati sohalari bo'yicha: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, harbiy, millatlararo munosabatlardagi, ekologik, demografik, ilmiy-texnikaviy, texnologik, intelektual, informatsion, xom ashayoviy tahdidlarga bo'linadi;

- amalgaloshish ehtimoli bo'yicha, ya'ni ma'lum shat-sharoitlar toqazosi bilan vujudga keladigan tahdidlarga: inqiroz, qayta qurish, isloh etish, qarama-qarshilik, sherikchilik tufayli vujudga keladigan tahdidlar kiradi;

- oqibatiga ko'ra umumiyyat, ya'ni mamlakat miqyosida ta'sir ko'rsatuvchi, lokal, ya'ni ma'lum hududga ta'sir ko'rsatuvchi, xususiy, ya'ni ayrim xo'jalik subyektlariga ta'sir ko'rsatuvchi tahdidlar turkumlanadi<sup>29</sup>.

Ijtimoiy-iqtisodiy tahdidlarni eng umumiyyat tarzda ichki va tashqi guruahlarga ajratib o'rghanish mumkin. Tashqi tahdidlar geosiyosiy, tashqi-iqtisodiy, shuningdek, global ekologik omillar bilan, ichki omillar esa mamlakat ichida vujudga keladigan omillar bilan tasniflanadi.

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga va jamiyat, davlat, xo'jalik yurituvchi subyektlar, fuqarolarning iqtisodiy manfaatlariga ijtimoiy-iqtisodiy tahdidlar bevosita xavf tug'diradi. Bu tahdidlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishni izdan chiqarib, jamiyat hayotida tanglik

<sup>28</sup> Экономическая безопасность: учебник для вузов // под общ. ред. Л.П.Гончаренко. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Изд-во Юрайт, 2018. – с. 9.

<sup>29</sup> Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. – М.: Изд-во РАСС, 2002. – с. 63.; Экономическая безопасность как основа обеспечения национальной безопасности Россия // Вопросы экономики, 2001. - № 8. – с. 71-73.

holatlarining keltirib chiqaradi. Ijtimoiy-iqtisodiy tahdidlarning ichki va tashqi omillarini inobatga olgan holda milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikka tahdid qiluvchi ko'rsatkichlarni quyida ko'rib chiqamiz.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar davlatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soladigan quydagi jarayonlar va hodisalar ta'siri ostida shakllanishi mumkin:

- mintaqadagi korxonalarning past raqobatbardoshligi, xom ashylardan samarasiz foydalanish, yuqori energiya va material iste'mol sarfi, yoqilg'i-energetika mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlarining yuqoriligi;

- ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish va aholi ko'payishining normal jarayonlari buzilishi;

- ayrim tarmoqlarning monopolashganligi, ularning boshqa hududlarda konsentratsiya darajasi, hududiy monopolianing yuzaga kelishi;

- ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlarining, ayniqsa uy-joy-kommunal xo'jaligining yuqori darajadagi eskirishi va kommunikatsiya tizimining yomonlashishi;

- samarali talabni qondirish uchun ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning etarli darajada rivojlanmaganligi;

- mintaqada institutsional infratuzilma, tovarlar, ishchi kuchi va kapital bozorlarining shakllanishidagi qoloqlik;

- tabiiy resurslardan foydalanish darajasi, tabiatni muhofaza qilish faoliyati va ekologik xavfsizlikning pastligi;

- yuqori ishsizlik darajasi, turmush darajasining pastligi;

- ijtimoiy infratuzilma obyektlarining rivojlanmaganligi;

- iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajalarining hududiy tabaqlanish tafovutida farqning kattaligi;

- samarasiz soliq va moliyaviy tizimlarning amal qilishi;

- mintaqaga boshqaruvning iqtisodiy, ijtimoiy va mintaqaviy siyosatini olib borishidagi qarorlari va harakatlarining samarasizligi;

- jinoyatchilikni oshib borishi va jinoiy vaziyatning yomonlashishi;

- eksportga nisbatan import darajasining yuqoriligi;

- chegara hududlarida xavfsizlik choralarining sustligi.

Har qanday iqtisodiy xavfsizlikka tahdid qiluvchi jarayonlar milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

### **8.3. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari**

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy darajalari va iqtisodiy-tabiiy salohiyatidagi farqlarni kamaytirish hamda iqtisodiy xavfsizligini ta’minalash uchun hududiy va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgandir.

Mintaqani iqtisodiy rivojlantirishni barqarorlashtirish strategiyasini asoslashning quyidagi yo‘nalishlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

- mintaqa rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish;
- bu bosqichda hududning erishgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasini tahlil qilish;
- mintaqani iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish strategiyasini asoslash;
- rivojlanishni prognoz qilish;
- strategiyaga asoslanib, hudud rivojlanishini tartibga solish metodlarini tanlash;
- konsepsiya ishlab chiqish va hudud rivojlanishini davlat va bozor mexanizmlari orqali tartiblash metodlarini tanlash;
- mintaqaning moliyaviy resurslari o‘sishini prognoz qilish;
- davlat byudjetning daromad qismini kengaytirish va mustahkamlash yo‘llarini izlash;
- davlat byudjetining daromad qismini to‘ldirishning yangi manbalarini aniqlash, turli mulkchilik shakllariga asoslangan tadbirkorlikdan, xorijiy investorlar va nobyudjet jamg‘armalaridan qo‘sishcha mablag‘larni jalb etish.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda davlat tomonidan hududlarni rivojlantirishni tartibga solish maqsadida quyidagi dasturlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda:

1. Sanoatni rivojlantirish dasturlari;

2. Qishloq xo‘jalagini rivojlantirishni tartibga solish.

Bunda quyidagi tartiblash usullaridan foydalanilmoqda:

- hududlarda mahsulot hajmini, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarini va hududlarning ixtisoslashuvini tartibga solish;

- qishloqda ijtimoiy va bozor infratuzilmasini vujudga keltirish;

- qishloq xo‘jaligi yerlarining meliorativ ahvolini yaxshilash;

- qishloq xo‘jalik korxonalar moddiy-texnika bazasini yaxshilash va mustahkamlash, ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha korxonalar tarmog‘ini yaratish;

- tabiatni muhofaza qiluvchi va gidrotexnik qurilmalarni qurish;

- zarar kurib ishlovchi va past rentabellik qishloq xo‘jaligi korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash.

Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturiga muvofiq qishloqda mulkdorlar sinfini va samarali ishlab chiqarish usullarini joriy etishni davom ettirish, tuproq unumdarligini oshirish, seleksiya va urug‘chilikni yaxshilash, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi hajmlarini o‘stirish chora-tadbirlari ko‘riladi.

3. Hududlar eksport salohiyatidan samarali foydalanish va qo‘shma korxonalarini tashkil etishni tartibga solish;

Endilikda respublika hududlarida, ayniqsa kam rivojlangan hududlarda qo‘shma korxonalar tashkil etish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish maqsadida maqsadli dasturlar tuzish hamda ularni rag‘batlantirish uchun soliq, bojxona, kredit imtiyozlari mexanizmini yaratish maqsadga muvofiqdir.

4. Transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish;

Hududlarda temir yo‘llar, avtomobil yo‘llarni qurish hududiy siyosatning muhim qismi hisoblanadi. Buning oqibatida hududlarning viloyatlararo, tumanlararo va tashqi iqtisodiy aloqalari kuchayadi, tadbirkorlik va biznes rivojlanishi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay muhit yaratiladi.

5. Hududlarning ijtimoiy rivojlanishini tartibga solish.

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini tuzishda ma’lum tamoyillarga asoslanish kerak bo‘ladi. Bu tamoyillar mintaqaviy iqtisodiyot nuqtai-nazaridan quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlash chora-tadbirlarning maqsadliligi;

- mintaqani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha resurslarni to‘plash va yo‘naltirish;
- belgilangan harakatni nazorat qilish va tartiblash imkoniyatlarining ochiqligi;
- mintaqani rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashning individualligi;
- qo‘llab-quvvatlash mexanizmining ta’sirchanligi;
- respublika va mahalliy hokimiyat organlarining hamkorligi hamda ular faoliyatining uyg‘unligi.

Mintaqaviy dasturlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Mintaqaviy dasturlarni bajarishga to‘sinqlik qiluvchi holatlar va omillarni aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Mintaqalarni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilinadigan dasturlarning bajarilishiga ko‘pincha quyidagi omillar to‘sinqlik qilishi mumkin:

- respublika va mintaqaviy maqsadli dasturlarni tanlashning sinalgan tizimlarining mavjud emasligi, ularni amalga oshirish va ularni bajarish ketma- ketligining etarli darajada asoslanmaganligi;
- respublika tarmoq dasturlari mintaqaviy jihatlarining etarli darajada ishlanmaganligi;
- tarmoq dasturlari mintaqaviy jihatlari monitoringining yo‘qligi;
- respublika va mintaqaviy dasturlarni amalga oshirish mexanizmining mustahkam emasligi.

Respublika va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda maqsadli dasturlash uslubidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Pirovard natijaga erishish uchun iqtisodiy resursslarni yo‘naltirishni ta’minlashni ifodalaydi. Uning yordamida eng muhim iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanish muammolari hal etiladi.

Maqsadli dasturlar o‘rta va uzoq muddatga muljallab korxona, mamlakat va xalqaro miqyosda tuziladi. Dasturlar o‘z ichiga pirovard va oraliq maqsadlarni, vazifalarni, ularni amalga oshirish chora-tadbirlarini, resurslar ta’minotini olishi kerak.

Dasturlar maqsadli o‘lchamga ega bo‘lishi, chora-tadbirlar tizimi esa pirovard va oraliq maqsadlarni amalga oshirish nuqtai-nazaridan ishlab chiqilishi lozim.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ko‘zlangan asosiy

maqsad mintaqaviy iqtisodiyotni uning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va tashqi manbalarni jalb etish yo‘li bilan mutanosib va oqilona rivojlantirishdan iboratdir.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Xavfsizlik subyekti, xavf-xatarlar, energetik va texnologik xavfsizlik, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik xavfsizlik, moliyaviy xavfsizlik, strategiya, transport-kommunikatsiya.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo‘lish shakllarini tushuntirib bering?
2. Energetik va texnologik xavfsizlik nimalardan iborat?
3. Texnologik xavfsizlik nimalardan iborat?
4. Oziq-ovqat xavfsizligining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyatini tushuntiring?
5. Ekologik xavfsizlik nima va uning o‘rni nimalardan iborat?
6. Moliyaviy xavfsizlik ahamiyati va uning vazifalari nimalardan iborat?
7. Ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarga tahdidlarni tavsiflang?
8. Mintaqani iqtisodiy rivojlantirishni barqarorlashtirish strategiyasini asoslashda qanday asosiy yo‘nalishlar inobatga olinadi?

## **3-MODUL. MILLIY VA MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MEXANIZMI**

### **9-BOB. MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMI**

#### **9.1. Jahon iqtisodiy tizimida milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning tutgan o'rni va uning manfaatlariga tahdidlar**

Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligiga iqtisodiyotning erkinlashuvi va ochiqligi bilan bog'liq xavf-xatarlar va tahdidlar mavjud bo'ladi. Ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlik uchun quyidagilar taqozo etiladi: birinchidan, jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etish bilan milliy ishlab chiqarish uchun qulay sharoitlar yaratish; ikkinchidan, jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy noxush hodisalar salbiy oqibatlarining milliy iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirishga erishish. Alohida ta'kidlash joizki, ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi tahdidlar ta'sirini butunlay yo'q qilish, unga barham berish mumkin emas. Ammo ularning ta'sirini maqbul darajada kamaytirish lozim bo'ladi.

Jahon iqtisodiy tizimining milliy va mintaqaviy iqtisodiy manfaatlariga ko'rsatadigan tahdidlari xavfsizlikning tashqi tahdidlarni vujudga keltiradi. Xavfsizlikka ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar quyidagilardan iborat: birinchidan, eksport tarkibida xom ashyo tovarlarining ustuvorligi; ikkinchidan, an'anaviy mashinasozlik va harbiy sanoat tovarlari bozorlaridan mahrum bo'lish; uchinchidan, mamlakatning import mahsulotlariga qaramligi; turtinchidan, import tarkibining ratsional emasligi; beshinchidan, tashqi qarzlarining o'sib borishi; oltinchidan, eksport va valyuta nazoratining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi; ettinchidan, bojxona chegaralarining etarli darajada belgilanmaganligi; sakkizinchidan, raqobatga bardoshli eksportni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy, tashkiliy va axborot infratuzilmalarning rivojlanmaganligi hamda import tarkibining ratsional emasligi; to'qqizinchidan, eksport-import operatsiyalariga xizmat ko'rsatuvchi transport infratuzilmalarning rivojlanmaganligi.

Eksport tovarlariga narxlarning keskin pasayib ketishi yoki aksincha import tovarlariga narxlarning keskin ko'tarilib ketishi tashqi

bozorga g‘oyatda bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyot uchun o‘ta xavfli hisoblanadi.

Iqtisodiyot uchun muhim sotish bozorlari yoki mahsulot etkazib beruvchi mamlakatlar guruhi bilan savdoga embargo kiritilishi ham xavf tug‘diradi. Shuningdek, bir mamlakatdan yoki mamlakatlar guruhidan ayrim turdag‘i mahsulotlarni keltirishda yuqori darajadagi qaramlikka, bog‘liqlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Chunki bu iqtisodiy qaramlikdan siyosiy jihatdan ta’sir ko‘rsatishda foydalanishlari mumkin. Xorijiy mamlakatga moliyaviy jihatdan o‘ta yuqori darajada bog‘liqlikka ham yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Bu holatdan qarzdor mamlakat iqtisodiy siyosatiga va tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish sharoitlariga ta’sir o‘tkazishda foydalanishlari shubhasizdir.

Ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar tajribalari shuni ko‘rsatmoqdaki, eksportning bunday tarkibi jahon bozori infratuzilmasi yomonlashgan sharoitida, ularga bo‘lgan talabning kamayishi oqibatida iqtisodiyot halokat yoqasiga kelib qolishi mumkin. Eksport qilanayotgan xom ashyo resurslarining jahon boziridagi narxlarining tushib ketishi oqibatida uning tashqi savdo aylanmasi pasayib ketadi. Natijada, valyuta tushumi kamayadi. Bu hol mamlakat uchun zarur investitsiya loyihalarining bajarilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Hatto milliy valyutasi qadrining tushib ketishiga ham olib keladi. Shuningdek, xom ashyo ishlab chiqaruvchi milliy korxonalarining iqtisodiy moliyaviy ahvoli yomonlashadi. Ularning bir qanchasi xonavayron bo‘ladi, ko‘pchiligi esa ishlab chiqarish hajmini kamaytirishga majbur bo‘ladilar. Oqibatda, ish bilan band xodimlar soni qisqarib, ishsizlik ko‘payadi. Davlat byudjetidan aholini ijtimoiy himoyalashga ajratiladigan mablag‘ ko‘payib, ijtimoiy muammolar ham birmuncha keskinlashadi, milliy iqtisodiyotning rivojlanish sur’atlari sekinlashadi yoki turg‘unlikka, tanglikka yuz tutadi.

Ochiq iqtisodiyotga o‘tish kuchli darajadagi proteksionizmdan voz kechishni taqozo etadi. Ammo mamlakatni jahon xo‘jaligiga kirib borishi nuqtai-nazaridan istiqbolli, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni himoya qilish, ya’ni selektiv proteksionizm zarurdir. Iqtisodiy xavfsizlik nuqtai-nazaridan vatanimizda ishlab chiqarilgan tovarlar sotish bozorlarini, import xom ashyo va sanoat mahsulotlari manbalarini diversifikatsiyalash, ko‘plab mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqa qilish, bir mamlakat bilan

yomonlashgan munosabatlar o‘rniga boshqa mamlakatlar bilan dustona munosabatlar rivojlantiriladi.

Iqtisodiyot chuqur inqirozga uchragan va kapital mablag‘larni unga jalg qilish keskin kamayib ketayotgan sharoitida xorijiy investitsiyalar ba’zi bir sohalarda iqtisodiy o‘sish katolizatori bo‘lishi mumkin. Xorijiy investitsiyalarni jalg qilish mexanizmi xorijlik hamkorlarning moliyaviy va moddiy resurslarini milliy iqtisodiyotga real kiritishga undashi lozim. Ular tomonidan moddiy boyliklarni arzon garovga ko‘plab sotib olinishiga yo‘l qo‘yish mumkin emas. Shunday qilib, xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga keng jalg qilish choralarini ko‘rish bilan bir qatorda bu jarayonlarni tartibga solish ham darkor. Bunda milliy manfaatlarga rioya qilgan holda, xorijiy kompaniyalarning minimal mablag‘lari evaziga butun bir tarmoqlar ustidan o‘z nazoratini o‘rnatishlariga yo‘l qo‘ymaslik lozim bo‘ladi.

Butun dunyoda milliy valyuta qadri mamlakat iqtisodiy ahvolining indikatori hisoblanadi. Mamlakatdan moliyaviy mablag‘larning katta miqdorda chiqib ketishi, ya’ni “kapitalning qochishi” milliy iqtisodiy xavfsizlikka bo‘lgan jiddiy tahdidlardan biridir. Mablag‘larning chetga chiqib ketishining legal, ya’ni ochiqdan ochiq yo‘li tijorat banklari tomonidan xorijiy banklar hisob schetlariga katta miqdordagi mablag‘larning o‘tkazilishi hisoblanadi. Noqonuniy, ya’ni yashirin yo‘llarga esa quyidagilar kiradi:

- eksportda mahsulot narxini pasaytirib, importda oshirib ko‘rsatish. Bunda fiktiv va haqiqiy narx o‘rtasidagi farq xorijiy kompaniyalar tomonidan vatanimizdagi ishbilarmonning xorijdagi bankdagi schetiga o‘tkaziladi;

- import uchun “avans” o‘tkaziladi, ammo import sodir bo‘lmaydi va h.k.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda har yili nolegal yo‘l, xufyona faoliyat orqali topilgan 300 mlrd.dollar noqonuniy pullar legallashtiriladi. 1990 yili Evropa kengashi tomonidan jinoyatkorona yo‘l bilan topilgan daromadlarni musodara qilish to‘g‘risida Konvensiya qabul qilingan, ammo uni kam sonli davlatlar ratifikatsiya qilganlar.

Mamlakatning nafaqat iqtisodiy, shuningdek, siyosiy ahvoliga ham jiddiy xavf tug‘diruvchi tahdidlardan biri tashqi qarz muammosidir. Tashqi qarzning yuqori darajadaligining o‘ziyoq milliy

manfaatlarga mos keladigan tashqi siyosat yuritishni shubha ostiga qo‘yadi. Mamlakat qarz bergan yirik kreditor mamlakatlarga qaram bo‘lib qoladi. Tashqi qarzlarni to‘lash uchun mamlakat qarzlaridan kreditlarni belgilangan muddatlarda to‘lashni kafolatlaydigan ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirishda foydalanish hamda yangi obyektlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportini kengaytirish hisobiga tashqi qarzlarni to‘lash mumkin.

Tashqi iqtisodiy tahdidlarga mamlakatga investitsiya kiritgan xorijlik investorlarning noxolis va noqonuniy hatti harakatlari ham kiradi. Ularning mamlakatning strategik ahamiyatga molik resurs va foydali qazilma boyliklarini mamlakatdan olib chiqib ketishga bo‘lgan faoliyatları jiddiy xavf tug‘diradi. Shu boisdan, xorijiy investitsiya va kreditlardan mamlakatning milliy iqtisodiy manfaatlari yo‘lida foydalanish mexanizmi yaratilishi kerak bo‘ladi.

Shunigdek, mamlakatnnig xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a’zo bo‘lishi bilan bog‘liq tahdidlar ham mavjud. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning mamlakat milliy manfaatlariga zid qarorlari va faoliyati milliy manfaatlarga zid kelgan holda davlat o‘z xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur bo‘ladi.

Davlat iqtisodiy manfaat va xavfsizlikka tahdidlarni aniqlab, ularning oldini olish maqsadida iqtisodiy siyosat maqsadlari va strategiyalarini ishlab chiqadi. Bu bilan iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmini yaratadi.

O‘zbekistonda qabul qilingan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iborat bo‘lib, respublikada iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

## **9.2. Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash**

Bozor munosabatlari sharoitida davlat milliy iqtisodiyotga aralashib, bozor mexanizmining amal qilishiga ko'maklashadi va aholini uning salbiy oqibatlaridan himoyalash chora-tadbirlarini ko'radi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishdan ko'zlangan asosiy maqsadi bozor munosabatlarini muayyan va ma'lum yo'nalishda rivojlantirib, iqtisodiy tanglik, tahdid va xavf-xatardan himoyalash hamda aholi turmush darajasining pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.

Davlatning milliy iqtisodiyotga aralashuvi ko'lami va darajasi uning imkoniyatlariga mos ravishda bo'lib, bozor mexanizmlariga, xo'jalik subyektlarining erkin faoliyat yuritishi uchun qulay iqtisodiy muhit yaratilishiga imkon berishi lozim bo'ladi. Shuningdek, davlat xo'jalik tizimining raqobatbardoshligini oshirish, biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini rag'batlantiradi.

Davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solishning quyidagi yo'nalishlarida faoliyat yuritadi:

- milliy iqtisodiyotdagagi jarayonlarni obyektiv, keng qamrovli monitoring, shu jumladan, shaxs, davlat va jamiyatning muhim hayotiy manfaatlariga ichki hamda tashqi tahdidlarni aniqlash va prognozlashtirish uchun axborotlar bazasini yaratish;

- milliy iqtisodiy manfaatlarga tahdidlarning oldini olish, salbiy oqibatlarini engish hamda barham berish bo'yicha joriy va uzoq muddatli chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish. Bunda davlatning milliy iqtisodiy xavfsizligi strategiyasini amalga oshirish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish va nazorat qilish chora-tadbirlarining natijalari baholanadi.

Davlatning milliy iqtisodiyotga aralashuvi dastaklarini xo'jalik subyektlarining rivojlanishi va faoliyatini tartibga solish imkoniyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat institutsional o'zgarishlar, tarkibiy siyosatni amalga oshirish orqali milliy iqtisodiyotning samarali amal qilishi uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida moliyaviy, pul-kredit, investitsiya va tashqi iqtisodiy sohalarni faol tartibga soladi.

Mamlakat milliy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda davlat xarbiy-sanoat bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini oshirishda turli usullardan foydalanadi:

- ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish;
- strategik xom ashyo resurslari va kamyob vositalar zahirasini yaratish;
- bir-birini o'rnini bosuvchi va to'ldiruvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etish;
- yer osti inshootlari va omborlarni qurish;
- ishlab chiqarishni boshqarishning ishonchli tizim va manzillarini rivojlantirish va h.k.

Mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda davlatning faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi va makroiqtisodiy barqarorligiga xavf tug'diruvchi omillarni aniqlash va monitoring qilish;
- xavf tug'diruvchi omillarning zararli, salbiy ta'siriga barham berish yoki yumshatishga qaratilgan milliy iqtisodiy siyosatni shakllantirish va institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgandir.

Mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda halqaro, mintaqaviy, ijtimoiy va davlat muassasalari (institutlari)dan hamda ularning faoliyat uslublari, huquqiy, diplomatik, diniy, g'oyaviy, ma'muriy, iqtisodiy, xarbiy, informatsion va boshqa chora-tadbirlaridan foydalaniladi.

Mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligi sohasidagi qo'llanuvchi siyosiy vositalarda mamlakat milliy iqtisodiyotiga boshqa mamlakat yoki bir necha mamlakatlar tomonidan etkazilishi mumkin bo'lgan zarar, iqtisodiy huruj, tahdidlardan himoyalanish maqsadida turli chorallardan foydalaniladi.

Mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligi sohasidagi qo'llanuvchi siyosiy vositalar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- BMT va BMTning Xavfsizlik kengashida mamlakat milliy iqtisodiy manfaatlariga mos keladigan rezolyusiyalarini qabul qilinishiga erishish;

- Xalqaro arbitraj yoki boshqa mamlakatga iqtisodiy tazyiq, tahdidlar yuzasidan murojaat qilish;

- Muzokaralar o‘tkazilishini tashkil qilish va amalga oshirish;
- Halqaro iqtisodiy tashkilotlarda a’zo bo‘lib yoki kuzatuvchi maqomida mamlakat milliy iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirish maqsadida faoliyat yuritish;
- O‘zaro manfaatli xalqaro iqtisodiy hamkorlik shartnomalarini ratifikatsiya qilish va h.k.ni ko‘rsatish mumkin.

### **9.3. Mamlakat ichki iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash**

Mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning ichki mexanizmida yuqorida bayon etilgan vositalardan foydalangan holda mamlakatda bozor o‘zgartirishlari, islohotlarini amalga oshirish, iqtisodiyotni boshqarishning bozor va davlat dastaklari usullaridan foydalanishni uyg‘unlashtirish, strategik zahiralarni jamg‘arishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishni ko‘zlaydi.

Mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning ichki iqtisodiy mexanizmi amal qilish samaradorligi quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- mamlakat ichida mahsulotlar asosiy turlarining ishlab chiqarilishiga erishilganligi;
- milliy iqtisodiyotning kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga qodirligi;
- strategik resurslar ustidan davlat nazoratining o‘rnatilganligi;
- moliyaviy-bank tizimining barqarorligi;
- ilmiy va innovatsion salohiyatning qo‘llab-quvvatlanishi;
- mamlakat iqtisodiy yaxlitligining saqlanishi;
- innovatsion iqtisodiyotning normal amal qilishi uchun zarur va maqbul darajada davlat tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning tartibga solinishi.

Mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning tashqi iqtisodiy mexanizmini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iboratdir:

- xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalari va integratsiyalashuvini rivojlantirish;
- mamlakat ichida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning jahon bozorlarida raqobatbardoshlilagini o‘stirish.

- asosiy turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha boshqa mamlakatlar bilan kooperatsion aloqalarni o'rnativish;
- tovar va xizmatlar eksporti va importi ustidan davlat tomonidan nazoratni o'rnativish;
- mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlash;
- boshqa mamlakatlar va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar barqarorligini ta'minlash;
- xalqaro va mintaqaviy iqtisodiy maydonning va integratsion uyushmalarning shakllanishida ishtirok etish;
- xalqaro iqtisodiy munosabatlar, aloqalarni zaruriy me'yorda davlat tomonidan tartibga solish.

Mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning tashqi iqtisodiy mexanizmi to'g'ri amalga oshirilishi natijasida milliy iqtisodiyotning tashqi tahdidlariga qarshi turish qobiliyatini yanada oshirish imkonini beradi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Ehtiyoj, iqtisodiy manfaat, shaxs, korxona, jamiyat va davlatning iqtisodiy manfaatlari, mexanizm, ichki tahdid, tashqi tahdid.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Iqtisodiy manfaatning mohiyati nimada? Ular qanday shakllarda namoyon bo'ladi?
2. Iqtisodiy manfaatlarga tahdidlar deganda nimani tushunasiz?
3. Iqtisodiy manfaatlarga tahdidlar qanday vujudga keladi?
4. Kriminal iqtisodiy tahdidlar qanday turlardan iborat?
5. Iqtisodiy tahdidlar qanday turlardan iborat?
6. Ichki tahdidlar qanday shakllarda namoyon bo'ladi?
7. Ichki tahdidlar qanday xavf tug'diradi?
8. Tashqi tahdidlar qanday shakllarda namoyon bo'ladi?

## **10-BOB. MILLIY VA MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMI**

### **10.1. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlari**

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni aniqlashda turli ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni o'zida umumlashtiradigan indikatorlardan keng foydalaniladi. Indikatorlardan foydalanish odatda so'nggi yillar natijalarini hisoblash asosida iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar, shuningdek, mintaqaning iqtisodiy rivojlanish darajasi aniqlanadi. Asosiy indikatorlarni xavfizlik ko'rsatkichlari bo'yicha uchta guruhga, ya'ni ishlab chiqarish, moliyaviy va ijtimoiy guruhlarga bo'lish mumkin, ushbu guruhlar tarkibi bir nechta kichik guruhlardan tarkib topgan bo'ladi.

Iqtisodiy xavfsizlikning ishlab chiqarish sohasi bo'yicha guruhi:

- Yalpi mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlar bo'yicha mehnat unumdorligi (ishchilar umumiyligi soniga nisbatan sanoat, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va qurilishda pudrat ishlari hajmi yig'indisi);
- Chakana savdo, umumiyligi ovqatlanish va pullik hajmining umumiyligi aylanmasi xizmatlarini hisobga olgan holda aholi jon boshiga sotib olish qobiliyati darajasi;
- Kichik korxonalarda ishchilar ulushi (iqtisodiyotda band bo'lganlar,%);
- Sanoat, qishloq xo'jaligidagi yalpi ishlab chiqarish va qo'rinishda jismoniy indeks hajmi.

Iqtisodiy xavfsizlikning moliyaviy sohasi bo'yicha guruhi:

- Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi;
- Bir xodim uchun foyda (muvozanatli moliyaviy natija);
- Byudjet taqchilligi;
- Bir rezidentning o'z byudjet mablag'lari miqdori;
- Davlat byudjetidan o'rtacha har bir aholi uchun ijtimoiy sohani riojlantirish xarajatlari.

Iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy sohasi bo'yicha guruhi:

Demografik holat:

- O'rtacha umr ko'rish davomiyligi;

- Aholining tabiiy ko‘payish koeffitsenti (choraklik davriylik uchun);
- Go‘daklar (chaqaloqlar) o‘limi koeffitsenti;
- Xayot kechirish qiymati:
- O‘rtacha ish haqi va yashash minimumining nisbati;
- Zaruriy oziq-ovqat mahsulotlar to‘plamining narxidagi o‘zgarish darajasi.

Infratuzilmaning mavjudligi:

- Uy-joy ta’minoti;
- Maktabgacha ta’lim muassasalari bilan ta’minlanganlik;
- Tibbiy muassasalari (shifokorlar, poliknikalar) bilan ta’minlanganlik.

Ijtimoiy keskinlik:

- Ishsizlik darajasi;
- Sodir etilgan jinoyatlar soni.

Mazkur indikatorlar guruhini inobatga olgan holda, milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning asosiy ko‘rsatkichlari o‘zida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy hayotni mustaqil ta’minlash imkoniyatlari, iqtisodiy holat va jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini, davlatning milliy xavfsizligining zarur darajasini, shuningdek, global raqobat sharoitida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini tegishli darajada ushlab turgan mamlakat rivojlantirishini ifoda etadi. Umuman olganda, iqtisodiy xavfsizlikning asosiy ko‘rsatkichlari iqtisodiy tizimning eng muhim sifat tavsifi sifatida ko‘rib chiqiladi, bu aholining normal hayot sharoitlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyot resurslarini barqaror ta’minlash va milliy manfaatlarni izchil amalga oshirish qobiliyatini belgilaydi.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi funktsiyalarni ta’minlovchi asosiy subyektlar bu qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati hisoblanadi. Davlat amaldagi qonunlarga muvofiq mamlakat hududida har bir fuqaroning va uning chegaralaridan tashqarida bo‘lgan fuqarolarining xavfsizligini ta’minlaydi. Bundan tashqari, xavfsizlikning subyektlari fuqarolar, jamoat tashkilotlari va birlashmalar bo‘lib, ular qonun hujjatlariga muvofiq xavfsizlikni ta’minlash uchun huquq va majburiyatlarga egadir.

Xavfsizlik obyektlari esa, xavfsizlikni ta'minlovchi subyektlar tomonidan xavfsizikni ta'lib ishlab chiqarish korxonalari, birlashmalar, tashkilotlar, nomoddiy ishlab chiqarish sohasidagi korxonalardan tashkil topadi.

Iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi subyekti sifatidagi davlat faoliyatining vazifasi quyidagilardan iborat:

- qisqa va uzoq muddatda ijtimoiy-iqtisodiy tizim va davlat barqarorligini buzadigan omillarni aniqlash va monitoring qilish;

- yagona iqtisodiy islohotlar dasturi doirasida ushbu omillarning zararli ta'sirini bartaraf etadigan yoki engillashtiradigan iqtisodiy siyosat va institutsional islohotlarni shakllantirish va amalga oshirish.

Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi bilan tavsiflanadi. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligiga eng muhim tahdidlar qatoriga mintaqalarning iqtisodiy reintegratsiyasi, transport kompleksining holati, hududiy monopolizm, mintaqaviy iqtisodiy tanglik va boshqalar kiradi. Bozor munosabatlarini shakllantirish bilan bog'liq muhim muammoga, xususan: rivojlanish tendentsiyalari va iqtisodiyotning mintaqaviy sektorining holatiga baho berishdan iborat.

Rossiyalik olim V.Senchagovning fikriga ko'ra, mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda quyidagilarga e'tibor berish lozim<sup>30</sup>:

- ustun bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik makon, xom ashynoni qayta ishslash, tovarlar va axborot oqimlarini rivojlanitirish;

- o'rtacha rivojlanish darajasidan past bo'lgan mintaqalarni rivojlanitirish;

- sanoat va xizmat ko'rsatish zonalarini tashkil etish va rivojlanitirish.

Xavfsizlikni ta'minlashning yuqoridagi vazifalarini amalgalashdan tashqari, mintaqalarda mavjud tabiiy resurslardan foydalanish, savdo, ishlab chiqish, hududiy va mahalliy infratuzilmani, ko'chmas mulkdan foydalanish, qonun va tartibni saqlash, madaniyat, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini ham mutanosib ravishda rivojlanitirish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, mehnat resurslarining to'sqiniksiz harakatlanishini ta'minlaydigan yagona siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy maktonni saqlab qolish ham muhimdir.

---

<sup>30</sup> Экономическая безопасность России. Общий курс: учебник // под ред. В.К.Сенчакова. 2-е изд. - с. 94.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning ta'minlanishi davlatning tarkibiy tuzilmalarining ilmiy, ishlab chiqarish va resurs salohiyatiga va ularning tuzilishiga, institutsional infratuzilmaga, ijtimoiy sohaga, odamlarning hayot darajasi va sifatiga tashqi va ichki omillar ta'sirida yuzaga kelgan tahdidli vaziyatlarga dosh bera olish qobiliyatini namoyon etadi.

## **10.2. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni baholash yo'llari**

Milliy va mintaqaviy xavsifzlikni ta'minlashda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish uchun avvalombor hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni umumiy baholash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

1. O'tgan davrdagi hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish tavsifi beriladi. Bunda hududning sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy salohiyatini baholashga alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'ladi.

2. Hududning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi darajasi va ahvoli to'g'risidagi tahlilga asoslanib, uning rivojlanishidagi ijobiy va salbiy tendensiyalari, iqtisodiy rivojlanish rezervlari va foydalanilmagan imkoniyatlari aniqlanadi. Shuningdek, kelgusida hal etilishi lozim bo'lgan muhim iqtisodiy va ijtimoiy muammolari aniqlanadi.

3. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning natijalari, ko'p ukladli iqtisodiyotning vujudga kelishi va rivojlanishi, shuningdek, hududiy bozor infratuzilmasi ahvoli baholanadi.

4. Hududdagi tarmoqlar va yirik sanoat korxonalarining o'tgan davrdagi faoliyati tahlil qilinadi, ularning ish natijalari yoki orqada qolishining sabablari va omillari aniqlanadi.

5. Sanoat rivojlanishi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishi darajasi belgilanadi, ishlab chiqarish quvvatlarini eksportga yo'naltirilgan va import o'rmini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishga qayta ixtisoslashtirish va kengaytirish uchun qo'shimcha zahiralar va resurslar aniqlanadi. Hudud imkoniyatlarini

hisobga olgan holda ustuvor ahamiyatli tarmoqlar va ishlab chiqarishlar aniqlanadi.

6. Hudud aholisini o‘zida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’milanganligi, ularni hududdan chiqarish va kiritish balansi, agroresurs salohiyatidan foydalanish samaradorligi, shuningdek, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi va chorva mollari mahsuldarligining o‘sishi (pasayishi) omillari va sabablari baholanadi.

Hududning tabiiy-iqtisodiy salohiyatini baholash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Hududning mehnat, yer-suv va mineral xomashyo resurslari bilan ta’milanganligi miqdoriy va sifat bahosi beriladi.

2. Hududdagi demografik vaziyat, aholining ish bilan bandligi keyingi o‘n yillik davr bo‘yicha baholanadi. Ishsizlik darajasi, shu jumladan uning yashirin shakllari baholanib, aholi va mehnat resurslari soni proqnoz qilinadi.

3. Foydali qazilma boyliklari zahiralari, ularning o‘zlashtirilgan ahvoli tahlil qilinadi. Hudud mineral-xom ashyo bazasi imkoniyatlari, qo‘srimcha moliyaviy resurslarni jalg etishni hisobga olgan holda baholanadi. Shuningdek, qazib chiqaruvchi korxonalarining foydali qazilma boyliklari bilan ta’milangani, ularning konlari o‘zlashtirish xarajatlari o‘rganiladi.

4. Hududning yer-suv resurslari bilan ta’milangani, yerlarning meliorativ ahvoli, yer bonitetlari o‘rganilib, meliorativ yaxshilash istiqbollari o‘rganiladi.

5. Hududning ishlab chiqarish, transport va aloqa infratuzilma salohiyati o‘rganiladi. Aholining ijtimoiy infratuzilma obyektlari va xizmatlari bilan ta’milanganligi darajasi baholanadi.

6. Hududda ishlab chiqaruvchi kuchlarini, yangi korxonalarini joylashtirish uchun istiqbolli tuman, shahar, yirik aholi yashash punktlari tanlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’milashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2017 yil 8 avgust PQ-3182-sonli qaroriga binoat hududlar sektorlarga bo‘linib, ularga rahbarlar belgilandi, sektorlar rahbarlariga hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirish vazifalarini tashkil etish va hal qilish, shu jumladan, aholining eng muhim muammolarini echish yuzasidan javobgarlik yuklandi hamda vakolatlar berildi. Bunda respublika hukumati va joylardagi mahalliy xokimiyat organlarining maqsadli hududiy dasturlarni ishlab chiqish, amalga oshirishdagi vakolatlari va vazifalarini aniq belgilanishi lozim bo‘ladi.

Dasturlarning bajarilishini tashkiliy jihatdan ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Dasturlarni amalga oshirishda butun mas’uliyat joylardagi mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari zimmasiga yuklatiladi. Maqsadli hududiy dasturni ekspert baholash, umumiylazorat qilishni Vazirlar Mahkamasining tegishli boshqarma va bo‘linmalari amalga oshiradilar.

Hududiy dasturlarning samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- etarli darajada rivojlanmagan, umumrespublika darajasidan orqada qolayotgan hududlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqarishning yagona metodikasini tasdiqlash;

- respublika shahar va qishloq tumanlaridagi iqtisodiy va ijtimoiy ahvolni monitoring qilish, ularning rivojlanish darajalariga ko‘ra tipologiyasini ishlab chiqish;

- hududiy dasturlarni, orqada qolgan tuman va shaharlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlarining loyihibarini ekspertizadan o‘tkazishni tashkil etish.

Joylarda hududlarni rivojlantirish dasturlarini samarali boshqarish maqsadida viloyat, shahar, tuman xokimliklariga quyidagi vazifalarni yuklash maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- hududiy rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, hududiy dasturni tuzish bo‘yicha takliflar berish;

- dastur asosida qo‘llab-quvvatlashga muhtoj, muammoli shahar, tuman, aholi punklarini ajratish va belgilash;

- ular asosida mahalliy dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish, ularni respublikaning hududiy siyosati ustuvorliklari va tamoyillariga muvofiqlashtirish;

- mahalliy dasturlar loyihibarini ekspertizadan o‘tkazish va ular asosida yagona hududiy dasturlarni shakllantirish hamda ularni

ko‘rib chiqish, tasdiqlash uchun hududiy rivojlantirish bo‘yicha respublika komissiyasiga taqdim etish;

- mahalliy dasturlarni amalga oshirishga rahbarlik qilish va bajarilishini nazorat qilish, dastur bo‘yicha joriy axborotlarni, hisobotlarni muntazam berib borish.

### **10.3. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash konsepsiysi**

Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida davlat milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun iqtisodiyotga aralashib, xavfsiz bozor mexanizmining amal qilishiga ko‘maklashadi va aholi hamda xo‘jalik subyektlarini uning salbiy oqibatlaridan himoyalash chora-tadbirlarini ko‘radi.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda davlat tomonidan tartibga solishdan ko‘zlangan asosiy maqsad bozor munosabatlarini muayyan va ma’lum yo‘nalishda rivojlantirib, iqtisodiy tanglik, tahdid va xavf-xatardan himoyalash hamda aholi turmush darajasining pasayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikdan iboratdir.

Davlatning milliy iqtisodiyotga aralashuvi ko‘lami va darajasi uning imkoniyatlariga mos ravishda bo‘lib, bozor mexanizmlariga, xo‘jalik subyektlarining erkin faoliyat yuritishi uchun qulay iqtisodiy muhit yaratilishiga imkon beradi. Shuningdek, davlat xo‘jalik tizimining raqobatbardoshligini oshirish, biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini rag‘batlantiradi.

Davlatning milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni tartibga solishda quyidagi yo‘nalishlarida faoliyat yuritadi:

-miliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash jarayonlarini obyektiv, keng qamrovli monitoring, shu jumladan, shaxs, davlat va jamiyatning muhim hayotiy manfaatlariga ichki hamda tashqi tahdidlarni aniqlash va prognozlashtirish uchun axborotlar bazasini yaratish;

-milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikka tahidlarning oldini olish, salbiy oqibatlarini engish hamda barham berish bo‘yicha joriy va uzoq muddatli chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish. Bunda davlatning milliy iqtisodiy xavfsizligi strategiyasini amalga oshirish

bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtirish va nazorat qilish chora-tadbirlarining natijalari baholanadi.

Davlatning milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda iqtisodiyotga aralashuvi dastaklarini xo‘jalik subyektlarining rivojlanishi va faoliyatini tartibga solish imkoniyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat institutsional o‘zgarishlar, tarkibiy siyosatni amalga oshirish orqali milliy iqtisodiyotning samarali amal qilishi uchun qulay sharoitlar yaratish, ichki va tashqi xavflarni oldini olish maqsadida moliyaviy, pul-kredit, investitsiya va tashqi iqtisodiy sohalarni faol tartibga soladi.

Mamlakat milliy iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda davlat xarbiy-sanoat bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini oshirishda turli usullardan foydalanadi:

- ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish;
- strategik xom ashyo resurslari va kamyob vositalar zahirasini yaratish;
- bir-birini o‘rnini bosuvchi va to‘ldiruvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etish;
- yer osti inshootlari va omborlarni qurish;
- ishlab chiqarishni boshqarishning ishonchli tizim va manzillarini rivojlantirish va h.k.

Shuningdek, mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda halqaro, mintaqaviy, ijtimoiy va davlat muassasalari (institutlari)dan hamda ularning faoliyat uslublari, huquqiy, diplomatik, diniy, g‘oyaviy, ma’muriy, iqtisodiy, xarbiy, informatsion va boshqa chora-tadbirlaridan foydalaniladi.

Mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligi sohasidagi qo‘llanuvchi siyosiy vositalarda mamlakat milliy iqtisodiyotiga boshqa mamlakat yoki bir necha mamlakatlar tomonidan etkazilishi mumkin bo‘lgan zarar, iqtisodiy huruj, tahdidlardan himoyalanish maqsadida turli chorallardan foydalaniladi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlar, hududning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, hududning tabiiy-iqtisodiy salohiyati, milliy iqtisodiy xavfsizlik.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash choralari qanday maqsadlarni o'z ichiga oladi?
2. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash strategiyasini ishlab chiqishda qaysi yo'nalishlarni inobatga olinmog'i zarur?
3. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda davlat tomonidan hududlarni rivojlantirishda qanday maqsadli dasturlar ishlab chiqiladi?
4. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishni tartibga solish usullari nimalardan iborat?
5. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda transport kommunikatsiya tizimini rivojlantirish maqsadi nimalardan iborat?
6. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash strategiyasini amalga oshirishda qanday omillar tahdid ko'rsatadi?
7. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash dasturlarni ishlab chiqishda avvalo nimalarni umumiy baholash lozim?
8. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda ijtimoiy iqtisodiy vaziyatni baholash yo'llari nimalardan iborat?

## **11-BOB. MAMLAKATNING MILLIY IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI**

### **11.1. Jahon iqtisodiy tizimida milliy iqtisodiyotning o'rni**

Mamlakatimiz halqaro miqyosda o'zining tabiiy foydali qazilma boyliklari, geografik joylashuvi, fan-texnika taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, xalqaro savdoda ishtiroki, xalqaro iqtisodiy faoliyatining faolligiga muvofiq jahon iqtisodiy tizimida o'ziga xos munosib o'rinni egallaydi. Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashishi uchun milliy iqtisodiyotimiz xalqaro hamkorlik uchun doimo ochiqligi, ya'ni ochiq iqtisodiyot tavsifiga egadir. Ochiq iqtisodiyotning xususiyatlari va potensial imkoniyatlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- rivojlanish bosqichini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatda bozor mexanizmi va unsurlari raqobat muhiti shakllanishining jadallahuvi;

- xalqaro bozorda o'zaro aloqada milliy iqtisodiyot an'anaviy tovar ayriboshlashdan tashqari, chetga investitsiya chiqarish va chetdan investitsiya kiritish, ilmiy-texnikaning kooperatsiyalashuvi, ishlab chiqarish integratsiyasi kabi shakllarda integrallashadi;

- xalqaro resurslar aylanmasi va uning samaradorligini oshirishga asoslangan holda ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmlariga nisbatan milliy daromadning o'sishi;

- xalqaro ayriboshlash mutanosib iqtisodiy o'sish omili sifatidagi rolining ko'payishi;

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etish yo'li bilan ochiq turdag'i innovatsion iqtisodiyotni vujudga keltirmoqda. Mamlakatimizda ochiq iqtisodiyotni shakllantirish va uni rivojlantirish istiqbollar uстун darajada jahon xo'jaligi tizimiga kirib borishiga bog'liqdir. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun tashqi iqtisodiy siyosatning quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi belgilab berilgan:

- mafkuraviy kurashlardan qat'iy nazar tashqi munosabatlarda oshkorlik;

- teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

- o‘zining milliy davlat manfaatlari ustuvorligida o‘zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish;
- to‘la ishonch, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish asosida ikki tomonlama va ko‘p tomonlama tashqi aloqalar o‘rnatish hamda ularni rivojlantirish;
- umum e’tirof etilgan xalqaro huquq normalariga rioya qilish va xalqaro tartiblarga izchillik bilan o‘tish.

Mamlakatimiz iqtisodiyotning ochiqligini ta’minlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi oqibatida xorijiy investitsiyalar kirib kela boshladi, qo‘shma korxonalar ko‘paya bordi, ichki bozor tovarlar bilan to‘la boshladi. Ammo, shu bilan birga, buning mamlakat manfaatlariga zid tomonini ham hisobga olinmog‘i lozim.

Mamlakat milliy iqtisodiy xavfsizligi, manfaatlariga tahdidlardan himoyalanish hamda jahon iqtisodiy tizimidagi o‘rnini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- taklif etilayotgan investitsion loyiha va xorijiy hamkorlar bilan tuzilgan yirik bitimlar, iqtisodiy xavfsizlik talablarini hisobga olgan holda, dastlabki mustaqil ekspertizadan o‘tkazish;
- xorijiy kapital uchun ustuvor soha va tarmoqlar bilan bir qatorda, ularning kiritilishi man qilinadigan soha va tarmoqlar ham qonuniy asosda belgilab qo‘yilishi kerak;
- xorijiy investorlar tomonidan ayrim sohalarda aksiyalarni xarid qilish jarayonlarini qat’ylashtirish;
- xorijiy investorlarning strategik tarmoqlarda milliy boyliklarimizning katta qismini qo‘lga kiritishlariga yo‘l qo‘ymaslik;
- mamlakat bank tizimining ishonchini himoyalash;
- tashqi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik subyektlaridagi rahbar kadrlarning malakasini oshirish, ularni o‘qitish va qayta tayyorlash;
- ichki bozorni, milliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi raqobatchilar tajovuzidan himoya qilish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar infratuzilmasini rivojlantirish;
- tashqi bozorlarda milliy eksportchilar va ishlab chiqaruvchilarimizning diskreminatsiya qilinmasligi, kamsitilishidan himoya qilish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi nizo va kelishmovchiliklarni

ko‘p tomonlama tartibga solish mexanizmlari teng huquqli shartnomalar tuzish orqali hal qilinishiga intilish lozim bo‘ladi. Bunda asosiy e’tibor mamlakat tovar ishlab chiqaruvchilari va fuqarolarimizning manfaatlarini himoya qilishga qaratiladi;

- chet ellardagi respublika mulkini himoya qilish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi savdodan yuqori foyda, iqtisodiy samara olishga intilish bilan bir vaqtda, mamlakatning jahon iqtisodiyoti tizimida o‘ziga mos nufuzli o‘rinni egallashiga intilishi kabilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

## **11.2. Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish tizimi**

Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning xavfsizligini ta’minlashda davlat asosiy va markaziy o‘rinni egallaydi. Bu boradagi davlatning vazifalari quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

- davlatni mikro va makro darajada iqtisodiy tartiblash ko‘lamlarini o‘z ichiga oladigan hamda strategik qarorlarni asoslash, qabul qilish uchun dastaklar bilan ta’minlash;
- iqtisodiy va ma’muriy dastak, vosita hamda usullar yordamida iqtisodiy strategiya va joriy dasturlarni amalga oshirish, erishilgan natijalarni tahlil qilish va baholash, mavjud sharoitlarga mos ravishda ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga tuzatishlar kiritish;
- boshqa mamlakatlar bilan o‘zaro aloqalar tizimida himoyalanishni rag‘batlantirish rejimlarini ko‘zda tutadigan qonunlar va me’yoriy hujjatlarni hayotga tatbiq etish orqali mamlakatning iqtisodiy suverenitetini huquqiy va siyosiy himoyalashni ta’minlash;
- iqtisodiyotda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni tezlikda hal qilish uchun davlat boshqaruvi organlari hamda mansabdor shaxslarning huquqlari, vazifalari mas’uliyatini oqilona taqsimlash va ularning o‘zaro bir o‘lchamdagи faoliyatini uyg‘unlashtirish.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashni boshqarish tizimi o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- tashkiliy tuzilmalar;
- kommunikatsiya va o‘zaro aloqalar tizimi;
- axborotlar;
- professional kadrlar.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv ishlari ikki, o'zaro bog'liq yo'nalishda olib boriladi:

- birinchi yo'nalish, iqtisodiy huquqbuzarliklarning manbalari va ularning subyektlariga qarshi kurashish;
- ikkinchi yo'nalish, barcha qonun, me'yoriy hujjatlar hamda boshqaruv qarorlarini iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash talablariga mosligini aniqlash uchun ekspertizadan o'tkazish.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning samaradorligini oshirish hisoblanadi. Zero, mamlakat iqtisodiy xavfsizligi darajasi uning iqtisodiy salohiyati bilan belgilanadi. Bu salohiyat milliy iqtisodiyot resurslari, zaxiralari, amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligi, bozor strukturasi, boshqarish tizimi, sanoatni tashkil etish hamda tashqi bozor konyunkturasining o'zgarishlarga moslashuvchanligi boshqa mamlakatlarning qo'llab-quvvatlashi, xalqaro uyushma va tashkilotlarda ishtirok eta olishi bilani fodalanadi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun asosiy mahsulotlar bo'yicha importga bog'liqlikka barham berish, tayyor mahsulotlarni eksport qilishni kuchaytirish lozim bo'ladi. Shuningdek, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini ichki va tashqi bozorda himoya qilishga qaratilgan oqilona proteksionizm siyosatini amalga oshirish lozim. Bu siyosat quyidagilarni ko'zda tutishi kerak:

- monopolistik faoliyatni cheklash;
- tayyor ishlab beruvchi sanoat mahsulotlarini, asosan, mashina va asbob- uskunalarni eksport qilishni rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlarini, imtiyozli kreditlash usullarini qo'llash;
- turli ishlab chiqarish tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, yangi tashkil topgan xo'jalik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ular uchun qulay sharoitlar yaratish;
- ichki bozorga noqonuniy yo'llar bilan arzon, iste'molchilar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tovarlarni kirib kelishining oldini olish;
- ichki bozorda milliy tovar ishlab chiqaruvchilar manfaatini ko'zlash, ularni tashqi bozorga chiqishlarini qo'llab-quvvatlash;
- yirik ishlab chiqarish birlashmalarini qo'llab-quvvatlashning oqilona tizimini yaratish.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun iqtisodiyotning kriminallashuviga qarshi kurashish kerak. Jinoiy guruhlarning iqtisodiyotga kirib kelishining oldini olish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- daromadlarni deklaratsiya qilish tizimini takomillashtirish;
- nodavlat xo'jalik subyektlarining ayrim faoliyat turlarini qonun yo'li bilan cheklash;
- ro'yxatga olinmasdan turib tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni man qilish;
- iste'molchilar salomatligiga zarar etkazuvchi mahsulotlarni va litsenziyasiz, sifat sertifikatisiz tovar sotishni man qilish;
- bankrotlik qonuni talablarini hayotga qat'iy tatbiq etish;
- huquq-tartibot organlarida iqtisodiy qonunbuzarliklarga qarshi kurashish bo'limlari faoliyatini kuchaytirish;
- iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turli nazorat va davlat organlarining tadbirkorlar xo'jalik faoliyatiga noqonuniy aralashishlarini cheklash va bunga qarshi kurashish;
- iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmlari erkin amal qilishini ta'minlash bilan bir qatorda, davlat organlarining iqtisodiyotni tartibga solish faoliyati samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish kabilar maqsadga muvofiqdir.

Mamlakat milliy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning muhim yo'li barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirish va turmush sharoitlarini yaxshilash hisoblanadi. Chunki ijtimoiy sohada, hayotda keskinlikning vujudga kelishi iqtisodiy xavfsizlik uchun xavf-xatar tug'dirishi shubhasizdir.

Bu holni keltirib chiqaruvchi sabablarning eng muhimlarini quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy ziddiyatlar o'z mohiyatiga ko'ra hamisha siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarni harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. O'zgarishlarning qay tarzda borishi yoki bo'lmasa, keskin shakllarga kirishi: ijtimoiy noroziliklar, stixiyali portlashlar, fuqarolar urushlari va inqirozlar tusini olishi to'planib qolgan ijtimoiy muammolarning qay darajada keskinligiga, hukmron tuzilmalarning bu muammolarni hal qila olishi yoki hal qila olmasligiga bog'liq.

2. Islohotlarning mohiyatiga to'ralarcha putur etkazish, ijtimoiy adolatni buzish, hokimiyatning turli pog'onalaridagi korrupsiya

aholining tang ahvolini yanada yomonlashtiradi va oqibatda jiddiy, ijtimoiy ziddiyatlarga olib kelishi ham mumkin.

3. Keng ko'lamdagi uzoq muddatli isloh qilish jarayonining dastlabki bosqichini O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tomonidan eng qiyin, ijtimoiy portlash xavfi bo'lgan bosqich deb atagan. Chunki o'tish davri ko'p hollarda bir qancha hal etilmagan ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi va ular zamiridagi larzaga soladigan kuchni o'zida saqlab turadi.

4. Innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida kishilarning eskicha va yangicha fikrlashlari o'rtasidagi, o'tmish va hozirgi zamondagi qadriyatlar tizimi o'rtasidagi ziddiyatlar yanada keskinlashadi. Aholi daromadlari o'rtasidagi farqlarga quyidagi holatlar ta'sir ko'rsatmoqda:

- iqtisodiyotning turli sohalarida, mamlakatning turli mintaqalarida daromad olish imkoniyatlarining barobar emasligi;

- mamlakat aholisining ko'pchiligi yashayotgan qishloq joylardagi yashirin ishsizlik hamda kichik va o'rta biznesning etarli darajada rivojlanmayotganligi salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Oilalarning pul daromadlari tarkibining yarmiga yaqini turli shakldagi tadbirkorlik va xususiy mehnat faoliyatiga to'g'ri kelmoqda.

Aholi turmush darajasi barqaror o'smoqda. Shu boisdan O'zbekistonda aholi turmush darajasiga va hayot sharoitlari bilan bog'liq ijtimoiy tahdidlar birmuncha kamaydi<sup>31</sup>.

Yana bir muhim ijtimoiy tahdid real ishsizlik hisoblanadi. Iqtisodiy faol aholi ichida ishsizlik darajasi agar 10 %dan oshib ketsa, u iqtisodiy tahnidni vujudga keltiradi. Ishsizlikning vujudga kelishi bozor iqtisodiyoti qonuniyatlaridan biridir. Ammo ishsizlik tufayli kambag'allik, hatto qashshoqlik, jinoyatchilik, narkomaniya va shunga o'xhash ijtimoiy ofatlar, ijtimoiy norozilikning kelib chiqishi tabiiydir.

Ushbu iqtisodiy tahnidning yana bir xususiyati respublika qishloq xo'jaligida ortiqcha bandlikning mavjudligi hisoblanadi. Chunki bu mehnat resurslaridan ekstensiv, unumsiz foydalanishga oxir-oqibatda ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga olib

<sup>31</sup>Abulqosimov H.P. Makroiqtisodiy tartibga solish va O'zbekistonning barqaror rivojlanishi. – T.: Akademiya, 2011. - 150-164 b.; O'zbekistonda aholi turmush darajasining barqaror o'sishi // Abulqosimov H.P. va boshqalar. – T.: Akademiya, 2011. - 57-85 b.

keladi. Hozirgi davrda qishloq xo‘jaligida ortiqcha ishlab chiqarish natijalariga ziyon etkazmagan holda bo‘shatib boshqa sohalarga o‘tkazish lozim bo‘ladi.

Mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- aholi, shu jumladan, mehnatga layoqatli aholi, mehnat resurslari sonining o‘sish sur’atlarining asosiy fondlar yaratayotgan yangi o‘rnlarning o‘sish sur’atlariga nisbatan orqada qolishi, kelgusida ishsizlar daromad olish imkoniyatiga ega bo‘lmagan kishilar sonining o‘sishiga olib kelishi mumkin;

- ish haqining aholi, shu jumladan, yollanma ishchi va ishchi xizmatchilarning oila daromadlaridagi ulushining kamayishi, ish haqining rag‘batlantiruvchanligining pasayishi;

- aholi tarkibida keksa nafaqa yoshidagi kishilar ulushining ko‘payishi kelgusida ularning ijtimoiy ta’minoti masalalarida muammolarni keltiradi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga to‘sinqilik qiluvchi omillarning ko‘payishi;

- soliq yukining og‘irligi tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga to‘sinqilik qiluvchi omil hisoblanadi.

Bu omillar milliy iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, tadbirkorlik faoliyatiga, ijtimoiy ziddiyatlar va tahdidlarni vujudga keltiradi. Shu boisdan ushbu omillarni inobatga olgan holda milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish tizimini yaratish maqsadga muvofiqdir.

### **11.3. O‘zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashni boshqarish yo‘llari**

O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini mustah-kamlash, uning hududida barqarorlikni ta’minlash, mamlakatimizning jahon xo‘jaligi tizimida va jahon hamjamiyatida munosib joyni egallashiga erishish-davrimizning asosiy vazifasidir. Milliy xavfsizligimizning keng qamrovli konsepsiyasini amalga oshirish, uning asosini belgilovchi qonunlarni yaratish g‘oyat dolzarb ahamiyatga ega. Albatta, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida,

qator qonunlar hamda mudofaa muammolariga bag‘ishlangan boshqa me’yoriy hujjatlarda bu masalaning negizlari mavjud. Biroq milliy xavfsizlikni ta’minalash bir yoqadan bosh chiqarib kompleks yondashuvni taqozo etadi. Milliy xavfsizlik masalasida yagona davlat siyosati bo‘lmog‘i, barcha siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy, harbiy, huquqiy va boshqa chora-tadbirlarning o‘zaro uyg‘un va mukammal tizimi bo‘lmog‘i shart. Milliy xavfsizlik haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, hozirgi davr xususida, O‘zbekistonning bugungi dunyoda tutgan o‘rni xususida aniq tasavvurga ega bo‘lish zarur.

Ilgari ikki tizim - SSSR va AQSH etakchi bo‘lgan va bir-biriga mafkuraviy jihatdan zid ikki tizim, ikki blok mavjud edi. Dunyo xavfsizlik tizimi ham xuddi shu ikki blokning o‘zaro muxoliflik muvozanatiga asoslangan edi. SSSR parokanda bo‘lgach, yangi - g‘oyat murakkab va qaltis bir davr yuzaga keldiki, uning asosiy belgilari quyidagilardan iborat: Birinchidan, davlatlararo munosabatlar tizimidagi muvozanat buzildi. Jahonda siyosiy-iqtisodiy bo‘linish ro‘y berdi. Kuchlar markazi ilgari ikki joyda bo‘lsa, endilikda bunday ahvol va vaziyat o‘zgardi. Ikkinchidan, jahonda mulkiy tengsizlik - sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi tafovut va ziddiyatlar kuchaymoqda. Bu holat jahon resurslarini taqsimlashda yaqqol ko‘rinadi. Ya’ni, tabiat resurslari aslida rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy boyligi hisoblansa ham, sanoati yuksak rivojlangan mamlakatlar bu boyliklarni nazorat qilishni o‘z qo‘llariga olishga intilmoqdalar. Qolaversa, ilmiy va texnikaviy bilimlar, shuningdek, ilg‘or texnologiyalar sohasida, erkin sarmoyani to‘plash va joylashtirish sohasida ham juda katta tafovutlar mavjud. Uchinchidan, dunyoda insonning biologik tur sifatida yashashiga bevosita xavf-xatar mavjud. Ya’ni yalpi yadro urushi xavfi ancha kamaygan bo‘lsa ham, ekologik tanglik xavfi, karonavirus yoki biogenetik buzilishlar xavfi hamon tahlikali holatda saqlanib qolmoqda. To‘rtinchidan, jahon miqyosidagi umumiy taraqqiyot, odamlar dunyoqarashining o‘zgarishi, kommunikatsiyalar yuksalishi, xalqaro munosabatlarning rivojlanishi va uning odamzod hayotiga ta’siri davlatlar va xalqlar o‘rtasida o‘zaro birlashishga intilishni kuchaytirmoqda. Ayni vaqtda milliy xususiyatlar va an’analarni, siyosiy va ma’naviy merosni saqlab qolish tamoyillari ham yaqqol sezilmoqda. Turli davlatlararo va hukumatga daxli bo‘lмаган xalqaro

tashkilotlarning ahamiyati oshmoqda, hamda dunyo yangi tizimga o‘tishi davrida ularning faoliyatini qayta qurish va isloh etish zarurati tug‘ilmoqda. Bunday vaziyatning vujudga kelishiga ko‘pchilik xalqaro tashkilotlar dunyoda ikki tizim va ularning raqobati mavjud davrda tuzilgan edi. Bu tashkilotlarning faoliyatları ko‘proq ularning o‘zaro muvozanati va murosasini ta’minlashga qaratilgan edi. Bugungi ahvol xalqaro tashkilotlardan eng yirik muammolarga ahamiyat berishni, birinchi navbatda, barchaga nisbatan odilona va xolisona munosabatda bo‘lishini talab etmoqda. Xalqaro tashkilotlar hozirgi voqelikni to‘g‘ri aks ettirish va jahon hamjamiyati a’zolarining ehtiyojlariga samarali xizmat qilishi zarurdir. Beshinchidan, bugungi dunyoda har qanday mamlakatning nufuzi, avvalo, uning eng yangi texnologiyalarni qabul qilish va foydalanish qobiliyatiga qarab belgilanadi. Agar yuqorida sanalgan xususiyatlardan kelib chiqib, mamlakatimizni rivojlantirish yo‘lini jahon hamkorligi jarayoniga tezroq integratsiyasini, xalqaro huquqiy me’yorlar asosida hal qilinadigan yangi umumjahon tartibotini o‘rnatalishi jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib yuqori o‘rnlarni egallay olish imkonini beradi.

Mamlakatimizning jahon hamjamiyatida munosib o‘rinni egallashi uchun qulay shart-sharoitlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, avvalo jug‘rofiy-siyosiy omillarni qayd etish lozimdir. Ma’lumki, O‘zbekiston jug‘rofiy-siyosiy jihatdan ancha murakkab va shu bilan birga qulay joylashgan. Ya’ni u Markaziy Osiyo mintaqasining transport, kuchli avtonom energetika va suv tizimlari markazida joylashgan. Ikkinci jihatdan esa, O‘zbekiston aholi soni jihatidan, ilmiy-texnikaviy va boshqa imkoniyatlari jihatidan mintaqadagi qo‘shnilaridan ma’lum darajada ustun turadi. Uchinchi tarafdan, O‘zbekiston qulay tabiiy-iqlim sharoitiga ega. Hududda qadimiy dehqonchilik madaniyati va boy mineral-xom ashyo resurslari bor. Respublika oziq-ovqat bilan o‘zini-o‘zi ta’minlashga, texnika ekinlarining eng qimmatli turlarini, shuningdek, jahon bozoriga yuqori sifatli, ekologik jihatdan sof, raqobatga bardoshli meva-sabzavot mahsulotlarini chiqarishga hamda ularni qayta ishlangan holda etkazib berishga qodirdir. To‘rtinchidan, davlatimiz nafaqat o‘zini-o‘zi ta’minlaydigan, balki chetga chiqarishga neft, neft mahsulotlari, gaz va umuman, iqtisodiyotning asosi bo‘lmish tarmoqlarga ega hamdir. O‘zbekistonda sanoatning eng zamonaviy tarmoqlari mavjud.

Beshinchidan, insoniyat sivilizatsiyasida salmoqli o‘rni bor. Yurtimiz ma’naviy meros bilan boy, u nafaqat mintaqada, balki dunyoda ham turli ma’naviy va siyosiy jarayonlarga kuchli ta’sir o‘tkazib kelgan. Shu jihatlarni hisobga olsak, O‘zbekiston o‘zining barcha ko‘rsatkichlari bo‘yicha jahondagi madaniy, ilmiy, texnologiya va iqtisodiy yuksaklikka erishib, bemalol Markaziy Osiyoda integratsiya markaziga aylanishi mumkin.

Albatta, bu yo‘lda bir qator qiyinchiliklar ham mavjud. Agar jug‘rofiy-strategik tarafdan olib qarasak, birinchidan, Markaziy Osiyoda kommunikatsiyalar nomaqbul rivoj topgani va uning tarmoqlari ancha buzilganini ko‘ramiz. Ikkinchidan, Markaziy Osiyoda suv resurslari cheklangan va Orol ekologiya falokati ta’siri seziladi. Uchinchidan, mintaqada xavfsizlik tizimi yo‘lga qo‘yilmagan. Bu erda atrofdagi kuchli davlatlar va siyosiy kuchlar markazlarining bir-biriga mos kelmaydigan ta’sir etish istaklari borligini ham hisobga olmasdan bo‘lmaydi. To‘rtinchidan, ba’zi kuchli mamlakatlarning bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari ham ayni Markaziy Osiyo mintaqasida o‘zaro duch kelishini nazardan soqit etib bo‘lmaydi.

Bu murakkab, qarama-qarshiliklarga to‘la dunyoda mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, jahon hamjamiyatida o‘zimizning munosib o‘rnini egallashi uchun harakat qilmog‘i lozimdir. Shu munosabat bilan milliy va mintaqaviy iqtisodiy barqarorlik va xavfsizlik kafolatlari uchun shart-sharoitlarni yaratish g‘oyat muhimdir. Buning uchun, bizning fikrimizcha quyidagi muhim masalalarni amalga oshirish lozimdir: birinchidan, O‘zbekiston jahon hamjamiyati va davlatlararo xavfsizlik tizimida o‘z o‘rnini topishi lozim. Buning uchun respublikaning dunyo hamjamiyatiga kirish sur’atlarini tezlashtirish, turli xalqaro davlat va nodavlat tashkilotlari, birinchi galda, BMT va Evropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti ishlarida faol ishtirok etishini ta’minlash zarur. Xalqaro tashkilotlar iqtisodiyotimizni qayta qurishga ko‘maklashadigan eng samarali vositadir. Ular kredit olish, xorijiy sarmoyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb etish, respublikaning jahon bozorida olg‘a siljishiga beba ho yordam ko‘rsatishi mumkin. Asosiysi, O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi ishtiroki milliy xavfsizligimiz, mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash garovidir. BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi 1993 yil fevralida ish boshlagan bo‘lsada, qisqa 27 yil

ichida juda katta ishlar amalga oshirildi, jumladan, BMTning Taraqqiyot dasturi, Qochoqlar ishi bo‘yicha vakolatli oliy komissari, Bolalar jamg‘armasi, Sanoat taraqqiyoti dasturi, Narkotiklarni nazorat qilish bo‘yicha dastur, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Aholi joylashishi jamg‘armasi singari va boshqa ixtisoslashgan muassasalarini o‘z tarkibiga birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi. Shunday qilib, BMT bilan hamkorlik qilish rejali amalga oshib bormoqda. Bu hamkorlik iqtisodiyot, ijtimoiy soha, sog‘liqni saqlash, madaniyatni tiklash, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqa sohalarni ham qamrab olmoqda.

Ikkinchidan, milliy xavfsizlikka erishishda davlatlararo bitimlar tizimini barpo etish muhim yo‘nalish hisoblanadi. O‘zbekiston qanchalik ko‘p mamlakat bilan do‘stona, amaliy muloqot va hamkorlik munosabatlarini o‘rnatsa, uning iqtisodiy va xarbiy xavfsizligi shunchalik ko‘p kafolatlanadi. Mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirish maqsadida kuplab rivojlangan davlatlarga va bir qancha boshqa mamlakatlarga ham davlat safarini amalga oshirib kelmoqda. Iqtisodiyot, ilm-fan va madaniyat kabi sohalarda hamkorlik qilish bo‘yicha shartnoma va hujjatlar imzolanmoqda. Yangi mustaqil davlatlar bilan ikki va ko‘p tomonlama aloqalar rivojlanmoqda. Mazkur bitim va shartnomalar O‘zbekiston atrofida xavfsizlik, ishonch va yaxshi qo‘schnichilik muhitini yaratilishiga zamin yaratmoqda.

Uchinchidan, imzolangan davlatlararo bitimlarga so‘zsiz amal qilish - xavfsizlik kafolati va shartidir. Imzolangan hujjatlarga so‘zsiz rioya qilish inson huquqlari, kam sonli millatlar huquqlari, bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, tinch-totuv yashash tamoyillari singari sohalarda, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu holat yangi mustaqil davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda ham o‘ta muhim rol o‘ynaydi.

To‘rtinchidan, tashqi siyosatni mafkuradan to‘la xoli etish xavfsizlikni ta’minalashning muhim kafolatidir. O‘zbekiston dunyoning barcha mamlakatlari bilan o‘z munosabatlarini faqat xalqaro huquqning barcha tan olgan qoida va mezonlari asosida qurib kelmoqda. G‘oyaviy muxoliflik o‘tmishda davlatlararo munosabatlarga soya solib, davlatlarning bir-biriga qarshi ikki guruhga bo‘linishiga sabab bo‘lgan. Bunday kelishmovchiliklar bugun ham

davlatlararo ixtiloflarni kuch ishlatish yo‘li bilan hal qilishga, begunoh odamlarning qurbon bo‘lishiga, butun-butun xalqlarning fofjasiga sabab bo‘layotir. Davlatlararo munosabatlar sohasida yagona g‘oya amal qilishi lozim. Bu g‘oya birgalikda tinch hayot kechirish, hamkorlikka intilish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, turli nuqtai-nazar va fikrlarga bardoshli bo‘lish tamoyillarini o‘zida aks ettirgan qonunlar ustuvorlik kasb etishi darkor.

Beshinchidan, O‘zbekistonning MDH tarkibida bo‘lishi mintaqada barqarorlik va tinchlikning muhim kafolatidir. Xavfsizlikni bu tarzda tushunish nafaqat har bir alohida davlatning imkoniyatlari cheklangani, qolaversa ma’naviy-siyosiy tusdagi mulohazalarga ham bog‘liq. Davlatlarning imkoniyatlari va sa’y-harakatlarini xavfsizlikni ta’minalash yo‘lida birlashtirish muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, mamlakatlarimiz iqtisodiyoti, ularning millatlararo, madaniy, ilmiy-texnikaviy munosabatlari bir-biriga bog‘liq ekanini ham hisobga olish lozim.

Oltinchidan, yaqin qo‘schnichilik - Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama o‘zaro hamkorlik milliy xavfsizlikning asosiy shartlaridan biridir. Xalqlarimiz tarixi, madaniyati, an’analari, diniy e’tiqodining mushtarakligi mamlakatlarimiz o‘rtasidagi amaliy hamkorlik va hamjihatlikning asosiy poydevori hisoblanadi.

Ettinchidan, mamlakatimizning mudofaa salohiyati, ya’ni armiya, qurolli kuchlar, harbiy doktrina davlatimiz xavfsizligining muhim kafolatidir. Davlatlarning tinch-totuv yashash, xalqaro masalalarni hal qilishda kuch ishlatmaslik, tahdid qilmaslik tamoyilini tashqi siyosatga asos qilib olingan. Mamlakatimiz mudofaa qudratining asosi - respublika iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashdan iborat. So‘nggi paytlarda O‘zbekistonda Qurolli Kuchlar uchun eng zarur va yuksak malakali zabitlar tayyorlashga mo‘ljallangan bir qancha harbiy o‘quv yurtlari tashkil etildi. Armiyani texnik jihatdan jihozlashni mustahkamlash chora-tadbirlari ko‘rilmoxda. Milliy xavfsizlik tizimi uchun xavf-xatarning oldini olish va uni bartaraf etishda oldindan chora ko‘rish uslubi ko‘proq qo‘l keladi. Shu bilan birga chuqur va keng miqyosli tahlil qilishga qodir tadqiqot va axborot markazlarining faoliyati samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Sakkizinchidan, davlat barqarorligini ta’minalash jamiyatning

ijtimoiy-ruhiy, ma’naviy va axloqiy, madaniy va tarixiy ildizlariga tayanadi. Davlat mustahkamligi va qudrati uning jahon jamoatchiligi oldidagi ma’naviy-axloqiy qiyofasi va nufuzi bilan ham aniqlanadi. Ayni shu bois, millatimizning ma’naviy jihatdan uyg‘onishi mustaqilligimiz, milliy xavfsizligimiz garovidir. Ushbu muhim ishda sharqning buyuk ma’naviy ta’limotidan, xalqlarni tinch hayot kechirishga, do‘stlik va hamkorlikka, o‘zaro jiipslik va sabr-toqatga chaqiruvchi islom falsafasidan keng va oqilona foydalanish maqsadga muvofiqli.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Ochiq iqtisodiyot, tashqi iqtisodiy siyosat, jahon iqtisodiy tizim, iqtisodiy manfaat, proteksionizm siyosati, kriminallashuvga qarshi kurash.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Davlat milliy iqtisodiyotga qanday chora-tadbirlarni ko‘rish uchun aralashadi?
2. Davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?
3. Davlat milliy iqtisodiyotning samarali amal qilishi uchun qanday institutsional o‘zgarishlarni amalaga oshiradi?
4. Mamlakat milliy iqtisodiy xavfsizligini ta’minalashda davlat xarbiy-sanoat bazasini mustahkamlash uchun qanday usullardan foydalanadi?
5. Mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligini ta’minalashda davlat faoliyatining kurinishi nimalardan iborat?
6. Davlat mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligini ta’minalashda qanday chora-tadbirlarni ko‘radi?
7. Mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligi sohasidagi qo‘llanuvchi siyosiy vositalar nimalardan iborat?
8. Mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligini ta’minalashning ichki iqtisodiy mexanizmi bo‘g‘inlari nimalardan iborat?

## **12-MAVZU: MILLIY VA MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI**

### **12.1. Xorijiy mamlakatlarda milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi**

Turli xorijiy rivojlangan mamlakatlarda milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik tushunchalari turlicha talqin qilinadi va dolzarbliги ham farqlanadi. Masalan, Rossiyada milliy iqtisodiy xavfsizligi tushunchasi “ko‘p millatli xalqlar xavfsizligini, davlatning suverenitetining asosi va yagona kuch manbai”ni anglatadi. Rossiyaning milliy manfaatlari - bu shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ichki, ijtimoiy, xalqaro, axborot, harbiy, chegara, ekologik va boshqa sohalardagi mutanosib manfaatlarning yig‘indisidir. Ushbu manfaatlar uzoq muddatli xususiyatga ega va Rossiya Federatsiyasining ichki va tashqi siyosatining strategik maqsadlari va joriy vazifalarini belgilaydi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida milliy iqtisodiy xavfsizlik deganda, davlatning iqtisodiy qudratiga dushman harakatlardan yoki boshqa iqtisodiy ta’sir ko‘rsatishga va aralashuvlardan, shu jumladan ichki tahdidlardan himoyalanish holati tushuniladi.

AQSH milliy iqtisodiy xavfsizligi tushunchasi "siyosiy realizm" maktabining asoschisi G.Morgentxauning ilmiy ishlariga bayon etilgan, muallifning fikriga kura AQSH o‘zining milliy manfaatlarini dunyodagi kuch va kuchning ko‘rsatkichi sifatida baholaydi. AQSHda 1947 yilda "Milliy xavfsizlik" to‘g‘risidagi qonuni qabul qilingan. Ushbu qonun mamlakatga harbiy tahidlarga qarshi kurash, va usha davrda "dunyo kommunizmi"ga qarshi kurash va anti-sovet kuchlariga qaratilgan edi. Shu sababli, hozirgi kunda ham AQSHning tashqi siyosati AQSH gegemonligi mafkurasini jahon va G‘arb sivilizatsiyasi qadriyatlarining himoyachisi sifatida qo‘llab-quvvatlanadi.

Iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan Xitoy davlatida milliy iqtisodiy xavfsizlik tushunchasiga “milliy manfaatlar birinchi navbatda quyidagilarga bog‘liq: suverenitet xavfsizlik iqtisodiy rivojlanish xalqaro maqom qadr-qimmati” sifatida qaraladi. Ushbu qoida noyobdir, chunki hozirgi paytda milliy manfaatlar sohasidagi “qadr-qimmat” toifasini o‘z ichiga oladigan biron bir mamlakat yo‘q. O‘z

davrida Xitoy rahbarlaridan bo‘lgan Deng Syaoping Xitoy xalqi o‘z milliy qadr-qimmati va g‘urur tuyg‘usiga ega ekanligini bir necha bor o‘z ma’ruzalarida ta’kidlab o‘tgan. Uning mazkur jumlalari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yoqotmagan: “mamlakatni sevish va butun kuchimni sotsialistik qurilishga sarflash men uchun katta sharafdir”.

Evropada iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha ikkinchi o‘rinda turadigan Fransiya davlatida milliy iqtisodiy xavfsizlik tushunchasiga: “mamlakatning hududiy dahlsizligiga, aholini himoya qilishga, millat hayotiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan tahdid va xatarlarni bartaraf etishga qaritilgan choralar” sifatida qaraladi.

Dunyo tajribasi, ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy salohiyat va imkoniyatlaridan samarali foydalanish mamlakatda iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biriga aylandi. Chunki, islohotlar mintaqalarda va aholi yashash joylarida investitsiya loyihalari bevosita amalga oshiriladi. Har bir mintaqani mavjud tabiiy, mineral-xom ashyo, sanoat, qishloq xo‘jaligi, sayyohlik, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni ta’minalash orqali kompleks rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Lekin, mintaqalarni kompleks rivojlantirishda bir qator tizimli muammolar xaligacha saqlanib qolmoqda. Ular qatoriga mamlakatda yagona mintaqalarni rivojlantirish strategiyasini yo‘qligi, har bir mintaqani uzoq keljakda rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqilmaganligi, mavjud tabiiy-iqtisodiy, salohiyatdan to‘liq foydalanmaslik, iqtisodiy o‘sishning yangi omillariga o‘tishdagi qoloqlikni aytib o‘tish lozim.

Nufuzli xalqaro tashkilotlar va olimlarning tadqiqotlari keljakda mintaqaviy turizm eng barqaror o‘sish imkoniyatiga ega bo‘lgan yo‘nalish sifatida asoslab berilgan. Shu sababli mintaqalarni barqaror rivojlantirishda turizm etakchi soha va o‘sish nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi.

## **12.2. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy siyosatning xorij tajribasi**

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar dunyo hamjamiyati bilan iqtisodiy aloqalarni, jumladan, turizm sohasini kuchaytirishga yo‘naltirilgandir. Bunday sharoitda umumjahon tendensiylarini inobatga olgan holda, mintqa iqtisodiyoti va turizmni davlat tomonidan tartibga solishda erishilgan yutuq va

kamchiliklardan oqilona foydalanish lozim. Bu borada mintaqaviy rivojlanish muammolarini hal etishning yangi mexanizm va yo‘nalishlarini xorij davlatlar tajribasi orqali o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Ammo shuni ta’kidlash joizki, har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omillari va shart-sharoitlariga moslashtirilmagan xorijiy tajribalaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish mumkin emas. Ayrim hollarda bu foya emas, zarardir. Ushbu shart-sharoitlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tarixiy omil, ya’ni mintaqaviy siyosat yoki hududlarni (tarmoqlarni) davlat tomonidan tartibga solish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning maqsad va vazifalariga, bozor munosabatlarini joriy etilishi darajasiga mos kelishi lozim;

- alohida mamlakatlar milliy qonuniy-huquqiy asoslarining mutanosibligi. Rivojlangan mamlakatlarda mintaqaviy (tarmoq) rivojlanishning qonuniy va institutsional asoslari yuz yillar davomida shakllangan. O‘zbekistonda esa bozor munosabatlariga asoslangan sifat jihatdan yangi muhitning shakllanishi jarayoni davom etmoqda;

- mintaqalardagi tabiiy-iqtisodiy, sayyohik salohiyatning yuqoriligi, iqlimi va iqtisodiy-geografik joylashuvining turlichaligi ham mintaqaviy tartibga solishning ayrim mexanizmlarini joriy etishga ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirda turli mamlakatlardagi mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarida ko‘plab umumiy o‘xhash tomонlari mavjuddir. Biroq mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi va mintaqaviy rivojlanishning alohida muammolarining mavjudligi bilan izohlanadigan milliy xususiyatlari ham bor.

Mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini keng ko‘lamli tartibga solish mexanizmlari Evropada 50-yillarda, Amerikada 60-yillarda, Osiyoda esa 70- yillarda paydo bo‘ldi.

Koreya Respublikasida “Mintaqaviy rivojlanishni kompleks milliy rejallashtirish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan va tarmoqlar doirasida maxsus parklar tashkil etilgan. Bunda infratuzilmalarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilgan. Texnopark va texnopolislarni rivojlantirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan, Turkiyada hududlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish yuqori bo‘lib, bunda o‘sish nuqtalarini (sayyohlik markazlarni) tashkil etishga alohida e’tibor qaratilgan. Mamlakatda bir qator mintaqaviy dasturlar va investitsiya loyihalari ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda.

Hindistonda infratuzilmani rivojlantirish va maxsus sayyohlik zonalarni tashkil etishda asosan davlat investitsiyalarining jalb etilishi mintaqaviy siyosatning asosini tashkil etadi.

Xitoy tajribasi avval “Ishlab chiqarish kuchlarini o‘zaro tenglik asosida joylashtirish” konsepsiyasini amalga oshirgan holda “Mintaqalarning nisbiy raqobat ustuvorliklaridan foydalanish” konsepsiyasiga asoslangandir. Bunda raqobatbardosh mahsulotlar (xizmatlar) ishlab chiqarishni tashkil etish uchun va turizmni rivojlantirish eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan mintaqalarga ustuvorlik berilgan. Maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil etish uchun “Ochiq hududlar” tizimini rivojlantirish bilan birga mamlakatning boshqa markaziy rayonlariga ham e’tibor qaratilgan.

Evropa ittifoqi mamlakatlarida ham mintaqaviy siyosat muhim rol o‘ynaydi. Tegishli qonuniy-huquqiy asosning mavjudligi, uzoq muddatli hududiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirilishi, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va infratuzilmalarni maqsadli tartibga solish, alohida hududlarni rag‘batlantirishning aniq iqtisodiy mexanizmlarining joriy etilishi ushbu siyosatining asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi.

Mintaqaviy siyosatning dunyo tajribasi quyidagi umumiyligi tendensiyalarning mavjudligi bilan tavsiflanadi: nomarkazlashtirish, mintaqalararo integratsiya, atrof muhitni muhofaza qilish, aholi farovonligi va boshqalar.

Hozirda O‘zbekistonda mintaqaviy rivojlanish va rag‘batlantirish bo‘yicha choralar ko‘rilmoxda. Mexanizm sifatida asosan davlat byudjeti doirasida ayrim mintaqalarga subvensiya va dotatsiyalar berishni ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, mintaqalarni o‘rtaligida muddatli rivojlanish prognozlari, ayrim hududlar (tarmoqlar) bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davlat dasturlari ishlab chiqilgan. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va rag‘batlantirish,

kichik va xususiy biznesni (turizm sohasida) rivojlantirish borasida mintaqalar uchun imtiyozlar va qulayliklar berish bo'yicha hukumat qarorlari mavjuddir.

Xorij davlatlarida ko'plab chora-tadbirlar rivojlanish darajasi bo'yicha orqada qolgan mintaqalarda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan. Bular davlat korxonalarini joylashtirishni rag'batlantirish, moliyaviy va moliyaviy bo'lмагan chora-tadbirlar orqali mintaqalarning (tarmoqlarning) raqobatbardoshligini oshirish va jozibadorligini yaxshilash, byudjet va soliq orqali imtiyoz va qo'layliklar berishdan iborat.

Ko'pgina mamlakatlarda mintaqaviy siyosatni amalga oshirishda maqsadli dasturlar ishlab chiqish, chegara hududlarni qo'llab-quvvatlash, maxsus iqtisodiy zonalar va klasterlarni tashkil etish mexanizmlaridan keng foydalaniladi.

Rivojlangan Evropa mamlakatlarida mintaqani (turizmni) rivojlanishini qo'llab-quvvatlash mexanizmi sifatida strategiya va maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish juda keng qo'llaniladi.

O'zbekistonda turli mintaqalar darajasida, shuningdek, hududiy turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqishda ma'lum tajriba bor. Jumladan, mintaqalarni (tarmoqlarni) yillik o'rta muddatli rivojlantirish prognozlari va davlat dasturlari ishlab chiqish keng yo'lga qo'yilgan. Masalan, o'rta muddatga mo'ljallangan respublika viloyatlarida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari amalga oshirilmoqda.

Mintaqalar doirasida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha ayrim xorij davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, ayrim yangi amalga oshirilayotgan mexanizmlardan foydalanish mumkin. Quyidagi 2-jadvalda Finlandiya, Turkiya va Kanada mamlakatlarida ishlab chiqilgan mintaqada turizmni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'naliislari ko'rsatib o'tilgan.

## 2-jadval

### Xorij davlatlarda turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari

<b>Strategiyani ishlab chiqish prinsiplari</b>	<b>Finlyandiya</b>	<b>Turkiya</b>	<b>Kanada</b>
<b>Barqaror rivojlanish konsepsiyasin i hisobga olish</b>	Yangi texnologiyalar, muqobil energiya manbalaridan, ekologik toza transportdan foydalangan turizm subyektlariga subvensiya ajratish	Turizmni rivojlantirishda barqaror rivojlanishga asoslangan choratadbirlarni qo‘llash, mintaqalarni kompleks rivojlanishini ta’minlash, bandlik muammosini hal qilish	Turizmni rivojlantirishda barqaror rivojlanish konsepsiyasini i qo‘llash
<b>Innovatsiyani amalga oshirish</b>	Ekoturizmni rivojlantirish	O‘nta sayyohik shaharlar, to‘qqizta sayyohik rekreatsiya zonalari va ettita yo‘laklarini shakllantirish	Shimoliy mintaqalarda ekoturizmni rivojlantirish

Mintaqada turizmni etakchi soha sifatida rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda BMT tomonidan taklif etilgan barqaror rivojlanish konsepsiysi va innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga qaratilgan uslublardan keng foydalanish mumkin.

O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda mintaqalarning rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlaridan foydalanishni nisbiy baholash A.M.Sodiqovning “Mintaqaviy rivojlanish asoslari: nazariya, uslubiyat, amaliyot” nomli monografiyasida keng yoritilgan (3-jadval).

### 3-jadval

#### **O‘zbekiston va xorijiy davlatlarda mintaqalarni davlat tomonidan tartibga solish dastaklaridan foydalanishning taqqoslama tahlili**

Mintaqalarning rivojlanishini tartibga solish mexanizmlari	Xorijiy mamlakat- larda	O‘zbekis- tonda
Mamlakat mintaqalarini rivojlantirish bo‘yicha turli qonun va me’yoriy xujjatlarni qabul qilish	++	+
Mintaqalar rivojlanishini tartibga soluvchi davlat boshqaruv organlarining faoliyat yuritishi	++	+
Mintaqalarning rivojlanishini dasturlashtirish va indikativ rejalashtirish	++	+
“O‘sish qutblari”ni, rivojlanish yo‘laklarini, erkin iqtisodiy zonalarni, sanoat parklari va zonalarini tashkil etish	++	-
Mamlakatlarda davlat hisobidan ishlab chiqarish infratuzilmalarini: avtomobil va temir yo‘llarni, irrigatsiya tizimlarini, trubaprovodlarni va boshqalarni tashkil etish	+	++
Mintaqalarda davlat hisobidan ijtimoiy infratuzilma obyektlarini tashkil etish	+	++
Sanoat korxonalari va qishloq xo‘jalik ekinlarini joylashtirishni tartibga solish	+	++
Ma’muriy usullar vositasida rivojlangan tumanlarda sanoatni rivojlantirishni chegaralash	++	-
Ishlab chiqarishni olib kirayotgan firmalarni rag‘batlantirish	+	-
Yangi sanoat korxonalarini qurilish xarajatlarini bir qismini davlat tomonidan qoplash	+	++
Mintaqaviy va maxalliy byudjetlarni dotatsiyalash	++	++
Muammoli hududlarga xususiy kapitallarni jalb etishga yo‘naltirilgan rag‘batlantirish chora-tadbirlari	++	-
Xorijiy investorlarga turli imtiyozlar berish	+	+
Ustuvor hududlarga korxonalarini joylashtirishda imtiyozli kredit va soliq imtiyozlarini berish	++	+

Shartli belgilar 1) ++ - keng, ko‘plab mamlakatlarda; 2) + - qisman, ayrim mamlakatlarda; 3) - - qo‘llanilmaydi.

Xorijda keng qo‘llanilayotgan mintaqaviy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga qaratilgan o‘sish nuqtalari maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish, mintaqalarga xususiy kapitallarni jalg qilish mexanizmlaridan O‘zbekistonda etarli darajada foydalanilmayapti.

Ushbu chora-tadbirlar, infratuzilma obyektlarini rivojlantirish (avtomobil va temir yo‘llar, axborot texnologiyalari va aloqa tizimlari, maxsus omborxonalar va boshqalar) mamlakat mintaqalarining raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Umuman olganda, xorijiy mamlakatlarda mintaqalarning rivojlanishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlari T.M.Axmedov, A.M.Sodiqov, Sh.Nazarov va boshqa mahalliy olimlarning izlanishlarida o‘rganilganligini inobatga olib, asosan o‘sish nuqtasi va tayanch sohani rivojlantirish, klasterlarni shakllantirish kabi mexanizmlarni ko‘rib chiqishga e’tibor qaratilgan.

Ushbu mexanizmlarning zaruriyati birinchidan, O‘zbekiston sharoitida ularning etarli darajada dolzarbliji, ikkinchidan, ularga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar deyarli o‘tkazilmaganligi, uchinchidan, mintaqalarning (tarmoqlarning) raqobatbardoshligini oshirish va asosiy o‘sish sohasini aniqlash masalasini hal etishning zaruriyati bilan izohlanadi.

Innovatsion iqtisodiyotga asoslangan mamlakatlarda raqobat afzaliklarga ega sohalarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga va yordam ko‘rsatish mintaqaviy tartibga solishning asosiy mexanizmlari hisoblanadi.

Mintaqada joylashgan turizm obyektlarini rivojlantirishning asosiy mexanizmi infratuzilmani qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Infratuzilmalarni rivojlantirish va korxonalarga imtiyozlarni berish chora-tadbirlari turlicha ekanligi bilan ajralib turadi.

Ayrim hududlar uchun transport imtiyozlari katta qiziqish uyg‘otadi. Ushbu mexanizm Shvetsiya va Finlandiya kabi Skandinaviya mamlakatlarida turizmni rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Bu mexanizmdan O‘zbekiston sharoitida ham foydalanish mumkin.

Dunyo amaliyotida keng qo‘llanilayotgan kichik korxonalarini

qo'llab- quvvatlash mexanizmlari mintaqaviy rivojlanishni rag'batlantirish tizimining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

Umuman olganda, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini va ularda joylashgan turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish borasidagi xorijiy tajribalarini tahlil qilish natijalari va ularni umumlashtirgan holda O'zbekiston sharoitida quyidagilardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- mamlakat mintaqalarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning aniq ishlab chiqilgan strategiyasining zarurligi;
- iqtisodiy islohotlarning milliy modelini hisobga olgan holda nomarkazlashtirish, mintaqalararo integratsiya, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi umumi tendensiyalarga mintaqaviy siyosatni bosqichma-bosqich moslashtirish;
- mintaqalarda etakchi sohalarni rivojlantirishda raqobat afzalliklarini, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va salohiyatini e'tiborga olgan holda investitsiya siyosatni amalga oshirishga e'tibor qaratish;
- mintaqalarning majmuali va barqaror rivojlanishi, shu jumladan, etakchi sohani tartibga solishning asosiy omili sifatida infratuzilmalarni rivojlantirish;
- ko'plab xorijiy mamlakatlarda mintaqalarni rivojlanishini tartibga solishda o'sish qutblari, o'sish nuqtalari, maxsus erkin zonalar, klaster mexanizmlaridan foydalanish bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish;
- erishilgan yutuqlar va mavjud muammolarni hisobga olgan holda O'zbekistonda mintaqalarning (ularda joylashgan etakchi sohalarni) raqobat afzalliklaridan samarali foydalanish mexanizmini ishlab chiqish.

### **12.3. Maxsus hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashda Yevropa Ittifoqining faoliyatini muvofiqlashtirish**

Yevropa ittifoqi (YeI) - o'zida xalqaro tashkilot va federativ davlat xususiyatlarini mujassamlashtirgan davlatlararo uyushma. Dastlab Yevropa hamjamiyati ("Umumiy bozor") nomi bilan atalgan. YeI to'g'risidagi shartnoma 1992 yil Maastricht shaxrida (Niderlandiya) Yevropa hamjamiyatiga a'zo bo'lgan 12 davlat va hukumat boshliqlari

imzo chekkan Yevropa mamlakatlarining siyosiy va valyuta-iqtisodiy ittifoqini vujudga keltirish to‘g‘risidagi bu shartnoma 1993 yil 1 noyabrdan kuchga kirgan. YeIning maqsadlari: Yevropa xalqlarining mustahkam ittifoqini vujudga keltirish, ichki chegaralari bo‘lmagan makon yaratish, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zaro ta’sirni kuchaytirish yo‘li bilan muvofiqlashtirilgan uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotga yordam berish; iqtisodiy va valyuta ittifoqini tashkil qilish va yagona valyuta yaratish (bu maqsadga 2002 yil yanvarda asosan erishildi); birgalikda tashqi siyosat olib borish va xavfsizlik borasida siyosat yuritish, kelgusida esa birgalikda mudofaa siyosatini ham olib borish yo‘li bilan xalqaro sohada o‘ziga xos bir xillikni qaror toptirish; adliya va ichki ishlar sohasida hamkorlikni rivojlantirish; umumiy boylikni saqlab qolish va ko‘paytirish. YeI organlari: Yevropa parlamenti, Yevropa Ittifoqi Kengashi, Yevropa komissiyasi, Yevropa sudi. Tashkilotga 28 mamlakat a’zo<sup>32</sup>.

O‘zbekiston va Evropa ittifoqi o‘rtasida diplomatik aloqa 1994 yil 16 noyabrda o‘rnatalgan. 1996 yil iyunda Florensiya shahrida YeI va O‘zbekiston o‘rtasida sheriklik va hamkorlik kelishuvi imzolandi. 1999 yil 1 iyuldan kuchga kirgan mazkur kelishuv siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy aloqalar, sarmoya, intellektual mulkni himoya qilish, qonunchilik hamda inson huquqlari bo‘yicha hamkorlik, madaniy-gumanitar sohalarni qamrab oladi.

Mamlakatimiz dunyoda tinchlikni saqlash orqali barqaror rivojlanish yo‘lida barcha davlatlar, jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan teng sheriklik va o‘zaro ishonch ruhida hamkorlik qilib kelmoqda. Bugungi shiddatkor zamon ushbu aloqalarni yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda. Bu, avvalo, Yevropa ittifoqi bilan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish, mintaqalari iqtisodiyotini rivojlantirish, ta’lim, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalardagi aloqalarni mustahkamlashda namoyon bo‘ladi. Shuning barobarida, global masalalar – iqlim o‘zgarishi, yoshlar radikalizmi, terrorizmga qarshi kurash, xavfsizlikni ta’minlash borasida Yevropa Ittifoqi bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bugungi kun talabi sanaladi.

Yevropa Ittifoqi O‘zbekistonninga sosiy hamkorlaridan biri.

---

<sup>32</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Yevropa\\_Ittifoqi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Yevropa_Ittifoqi)

Mamlakatimiz YeI bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni har tomonlama yanada mustahkamlashning qat’iy tarafdori hisoblanadi. Yevropa Ittifoqining sheriklikni amaliy mazmun bilan boyitishga intilishi "Ko‘hna qit’a" mamlakatimiz va mintaqaga alohida e’tibor qaratayotganidan dalolat.

O‘zbekiston Yevropa ittifoqi bilan xamkorlikni amalga oshira boshlagandan so‘ng mintaqalarni rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab yutuqlarga erishildi, jumladan:

1. «Erasmus+» – YeIning ta’lim bo‘yicha 2014-2020 yillarga mo‘ljallangan yirik dasturidir. Mazkur dastur 1994 hamda 2007 yildan amalga tatbiq etilgan «Tempus» va «Erasmus Mundus» loyihamalarining mantiqiy davomi sanaladi. «Erasmus+» dasturining 2014-2020 yillardagi umumjahon byudjeti 14,7 milliard evroni tashkil etadi. Toshkentda ham Erasmus + milliy idorasi faoliyat yuritmoqda. Ushbu dastur doirasida yurtimizdagi talaba, doktorant, oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchi-xodimlariga «ko‘hna qit’a» universitetlarida qisqa malaka oshirish yoki to‘liq ta’lim imkonini taqdim etiladi.

2. 2007 yildan boshlab Toshkent hamda Bryusselta inson huquqlari bo‘yicha, shuningdek, adliya va ichki ishlar bo‘yicha yillik muloqotlar o‘tkaziladi.

3. YeI O‘zbekistonda xususiy sektor, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish maqsadida menejment tahsil dasturini amalga tatbiq etib kelmoqda. Mazkur dastur doirasida ko‘p sonli biznes boshqaruvchilari YeI davlatlarida zamонави менижмент сирларини о‘рганишди.

4. Yevropa komissiyasining texnikaviy ko‘magida biznes va turizmni rivojlantirish, transport logistikasi, chegaralarni boshqarish, narkotik vositalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish, xavfsizlik va boshqa sohalarda 35 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

5. Bryussel O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi sohasiga yirik grant mablag‘lari taqdim etib keladi. Xususan, 2014-2020 yillarda ikki tomonlama hamkorlik doirasida qishloqlarni rivojlantirish, fermerlar va qishloq aholisi daromadni ko‘paytirish, sektorning raqobatbardoshligi va mahsulorligini oshirish maqsadida 168 million evro ajratilgan.

6. O‘zbekiston bilan YeI o‘rtasidagi sheriklik va hamkorlik kelishuvi doirasida parlament hamkorligi qo‘mitasi hamda kichik qo‘mitalarni o‘z ichiga olgan 6 ta hamkorlik tashkiloti faoliyat

yuritmoqda.

7. O‘zbekistondan YeI mamlakatlariga asosan kimiyoiy moddalar, sanoat mollari, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa tovarlar eksport qilinmoqda.

8. 2018 yilda O‘zbekistonning YeI mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 3,73 milliard AQSH dollariga etdi.

9. 2017 yildan Evropa investitsiya banki (EIB) hamda Evropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) O‘zbekiston bilan hamkorlikni yangidan yo‘lga qo‘ydi. 2017 yil oktyabrda O‘zbekiston EIB bilan hamkorlik bo‘yicha bitim imzolandi, 2017 yil noyabrda ETTB Toshkentda o‘z vakolatxonasini ochdi.

10. YeI 2003-2019 yillarda BOMCA dasturi doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlariga 40,1 million evro ajratdi. BOMCA (Border Management Programme in Central Asia) dasturi 2003 yilda amaliyotga joriy etilgan bo‘lib, u Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida chegaralar boshqaruvi bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

11. 2018 yil 27 mart Toshkentda «Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik» mavzusida Afg‘oniston bo‘yicha yuqori darajadagi uchrashuv o‘tkazildi. Unda YeIning tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo‘yicha oliv vakili Federika Mogerini ham qatnashdi. U o‘z nutqida Afg‘onistondagi vaziyatni baraqarorlashtirishga oid rasmiy Toshkent tashabbusini qo‘llab-quvvatlashi, bu masala Bryusselning ham doimiy e’tiborida ekanini qayd etdi.

12. 2018 yil yakuniga ko‘ra, Germaniya (874 million), Litva (795 million), Latviya (497 million), Italiya (340 million) hamda Fransiya (267 million) O‘zbekistonning YeIdagi asosiy savdo hamkorlari sanaladi.

13. Mamlakatimizda YeIga a’zo davlatlardan jalb qilingan investitsiyalar ishtirokida 1000 dan ortiq korxona faoliyat yuritmoqda.

14. 2019 yil iyul. Yevropa ittifoqi barqaror iste’mol hamda ishlab chiqarish va mintaqada yashil iqtisodiyotga o‘tishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Markaziy Osiyo uchun «Osiyo o‘zgarishlarini qo‘llab-quvvatlash» (SWITCH-Asia) dasturini amalga oshirishga kirishdi. Ushbu dastur 2007 yilda YeI tomonidan joriy etilgan bo‘lib, uning doirasida o‘tgan yillar davomida Osiyodagi o‘nlab

mamlakatlardagi barqaror iste'mol va ishlab chiqarish jarayonlari rag'batlantirildi. Endilikda dastur Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, O'zbekistonni ham qamraydi.

15. 2019 yil 11 noyabrda YeI O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga qo'shilishi uchun 5 million evro grant ajratdi. Ushbu mablag' tashkilotga a'zo bo'lish jarayonida zarur hujjatlarni tayyorlash, O'zbekistonlik mutaxassislarining JST kelishuvlari va xalqaro savdo tizimiga oid bilimlarini oshirishda ishlataladi. Ayni paytda global savdoning 96 foizi JSTga a'zo 164 davlat hissasiga to'g'ri keladi. Sobiq Ittifoq davlatlaridan 12 tasi (Armaniston, Estoniya, Latviya, Litva, Ukraina, Moldova, Rossiya, Gruziya, Qozog'iston, Qирг'изистон, Tojikiston) xalqaro tashkilotga kirgan, O'zbekiston, Turkmaniston va Ozarboyjon hali a'zo bo'lganicha yo'q.

Jahon hamjamiyati uchun qayta ochilayotgan O'zbekiston, uning xalqaro va mintaqaviy barqarorlikka erishishga qaratilgan tashqi, ichki siyosati Markaziy Osiyoda rivojlanishning yangi davrini boshlab berdi. Umumiy maqsad va birgalikdagi intilishlar sabab mintaqaga mamlakatlari yagona makon va maqsad sari birlashmoqda. Ayni ushbu jarayon rivojlangan davlatlarning Markaziy Osiyo bo'yicha o'z qarashlari, yondashuv va hamkorlik strategiyasini qayta ko'rib chiqishga undamoqda. Zero, mintaqaviy hamkorlikning bugungi bosqichida zamon talabiga mos g'oya va intilishlar o'zaro manfaatli sheriklikni samarali ro'yobga chiqarishi mumkin.

## **12.4. Mamlakatlarning milliy manfaatlarini shakllantirish va amalga oshirish tajribasi**

Rossiya boy tarixiy va madaniy an'analarga ega dunyodagi eng yirik davlatlardan biri. Uning iqtisodiy, ilmiy, texnik va harbiy salohiyati, evroosiyo qit'asidagi noyob jug'rofiy joylashuvi Rossiya Federatsiyasiga zamonaviy dunyoda muhim rol o'ynashga imkon beradi.

Obyektiv ravishda, Rossiya va boshqa davlatlarning ko'plab xavfsizlik masalalari, shu jumladan qurollarning tarqalishiga qarshi kurash, terrorizm va giyohvandlik savdosiga qarshi kurash, ekologik muammolarni hal qilish va yadroviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha umumiy manfaatlari saqlanib qoladi. Ayni paytda bir qator davlatlar

Rossiyani umuman zaiflashtirish va uning xalqaro siyosatga ta'sirini kuchaytirishga harakat qilmoqdalar.

Rossiya milliy xavfsizligining asosiy tushunchalari Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2000 yil 10 yanvardagi 24-sonli qarori bilan tasdiqlangan Rossiya Federatsiyasining Milliy xavfsizlik kontseptsiyasida ifodalangan.

Rossiyaning milliy manfaatlarining eng muhim tarkibiy qismi bu shaxsni, jamiyatni va davlatni terrorizm, tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlaridan, shuningdek urush paytida yoki undan kelib chiqadigan xavf-xatarlardan himoya qilishdir.

Rossiyaning milliy xavfsizligiga xavflar.

Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasining milliy xavfsizligiga tahidlarning uch turi mavjud: tashqi, ichki va chegara.

Tashqi tahidlarga quyidagilar kiradi:

- Rossiya Federatsiyasi va uning ittifoqchilari chegaralariga yaqin joyda qurolli kuchlar va texnikalar guruhlarini joylashtirish;
- Rossiya Federatsiyasiga nisbatan hududiy da'volar, ayrim hududlarni Rossiya Federatsiyasidan chiqarib yuborish tahdidi;
- xorijiy davlatlar tomonidan Rossiya Federatsiyasining ichki ishlariga aralashish;
- Rossiya Federatsiyasi chegaralari yaqinidagi mavjud kuchlar muvozanatining buzilishiga olib keladigan kuch guruhlarini tuzish;
- qurolli provokatsiyalar, shu jumladan xorijiy davlatlar hududida joylashgan Rossiya harbiy obyektlariga, shuningdek Rossiya Federatsiyasining Davlat chegarasi va uning ittifoqchilarining chegaralarida joylashgan inshootlarga hujumlar;
- Rossiyaning strategik muhim transport aloqalariga kirishiga to'sqinlik qiladigan harakatlar;
- ayrim xorijiy davlatlarda kamsitish, Rossiya Federatsiyasi fuqarolarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etmaslik.

Ichki tahidlarga quyidagilar kiradi:

- konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishga harakat qilish va Rossiyaning hududiy yaxlitligini buzish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ishini buzish va tartibga solishga, davlat, iqtisodiy va harbiy obyektlarga, hayotni

ta'minlash va axborot infratuzilmasiga hujumlarni rejalashtirish, tayyorlash va amalga oshirish;

- noqonuniy qurolli guruhlarni yaratish, jihozlash, o'qitish va ularning faoliyati; Rossiya Federatsiyasi hududida qurollar, o'q-dorilar va portlovchi moddalarni noqonuniy tarqatish;

- Rossiya Federatsiyasining ayrim mintaqalarida siyosiy barqarorlikka tahdid soluvchi keng miqyosli uyushgan jinoyatchilik faoliyati;

- separatistik va radikal diniy milliy harakatlarning faoliyati.

Chegaraviy tahdidlar quyidagicha namoyon bo'ladi:

- boshqa davlatlarning hududida qurolli tuzilmalar va guruhlarni yaratish, ularni Rossiya hududida operatsiya qilish uchun yuborish uchun o'qitish;

- Rossiyaning konstitutsion tuzumini buzishga, uning hududiy yaxlitligi va fuqarolarining xavfsizligiga tahdid solishga qaratilgan chet eldan qo'llab-quvvatlanadigan bo'luvchi separatistik, milliy yoki diniy ekstremistik guruhlarning faoliyati;

- chegaralardagi jinoyatlar, shu jumladan noqonuniy kontrabanda va boshqa noqonuniy harakatlar;

- Rossiya Federatsiyasiga dushman bo'lgan axborot harakatlarini o'tkazish;

- giyohvandlik faoliyati, bu Rossiya hududiga giyohvand moddalar kirib kelishi yoki uning hududidan boshqa mamlakatlarga giyohvand moddalar tranziti uchun foydalanish xavfini tug'diradigan faoliyat;

- Xalqaro terrorchilik tashkilotlari faoliyati.

Rossiya milliy xavfsizligi va milliy manfaatlarini muhofaza qilinishi.

Rossiyaning milliy xavfsizligi va milliy manfaatlarini ta'minlash siyosiy, iqtisodiy, gumanitar va harbiy sohalarda amalga oshiriladi. Bu bugungi kunda ikkita asosiy tendentsiyalarning kombinatsiyasi bilan ajralib turadigan Rossiyaning global harbiy-siyosiy munosabatlar tizimidagi o'rni bilan chambarchas bog'liq. Bir tomonidan, xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning yangi, yanada adolatli va demokratik tizimini shakllantirish istagi mavjud. Boshqa tomonidan, BMT vakolatidan tashqarida milliy qarorlar asosida qurolli kuchlardan foydalanish amaliyoti tobora kengayib bormoqda.

Bunday sharoitda Rossianing milliy xavfsizligini ta'minlashda harbiy kuchning ahamiyati saqlanib qolmoqda, u harbiy kuchlarning qiymati minimallashtirilgan va uning vazifalari qurolli mojarolarni o'z ichiga olgan vazifalarga kamaytiriladigan bunday xalqaro munosabatlar tizimini izchil qo'llab-quvvatlaydi.

Rossiya Federatsiyasining milliy xavfsizligini ta'minlashga yondashuvlarni belgilovchi muhim jihat - bu zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining eng muhim elementlari bilan munosabatlaridir. Bularga, birinchi navbatda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va BMT Xavfsizlik Kengashi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO) va Evropa Ittifoqi (YeI), Rossiya va AQSH o'rtaсидagi strategik sheriklik, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) kiradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va BMT Xavfsizlik Kengashini Rossiya dunyoda global barqarorlikni ta'minlaydigan markaziy element sifatida ko'radi. Ularning rolini pasaytirish va milliy qarorlar asosida qurolli kuchlardan foydalanishga o'tish Rossiya tomonidan milliy manfaatlariga jiddiy tahdid solishi mumkin bo'lган tendentsiya sifatida baholamoqda.

MDH mamlakatlari bilan munosabatlar Rossiya uchun tashqi siyosatning eng muhim sohasidir. Rossiya MDH mamlakatlari doirasida harbiy-siyosiy hamkorlikni yanada rivojlantirishga intilmoqda.

Rossianing NATO bilan munosabatlari 2001 yildagi Rim deklaratsiyasida belgilanadi. Rossiya Federatsiyasi to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita aksil-rossiyaga qarshi tarkibiy qismlarni harbiy rejalshtirishdan va Shimoliy Atlantika blokiga a'zo bo'lган mamlakatlarning siyosiy deklaratsiyalaridan butunlay yo'q qilinishini kutmoqda. Ammo, agar NATO bugungi hujumkor harbiy doktrinaga qarshi harbiy ittifoq sifatida davom etsa, bu Rossianing harbiy rejalshtirishini va Rossiya Qurolli Kuchlarini tuzish tamoyillarini, shu jumladan yadro strategiyasida kiritilgan o'zgartirishlarni talab qiladi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti Markaziy Osiyo va Uzoq Sharq mintaqasida mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tashkilot bilan hamkorlik janubi-sharqiy va uzoq sharq yo'nalishlarida tinchlik va barqarorlik zonasini yaratishga

qaratilgan bo‘lib, bu keng ko‘lamli harbiy tahdid paydo bo‘lishining oldini oladi.

Dunyodagi hozirgi geosiyosiy vaziyat shundan iboratki, Rossiyaning milliy xavfsizligini faqat siyosiy imkoniyatlar (xalqaro tashkilotlarga a’zolik, sheriklik va boshqalar) hisobidan ta’minlash etarli bo‘lmaydi. Rossiyaning milliy xavfsizligiga tashqi, ichki va transchegaraviy tahdidlarni zararsizlantirish tobora davlatning harbiy tashkilotining asosiy vazifasiga aylanib bormoqda, shuning uchun harbiy kuchning Rossiyaning milliy manfaatlarini va xavfsizligini ta’minlash vositasi sifatida ahamiyati nafaqat saqlanib qolmoqda, balki ortib ham bormoqda.

AQSH milliy xavfsizligini ta’minlash tajribasini barcha G‘arb mamlakatlari bu sohada asos qilib olgan. AQSHda milliy xavfsizlik sohasidagi eng yuqori huquqiy kuchga ega bo‘lgan AQSHning asosiy qonuni 1787 yilda qabul qilingan AQSHning Konstitutsiyasidir. AQSHning konstitutsiyaviy qonuni shaxslarning himoyasini kafolatlaydi; yashash va erkinlik huquqi; mulkka ega bo‘lish, egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi; "baxtga intilish" huquqi; turli davlatlar bo‘ylab harakatlanish erkinligi va yashash joyini tanlash; sud orqali himoya qilish huquqi; diskriminatsiya qilinadigan soliqqa tortilmaslik va boshqa asosiy huquqlar.

AQSH milliy xavfsizligiga asosiy tahdidlar: ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalishi, terrorizm, kiber jinoyatlar sonining ko‘payishi, noqonuniy immigratsiya, energetika muammolari, shuningdek, iqlim o‘zgarishi va AQSHning yoqilg‘iga qaramligi. Iqlim o‘zgarishi, pandemiya, transmilliy jinoyatchilik va boshqalar AQSHning milliy xavfsizligiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan zamonaviy global muammolar deb nomlandi.

AQSH milliy xavfsizlik strategiyasining tuzilishi mantiqan quyidagi bo‘limlarni birlashtiradi:

- 1) AQSH xavfsizligini, Amerika xalqining ravnaqi va erkinligini ta’minlashning asosiy manfaatlariga;
- 2) milliy rivojlanish va xalqaro munosabatlar evolyutsiyasi davrida AQSH missiyasi;
- 3) davlat tuzilmalari, ta’sir guruhlari, tijorat va nodavlat tashkilotlari tomonidan milliy xavfsizlikni ta’minlash maqsadlarini amalga oshirish.

Ushbu strategiya birinchi navbatda AQSH milliy xavfsizligining tashqi va ichki muammolarni hal qiladi. Shu bilan birga, AQSH iqtisodiyoti, ta’lim, sog‘liqni saqlash, fan va texnologiya sohalari, shuningdek, federal byudjetning raqobatdoshligini kuchaytirishga katta ahamiyat beriladi.

AQSH milliy xavfsizlik strategiyasining muhim mavzusi demokratiya va inson huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklarni amalga oshirish, qashshoqlikni tugatishdir. Hujjatda xalqaro huquqni takomillashtirish va hukumatlararo tashkilotlarni, ayniqsa NATO mamlakatlari, shuningdek Yaponiya, Janubiy Koreya, Avstraliya va boshqa davlatlar bilan kuchaytirish zarurligi ta’kidlangan.

AQSH milliy xavfsizlik strategiyasi anti-Rossiya va Rossiya Federatsiyasining salbiy imidjiga qaratilgan. Biroq, 2017 yil 20 yanvarda lavozimga tayinlangan AQSH Prezidenti Donald John Trampning yondashuvi nafaqat taktik, balki strategik jihatdan bir qator yangiliklarni o‘z ichiga oladi. Birinchi marta Amerika kuchining asosiy vositalarini: diplomatiya, harbiy kuch, iqtisodiy vositalar, razvedka va ichki xavfsizlik kuchlarini birlashtirish taklif qilinmoqda.

Kanada kuchlari (CF – Kanada kuchlari) quruqlik, dengiz, havo, aloqa, o‘quv bo‘linmalaridan iborat. Kanada qurolli kuchlari ikki xil odamlar guruhiга bo‘lingan: oddiy askarlar va ofitserlar. Tarkibiy darajada Kanada kuchlari beshta bo‘linmaga bo‘lingan: muntazam kuchlar, zaxira kuchlari, qo‘srimcha zaxira, harbiy yo‘riqchilar qo‘mondonlik shtatlari va Kanada inspektorlari.

Kanada kuchlari professional asosda qurilgan. Ulardan: 62000 ta muntazam kuchlarni tashkil etadi? 25000 ta kutish kuchi, shu jumladan 4000 ta Kanada qo‘riqchilaridan iborat.

Kanada milliy xavfsizlik bo‘limi, ichki mudofaa vazirligi va birqator maxsus tashkilotlardan iborat bo‘lib, Kanada ichki xavfsizlik departamentiga hisobot beradi. Kanada ichki xavfsizlik departamenti (shtab-kvartirasi) Kanada poytaxti Ottavada joylashgan. Markaziy qo‘mondonlik (Kanada qo‘mondonligi) 6 mintaqaviy (Tinch okeani, markaziy, shimoliy, sharqiy, preylar va Atlantika)ga bo‘linadi. Kanada Qurolli kuchlarining birlashgan filiallari quyidagilardan iborat: Quruq qo‘mondonligi (quruqlikdagi kuchlar yoki er osti kuchlari), dengiz qo‘mondonligi (dengiz floti) va havo qo‘mondonligi (havo kuchlari).

Kanada qurolli kuchlari Kanada hududida, shuningdek Yevropada joylashgan. Ularning asosiy tashvishi Kanadaning suvereniteti va xavfsizligini himoya qilishdir. Kanada va AQSH Shimoliy Amerika Aerokosmik Mudofaa Qo‘mondonligining (KAOSA) sheriklari bo‘lib, 1957 yildan beri tijorat va xususiy samolyotlarning parvozlarini boshqarish orqali Shimoliy Amerika havo suverenitetini himoya qilishga chaqirilgan. Bundan tashqari, Kanada bir necha yillardan buyon Shimoliy Amerikani ballistik raketa hujumlaridan himoya qilish uchun raketalarga qarshi mudofaa loyihasida ishtirok etmoqda.

Kanadada xavfsizlik va razvedka xizmati mavjud. So‘nggi yillarda qurolli kuchlarning BMT shafe’ligida o‘tkazilgan tinchlikparvar operatsiyalarda ishtiroki kengaydi.

Kanada kuchlari butun dunyo bo‘ylab Kanadaning suvereniteti va xavfsizligini himoya qilish, shuningdek, erkinlik, demokratiya va inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha o‘z vazifalarini bajarishda davom etadilar. Ularning soni oz bo‘lishiga qaramay, ko‘plab NATOga a’zo mamlakatlar ular bilan Kanadada mashqlar o‘tkazishni istaydilar, ularda keng o‘quv lagerlari mavjud va quruqlikdagi kuchlar va aviatsiya uchun haqiqiy jangovar vaziyatlarni taqlid qilishga imkon beradi.

Bugungi kunda Kanada qurolli kuchlarining texnik jihozlari dunyodagi eng yaxshi (engil zirhli transport vositasi III (LAV III), zamонавиylashtirilgan jangovar samolyot (CF-18 qiruvchi samolyoti, dengiz flotining Halifax sinfidagi freqatlar) hisoblanadi.

Erkaklar ham, ayollar ham Kanada kuchlarida xizmat qilishlari mumkin. Qurolli, dengiz va havo kuchlari zabitlari dastlab Kanada Qurolli kuchlari qo‘mondonlik va yollash mакtabida va qisman Kanada Qirollik harbiy kollejida (Ontario) mashq qilmoqdalar. O‘qish oxirida ular keyingi xizmat uchun mamlakat bo‘ylab tarqatiladi. Xususiy askarlar Kanada Qurolli Kuchlarining Menejment va yollash maktabida Sankt-Jan-sur-Richelieu (Kvebek) garnizonida tahsil olishadi, shundan so‘ng oddiy askarlar harbiy maktablarda mutaxassislik bo‘yicha tahsil olishadi.

Askarlar va tayinlanmagan ofitserlar o‘rtasida hech qanday farq yo‘q. Har bir askar askar unvonidan boshlanadi va agar u kerakli fazilatlarga ega bo‘lsa, o‘z xizmatini adyutant general (unvoni

bo‘lмаган шахс учун енг ўуқори унвон) унвони билан ўакунлади. Канада қуролли кучлари professional асосда қурилган ва 100 га яқин ҳарбиј қасб ва мутаксисликларни тақлиф этган holda мартаба ко‘тарилish имкониятини юратади.

Xитой давлатчилиги тарixи qariyb 5 ming yillik tarixga ega. Bugungi kunda Xитой Xalq Respublikasi aholisi soni bo‘yicha dunyodagi eng katta давлатdir. Iqtisodiy tiklanish va siyosiy barqarorlik Xитоyning milliy xavfsizligini yanada kuchaytiradi. XXRning milliy xavfsizlik siyosati nafaqat mintaqaviy, balki global zamonaviy jarayonlarga ham faol ta’sir ko‘rsatadi. Ilgari G‘arb ekspertlari tomonidan e’lon qilingan "Xитой dunyo emas, balki mintaqaviy kuch" degan fikrlar boshqa birida ishonarli.

Bugungi kunda XXRning milliy xavfsizlik siyosati ichki va tashqi omillarning bir qatori bilan belgilanadi. So‘nggi yillarda dunyoda dolzarb bo‘lib kelayotgan Xитой учун milliy xavfsizlikning etnik va diniy jihatlari uning hududida turli hil guruhlari va oilalarga mansub 50 dan ortiq xalqlarning istiqomat qilishi (aholining qariyb 95% xitoylar - Xan), qolganlari - Xuy, Uyg‘urlar, Manchu, Tibetliklar, Miao va boshqalar). Xитой dindorlarining dini - buddizm, taoizm va konfutsiylik, bir-biri bilan chambarchas bog‘liq.

Shunga ko‘ra, Xитоyning milliy xavfsizlik siyosatining o‘ziga xos асослари va o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

Ma’lumki, zamonaviy Xитой milliy xavfsizlik siyosatining nazariy асосини Deng Syaoping g‘oyalari tashkil etadi, bunda Xитоyning rasmiy rahbarlari va ushbu mamlakatning олимлари o‘z faoliyatlarini olib borishadi.

Si Tszinpinning Xитоyning tashqi siyosati bo‘yicha 19-Kongress Kongressidagi ma’ruzasini tahlil qilish Xитоyning milliy xavfsizlik siyosatining асосиј qoidalarini ochib beradi. Hisobotda dunyodagi umumiј vaziyatni baholash, асосан, Rossiyaning rasmiy baholariga то‘g‘ri keladi va асосан jahon hamjamiyatida mavjud bo‘lgan vaziyatni aks ettiradi. Hisobotda tinchlik va taraqqiyot davrning асосиј mavzusi ekani ta’kidlangan.

Biroq, Xитой rahbarlarining fikriga ko‘ra, Sovuq Urush mentaliteti hali ham mavjud va gegemonizm va hokimiyat siyosati dunyodagi tinchlik va barqarorlikka tahdidning асосиј manbai bo‘lib qolmoqda. Harbiј bloklarning kengayishi va harbiј ittifoqlarning

mustahkamlanishi tinchlik va xavfsizlikni saqlashga hissa qo'sha olmaydi. Adolatsiz va irratsional xalqaro iqtisodiy tartib hali ham rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatlariga zarar etkazmoqda, boy va qashshoq davlatlar o'rtasidagi tafovut tobora kengayib bormoqda. "Inson huquqlari" va boshqa muammolar boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashishda ishlatilishi jiddiy tashvishga solmoqda. Etnik, diniy va hududiy omillar sababli mahalliy mojarolar doimiy ravishda alangalanmoqda.

Xalqaro aloqalarda, XXR o'z pozitsiyasini Xitoy va boshqa davlatlar xalqlarining tub manfaatlaridan kelib chiqqan holda belgilaydi. Milliy xavfsizlik siyosatini amalga oshirishda, Xitoy rahbarlari hech qanday tashqi bosimga dosh bermasliklarini va biron bir yirik kuch yoki davlatlar guruhi bilan ittifoq tuzmasliklarini, shuningdek, biron bir harbiy blok tashkil qilmasliklarini, qurollanish poygasiga qo'shilmasliklarini yoki harbiy kengayishni xohlamasliklarini e'lon qildilar. Ushbu so'zlar Deng Syaoping uzoq muddatli istiqbolda ko'rib chiqilgan - 2050 yilgacha Milliy xavfsizlik siyosatidagi strategik fikrlarining ifodasidir.

Xitoyning milliy manfaatlari va milliy xavfsizlik strategiyasi.

Milliy rivojlanish strategiyasi Xitoyning milliy xavfsizlik siyosatining markazidir. Milliy rivojlanish strategiyasining asosi, birinchidan, dastlabki davrdagi sotsializm nazariyasi, ikkinchidan, sotsialistik bozor iqtisodiyoti nazariyasi. Ushbu strategiyaning mohiyati quyidagicha:

Xitoyning milliy rivojlanishi siyosiy barqarorlik va milliy xavfsizlik sharoitida o'tishi kerak. Xitoy xalqining asosiy uzoq muddatli maqsadi mamlakatni gullab-yashnagan, kuchli, demokratik va sivilizatsiyalashgan zamonaviy sotsialistik davlatga aylantirishdir. Ushbu maqsadga erishish yo'li uch bosqichga bo'lingan.

Birinchi bosqich 1981–1990 yillarda yalpi ichki mahsulotning ikki baravar ko'payishi va oziq-ovqat va kiyim-kechak muammolarini hal qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu vazifalar bajarildi.

Ikkinci bosqich 1991–2000 yillarda yalpi ichki mahsulotni aholi jon boshiga 800 dollardan 1000 dollargacha bo'lgan daromad bilan 1 trln. AQSH dollarigacha yetkazishga qaratilgan ushbu davr rejalarini amalga oshirish Xitoyni "nisbatan farovonlikka" olib keldi.

Uchinchi bosqich 2001–2050 yillarda modernizatsiya qilishning asosiy maqsadlariga erishishga qaratilgan: islohotlar va ochiqlik siyosati, qishloq xo‘jaligi, energetika, transport, fan va ta’lim sohasidagi dasturlarni amalga oshirish va pirovardida ilg‘or mamlakatlarning rivojlanish darajasiga erishish.

Xitoy dunyoda tinchlikni saqlashda muhim kuchdir. Hozirgi vaqtida xitoylik olimlar va siyosatchilarining turli talqinlarida "global gegemonchi" AQSH, "mintaqaviy gegemoniya" Yaponiya.

Xitoyning milliy manfaatlari boshqa davlatlar xalqlarining milliy manfaatlарига об'ектив мөн келади. Шу билан бирга, барча контсансиya hujjatlari suverenitet va milliy xavfsizlik sohasida biron bir murosa bo‘lmasligi mumkinligini ko‘rsatadi. To‘g‘ri amalga oshirilgan milliy manfaatlarning eng yuqori mezoni bu mamlakatda barqarorlikdir, milliy taraqqiyot uchun qulay va barqaror muhitni yaratish hamda milliy manfaatlar milliy xavfsizlik strategiyasi bilan himoya qilinadi.

Yaponiyada milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalashda moliya tizimini barqarorlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar, pul-kredit siyosati choralar, iqtisodiyotning real sektorini qo‘llab-quvvatlash choralar, ijtimoiy himoyani kuchaytirish choralar. aholi, soliq choralar, byudjet siyosati choralarini keng amalga oshiriladi.

Yaponianing milliy iqtisodiy xavfsizligini ta’minalashda pul-kredit siyosati choralar. Yaponiya Markaziy banki tomonidan ishlab chiqarishning pasayishi sharoitida biznesni yanada faolroq kreditlashga undash maqsadida xususiy banklarga subordinatsiyalangan kreditlar ko‘rinishida yordam beradi. Shu bilan birga, Markaziy bank korporativ kreditlashni rag‘batlantirish dasturini amalga oshirib Yaponiya kompaniyalariga kreditlar berilishini rag‘batlantirish maqsadida moliyaviy institulgarda past foizli kreditlarni taqdim etib boradi.

Markaziy bank garov sifatida, tijorat hujjatlari va mulkni garov bilan ta’minalangan kompaniyalarning qisqa muddatli qarzlar sifatida qabul qiladi. Bundan tashqari, Yaponianing milliy ipoteka agentliklariga qarz oluvchilarining to‘lovleri va ipoteka to‘lovlarini qayta moliyalashtirish uchun subsidiyalar beriladi.

Yaponiya Markaziy banki, dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarining aksariyat markaziy banklari kabi, qayta moliyalash stavkasi makroiqtisodiy vositadan foydalanishga murojaat qiladi. Iqtisodiyotning real sektorida kredit berish jarayonini rag‘batlantirish uchun Yaponiya Markaziy banki doimiy ravishda bazaviy stavka darajasini pasaytirib, shuningdek kreditlash dasturlariga, ayniqsa ipoteka kreditlari stavkalarini pasaytirish uchun qo‘srimcha mablag‘lar ajratadi. Bundan tashqari, xalqaro hamkorlik doirasida Yaponiya hukumati rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish uchun Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi tashkil etilgan.

Yaponiya hukumati axborot texnologiyalarini rivojlantirish uchun chora-tadbirlarni ko‘rmoqda. Ushbu chora-tadbirlarni amalgamoshirish elektron hukumatni va ta’lim va sog‘liqni saqlash bo‘limlarini yaratishga, barcha qog‘oz hujjatlarni elektron ommaviy axborot vositalariga bosqichma-bosqich topshirishga, qo‘srimcha yangi ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgandir.

Yaponiya iqtisodiyotning eng katta sohalaridan biri bo‘lgan avtomobilsozlik hisoblanadi. Shu sababli avtomobilsozlik sohasini rivojlantirish maqsadida zamonaviy modellarni sotib olish evaziga fuqarolarning eski modellarini sotib olib, yangi avtomobilarga talabni oshirish asosida milliy avtosanoatni qo’llab-quvvatlash choralari ko‘riladi.

Qurilish sohasini qo’llab-quvvatlash uchun Yaponiya Markaziy banki ko‘chmas mulk sotib olishni moliyalashtirish uchun investitsiyalarni jalg qilish hamda qurilish loyihalarni sotib olish uchun qurilish kompaniyalariga imtiyozli kredit mablag‘larini ajratib boradi. Shuningdek, Markaziy bank uy-joy qurilishi ipotekasini qo’llab-quvvatlash uchun va shaharlarni qayta qurish loyihalari uchun ham past foizli va imtiyozli kredit mablag‘larini ajratadi.

Yaponiya hukumati energetika tarmog‘ini qayta qurish jarayoniga ta’sir ko‘rsatdi. Energiya narxlarining beqarorligi tufayli davlat organlarining alternativ energiya turlarini, shuningdek energiya tejash loyihalarni ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida ekologik toza energiya turlarini ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Bundan tashqari, Yaponiya hukumati Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan savdoni qo’llab-quvvatlash uchun Yaponiya

kompaniyalari bilan import va eksport shartnomalarini ta'minlaydigan Osiyo mamlakatlari bilan savdoni qo'llab-quvvatlash uchun yordam mablag'larini ajratadi. Shu orqali, iqtisodiyotning real sektoriga tashqi talabni rag'batlantirish orqali nafaqat to'g'ridan-to'g'ri, balki bilvosita yordam ko'rsatdi.

Aholini ijtimoiy himoyasini kuchaytirish choralari. Yaponiya hukumatining aholini ijtimoiy himoya qilishni yaxshilashda, birinchi navbatda, ishsizlikning o'sishini oldini olish va ishsiz qolgan fuqarolarga moddiy yordam to'lash bo'yicha chora-tadbirlar kiritilgan. Bundan tashqari, ishsizlikdan sug'urtalash tizimi takomillashtirilgan.

Soliq-byudjet choralari. Yaponiya milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun soliqlarni kamaytirish choralari ko'rib boriladi.

Byudjet siyosati choralari. Yaponianing byudjet xarajatlari kamaytirish uchun davlat apparati va iqtisodiyotning bir qator tarmoqlari xarajatlarini kamaytirishning qo'shimcha usullarini amalga oshiradi.

Germaniya Federativ Respublikasining (FRG) iqtisodiy xavfsizlik siyosati sohasidagi eng yuqori maqsadi mamlakatning tinchligi, erkinligi va mustaqilligini ta'minlashdir. 1949 yilda kuchga kirgan Germaniyaning asosiy qonuni, inson hayoti va xavfsizligi huquqini mustahkamlaydi.

Germaniyada milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash sohasida Germaniya xavfsizlik siyosati va Bundesveranering kelajagi to'g'risida Oq qog'oz mavjud. Ushbu asosiy hujjatda iqtisodiy xavfsizlik siyosatining asosiy qoidalari va milliy qurolli kuchlarni rivojlantirish yo'nalishlari belgilangan. Germaniyaning milliy xavfsizligiga tahdid soluvchi asosiy tahdid va xatarlar xalqaro terrorizm, ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishi, ichki va mintaqaviy mojarolarning oqibatlari va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, NATO tinchlikni saqlash uchun yagona siyosiy va harbiy vosita bo'lgan tashkilot alohida rol o'ynaydi.

Umumjahon harbiy xizmat asosida tashkil etilgan Bundesver (Germaniya qurolli kuchlari) Ikkinci Jahon urushi tugaganidan 10 yil keyin - 1955 yil 7 iyunda - mudofaa funksiyalarini bajarish uchun tuzilgan. Ushbu vazifalarga quyidagilar kiradi: mamlakatni va uning fuqarolarini siyosiy shantaj va tashqi xavfdan himoya qilish; Germaniya va uning ittifoqchilarining mudofaasi orqali Yevropada

harbiy barqarorlik va integratsiyani qo'llab-quvvatlash, BMT nizomiga muvofiq dunyo tinchligi va xalqaro xavfsizlik uchun xizmat qilish; tabiiy ofatlardan qutqarish, favqulodda qutqaruv va gumanitar yordam.

Germaniyaning asosiy manfaatlari:

1) Germaniya fuqarolarining erkinligi, xavfsizligi va farovonligi hamda uning davlat hududi dahlsizligini ta'minlash;

2) Yevropa Ittifoqiga qo'shilish, chunki demokratiya, huquqiy davlatchilik va Yevropada farovonlik Germaniya uchun ham tinchlik va xavfsizlikni anglatadi;

3) ideallar va manfaatlarning mushtarakligiga asoslanib, dunyoning qudrati sifatida AQSH bilan kuchli Transatlantik ittifoq, chunki AQSHning potensiali farqlarni tenglashtirish va sherikchilikka yo'naltirilgan xalqaro barqarorlik uchun zarurdir;

4) sharqiy qo'shnilarini g'arbiy tuzilmalarga jalb qilish va barcha Yevropa davlatlarini qamrab oladigan yangi kooperatsion xavfsizlik tizimini yaratish;

5) dunyo miqyosida xalqaro huquq va inson huquqlariga rioya qilish va bozor tamoyillariga asoslangan adolatli global iqtisodiy tartib, chunki alohida davlatlar xavfsizligi faqat tinchlik, qonun va barcha uchun farovonlikni kafolatlaydigan global xavfsizlik tizimi doirasida ta'minlanishi mumkin.

Germaniyaning milliy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) razvedka agentliklari - Federal Razvedka Xizmati, Bundeswehr Razvedka Agentligi;

2) kontrolga qarshi kurash idoralari - konstitutsiya himoyasi bo'limi, yerlarda konstitutsiya himoyasi bo'limi, harbiy kontrelga qarshi kurash;

3) Ichki ishlar vazirligining maxsus bo'linmalari va chegara qo'riqlash guruhlari - aksilterror guruhlari, qidiruv guruhlari va hk.;

4) federatsiya va yerlarda kriminalistik politsiya bo'limining maxsus tuzilmalari - davlat xavfsizlik xizmati, tezkor qidiruv va dastlabki tergov, maxsus xavfsizlik guruhlari;

5) Iqtisodiyot vazirligi, boshqa vazirliklar, yirik kompaniyalar va firmalarning xavfsizlik xizmatlari. Germaniya Xavfsizlik Kengashi tarkibiga quyidagilar kiradi: vitse-kansler, mudofaa vaziri, ichki ishlar

vaziri, tashqi ishlar vaziri, iqtisodiyot va moliya vazirlari, maxsus xizmatlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha komissar.

Germaniyada maxsus xizmatlar faoliyatini nazorat qilish tizimi mavjud, jumladan:

1) Bundestag komissiyalari tomonidan amalga oshiriladigan parlament nazorati;

2) Federal kansler, Federal xavfsizlik kengashi, Federal kansler idorasi, Maxsus xizmatlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha komissar, Maxfiy xizmat va xavfsizlik bo‘yicha davlat kotiblari qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladigan hukumat nazorati;

3) shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha federal vakil;

4) maxsus xizmatlar va Ichki ishlar vazirligi va Mudofaa vazirligining tegishli idoraviy qo‘mitalari va boshqarmalarida xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy ishlaydigan idoralararo komissiya.

Federal razvedka xizmati federal kansler idorasiga hisobot beradigan shtatning asosiy razvedka agentligi hisoblanadi. Boshqa razvedka xizmatlaridan farqli o‘laroq, Federal razvedka xizmati razvedkaning barcha turlari bilan shug‘ullanadi: siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ilmiy va texnikaviy, boshqalari asosan o‘z sohalarida ishlaydi. Germaniya Federal Xavfsizlik Kengashi davlat xavfsizligi konsepsiyasini ishlab chiqish uchun javobgardir, tashqi va ichki iqtisodiy xavfsizlikning strategik yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi.

Fransiya yuqori darajada rivojlangan mamlakat, yadroviy va kosmik kuch, xalqaro turizm markazi. Iqtisodiyotning umumiyligi hajmiga ko‘ra, mamlakat Yevropa Ittifoqida (Germaniyadan keyin) ikkinchi o‘rinni egallaydi va barqaror ravishda birinchi o‘ntalikka kiradi. 2016 yil boshida Fransiya AQSH, Xitoy, Yaponiya, Germaniya va Gollandiyadan keyin dunyoda iqtisodiy rivojlangan 6-chi davlat sifatida tan olindi.

Fransiyada milliy xavfsizlikni tartibga soluvchi yagona hujjat yo‘q. Fransiya xavfsizligi sohasidagi asosiy qoidalar 1958 yildagi Konstitutsiyada (2008 yil 23 iyulda tuzatilgan), shuningdek mudofaa va tashqi siyosat kodekslari, doktrinalari va strategiyalarida mavjud.

Fransiyaning milliy xavfsizligini shakllantirishda tashqi ishlar vazirligi muhim rol o‘ynaydi, uning doirasida tahlil va prognozlash markazi, shuningdek, milliy harbiy doktrinani rivojlantirish uchun mas’ul bo‘lgan Milliy mudofaa vazirligi va Bosh shtab mavjud.

Parlament qonunlarni qabul qiladi va milliy xavfsizlikni ta’minlash sohasida nazorat qiluvchi organ hisoblanadi.

Iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik Kengash bu davlat hokimiyati organlari huzuridagi maslahat yig‘ilishidir. Hukumat va parlament iqtisodiy, ijtimoiy yoki ekologik tusdagi har qanday masala bo‘yicha maslahat olish uchun Iqtisodiy, Ijtimoiy va Ekologik Kengashga murojaat qilishi mumkin. Hukumat, shuningdek, davlat moliyasini yo‘naltiruvchi dastur qonunlari bo‘yicha maslahat so‘rashi mumkin.

Milliy xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarning ma’lumotlariga ko‘ra biz shunday xulosaga kelishimiz mumkin. Xavfsizlik sohasidagi davlat siyosati asosan milliy xavfsizlikka qaratilgan, ya’ni. mudofaa majmuasini yaratish va tashqi iqtisodiy aloqalarni ta’minlash (siyosat). Bu Fransiyaning iqtisodiy ko‘rsatkichlari jahon sahnasiga nisbatan ancha barqaror va yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

Biroq, shunga qaramay, iqtisodiyotning real sektorida Fransiyaning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarni aniqlash mumkin: - sanoatning turg‘unligi, xizmat ko‘rsatish sohasiga yo‘naltirish; - innovatsiyalar sohasidagi turg‘unlik; - xom ashyo importiga bog‘liqlik; bojaxona to‘siqlari; - Yevropaga yaqin mamlakatlarda siyosiy va iqtisodiy beqarorlik; - Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o‘rtasidagi chegaralarni buzadigan o‘zaro manfaatli savdo aloqalari dasturlari; - tavakkalchiliklarni sug‘urtalashning cheklangan imkoniyatlari.

Ushbu tahdidlarning milliy (iqtisodiy) xavfsizlikka ta’sirini milliy (iqtisodiy) xavfsizlikni uchta darajada: shaxs, jamiyat va davlatda namoyish etadigan turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha tahlil qilish mumkin.

Fransiyaning milliy xavfsizligi darajasini baholashning asosiy mezonlari va ko‘rsatkichlari 4-jadvalda keltirilgan.

## 4-jadval

### Fransiya milliy xavfsizligini baholash

<b>Milliy xavfsizlik darajasi</b>	<b>Mezonlar</b>	<b>Asosiy kursatkichlar</b>
<b>Shaxsiy xavfsizlik</b>	Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari, shaxsiy va mulkiy manfaatlarini himoya qilish	Jinoyat darajasi Kutilayotgan umr
	Fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizligi	Ishsizlik darajasi Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot Aholi jon boshiga real daromad dinamikasi Sog‘liqni saqlash, madaniyat, ta’lim va fan resurslari bilan ta’minlash darajasi yalpi ichki mahsulotga nisbatan foizda
<b>Jamoat xavfsizligi</b>	Fuqarolarning vatanparvarlik munosabati darajasi	Hokimiyat organlari faoliyatini jamoatchilik ma’qullash darajasi. Ijtimoiy birdamlik darajasi.
	Fuqarolarning xavfsiz kelajakka ishonchi	Daromadlari tirikchilik darajasidan past bo‘lgan odamlar sonidagi ulushi Tabiiy populyatsion o‘sish Kutilayotgan umr Migratsiya darajasi
	Mamlakat va uning chegaralarini himoya qilish qobiliyati	Qurolli kuchlarning jangovar tayyorgarligi
		Yadro va yadro urushi sharoitida har qanday tajovuzkorga yo‘l qo‘yib

	bo‘lmaydigan zarar etkazilganda aholining harbiy- texnik etarliligi
	Zamonaviy qurollar, harbiy va maxsus jihozlar ulushi
	Harbiy va muhandis kadrlar bilan ta’minlash
Iqtisodiy tizimning mustaqilligi	Iste’mol savati va mudofaani ta’minlash uchun iqtisodiyotning o‘zini o‘zi ta’minlash darajasi
	Davlatning tashqi va ichki qarzi darajasi
	Inflyatsiya darajasi

Shunday qilib, Fransyaning milliy xavfsizligini tahlil qilib, quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin.

1. Fransiya milliy xavfsizligining asoslari "Oq kitob-2013"da mustahkamlangan va asosan mamlakat va ittifoqdosh davlatlarning mudofaasi, davlatning strategik manfaatlarini himoya qilish va davlat yaxlitligi va suverenitetini saqlash ustuvorliklari, shuningdek xalqaro hamkorlik va yordamga oid harbiy siyosat bilan tavsiflanadi.

2. Milliy xavfsizlik bilan bog‘liq vakolatlarga ega hokimiyatlarning tuzilmasi ancha keng. Bu o‘z navbatida, milliy xavfsizlikka yuqori darajadagi e’tibor berilishini anglatadi.

3. Fransiyada milliy xavfsizlikni ta’minlash uchun qurolli kuchlar, asosan, harbiy texnikalar soni va quvvatining ko‘payishi hisobiga faol rivojlanmoqda, ammo ishchi kuchi kamaymoqda.

Shuningdek, milliy xavfsizlikni ta’minlash uchun Fransiya xalqaro tashkilotlarda ishtirok etadi va faol tashqi siyosat olib boradi.

Shunday qilib, Fransyaning milliy xavfsizligi qonun hujjatlarida batafsil bayon qilingan, lekin asosan harbiy-siyosiy xarakterga ega bo‘lib, uni ta’minlash uchun iqtisodiy qoidalar deyarli yo‘q.

## **Asosiy tayanch tushunchalar**

Milliy iqtisodiy xavfsizlik, investitsiya loyiha, mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishi, Yevropa Ittifoqi, milliy xavfsizlikga tahdidlar, milliy manfaatlarni muhofaza qilish.

## **Takrorlash uchun savollar**

1. Fransiyada milliy iqtisodiy xavfsizlik tushunchasiga qanday tarif beriladi?
2. Rossiyaning milliy manfaatlari nimalarni o‘z ichiga oladi?
3. Rossiyaning milliy iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar nechta turga bo‘linadi?
4. AQSHning konstitutsiyaviy qonuni milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashdan tashqari yana qanday choralarni kuradi?
5. AQSH milliy iqtisodiy xavfsizlik strategiyasini shakllantirish nechta bosqichdan iborat?
6. Xitoy xalqining asosiy uzoq muddatli maqsadi nimalardan iborat?
7. Yaponiyada milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda qanday choralarni kuradi?
8. Germaniyaning milliy iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning nechta usullari bor?

## **13-BOB. MILLIY VA MINTAQAVIY XAVFSIZLIK HOLATINI BAHOLASHNING ASOSIY MEZONLARI**

### **13.1. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarining tasnifi**

Bugungi kunda milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarining bir nechta tasnifi mavjud. Iqtisodiy xavfsizlikning eng muhim tasnifini va har qanday ko'rsatkichlar tizimining asosini tashkil etadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimidan boshlab tasnifini kurib chiqamiz. Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarining tasnifini milliy xavfsizlikni tartibga solishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlarga asosiy talablari aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tizimning quyidagi xususiyatlarini baholashni ta'minlaydi:

- milliy va mintaqaning iqtisodiy mustaqilligi, milliy resurslarni davlat tomonidan boshqarilishi;
- milliy iqtisodiyotning barqarorligi, mulkni himoya qilish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish;
- o'z-o'zini rivojlantirish, qulay investitsion muhit, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilinishi;
- sanoat va texnologik xavfsizlik;
- moliyaviy xavfsizlik;
- valyuta xavfsizligi;
- eksport va import sohasidagi xavfsizlik.

Ushbu xavfsizlik elementlarini mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari (omillar, sharoitlar, rag'batlantirish) nuqtai nazaridan izohlash mumkin, bu esa iqtisodiyotning ijtimoi-iqtisodiy mohiyatini tushunishni anglatadi. Katta ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning xavfsizligini tavsiflovchi eng muhim ko'rsatkichlarga makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlashga asoslangan ko'rsatkichlar kiradi.

Ushbu ko'rsatkichlarni quyida ko'rib chiqamiz:

1. Milliy iqtisodiy xavfsizlikni baholashning asosiy ko'rsatkichlari, birinchi navbatda, yalpi ichki mahsulotdir. Ular vaqt

o‘tishi bilan yakuniy ishlab chiqarish qiymatini aks ettiradi. Ularni ko‘rib chiqilayotgan davr narxlarida va asos sifatida olingan yil narxlarida aniqlash mumkin. Shunga ko‘ra, mintaqaviy darajada YaHM – yalpi hududiy mahsulotdir.

2. Aholi turmush darajasi va farovonligi darajasi ko‘rsatkichlari. Turmush darajasi bu aholining zarur moddiy tovarlar va xizmatlar bilan ta’minlanishini, ulardan foydalanish darajasi va ehtiyojlarni oqilona qondirish darajasini aks ettiradigan ob’yektiv ko‘rsatkichdir. Keng ma’noda hayot sifati deganda aholining turli ehtiyojlar va manfaatlar nuqtai nazaridan ularning hayotidan qoniqishi tushuniladi. Hayot sifati odamlarning turmush darajasiga munosabatini aks ettiradi, ya’ni mehnat bilan band bo‘lishi, dam olishi, uy-joy sifati, huquqiy himoyalanganligi, toza ekologik muhit va hokazo. Aholining turmush darajasi va farovonligi quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholanishi mumkin:

- aholi jon boshiga YaIM yoki yalpi ichki mahsulotning qiymati;
- shaxsiy foydalanish mumkin bo‘lgan daromadlar;
- iste’mol xarajatlari;
- shaxsiy omonatlar;
- iste’mol narxlari indeksi;
- o‘rtacha ish haqi;
- yashashning ijtimoiy va fiziologik qiymati;
- daromadlarni tabaqlashtirish indeksi;
- ishsizlik darajasi;
- aholining kambag‘allik darajasi;
- aholi jon boshiga asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish darajasi;
- uy-joy bilan ta’minlash;
- sog‘liqni saqlash holati;
- ta’lim darajasi;
- umr ko‘rish davomiyligi;
- sof iqtisodiy farovonlik ko‘rsatkichi;
- inson rivojlanishining umumiy ko‘rsatkichi va boshqalar.

3. Iqtisodiy dinamikaning xususiyatlarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va u quyidagilardan iborat:

- sanoat rivojlanishi dinamikasini baholash;
- sanoat ishlab chiqarishining o'sishi indeksi, shu jumladan tarmoq bo'yicha va uning YaIMdagi ulushi;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari;
- iqtisodiyotning tarmoq tarkibi va ayrim tarmoqlarning dinamikasi;
- investitsiya;
- YaIMning tarkibi va boshqalar.

4. Mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlarining xususiyatlarini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar va ular quyidagilardan iborat:

- resurslardan samarali foydalanish;
- reproduktiv iqtisodiy jarayonlar;
- innovatsiyalar samaradorligi.

5. Iqtisodiyotning moslashish qobiliyatining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- tovarlarning qiymati va sifatini qiyosiy baholash;
- turli xil tovarlarga talab va taklifni qiyosiy baholash;
- inflyatsiyani baholash;
- byudjetni baholash;
- iqtisodiy xususiyatlarning tashqi ta'sirlarini baholash;
- valyuta kursining o'zgaruvchanligi;
- davlatning qarz olishini baholash va boshqalar.

6. Jinoiy biznesining tavsifiga quyidagilar kiradi:

- jinoiy ishlab chiqarish hajmini baholash;
- jinoiy biznesining hajmini baholash.

7. Ichki va jahon iqtisodiyotlarining o'zaro ta'sirining xususiyatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ular quyidagilardan iborat.

- tashqi savdo balansini baholash;
- innovatsion mahsulotlar eksportiga qo'shilgan hissani baholash;
- importga bog'liqlikni baholash va boshqalar.

Ushbu ko'rsatkichlar tizimi milliy va mitaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini umumlashtiradi.

## **13.2. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning mikro va mezo darajadagi ko‘rsatkichlarni hisoblashning asosiy usullari**

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning mikro va mezodarajasini quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalangan holda sifat jihatidan tavsiflash mumkin:

- iqtisodiyot va siyosatdagi jamiyat barqarorligi;
- davlat yaxlitligi;
- ichki va tashqi tahdidlarga qarshi turish qobiliyati;
- ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida mamlakat barqarorligi va boshqalar.

Milliy iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholash uchun quyidagi jihatlarni aks ettiruvchi mezonlar qo‘llaniladi.

1. Davlatning resurslardan foydalanish imkoniyatlari:

- moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish;
- strategik ahamiyatga ega resurslar ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- xom ashyo eksporti hajmi.

2. Iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish rejimida ishlash qobiliyati, birinchi navbatda:

- oddiy sharoitlarda ham, qurolli qarama-qarshilikda ham strategik muhim ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish;
- tashqi ta’sirga qarab ko‘payish imkoniyatlari.

3. Ilmiy-texnik sohada davlatning potentsial imkoniyatlari.

4. Moliya tizimining barqarorligi, muvozanatli davlat byudjeti, iqtisodiyotni samarali moliyalashtirish, kafolatlangan bank omonatlari, milliy valyuta barqarorligi va oltin strategik zaxiralari bilan belgilanadi.

5. Tashqi iqtisodiy siyosat balansi:

- ichki tovarlarning tashqi bozorga chiqishini ta’minlovchi tashqi savdoning oqilona tuzilmasi;
- import orqali ichki talabni yaratish va boshqalar.

6. Makro va mezo darajada iqtisodiy boshqaruvning adekvatligi, uning tinch sharoitda ham, harbiy qarama-qarshilik davrida ham uning maqbul ishlashini ta’minalash.

7. Aholining turmush darjasи, shu jumladan qashshoqlik, ishsizlik va mulkiy tabaqlanish darjasи.

8. Iqtisodiyotning raqobatbardoshliligi.

9. Jamiyat va iqtisodiyotning kriminalashuvini pasaytirish uchun shart-sharoit yaratadigan huquqiy va iqtisodiy muhitning mavjudligi.

Ushbu parametrlardan foydalangan holda milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning mikro va mezodarajadagi ko'rsatkichlarni hisoblash imkoniyatlarini oshiradi.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning ko'rsatkichlari tizimiga quyidagilar kiradi:

- mamlakat va hududlar iqtisodiyotining asosiy tavsiflari: yalpi ichki mahsulot (YaIM), yalpi hududiy mahsulot (YaHM), mamlakatning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yoki mamlakat YaIMdagi mintaqa YaHM, aholi jon boshiga YaIM yoki YaHM, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, ularning o'sish sur'atlari, jahon sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlaridagi mamlakatning ulushi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi va eksporti, aholining daromadlari va boshqalar;

- asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, sanoatning texnologik rivojlanishi, ijtimoiy muammolarni hal etishda muvaffaqiyatga erishish va boshqalar kabi iqtisodiy rivojlanish jarayonining muhim elementlarini tavsiflovchi qo'shimcha ko'rsatkichlar;

- davlat va mintaqaviy darajadagi iqtisodiy quyi tizimlar holatining ko'rsatkichlari (qurolli kuchlar va harbiy-sanoat majmuasi xarajatlari, davlat qarzi hajmi, monetizatsiya darjasи, byudjet balansi, tashqi savdo operatsiyalarining samaradorligi, oziq-ovqat xavfsizligi holati va boshqalar).

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni baholashda turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, bunda birinchi yondashuv A.N.Illarionov<sup>33</sup> tomonidan ilgari surilgan. Uning fikriga ko'ra, mamlakat (yoki mintaqa) iqtisodiyotining asosiy xususiyati iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lib, bu aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM hajmi va uning o'zgarishi dinamikasida aks etadi. Bir kishiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi odamlarning

<sup>33</sup> Илларионов А.Н. Критерии экономической безопасности // Вопросы экономики, 1998. - № 10. - с. 35-58.; Его же. Экономическая политика в условиях открытой экономики со значительным сырьевым сектором // Вопросы экономики, 2001. - № 4. - с. 31.

turmush darjasini va sifatini, qurolli kuchlar, harbiy sanoat va boshqalarnin Ig samaradorligini belgilaydi. A.N.Illarionovning fikricha, milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni baholash ko'rsatkichlari YaIM (YaHM) dinamikasini aks ettiradigan tarzda tanlanishi kerak deb e'tirof etgan.

Boshqa bir yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy tizim faoliyatining turli tomonlarini aks ettiradigan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishni o'z ichiga oladi. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi milliy manfaatlarga tahdidlarga javob beradigan, iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi o'zgarishlarga sezgir bo'lgan va eng muhimi, bir-biri bilan kuchli bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlardan foydalanish lozim deb qayd etiladi.

Iqtisodiy sohada xavfsizlikni ta'minlashning strategik yo'naliishlarini belgilaydigan huquqiy asos mamlakitimizda qabul qilingan va unga muvofiq tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu harakat yo'naliishidagi ko'rsatkichlar to'plamidan iqtisodiy sohada xavfsizlikni baholash uchun maxsus ko'rsatkichlarni tanlash kerak, ular tahlilini soddalashtirish uchun ko'p bo'lmasligi kerak, lekin ayni paytda millat manfaatlarining amalga oshirilishini baholash uchun etarli bo'lishi kerak, bundan tashqari, ishonchli ma'lumotlarni taqdim etishligi kerak.

Iqtisodiy sohada xavfsizlikni baholash uchun ko'rsatkichlarni tanlash uchun odatda baholash amalga oshiriladigan yo'naliish turlari aniqlanadi. Masalan, baholashning quyidagi sohalarini ajratish mumkin. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalangan holda iqtisodiyotning holatini umumiylash kerak. Bu yalpi ichki mahsulot bo'lib, inflyatsiya jarayonlari, qarzlar, byudjet balansi, bandlik, oltin-valyuta zaxiralari, monetizatsiya va boshqalarni o'chaydi, baholashning ushbu yo'naliishi turli mamlakat va mintaqalarni taqqoslash imkonini beradi. Makroiqtisodiy baholash jarayonlari yuqori darajada ko'rsatkichlar tizimidan keng foydalangan holda baholanadi.

Iqtisodiy xavfsizlikni baholashning yana bir boshqa yo'naliishi - bu byudjet xarajatlari tarkibini baholash. Bu erda, shuningdek, mamlakatning mudofaa qobiliyatini ta'minlash, harbiy bo'Imagan tadqiqotlar, tibbiyot va davlat qarzlari bo'yicha majburiyatlarni ta'minlash uchun sarflanadigan xarajatlar kabi alohida bandlar qayd

etilgan. Bunday baholarni olish ham katta uslubiy jihatdan murakkab emas hisoblanadi.

Baholashning yana bir yo‘nalishi - iqtisodiyotning quyi tizimlarining tavsiflanishidir, bunda sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohasi. Bu erda investitsiya jarayonlari, ularning innovatsion darajasi, sanoatdagi yuqori texnologiyali tarmoqlarning roli, eksportning sifati, uning texnologik murakkabligi darajasi, hosildorlik, oziq-ovqat sohasidagi importga bog‘liqlik, ichki ehtiyojlarni qondirish va eksport uchun taqdim etiladigan xizmatlar hajmini baholashdir.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, avvalambor, odamlar manfaatlarini himoya qilishdir, shuning uchun baholashning navbatdagi yo‘nalishi fuqarolarning turmush darajasini tavsiflashga qaratilgan. Odatda, ushbu yo‘nalishda aholi jonboshiga yalpi ichki mahsulotning hajmi baholanadi, yuqori va past daromadga ega fuqarolarning daromadlari taqqoslanadi, odamlarning daromadlari minimal qabul qilingan qiymatga, umr ko‘rish davomiyligiga, demografik bahoga, sodir etilgan jinoyatlarning hajmi va tuzilishiga qarab baholanadi.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfizlikni baholashda agar barcha ko‘rsatkichlardan foydalangan holda baholanadigan bo‘lsa 150 ta ko‘rsatkichni o‘z ichiga oladi, biroq ko‘rsatkichlar tizimi o‘zaro bir birini takrorlashi va tuldirishi mumkinligini inobatga olgan holda 50 ta baholash ko‘rsatkichini ajratib olib ta’sir ko‘لامи bo‘yicha guruhlarga ajratish mumkin. Ushbu ko‘rsatkichlar guruhi quyida tasniflangan:

1. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanish imkoniyatlarini baholash. Bunday hisob-kitoblar yalpi ichki mahsulot, sanoat va uning tarkibi, innovatsion ishlab chiqarish, investitsiya jarayonlari, mudofaa, resurslardan foydalananish tahlili asosida amalga oshiriladi.

2. Moliyaviy tizimning barqarorligini baholash, ya’ni byudjet balansi, pul muomalasi parametrlari, davlat qarzi, soliq tizimi.

3. Ijtimoiy sohaning holatini baholash, ya’ni aholining daromad darajasi, bandlik darajasi, ushbu sohani moliyalashtirish darajasi.

4. Tashqi iqtisodiy aloqalarni baholash, masalan, iste’mol hajmidagi importning ulushi, eksport hajmida tayyor mahsulotning ulushi.

Shu bilan birga, indikativ yondashuvdan foydalangan holda iqtisodiy xavfsizlik holatini baholash uchun kritik vaziyatni keltirib

chiqaradigan ko‘rsatkichlarning chegaralarini ajratish kerak. Taxminan 20 ga yaqin bunday ko‘rsatkichlar tizimi mavjud. Iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari:

- YaIM hajmi: o‘rtacha jon boshiga to‘g‘ri kelishi;
- Sanoat ishlab chiqarishning umumiy ishlab chiqarishidagi ulushi;
- Mashinasozlikning sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi;
- Investitsiyalar hajmi, YaIMga nisbatan foizda;
- Tadqiqotlarga sarflanadigan xarajatlar, YaIMga nisbatan %;
- Mahsulotlar hajmida yangi mahsulotlar ulushi;
- Daromadlari tirikchilik darajasidan past bo‘lgan odamlar ulushi;
- Aholining umr ko‘rish davomiyligi;
- Eng daromadli 10% va eng past daromadli guruhlarning 10% daromadlari o‘rtasidagi farq;
- 100 ming aholiga to‘g‘ri keladigan jinoyatlar soni bo‘yicha jinoyatchilik darjasи;
- XMT metodologiyasi bo‘yicha ishsizlik darjasи, %;
- Yillik inflyatsiya darjasи, %;
- Taqqoslanadigan davr uchun ichki qarzning hajmi, YaIMga nisbatan foizda;
- Xizmat ko‘rsatish va ichki qarzni to‘lashga bo‘lgan hozirgi ehtiyoj, byudjetga tushumga nisbatan %;
- Tashqi qarzlar hajmi, YaIMga nisbatan foizda;
- Byudjet taqchillagini qoplashda tashqi qarzlarning ulushi, %;
- Byudjet taqchilligi, YaIMga nisbatan %;
- Milliy valyutadagi so‘m massasiga nisbatan chet el valyutasining hajmi, %.

Iqtisodiy tizimni har tomonlama tavsiflovchi ko‘rsatkichlar ro‘yxatidan foydalanish tizimning ishlashi va rivojlanishi bilan bog‘liq muammolarni har tomonlama ko‘rib chiqish imkoniyatini beradi. Xozirgi vaqtda, davlatning iqtisodiy xavfsizligini baholashda 18-20 ko‘rsatkichlar ro‘yxatini ko‘rib chiqishga ustunlik beriladi.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi sub’yektlari davlat hokimiyati organlari bo‘lib, ularning o‘ziga xos xususiyati bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikkita tamoyilni amalga oshirishdan iborat: mintaqaviy hokimiyat o‘z hududida nafaqat milliy, balki o‘z manfaatlarini ham

amalga oshiradi. O‘tish davrida hududiy rivojlanish jarayonlarini strategik boshqarish hududlarning o‘z xavfsizlik kontseptsiyasiga ega bo‘lishining ob’yektiv ehtiyojini belgilaydi. Umuman olganda, mintaqaning xavfsizligi bu mintaqaning hayoti, aniqrog‘i uning hayotiyligini ta’minlashdir. Mintaqadagi xavfsizlikning asosiy vazifasi resurs imkoniyatlarini oqilona baholash, kutilgan natijalarни aniqlash va oqibatlarini bashorat qilishga intilishdir. Har bir mintaqaga o‘zining yaxlit va to‘liq hayotiy tizimiga ega bo‘lishi kerak, xususan, mustaqil rivojlanish maqsadini belgilash qobiliyati, avtonom resurslarning to‘planishi va iste’mol qilinish tizimlaridir.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi bunday namoyon bo‘lishi mumkinligi bilan ifodalanadi:

- mamlakat ichida o‘z iqtisodiy siyosatini yuritish;
- mamlakatdagi keskin geosiyosiy o‘zgarishlarga muvozanatlari javob berish;
- mahalliy iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirish orqali ijtimoiy ziddiyatlarga muhim iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- mintaqalarda jahon tajribalarini qo‘llanilishini qo‘llab-quvvatlash, hayotning yuqori sifatini ta’minlash.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizligini baholash bo‘lgani kabi, mezoiqtisodiy tizimlarni baholashda quyidagi baholash yo‘nalishlari ajratilgan:

1. Hududiy boshqaruv organlarining mavjud resurslarni boshqarish qobiliyati va mintaqadan mahalliy va global miqyosda raqobatdosh bo‘lishi uchun ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini baholash.

2. Mintaqani rivojlantirish faoliyat yuritadigan va ijtimoiy sohani rivojlantiradigan muhit, shu jumladan mulk huquqlarining daxlsizligi, qonun buzilishlariga qarshi kurash jarayoni, jamiyatdagi munosabatlarning holati va bu munosabatlardagi keskinlik darajasi tavsifi.

3. Hududning avtonom rivojlanishi, investitsiyalarni jalb qilish, mehnat resurslari sifatini rivojlantirish imkoniyatlarini baholash.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi tizimini tashkil etuvchi tadbirlar majmuasida paydo bo‘layotgan tahdidlarning oldini olish tizimi katta ahamiyatga ega. Buning uchun tahdidlarni yaqin va uzoq muddatda kutish mumkin bo‘lgan tahlikalarni baholash kerak bo‘ladi,

bunda milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning asosiy ko'rsatkichlari tahlilini amalga oshirish lozimdir.

### **13.3. O'zbekistonda milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning asosiy ko'rsatkichlari tahlili**

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun milliy hisoblar tizimi qo'llaniladi. Milliy hisoblar tizimi daromadlar, iste'mol, jamg'arma va kapital xarajatlarning qiymatlarini aks ettiradi. Milliy darajadagi ko'rsatkichlarni hisoblashning asosiy usullari mintaqaviy darajadagi ko'rsatkichlar bilan o'zaro bog'lagan holda hisoblab chiqiladi.

Milliy iqtisodiyotda mamlakat rivojini tavsiflovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar toifasiga yalpi ichki mahsulot, sof milliy mahsulot, milliy daromad, shaxsiy daromad kiradi.

Yalpi ichki maxsulot mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan maxsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor kiymatidir. Bu ko'rsatkich mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlarning hajmini to'g'ri va aniq ko'rsatib beradi.

YaIMda faqat yakuniy ne'matlar hisobga olinadi, oraliq mahsulotlar va xizmatlar esa e'tiborga olinmaydi.

YaIM ikki usul bilan:

1. xarajatlar usulida;
2. daromadlar usulida hisoblanadi.

YaIMni xarajatlar va daromadlar usuli bo'yicha hisoblanganda bir xil natija chiqadi, chunki iste'molchi mahsulotni sotib olish uchun qancha mablag' sarflasa, ishlab chiqaruvchiga daromad sifatida shuncha pul tushadi.

1-usul bo'yicha YaIMni hisoblash:

$$Y = C + I + G + X_n \quad (1)$$

Bunda: Y - tovarlarni sotib olish uchun ketgan xarajatlar; S - shaxsiy iste'mol xarajatlari; I - biznesning investitsiya xarajatlari; G - tovar va xizmatlarni davlat tomonidan sotib olinishi; X<sub>n</sub> - sof eksport. (eksport-import). Shaxsiy iste'mol xarajatlariga uy xo'jaliklarining uzoq muddat davomida foydalanadigan iste'mol buyumlari xarajatlari kiradi; tovar va xizmatlarning davlat tomonidan sotib olinishiga davlat xarajatlari inobatga olinadi byudjet tashkilotlariga oylik maoshlarni

berish, mudofaani mustahkamlash va boshqalar kiradi. Investitsiyalarga stanoklar, asbob-uskunalarni sotib olish, binoinshootlar kurish bilan bogliq xarajatlar; sof eksport esa eksport va importning ayirmasi bo‘lib, u goh musbat, goh manfiy saldo bilan bo‘lishi mumkin.

## 2-usul bo‘yicha xisoblash.

$$Y = CCA + W + I_t + R + I_k + P \quad (2)$$

Bunda: CCA - iste’mol qilingan kapital hajmi; W - yollanma ishchilarning ish haqi;  $I_t$  - biznesga bevosita soliqlar; R - ijara to‘lovi;  $I_k$  - % stavkasi-xususiy biznes bo‘yicha, bundan davlat mustasno; R - rejalashtirilayotgan-korporatsiyalar daromadi. Bu erda korporatsiyalar daromadi 2 ga bo‘linib ko‘siladi, ya’ni  $R_1$  - korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi va  $R_2$  - korporatsiyalar foydasiga soliq.

Sof milliy mahsulot YaIMdan amortizatsiya xarajatlarini ayirib tashlash bilan aniqlanadi:

$SMM = YaIM - \text{amortizatsiya}$ ;

$MD = SMM - \text{bevosita soliqlar asosida hisoblab topiladi}$ .

Aholi turmush darajasi va farovonligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar bu aholining zarur moddiy tovarlar va xizmatlar bilan ta’minlanishini, ulardan foydalanish darajasi va ehtiyojlarni oqilona qondirish darajasini aks ettiradigan obyektiv xayot sifatini ifodalovchi parametrdir. Keng ma’noda hayot sifati deganda aholining turli ehtiyojlar va manfaatlar nuqtai nazaridan ularning hayotidan qoniqishi tushuniladi. Hayot sifati odamlarning turmush darajasiga munosabatini aks ettiradi, ya’ni mehnat bilan band bo‘lishi, dam olishi, uy-joy sifati, huquqiy himoyalanganligi, toza ekologik muhitda yashashini umumlashtiradi.

Mamlakatning iqtisodiy dinamikasiga baho berishda sanoatning o‘rni beqiyosdir. Sanoat majmuining muhim xususiyati shundaki, uning barcha tarmoqlarida mehnat vositalari va iste’mol tovarlari yaratiladi, ilmiy-texnika taraqqiyoti hamda milliy daromadning katta qismi ishlab chiqariladi va yaratiladi. Ayni paytda O‘zbekistondagi mehnatga yaroqli aholining asosiy qismi ham sanoat ishlab chiqarishida band. Sanoat ishlab chiqarishi jamiyatning obyektiv iqtisodiy qonunlari hamda respublikamizda so‘nggi yillarda qabul qilingan qonun va qarorlar asosida rivojlanmoqda. O‘zbekiston sanoati ayni vaqtda o‘z tarmoqlari va boshqa ijtimoiy tarmoqlar uchun

moddiy-texnik vositalar hamda xalq ehtiyojiga kerak bo‘ladigan mahsulotlarni ham uzliksiz ishlab chiqarmoqda. Shu boisdan ham sanoat ishlab chiqarishi darajasi va samaradorligining o‘sishini ta’minlashi muhimdir. Chunki sanoat ishlab chiqarish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, respublikamizning iqtisodiy xavfsizligi shuncha mustahkam hamda aholining turmush sharoiti yaxshi bo‘ladi.

Shuni ham aytish lozimki, sanoat majmui har qanday tarmog‘ning ichki tuzilmasidagi o‘zgarishlar amalda boshqa tarmoqlar - qishloq xo‘jaligi, agrosanoat majmuining boshqa sohalari, qazib oluvchi tarmoqlar bilan uzviy bog‘liqdir. Endilikda sanoatning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Iste’mol bozoridagi tanqislik tufayli sanoat tarmoqlari ilgarigiga nisbatan keng ko‘lamda halq iste’moli mollarini ishlab chiqarishga yo‘naltirilmoqda hamda yangi sanoat korxonalari barpo etilmoqda. Iste’mol mollarini ko‘plab ishlab chiqarish, ayniqsa, chetga xom ashyo emas, balki tayyor mahsulot chiqarish hamda qayta ishslash tarmoqlarini rivojlantirish nafaqat sanoat ishlab chiqarishining ahamiyatini oshiradi, balki jahon bozorida O‘zbekiston iqtisodiyotiga bo‘lgan ishonchni ham mustahkamlaydi. Hozirgi kunga kelib sanoat tarmog‘ida yalpi ichki mahsulotning 34 foizdan ziyodini yaratiladi. Bu shuni ko‘rsatadiki, innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida mamlakat iqtisodiyoti sanoatlashgan iqtisodiyot sari rivojlanmoqda.

O‘zbekistonning dunyo mamlakatlari bilan halqaro savdo-iqtisodiy munosabatlari tarixi o‘rta asrlardan boshlanadi. G‘arb va Sharq o‘rtasidagi savdo, katta bozor uchun kurash va mehnat resurslari hamma vaqt O‘zbekistonning hozirgi hududiga daxldor bo‘lib kelgan, chunki uning geografik jihatdan savdo-iqtisodiy potensiali ko‘plab mamlakatlarni qiziktirgan.

Mamlakatimizning ichki va jahon iqtisodiyotlarining o‘zaro ta’sirining xususiyatlarini inobatga olgan holda yagona iqtisodiy siyosatni shakllantirish, taraqqiyot strategiyasini belgilash, ichki va tashqi bozorlarda umum davlat manfaatlarin ta’minlash, iqtisodiy, fan-texnikaviy, savdo, madaniy va sport sohalarida hamkorlik o‘rnatish, turizmni rivojlantirish va boshqa aloqalarni samarali yordam berib maqsadida tashqi iqtisodiy aloqalarda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatdagi samarali natijalar

mamlakatning milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizligini baholovchi ko‘rsatkichlar tizimida muhim o‘ringa egadir.

### **13.4. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik asosiy ko‘rsatkichlarining chegara qiymatlari**

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni baholovchi ko‘rsatkichlar tasnifi va tahlilini inobatga olgan holda, ushbu ko‘rsatkichlar miqdorining tahlikali quyi chegara qiymatlarini ko‘rsatish va aniq belgilash lozim bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich miqdori belgilangan quyi chegara qiymatidan pastga tushganda iqtisodiy tahdid vujudga keladi. Ushbu tahlikali quyi chegara qiymati – iqtisodiy manfaatlar nuqtai nazaridan xo‘jalik faoliyati proporsiyalarining eng quyi maqbul nisbatlarini ifodalovchi miqdoriy indikatorlar bo‘lib, ularga rioya qilmaslik takror ishlab chiqarish turli elementlarining iqtisodiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi va mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarni keltirib chiqaradi.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik asosiy ko‘rsatkichlarining tahlikali quyi chegara qiymatlarini aniqlash uchun quyidagilarga asoslanish lozim bo‘ladi:

- milliy iqtisodiyot holati va undagi mutanosibliklar hamda takror ishlab chiqarish elementlari va omillari holatining birlamchi, muhim xususiyatlarini tavsiflash;
- iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarni to‘liq va keng qamrovli ifodalash;
- iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarga xavf soluvchi tahdidlarni to‘liq va har tomonlama hisobga olish;
- iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegara qiymatini ifodalovchi indikatorlardan hokimiyat organlari mamlakat iqtisodiyoti holatini aniq baholashda va boshqa mamlakatlar bilan qiyoslashda foydalanish imkoniyatining mavjudligi;

Ushbu indikatorlarning mamlakat hisob, statistika va prognozlashtirish tizimi bilan muvofiq kelishi lozim. Iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegarasi indikatorlari milliy iqtisodiyot sohalari va ularning har bir tarkibidagi milliy manfaatlar nuqtai nazaridan turkumlanadi (5-jadval), shuningdek ushbu tahlikali qiymatlar mintaviy iqtisodiy xavfsizlik chegara qiymatlarini ham

aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

## 5-jadval

### Iqtisodiy xavfsizlikning quyi va yuqori tahlikali chegara qiymatlari<sup>34</sup>

Ko'rsatkichlar nomi	Quyi va yuqori tahlikali chegara qiymatlari mazmuni	Darajasi %
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (quyi chegara)	16
Ishsizlik darajasi	Iqtisodiy faol aholiga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	8
Monetizatsiya darajasi	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (quyi chegara)	25
Tashqi qarz	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	40
Ichki qarz	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	30
Tashqi qarzlar bo'yicha to'lovlar	To'lovlarning yillik eksport hajmiga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	25
Mudofaaga xarajatlar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	3
Fuqarolik fanlariga xarajatlar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (quyi chegara)	1,5
Innovatsion mahsulotlar	Sanoat mahsulotlari umumiy hajmiga nisbatan, foiz (quyi chegara)	15
Sanoat ishlab chiqarishda mashinasozlik va metallni qayta ishslash	Sanoat ishlab chiqarish hajidagi ulushi, foiz (quyi chegara)	25
Davlat byudjeti defitsiti	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	3,0
Davlat qarzini qoplash xarajatlari	Davlat byudjeti xarajatlari xajmiga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	20
Yashash minimumidan past darajada daromad oluvchi aholi	Aholi umumiy sonidagi ulushi, foiz (yuqori chegara)	7,0
Aholi daromadlari bo'yicha tabaqlananishi	Detsil koeffitsienti (yuqori chegara)	8,0

Turli iqtisodiy xavfsizlikka oid adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlik

<sup>34</sup> Abulqosimoq H.P. Iqtisodiy xavfsizlik: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma. Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H. // Maxsus muharrir va maslahatchi Abulqosimov A.P. – T., 2019. – 45-46 b.

quyi tahlikali chegarasi indikatorlari o‘z ichiga 50 ta ko‘rsatkichni olgan holda quyidagicha turkumlangan<sup>35</sup>:

- iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga qodirligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar. Ushbu guruhga yalpi ichki mahsulot hajmi, sanoat ishlab chiqarish va uning tarkibi, mashinasozlik mahsulotlari hajmida yangi turdagи mahsulotlar ulushi, mudofaa va fan uchun xarajatlar ulushi, investitsiyalar, foydali qazilma boyliklarining zaxiralari bo‘yicha quyi tahlikali chegarani ifodalovchi indikatorlar kiradi;

- moliyaviy tizim barqarorligi ko‘rsatkichlariga davlat byudjeti kamomadi, davlat qarzi, pul muomalasi, o‘zaro hisob-kitob va soliq intizomini ifodalovchi ko‘rsatkichlar kiradi;

- ijtimoiy soha ko‘rsatkichlari aholi daromadlari darajasi va uning mulkiy jihatdan tabaqalanishi, ishsizlik va ijtimoiy soha xarajatlari bo‘yicha quyi tahlikali chegaralarni o‘z ichiga oladi;

- tashqi savdo va iqtisodiy faoliyat ko‘rsatkichlari guruhiga mamlakat ichki iste’molida importning ulushi va milliy ishlab chiqarish hajmida eksportning ulushi bo‘yicha quyi tahlikali chegaralarni ifodalovchi indikatorlar kiradi.

Shuni aytish lozimki, iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlarining rasmiy belgilangan quyi tahlikali chegara qiymatlari indikatorlariga taqqoslash orqali milliy iqtisodiyotning real holatini aniqlash mumkin bo‘ladi. Buning natijasida hukumat mamlakatning milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatning maqsadlari va ularni amalga oshirish yo’llarini belgilaydi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tizimi, yalpi ichki mahsulot, aholi turmush darajasi, aholi farovonligi darajasi, iqtisodiy dinamika xususiyatlari, iqtisodiyotning moslashish qobiliyati, jinoiy biznes.

---

<sup>35</sup> Илларианов А. Критерии экономической безопасности // Вопросы экономики, 1999. - №10.; Сенчагов В.К. Экономическая безопасность: geopolитика, глобализация, самосохранение и развитие (книга четвертая) // Ин-т экономики РАН. - М.: ЗАО «Финстатинформ», 2002. - с. 72-78.; Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. – М.: Изд-во РАГС, 2001. - с. 176-180.; Прохожев А., Корнилов М. О проблеме критериев и оценок экономической безопасности // Общество и экономика, 2003. - № 4-5. - с. 232-233.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Bozor munosabatlariga o‘tishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat xo‘jalik subyektlari va fuqarolarga faoliyati uchun qanday choralarni ko‘radi?
2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun davlat nimalarni ko‘zda tutadi?
3. Bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlar qanday vazifalarni amalga oshirishlari lozim?
4. Belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi mamlakatda qanday muammolarni bartaraf etish imkonini beradi?
5. Davlat tomonidan milliy va mintaqaviy xavfsizlik holatini ta’minlash uchun qanday tarkibiy siyosatni amalga oshiradi?
6. Davlat hokimiyat organlari mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun nimalarni amalga oshirishi lozim?
7. Makroiqtisodiyot darajasidagi tarkibiy siyosatni amalga oshirish jarayonlarida qanday vazifalar amalga oshiriladi?
8. Mikroiqtisodiyot darajasida tarkibiy siyosatni amalga oshirish jarayonlarida qanday vazifalar amalga oshiriladi?

## **4-MODUL. O'ZBEKISTONDA MINTAQANI RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI**

### **14-BOB. O'ZBEKISTONDA MINTAQANI IJTIMOY- IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI**

#### **14.1. Davlatning mintaqaviy siyosatining mazmuni va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati**

Davlatning mintaqaviy siyosati davlatning mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarda namoyon buladigan faoliyatining asosiy, eng muhim yo'nalishlarini belgilash uchun kullaniladi. Bunday faoliyat yunalishlarining eng asosiy maqsadi mintaqada jamiyatning barqaror turmush tarzini ta'minlashdan iboratdir. Davlatning mintaqaviy siyosati mintaqani rivojlantirish mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, eng avvalo, mamlakat aholisining turli-tuman manfaatlarini qondirish bilan bog'liq asosiy masalalarni bartaraf etishdagi aniq roli o'z ifodasini topadi.

Davlatning mintaqaviy siyosati taraqqiyotning u yoki bu bosqichida mintaqqa oldida turgan asosiy vazifalarga qarab belgilanadi va bu vazifalarni ro'yobga chiqarishning vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Davlatning mintaqaviy siyosati vazifalarining mazmuni esa turli xil ichki va tashqi omillardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Masalan, mintaqqa iqtisodiy hayotidagi tanglik hodisalari davlatning, uning barcha organlarining kuch g'ayratini iqtisodiy vazifalarni hal qilishga jalb etishni talab qiladi. Mintaqalarda iqtisodiy xavfning yuzaga kelishi esa, davlatni xavfga qarshi kurashni kuchaytirish, xavfni keltirib chiqarayotgan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularga barham berish yuzasidan o'z vaqtida jiddiy amaliy chora-tadbirlar ko'rishga majbur etadi. Tashqi tomondan yuzaga keladigan xavflardan davlat mexanizmini mintaqqa aholisini tajovuzni bartaraf etishga tayyorlash uchun safarbar qiladi.

Ilmiy va amaliy maqsadlarda davlatning mintaqaviy siyosati turli mezonlar bo'yicha tasniflanishi mumkin. Davlatning mintaqaviy siyosati amal qilish vaqtি bo'yicha uzoq muddatli va qisqa muddatga siyosatga bo'linadi. Uzoq muddatli mintaqaviy siyosat mintaqqa amal

qilishining barcha bosqichlarida ro‘yobga chiqariladi. Qisqa muddatli mintaqaviy siyosat ijtimoiy taraqqiyotning o‘ziga xos shart-sharoitlari bois kelib chiqadi va qisqa muddatda bartaraf etishga qaratilgan bo‘ladi. Davlatning mintaqaviy siyosatining siyosiy yo‘nalishini sohalar bo‘yicha ichki va tashqi siyosatga bo‘lish mumkin. Davlatning mintaqaviy siyosatining ichki siyosati davlatning mintaqasi ichidagi faoliyatini, muayyan mintaqasi hayotidagi yetakchilik rolini anglatadi. Tashqi siyosat esa, mintaqasi iqtisodiyotiga tashqi ta’sir ko‘rsatuvchi tahdidlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyatni anglatadi, unda boshqa davlatlar bilan mintaqani rivojlantirish bo‘yicha o‘zaro munosabatlarda davlatning roli namoyon bo‘ladi. Har qanday davlatning mintaqaviy siyosatida ichki va tashqi siyosatlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir, chunki, boshqa davlatlar bilan o‘zaro munosabatlar yo‘lini belgilovchi tashqi siyosat ham ko‘p jihatdan muayyan davlatning mintaqasi iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ichki shart-sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi. Ijtimoiy hayot sohalari bo‘yicha davlatning mintaqaviy siyosati iqtisodiy, ijtimoiy hamda ma’naviy sohada amalga oshiriladigan maqsadli siyosatlariga bo‘linishi mumkin.

Umuman olganda, aytish joizki, davlatning mintaqaviy siyosati mintaqaning yahlit hududiy jihatdan yagona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi. Shuning uchun ham davlat nazariyasida davlatning mintaqaviy siyosatini ichki va tashqi siyosatga ajratish, ya’ni davlatning mintaqaga (davlatning o‘zi xam mintaqalarning tushilishidan tashkil topgan hisoblanadi) munosabati bo‘yicha (ichki siyosat) va davlatning mintaqani rivojlantirishda boshqa davlatlarga nisbatan munosabati (tashqi siyosati) bo‘yicha ajratiladi, bu davlatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilash uchun ham ahamiyatli hisoblanadi.

#### **14.2. Davlatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirish tamoyillari va yo‘nalishlari**

Davlatning mintaqaviy siyosatining tashkil etilishi va faoliyat yuritishi muayyan rahbariy g‘oyalar, qoidalar, ya’ni tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Davlatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirish tamoyillari ularning to‘g‘ri faoliyat yuritishida yo‘llanma beruvchi vazifani utaydi. Shuningdek, mazkur tamoyillar davlatning mintaviy

siyosatining harakat doirasi va mezonini belgilab beradi. Davlatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirishning asosiy tamoyillari:

Inson va fuqarolar asosiy huquq va erkinliklarining ustuvorligi tamoyili. Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi tamoyilidan kelib chiqqan holda davlatning mintqaviy siyosati o'z faoliyatini amalga oshirishi lozim. Mintaqada davlat organlarini tashkil etishdan asosiy maqsad ham inson, uning manfaat va ehtiyojlarini ta'minlash, himoya qilish va ularga rioya etishdir. Davlatning mintaqaviy siyosati mintaqada turli davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish va ijro etish davrida inson huquq va erkinliklarining birlamchi ekanligidan, hech bir organ inson huquq va erkinliklariga zid hujjatlar chiqarishi mumkin emasligini kafolatlaydi. Zero, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham davlat fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashi e'tirof etilgan. Har qanday demokratik huquqiy davlatda inson huquqlari oliy qadriyat sifatida tan olinadi va e'zozlanadi.

Pog'onama-pog'ona bo'ysunish (ierarxiya) tamoyili. «Ierarxiya» - bir-biriga o'zaro bo'ysunuvda bo'lish degan ma'noni anglatadi. Ierarxiya - pog'onama-pog'ona, piramida, o'zaro bo'ysunuvdagi kabi so'zlar bilan bir ma'noni anglatadi. Pog'onama-pog'ona joylashish tamoyilining mazumuni shundaki, u mintaqadagi davlat organlari tuzilishining bir shakli bo'lib, yuqori davlat organlarining vakolatlari quyi organlarning vakolatlariga nisbatan ko'proq hamda ular quyi organlarning faoliyatiga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Oshkoraliq tamoyili. Davlatning mintaqaviy siyosatini oshkoraliq tamoyili asosida amalga oshiradilar. Mintaqaga tegishli bo'lgan qonun, farmoyish, dastur va boshqa normativ hujjatlar loyihasini yoki qabul qilingan qonunlar matnini ommaviy axborot vositalari orqali hudud aholisiga e'lon qilinishi hamda xalqni qonunlardan xabardor etilishi oshkoraliqning ifodasidir.

Professionalizm tamoyili. Davlatning mintaqaviy siyosatini amalga oshiriladigan xizmatchilar o'z sohalarining yetuk mutaxassislari bo'lib, ular maxsus malaka va bilimga, etarli tajriba va amaliy o'quvga ega bo'lgan xodimlar hisoblanadi. SHuningdek, davlatning mintaqaviy siyosatining boshqa tamoyillari ham mavjuddir.

Davlatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirish yo'naliishlari mintaqaviy siyosatni boshqaruv shakllari yoki davlat qurilishidan

qat’iy nazar har bir davlat bir qator asosiy iqtisodiy, ijtimoiy, muhofaza va nazorat qilish vazifalarini hal etadi. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda atrof-muhitni muhofaza qilish mintaqalarning eng muhim vazifasidir. Davlatning mintaqaviy siyosatining mazkur sohalariga muvofiq uning ichki vazifalari iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy nazorat, huquqiy tartibotni ta’minalash va tabiatni muhofaza qilish yo‘nalishlariga bo‘linadi.

1. Iqtisodiy yo‘nalish mintaqa iqtisodiyotini eng maqbul sharoitda rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari ishlab chiqilishi va muvofiqlashtirilishida o‘z ifodasini topadi. Innovatsion iqtisodiyot munosabatlari sharoitida amal qiluvchi huquqiy davlatda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish ma’muriy usullar vositasida emas, asosan iqtisodiy uslublarda amalga oshiriladi. Bunday davlat uchun mulkdorning erkinlik va mustaqillik huquqi xos bo‘lib, bu huquqlar ijtimoiy boyliklarni (moddiy ne’matlarni) yaratuvchilarning ham, ularni iste’mol qiluvchilarning ham bir xilda tengligi va mustaqilligini ta’minalaydi.

Mintaqa iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning ikki asosiy iqtisodiy uslubi mavjud:

- muayyan va birmuncha qattiq soliq siyosati, bunday siyosat davlatga o‘z oldida turgan ijtimoiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish, shuningdek jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarini yanada mutanosib rivojlantirish maqsadida daromadning muayyan qismini qayta taqsimlash imkonini beradi;

- iqtisodiyotning butun jamiyat uchun eng ko‘p foyda ko‘riladigan ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish orqali xo‘jalik yuritish uchun eng ma’qul shart-sharoitlarni yaratish.

2 Ijtimoiy yo‘nalish mintaqa istiqomat qilayotgan fuqarolarning ijtimoiy himoyalanganligi, moddiy boyliklar yaratishda bevosita ishtirok etishi yoki ishtirok etmasligidan qat’iy nazar, jamiyatning barcha a’zolari uchun munosib turmush sharoitini ta’minalashga qaratiladi. Huquqiy davlatda moddiy boyliklarni ta’minalash ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasidagi erkin ekvivalent almashuvdan tashqari ham amalga oshiriladi. Ijtimoiy siyosat, birinchidan, turli ob’yektiv sabablarga ko‘ra tulaqonli mehnat qila olmaydiganlar (bemorlar, nogironlar, keksalar, talabalar, bolalar) uchun munosib turmush tarzini ta’minalash maqsadida ijtimoiy

boyliklarni yaratishga qo'shilgan mehnat ulushidan qatiy nazar uni taqsimlashni toqazo etadi. Ikkinchidan, davlat sog'liqni saqlash, madaniy dam olish, maorif, uy-joy qurilishi, transport va aloqaning benuqson ishlashi uchun zarur mablag'lar ajratadi. Aynan shu orqali mintaqa aholisining sog'lig'ini saqlash, dam olish, uy-joyli bo'lish, ta'lim olish, madaniyat yutuqlaridan foydalanishga bo'lgan huquqlari, ya'ni ijtimoiy huquqlarini lozim darajada ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi. Bunday huquqlardan davlatning barcha fuqarolari imkon qadar to'liq, hajmda foydalanishlari kerak. Mintaqada iqtisodiy jihatdan nochor ahvolda qolgan barcha kishilarning aniq ijtimoiy himoya qilinishini kafolatlaydi va mintaqa aholisining ijtimoiy ehtiyojlariga ajratiladigan mablag'larni muttasil ko'paytirib boradi. Moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchilar erkinlik hamda iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lsalargina, mintaqa aholisiga nisbatan adolatli ijtimoiy siyosat o'tkazishga qodir bo'ladi.

3. Moliyaviy nazorat yo'nalishi ishlab chiqaruvchilarning daromadlari davlat tomonidan aniqlanishi va hisobga olinishida o'z ifodasini topadi. Qonunga binoan bunday daromadlarning muayyan qismi ijtimoiy va boshqa mintaqa ehtiyojlarini qondirish uchun davlat va mahalliy byudjetga soliqlar tarzida yo'naltiriladi. Soliqlarning to'g'ri sarf qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Daromadlar va xarajatlar ustidan moliyaviy nazorat mahalliy davlat hokimiyati organlari bajaradilar.

4. Huquqiy tartibotni muhofaza qilish (huquqni muhofaza qilish) yo'nalishi – mintaqaning ijtimoiy munosabatlar barcha ishtirokchilari davlat tomonidan chiqarilgan qonunlarni aniq va tula bajarishini ta'minlashga qaratilgan faoliyatidir. Jamiyat va davlat hayoti adolatli qonunlar negizida qurilgan huquqiy davlatda shaxs, jamiyat, davlat manfaatlari har qanday noqonuniy tajovuzlardan muhofaza qilinadi.

5. Tabiatni muhofaza qilish (ekologiya) yo'nalishi - hozirgi kunda har qanday mintaqaning, umuman, butun hamjamiatning hayotiy muhim faoliyatidir. Atrof-muxit birgalikda yashash obyekti sifatida o'ziga nisbatan uta oqilona xushyor va baodob, sergak munosabatda bo'lishni talab qiladi. Hozir tabiatni muhofaza qilish maqsadiga qaratilgan qonunlarning keng ko'lami ishlab chiqilgan bo'lib, ularda odamlar va tabiiy muhitdan foydalanish sohasidagi turli tashkilotlarning faoliyati barqaror tartibga solingan (xayvonot dunyosi,

atmosfera havosi, tabiiy resurslar va suvni muhofaza qilish to‘g‘risida qonunlar qabul qilingan). Atrof-muhitni muhofaza qilish borasida ishlab chiqilib hozirda amal qilib turgan dasturlarda tabiiy muhit yaxlitligini va muvozanatini buzuvchilarga qarshi faol ta’sir choralarни ko‘rish, hatto tabiiy muhitni ifloslantiruvchi zararli chiqindi manbalariga to‘liq barham berishgacha bo‘lgan choralarни qo‘llash nazarda tutiladi.

Davlatning mintaqasi siyosatida tashqi vazifalari davlat xalqaro maydonda olib boradigan faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridir. Bunday vazifalar boshqa davlatlar bilan ijobiy munosabatlar o‘rnatish va ularni saqlash hamda ehtimol tutilgan tashqi tajovuzdan mamlakat va mintaqani mudofaa qilishni ta’minlashdan iborat davlatning tashqi vazifalarini hal etishga qaratilgan. Shunga ko‘ra davlatning tashqi vazifalari: jahon hamjamiyatining barcha davlatlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik va tashqi hujumlardan mamlakat va mintaqani mudofaa qilish kabi ikki asosiy yo‘nalishga bo‘linadi.

Boshqa davlatlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish yo‘nalishi - davlatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va muayyan davlatning manfaatlarini barcha davlatlarning aniq va umumiyy manfaatlari bilan uyg‘unlashtiruvchi teng huquqli munosabatlar o‘rnatish hamda ularni rivojlantirishga qaratilgan turli xil faoliyatidir. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi darajasi alohida olingan har bir davlatning va umuman, jahon hamjamiyatining ichki muammolarini yanada samarali hal etish uchun barcha taraqqiy etgan davlatlarning xo‘jalik, siyosiy va madaniy hayotini integratsiyalashni, ularning umumiyy kuch-g‘ayratini birlashtirishni talab qiladi. Bunday hamkorlik integratsiya masalalariga keng va o‘zaro manfaatli yondashuvni, birgalikdagi sa’y-harakatlar orqali nafaqat muayyan mamlakatning, balki hamkorlik barcha ishtirokchilarining manfaatlariga mos keladigan eng oqilona yechimlarni topa bilishni taqozo etadi.

Tashqi hujumdan mamlakat va mintaqani mudofaa qilish yo‘nalishi - davlat faoliyatining muhim yo‘nalishidir. Tarixningi guvohlik berishicha, davlat tarzida uyushgan jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mamlakatning erkinligi va mustaqilligi,

suvereniteti va hududiy yaxlitligini tashqi tajovuzlardan himoya qilish ob'yektiv zaruriyat bo'lib kelgan.

Vatanni himoya qilish, davlat hududini bosqinchilardan ozod etish uchun olib borilgan urushlar, xalqaro huquq nuqtai-nazaridan qonuniy va adolatli hisoblanadi. Mamlakatni mudofaa qilish yo'nalishi iqtisodiy, siyosiy, diplomatik va harbiy vositalar orqali amalga oshiriladi. Bu vositalar tinchlik vaqtida mamlakat va mintaqani ehtimol tutilgan tashqi hujumni qaytarishga har tomonlama tayyorlashdan iboratdir.

### **14.3. O'zbekistonda mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalari, dasturlari, uning rivojlantirishni barqarorlashtirish strategiyalari**

Iqtisodiy munosabatlarning tobora chuqurlashib borayotganligi hamda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish ob'yektiv zaruriyatga aylanganligi tufayli mamlakat milliy iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish dolzarb vazifaga aylandi. Juhon tajribasi shuni ko'rsatmoqdiki, mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning salohiyatidan samarali va oqilona foydalanish tufayli mamlakatda iqtisodiy o'sishga erishish mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda ham mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947 sonli farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash; hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'lmini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga

mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish va boshqa vazifalar belgilangan.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishida har bir mintaqaning o‘ziga xos shart-sharoiti va imkoniyatlari alohida e’tiborga olindi. Jumladan, qat’iy markazlashgan boshqaruv tizimidan voz kechilib, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini hal qilishda mahalliy hokimiyat organlarining mavqeini oshirish, ularning huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish, rivojlanish darjasini past mintaqalarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning yanada chuqurlashib ketishining oldini olishga davlat tomonidan yordam berish, tabiiy-iqtisodiy salohiyatga ega hududlarni rivojlantirish, infratuzilmani takomillashtirish evaziga yangi sanoat korxonlari qurish, mintaqalarda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini yanada kengaytirish va boshqalar.

Mintaqa iqtisodiyotining shunday tizimlari mavjudki, ular har bir mamlakatning milliy iqtisodiyotida, mustaqil xo‘jalik yuritishda alohida o‘rin tutadi va o‘zining tabiiy iqlim, geografik joylashuvi, tabiiy-mineral va xom ashyo resurslarining zaxiralari, mehnat resurslari bilan ta’milanganligi, ishlab chiqarish salohiyati, tarmoqlari va sohalarining ham infratuzilmasi miqyosi, aholisining urf-odat va an’analari, mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha ixtisoslashuvi hamda ijtimoiy mehnat taqsimotidagi hissasi, aholi jon boshiga ishlab chiqargan hududiy yalpi mahsulot kabilar bilan farqlanadi.

Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

1. Mintaqadagi barcha resurslardan (moddiy, moliyaviy, mehnat) foydalanib, ishlab chiqarishning jadalligi va mutanosibligini ta’minlash hamda shu asosda uning samaradorligini oshirish.

2. Mintaqalarning istiqboldagi rivojlanish sur’atlarini aniqlash. Bunda mahalliy resurslardan to‘liq foydalanishga e’tibor berish.

3. Ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan ishlab chiqarishda keng foydalanish. Buning uchun mintaqada ilmiy-texnika taraqqiyoti jadallashishini ta’minlovchi iqtisodiy mexanizmni yaratish, rejalshtirishni yanada demokratiyalashtirish lozim bo‘ladi. Buning uchun korxonalarga, mintaqaviy birliklarga indikativ (tavsiyaviy) rejalarini tuzish uchun huquqiy-iqtisodiy sharoitlar yaratish,

innovatsion iqtisodiyot sharoitida samarali raqobat bo‘lishini bozor konyunkturasiga mos mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlash maqsadida, shuningdek, quyidagi vazifalarni ham hal etish lozim:

a) ishlab chiqarishni bozor hajmi va konyunkturasiga mos ravishda tashkil etish va rivojlantirish;

b) valyuta tushumlarining ko‘payishini ta’minlash maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish;

v) bozor talabi asosida tez o‘zgaruvchan yangi texnologiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini oshirish va hokazolar.

g) tashqi iqtisodiy munosabatlarni mahalliy hokimiyatlar respublika hukumati bilan kelishgan holda mahalliy manfaatlarni hisobga olib rivojlantirish.

O‘zbekistonda davlat mintaqaviy siyosatining bosh maqsadlari sifatida quyidagilar belgilangan:

- mamlakatning barcha hududlarida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan huquqlarning ta’minlanishi uchun teng siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yaratish;

- respublika barcha aholisini ijtimoiy kafolatlari hamda teng ijtimoiy va huquqiy himoyalashni ta’minlash.

Ushbulardan kelib chiqib, davlat mintaqaviy siyosatini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- respublika davlat hokimiyati va boshqaruvi hamda mahalliy o‘z-o‘zini boshqarishning huquqiy asoslarini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi sub’yektlarining o‘zaro teng huquqligining konstitutsion tamoyillarini ta’minlash;

- mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi istiqbol ko‘rsatkichlari va maqsadli dasturlarni muntazam ravishda ishlab chiqish;

- O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi hamda mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarini uslubiy va me’yoriy jihatdan ta’minlash hamda qo‘llab- quvvatlash;

- mamlakatning ma’muriy-hududiy bo‘linishini zarur holatlarda o‘zgartirib turish. Bu mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar in’ikosi sifatida amalga oshiriladi (6-jadval).

## 6-jadval

### Mintaqaviy takror ishlab chiqarish jarayonlarini tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy usullari

<b>Ma'muriy usullar</b>	<b>Iqtisodiy usullar</b>
Boshqarish qarorlarini tayyorlash va amalga oshirish uchun sharoit yaratishga yo'naltirilgan aniq manzilli topshiriqlar berish	Umumiy iqtisodiy qonun-qoidalarga, tamoyillarga tayanadi
Boshqariladigan ob'yejtlarga to'g'ridan- to'g'ri ta'sir ko'rsatishda, boshqarish organining manfaatini ustuvor ravishda ko'zlash	Boshqariladigan obyektlarga bilvosita ta'sir ko'rsatiladi, turli mulkchilik shakllardagi korxonalarining iqtisodiy manfaatlari hisobga olinadi
Qabul qilinadigan qarorlar uchun asosiy mas'uliyat boshqarish organi zimmasida bo'lib, boshqariladigan obyektning huquqlari cheklangan	Xo'jalik sub'yejtlari to'liq mustaqillikka ega bo'lishi, o'z faoliyati va uning oqibatlari uchun yuqori mas'uliyatli bo'lishi taqozo etiladi
Ma'muriy farmoyishlar, rejalar direktiv xarakterga ega bo'lib, ularni bajarish majburiy hisoblanib, undan chetlanishga yo'l qo'yilmaydi	Xo'jalik sub'yejtlarini o'zining iqtisodiy manfaati nuqtai nazaridan va iqtisodiy riskni e'tiborga olgan holda muqobil qarorlar tayyorlash va oqilona yechimlar topishga undaydi

Mintaqada yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish uchun, raqobat afzalliklariga ega tarmoq va korxonalar birinchi o'ringa ko'tarilib, ular ma'lum darajada lokomotiv vazifasini bajarishlari lozim bo'ladi. Ana shunday tarmoqlar qatoriga mintaqaviy xususiyatga ega bo'lgan turizmni qo'shish lozim. Chunki mintaqada boy tabiiy salohiyatga asoslanadigan turizm sohasini keskin rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Turizm o'ziga xos mintaqaga uchun o'sish nuqtasi va yetakchi tarmoq bo'lib xizmat qiladi.

O'sish nuqtalari (qutiblari) va markazlari mintaqaviy nazariya asoschisi Fransuz olimi F.Perru bo'lgan. U tarmoqlarni rivojlanishiga qarab ularni turli guruhlarga bo'lgan. F.Perru o'sish qutibi va uning atrofini bog'lovchi modelni ishlab chiqqan. Ushbu modelning asosiy

mazmuni etakchi tarmoq eng yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlaydi va mintaqani boshqa sohalarini rivojiga turtki bo'ladi. Shuningdek J.R.Budvil ham o'sish nuqtalari nazariyasini rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shdi. Uning konsepsiyasiga ko'ra ishlab chiqarishning rivojlanishi iqtisodiyotning hamma tarmoqlarida bir xil bo'la olmaydi. Har doim dinamik rivojlanadigan tarmoqlarni aniqlash mumkin ular mintaqasi iqtisodiyotini rivojlanishi uchun rag'batlantiruvchi hisoblanadi va rivojlanishi va rivojlanish qutiblari sifatida namoyon bo'ladi.

O'sish nuqtalari Budvil tomonidan qo'yidagi guruhlarga ajratilgan:

- kichik va o'rta shaharlar;
- yirik shahar aglameretsiyalari;
- o'rta kattalikdagi sanoat korxonalari;
- bir qancha shahar tizimlarini qamrab oluvchi integratsiya qutiblari.

Hozirda o'sish nuqtalari (qutiblari) nazariyasidan keng foydalanilgan holda, uni yangi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitiga moslashga qaratilgan takliflar ishlab chiqish dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu o'rinda o'sish nuqtalari sifatida asosan sanoat korxonalari emas, balki xizmat sohalarining o'rni va ahamiyati oshib bormoqda. Ayniqsa keng imkoniyatlarga ega turizm sohasini mintaqalarda o'sish nuqtasi va etakchi lokomotiv bo'lib xizmat qilishi, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan yuqori ta'sir kuchi bilan ajralib turadi.

Mintaqa iqtisodiyoti va turizmni o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi avvalombor ular oldiga qo'yiladigan asosiy maqsad va ustuvor yo'naliishlarning uyg'unligi bilan asoslash mumkin (4-rasm).

<b>Mintaqani kompleks rivojlantirishning vazifalari va yo'naliishlari</b>	<b>Turizm sohasini rivojlantirishning asosiy yo'naliishlari</b>
Mayjud salohiyatdan kelib chiqqan holda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash	Mintaqada joylashgan turizm subyektlarining rivojlanishini ta'minlash
Tarmoqlar bilan birgalikda raqobatbardosh mahsulotlar (xizmatlar) ishlab chiqarishni	Turizm sohasining raqobatbardoshlik afzalliklaridan to'liq

tashkil etish, eksport hajmi va turini ko‘paytirish	foydalangan holda xalqaro turizmni yanada kengaytirish
Investitsiya dasturlarini tayyorlash, amalga oshirish, xorij investitsiyalarini taklif etish	Turizmni yanada rivojlantirish maqsadida yangi investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, xorij investorlari uchun qulay shart-sharoit yaratish
Muhandislik, yo‘l transport va injenerlik kommunikatsiyalari infratuzilmasini ildam rivojlantirish	Turizm xizmatlari sifatini yaxshilash va turlarini ko‘paytirish maqsadida infratuzilmani rivojlantirish
Qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish, mevassezavot, go‘sht-sut mahsulotlarini etishtirishni kengaytirish va ularni saqlash, qayta ishslash	Turizm sohasida umumovqatlanish tizimini takomillashtirish, sifatini yaxshilash
Aholi bandligini ta’minlash, yangi ish joylarini tashkil etish, xizmat sohalarini rivojlantirish, turmush darjasini va sifatini yanada oshirish	Xalqaro turizm bilan bir qatorda ichki turizmni yanada rivojlantirish, yangi ish joylarini tashkil etish, malakali kadrlar tayyorlash, aholini turizm xizmatlariga bo‘lgan talabini oshirish

#### **4-rasm. Mintaqa iqtisodiyoti va turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari**

Mintaqa va turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlar bir-biriga juda o‘xshab ketadi, lekin ularning har birini bevosita manfaatlari borligini ham esdan chiqarmaslik kerak. Asosiy yo‘nalishlarning borligini avvalombor mintaqaviy resurslardan (tabiiy, iqtisodiy, mehnat, suv va yer, mahalliy xomashyo) oqilona foydalanish, raqobatbardoshlikni oshirish, yangi ish joylarini tashkil

etish va malakali kadrlar tayyorlash, aholining talablarini qondirgan holda, ularning turmush sifatini yanada yuqoriga ko‘tarishida ko‘rishimiz mumkin.

O‘zaro bog‘liqlikni ikki taraflama ekanligini ta’kidlash lozim. Birinchidan, mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni turizmga ta’siri; ikkinchidan, ushbu sohani, mintaqani barqaror rivojlanishiga ta’siri.


Ilmiy nazariya va uslubiyot nuqtai nazaridan turizmni mintaqaga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri deyarli o‘rganilmagan. Turizmning mamlakat va mintaqaga iqtisodiyotidagi o‘rni turlicha ko‘rinishga ega bo‘lib, ayrim sohalarga qo‘sadigan hissasi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Lekin ushbu holatni amalga oshirish avvalom bor iste’mol talablarini to‘la qondirish, ya’ni o‘ziga xos qadr-qimmatlar tizimini, sayyoqlik kompaniyalarning egalari, ularning mahsulotlarini iste’mol qiluvchi sayyoqlar, mintaqada ularni qabul qiluvchi xodimlarni shakllantirish lozim. Turizmni rivojlanish deyarli barcha iqtisodiy subyektlarga katta qulaylik olib keladi. O‘z navbatida sayyoqlar o‘zлari xohlagan mahsulot va xizmatlarni oladilar, sayyohip kompaniyalar va tadbirkorlar yuqori ish haqi va foydaga ega bo‘ladilar, mintaqada esa o‘z byudjetini soliq tushumlari orqali to‘ldiradi.

Turizmning mintaqadagi ijtimoiy samaradorlikka bevosita ta’sirini alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Bu yo‘nalishda bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan bo‘lsada, turizmni ijtimoiy rivojlanishga turtki bo‘lishi va aholi turmush darajasiga ta’sirining ilmiy-nazariy asoslari hali to‘liq shakllanmagan. Avvalom bor, mintaqaviy turizm bozorini ijtimoiy sohaga ta’sirining asosiy yo‘nalishlarini aniqlab olish zarur (5-rasm).

Turizmning ijobiy ta’siri birinchi navbatda mintaqadagi milliy qadriyatlar, urf-odatlarni mustahkamlash va yanada rivojlanishga olib keladi. Ushbu yo‘nalish mintaqada o‘ziga xos madaniy sayyohip brendni shakllanishi va sayyoqlarni taklif qilishning muhim mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, turizm infratuzilmasini rivojlanishda yangi kommunikatsiyalar, informatsion texnologiyalarni qo‘llash aholining ijtimoiy qarashlari va faoliyatlarini ijobiy tarafga o‘zgarishiga olib keladi.

Mintaqada turizm sohasida mehnat qiladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlanish, yangi o‘quv texnologiyalaridan foydalanish, jahon standartlari talabiga

mos keladigan kadrlarni shakllantirish ta'lim tizimi uchun o'rnak bo'lishi mumkin. Bundan tashqari asosiy ijtimoiy muammo bo'lgan aholi bandligini ta'minlashda ham turizm salohiyatidan samarali foydalangan holda yangi ish joylarini tashkil etilishi yirik ijtimoiy samara natijasi bo'lib xizmat qiladi. Aholi bandligini ta'minlash o'z navbatida ularni daromadlarini ortishiga, bevosita turmush sifatini oshishiga olib keladi. Ichki turizmni qo'llab-quvvatlash, aholining dam olishi uchun qulay sharoit yaratilishi, ularni salomatligini tiklash va mustahkamlashga muhim zamin yaratadi.



## 5-rasm. Mintaqaviy turizmnning ijtimoiy samaradorlik yo'nalishlari

Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, turizmnning asosiy

iste'molchilari o'rta sinf vakillaridir. Ushbu omil mamlakatda va mintaqalarda o'rta sinfni shakllanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Turizmni nafaqat mintaqaviy tarmoq sifatida emas, balki tarmoqlararo soha ekanligini e'tiborga olgan holda, uni hududlararo ijtimoiy tabaqalashuvga ta'sir qilib, aholi turmush darajasidagi farqlarni kamaytirish va yaqinlashtirish uchun yaxshi imkon yaratadi.

Ijtimoiy soha to'g'risida gapirganda, turizmni ushbu sohaga ham taalluqli ekanligini ta'kidlash lozim. Turizmning ahamiyati uning ijtimoiy sohadagi quyidagi faoliyatlari bilan belgilanadi:

- moddiy va nomoddiy boyliklarni iste'molchiga etkazib berish;
- iste'mol jarayoniga xizmat qilish;
- aholi salomatligini ta'minlash;
- aholini ijtimoiy-madaniy darajasini shakllantirish va qo'llab-quvvatlash;

Turizm jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Ular aholini mehnatga layoqatini tiklash va rivojlantirish, bo'sh vaqtidan samarali foydalanish, aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish, dam olish infratuzilmalarini rivojlantirishdan, salomatlikni tiklashdan iborat.

#### **14.4. Mintaqaning tabiiy-iqtisodiy salohiyatini baholash yo'llari**

Mustaqillikka erishgach ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha qabul qilingan dasturlar mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlab kelmoqda, biroq mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda hal etilishi lozim bo'lgan masalalar mavjudligidan dalolat beradi. Mintaqalarda yaratilayotgan yalpi hududiy mahsulot(YaHM)ning ulushi bo'yicha keskin tafovutlar mavjud. Jumladan, eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri, Qashqadaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlari ulushiga to'g'ri keladi. Eng past ko'rsatkichlar esa Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi ulushiga to'g'ri keladi. Birgina, Toshkent shahrining YaHM qayd etilgan mintaqalarning YaHMDan ham yuqoridir.

Yaratilgan yalpi hududiy mahsulotlarning aholi jon boshiga taqsimlanishi bo'yicha ham yuqori farqlanishlar mavjud. Jumladan,

Yalimning aholi jon boshiga taqsimlanishi respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida ushbu ko'rsatkich respublika ko'rsatkichlaridan ancha pastni tashkil etadi. Ushbu tafovutlarni kamaytirish uchun hududlarning iqtisodiy salohiyati va tabiiy resurslaridan foydalangan holda hududiy rivojlanishni ta'minlash, hududlarga investitsiyalarni jalg etish hamda sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish zarur hisoblanadi.

Xususan, Prezidentimizning "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi bo'yicha dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida, viloyatlar, tumanlar va shaharlarning kompleks va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ularning salohiyatidan samarali va optimal foydalanish bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- ijtimoiy-iqtisodiy jadal rivojlanishi, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral va xom ashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

- hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sur'atlarini kengaytirish hisobiga hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqini kamaytirish, eng avvalo sanoat va eksport salohiyatini o'stirish yo'li bilan qiyoslangan tuman va shaharlarni jadal rivojlanish;

- yangi sanoat ishlab chiqarish va servis markazlarini tashkil etish hisobiga shahar tipidagi kichik shaharlar va shaharchalarni aktiv rivojlanish, yirik xo'jalik birlashmalarning mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalg qilish;

- subvention tuman va shaharlarni kamaytirish, sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlanish hisobiga mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

- sanoat va boshqa ishlab chiqarish obyektlarni joylashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlanish hamda aholining turmush darajasini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmasini yanada rivojlanish va modernizatsiya

qilish<sup>36</sup>.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, mamlakatimiz mintaqalari iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlar va 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalichlari bo'yicha harakatlar strategiyasi bo'yicha dasturida belgilangan vazifalardan kelib chiqib mintaqalarni moliyaviy boshqarish masalasini alohida tadqiq etish dolzarb sanaladi.

Hududiy iqtisodiy rivojlanish – bu moliyaviy resurslar harakatining tabiiy-moddiy va qiymat shakllarining rivojlanishi hamda butun hududiy tizim, ya'ni uning tarkibiy elementlari (hududlarning tabiiy-iqlimi, geosiyosi, iqtisodiy, moliyaviy, demografik, axborot va institutsional tuzilmasi) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tizimining bir butunlikda ishlashini ta'minlash maqsadida ushbu moliyaviy resurslarning uzluksiz aylanishidir.

Moliyaviy resurslar davlatning markazlashgan va markazlashmagan pul jamg'armalari orqali shakllantirilishi va ishlatilishi jarayoni hamda umumiy iste'mol tarkibiga davlat tomonidan ta'sir o'tkazilishi hududlar iqtisodiyotining davriy tebranishlari amplitudasini yumshatadi, mintaqaviy xo'jaliklardagi tarkibiy o'zgarishlarni o'zaro yaqinlashtiradi. Hududiy rivojlanish darajasini boshqarish davlat moliyasini boshqarish tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda hamda hududlar iqtisodiyotining rivojlanishini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hududiy rivojlanishning moliyaviy boshqaruvi jarayonida hal etiladigan asosiy vazifa jamg'armalarni taqsimlash va investitsiyalar o'rtasida mutanosiblikni o'rnatish bilan bog'liq. Ushbu jamg'armalar va investitsiyalar hudud va mintaqalar iqtisodiyoti ehtiyojlarini va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning mintaqaviy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va rivojlanishiga, mintaqadagi moliyaviy-xo'jalik majmuini moliya vositasida tizimli tartibga solish va boshqaruvga tayanishi kerak. Birinchi navbatda, bozor talablariga javob beradigan, yuqori daromad keltiradigan, strategik masalalar

---

<sup>36</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalichlari bo'yicha harakatlar strategiyasi bo'yicha dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni ([http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact\\_id=3107036](http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3107036)).

echimiga xizmat qiladigan hududiy dasturlarda korxonalarini rivojlantirish va ilg‘or loyihalarni amalga oshirish talab etiladi. Bu hududiy iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida tarkibiy o‘zgarishlar vujudga kelishiga, texnogen jarayonlar ta’sirini qisqartirishga va ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyaviy boshqaruvni ta’minlovchi sharoit yaratilishiga hamda hududning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlanishiga olib kelishi lozim. Shuningdek, turli institatlarning o‘zaro aloqasini muvofiqlashtiruvchi, yuzaga keladigan muammolarni hal etish uchun barcha vositalarni safarbar qiluvchi va vaqt o‘tgan sayin o‘zgarib boruvchi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlovchi vazifalarni bajarish lozim. Mazkur jarayon iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlovchi usullar va hududiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlari o‘ziga xos tarzda jamlanganligi bilan tavsiflanadi.

Albatta, birinchi bosqichda ma’muriy usullarga ustunlik berish kerak. Keyinchalik esa tartibga soluvchi chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich liberallashtirish tomon yo‘naltiriladi. Hududlarning iqtisodiy xavfsizligini tartibga solish chorralari hamda asosiy xavfsizlik ko‘rsatkichlar yig‘indisidan foydalangan holda hududlarning iqtisodiy xavfsizligi boshqaruvining samarali tizimini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘lib, bu yondashishlar hududiy iqtisodiy xavfsizlik jarayonlarini to‘g‘ri baholash va ularga o‘z vaqtida ta’sir o‘tkazish imkonini beradigan dasturlarni qabul qilish imkonini beradi.

#### **14.5. Mintaqaviy dasturlarning samaradorligini oshirish yo‘llari**

Mamlakatimiz tarkibiga kiruvchi har bir viloyat va tumanlar jo‘g‘rofiy hamda hududiy joylashuvi, iqtisodiyotining tarkibi, sanoat va qishloq xo‘jaligining rivojlanganlik darajasi, hududlarning demografik holati, qolaversa, o‘zining iqlimi hamda tabiiy resurslari bilan bir-biridan farq qiladi. Hududlarning tabiiy resurslarga ega ekanligi nuqtai-nazaridan tahlil qiladigan bo‘lsak, Sirdaryo, Xorazm, Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlarida foydali qazilmalar kam, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent, Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari tabiiy resurslarga juda boy (7-jadval).

**7-jadval**

**2018 yilda O‘zbekiston Respublikasi va hududlarining  
iqtisodiyoti tarkibi tahlili**

<b>Hududlar</b>	<b>Sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so‘m</b>	<b>Iste’mol mollari ishlab chiqarish, mlrd. so‘m</b>	<b>Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m</b>	<b>Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlarining hajmi, mlrd. so‘m</b>
O‘zbekiston Respublikasi	235340,7	83512,58	15889,8	199537,4
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	10911,9	1815,023	4600,2	6680,5
Andijon	27454,7	21385,38	8011,5	21718,2
Buxoro	8601,2	3661,298	6631,6	17463,9
Jizzax	3581,8	1821,466	3283,2	12210,7
Qashqadaryo	14529,5	2891,736	7064,1	18321,2
Navoiy	22892,4	2528,294	3925,6	9475,3
Namangan	6586,6	4135,575	6067,7	14562,7
Samarqand	13488,1	7848,18	10043,5	27091,2
Surxondaryo	3234,7	1217,967	6079,6	14705,5
Sirdaryo	5163,1	1895,164	2031,4	6923,9
Toshkent	37724,4	7700,895	11292,9	21392,9
Farg‘ona	13613,8	4530,083	9237,9	16391,4
Xorazm	6457,2	3904,729	4562,8	12599,9
Toshkent shahri	43274,1	17840,07	50176,2	-

7-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda Toshkent shahri va viloyati hamda Andijon, Navoiy viloyatlari etakchilik qilishmoqda. Navoiy viloyati katta tabiiy-iqtisodiy salohiyatga ega hududlardan biri hisoblanib, mintaqasi sanoati bugungi kunda jadal taraqqiy etmoqda. Iste’mol mollari ishlab chiqarishda esa Andijon viloyati va Toshkent shahri etakchilik qilmoqda. Xizmat ko‘rsatish sohasida Toshkent shahri, Toshkent va Samarqand viloyatlari yuqori ulushga ega, qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida

esa Toshkent, Samarqand va Andijon viloyatlari etakchi o‘rnlarni egallab turibdi.

Mintaqalarni kompleks va mutanosib rivojlantirishda hududga jalg etiladigan xorijiy investitsiyalar muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatimizda qulay investitsiya muhiti yaratilganligi bois barcha mintaqalarga investitsiyalarning kirib kelishi tobora ortib bormoqda. Bu esa hududlar iqtisodiyotida va ijtimoiy hayotida keskin ijobjiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishining asosiy omillaridan biri bo‘lmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, qaysi viloyat yoki shaharga xorijiy investitsiyalar ko‘p jalg etilayotgan bo‘lsa, mazkur hududlarda iqtisodiy va ijtimoiy o‘sish darajasi yuqori, ishlab chiqarish tarmoqlarida ijobjiy tarkibiy o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmoqda. Qulay investitsiya muhitini shakllantirish davlat tomonidan amalga oshiriladigan investitsiya siyosatining eng muhim shartlaridan biridir. Qulay investitsiya muhitining shakllanganligi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiyalash, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish kabi muhim ustuvor masalalarni hal etishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Iqtisodiyotda innovatsiyalarning o‘rni tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda mintaqalar iqtisodiyotining rivojini ta’minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xususan, innovatsion tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rag‘batlantirish obyektiv zaruriyatga aylanib qoldi. Chunki kichik biznes va tadbirkorlik bozor kon'yunkturasi o‘zgarishlariga tez moslashuvchan va harakatchan; o‘z harakatida boshqa korxonalarga bog‘ ‘lmaydi; vaziyatga qarab ishlab chiqarish, xizmat qilish kon'yunkturasini tezda o‘zgartirishga qaror qabul qila oladi; iste’molchilar talabidan kelib chiqqan holda ularning istaklariga, urf-odatlariga mos mahsulotlar ishlab chiqarishga tez moslashadi va eng asosiysi, fan-texnika yutuqlarini (innovatsiyalarni) ishlab chiqarish jarayoniga tezda joriy qila oladi.

Kichik biznes korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishdan maqsad butun ishlab chiqarish tizimini yangilash hisobiga samaradorlikni yaxshilash, ilmiy-texnik, intellektual va iqtisodiy salohiyatdan samaraliroq foydalanish asosida soha raqobatbardoshligini oshirish hamda pirovard natijada mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashdan iboratdir.

Shuni alohida qayd etib utish lozimki, mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli maqsadli dasturlar qabul qilingan, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018 yil 20 oktyabr 841-sonli qarorini keltirish mumkin. Ushbu qaror o‘z ichiga 17 ta keng miqyosli maqsadni qamrab olgan bo‘lib, har bir maqsad tarkibida maqsad sohasiga tegishli bo‘lgan vazifalar belgilangan. Agar qarorda keltirilgan maqsad va undagi vazifalarni mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish choralariga yo‘naltirilgan maqsadlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, unda:

- mintaqalarda aholining kam ta’milanganlik darajasini pasaytirish;
- mintaqalarda suv resurslari va sanitariyaning mavjudligi hamda ulardan oqilona foydalanishni ta’minlash;
- arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan barcha uchun umumfoydalanish imkoniyatini ta’minlash;
- mintaqalarda samarali bandlikni oshirish hamda erkaklar va xotin-qizlarni munosib ish bilan ta’minlash asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o‘sishga ko‘maklashish;
- mintaqalarda barqaror infratuzilmani yaratish, umumqamrovli va barqaror sanoatlashuv va innovatsiyalarga ko‘maklashish;
- mintaqalarda tengsizlikni uning barcha ko‘rinishlarida qisqartirish;
- shaharlar va aholi yashash maskanlarining ochiqligi, xavfsizligi va ekologik barqarorligini ta’minlash;
- mintaqalarning quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko‘maklashish, o‘rmonlardan oqilona foydalanish, cho‘llanishga qarshi kurashish, yerlarning emirilishini to‘xtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikning yo‘qolib ketishi jarayonini to‘xtatish kabi maqsadli vazifalar belgilangan.

Shuni aytish mumkinki mintaqalarning mavjud salohiyatlaridan to‘g‘ri foydalanish mintqa iqtisodiyotiga bevosa ijobiy ta’sir ko‘rsatgan holda, yetakchi soha sifatida hududlarni kompleks va mutanosib rivojlantirish, uzoq va o‘rta muddatda mavjud salohiyatdan

samarali foydalanish, eng asosiysi aholi turmush darajasi va sifatini oshirish uchun asosiy lokomotiv bo‘lib xizmat qiladi. Mintqa sharoitida quyidagilardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori ijrosi mintaqalarda maqsadli ta’minlash lozim;

- mintaqalarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning aniq ishlab chiqilgan strategiyasining zarurligi;

- iqtisodiy islohotlarning milliy modelini hisobga olgan holda nomarkazlashtirish, mintaqalararo integratsiya, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi umumiy tendensiyalarga mintaqaviy siyosatni bosqichma-bosqich moslashtirish;

- mintaqalarni rivojlantirishda byudjetlararo munosabatlarni hal etish bilan bir qatorda, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini e’tiborga olgan holda investitsiya siyosatini amalga oshirishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq;

- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha dasturlarning ishlab chiqilishi, davlat amalga oshiradigan mintaqaviy siyosat hamda hududlarni investitsion-innovatsion faolligini oshirish;

- mintaqalarning majmuali va barqaror rivojlanishi, shu jumladan, turizmni tartibga solishning asosiy omili sifatida infratuzilmalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Davlatning mintaqaviy siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar, tamoyillar, mintqa iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish, iqtisodiy uslub, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ijtimoiy samaradorlik.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Qanday omillar mintaqaviy rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi?

2. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligining mazmunini tushuntirib bering?

3. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalari nimalardan iborat?

4. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligiga qanday tahdidlar mavjud?
5. Mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni qanday ko‘rsatkichlar orqali baholash mumkin?
6. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini qanday ko‘rsatkichlar orqali baholash mumkin?
7. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak?
8. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun qanday dasturlar ishlab chiqish lozim?

## **15-BOB. O'ZBEKISTONDA MINTAQANI RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

### **15.1. Mintaqasi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tartibga solishning asosiy vazifalari, uni davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlari**

Mintaqa iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning xavfsizligini ta'minlashda davlat markazi o'rinni egallaydi. Bu boradagi davlatning vazifalari quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- mintaqani mikro va makro darajada iqtisodiy tartiblash ko'lamlarini o'z ichiga oladigan strategik qarorlarni asoslash, qabul qilish uchun dastaklar bilan ta'minlash;

- iqtisodiy va ma'muriy dastak, vosita hamda usullar yordamida iqtisodiy strategiya va joriy dasturlarni amalga oshirish, erishilgan natijalarni tahlil qilish va baholash, mavjud sharoitlarga mos ravishda ko'rilayotgan chora-tadbirlarga tuzatishlar kiritish;

- boshqa mintaqalar bilan o'zaro aloqalar tizimida himoyalanishni rag'batlantirish rejimlarini ko'zda tutadigan qonunlar va me'yoriy hujjatlarni hayotga tatbiq etish orqali mintaqaning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash;

- mintaqasi iqtisodiyotida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni tezlikda hal qilish uchun mintaqadagi boshqaruv organlari hamda mansabdor shaxslarning huquqlari, vazifalari mas'uliyatini oqilona taqsimlash va ularning o'zaro bir o'lchamdagagi faoliyatini uyg'unlashtirish.

Mintaqa xavfsizligini ta'minlashni boshqarish tizimi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- tashkiliy tuzilmalar;
- kommunikatsiya va o'zaro aloqalar tizimi;
- axborotlar;
- har tomonlama tayyorlangan professional kadrlar.

Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv ishlari ikki, o'zaro bog'liq yo'nalishda olib boriladi:

- mintaqada iqtisodiy huquqbazarliklarning manbalari va ularning subyektlariga qarshi kurashish;

- barcha qonun, me'yoriy hujjatlar hamda boshqaruv qarorlarini mintaqa iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash talablariga mosligini aniqlash uchun ekspertizadan o'tkazish.

Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning muhim sharti ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning samaradorligini oshirish hisoblanadi. Zero mintaqa iqtisodiy xavfsizligi darjasida uning iqtisodiy salohiyati bilan belgilanadi. Bu salohiyat mintaqa iqtisodiyotining resurslari, zaxiralari, amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligi, bozor strukturasi, boshqarish tizimi, sanoatni tashkil etish hamda tashqi bozor konyunkturasining o'zgarishlarga moslashuvchanligi bilan ifodalanadi.

Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun asosiy mahsulotlar bo'yicha importga bog'liqlikka barham berish, tayyor mahsulotlarni eksport qilishni kuchaytirish lozim bo'ladi. Shuningdek, mintaqada tovar ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini ichki va tashqi bozorda himoya qilishga qaratilgan oqilona iqtisodiy siyosatni amalga oshirish lozim. Bu siyosat quyidagilarni ko'zda tutishi kerak:

- mintaqada monopolistik faoliyatni cheklash;
- mintaqada tayyor ishlab beruvchi sanoat mahsulotlarini, asosan, mashina va asbob-uskunalarini eksport qilishni rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlarini, imtiyozli kreditlash usullarini qo'llash;
- turli ishlab chiqarish tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, yangi tashkil topgan xo'jalik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ular uchun qulay sharoitlar yaratish;
- mintaqa bozoriga noqonuniy yo'llar bilan arzon, iste'molchilar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tovarlarni kirib kelishining oldini olish;
- mintaqada mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar manfaatini ko'zlash, ularni tashqi bozorga chiqishlarini qo'llab-quvvatlash;
- mintaqada mavjud yirik ishlab chiqarish birlashmalarini qo'llab quvvatlashning oqilona tizimini yaratish.

Mintaqada iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun iqtisodiyotning kriminallashuviga qarshi kurashish kerak. Jinoiy guruhlarning iqtisodiyotga kirib kelishining oldini olish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- daromadlarni deklaratsiya qilish tizimini takomillashtirish;
- ro‘yxatga olinmasdan turib tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishni man qilish;
- iste’molchilar salomatligiga zarar etkazuvchi mahsulotlarni va litsenziyasiz, sifat sertifikatisiz tovar sotishni man qilish;
- huquq-tartibot organlarida iqtisodiy qonunbuzarliklarga qarshi kurashish bo‘limlari faoliyatini kuchaytirish;
- iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turli nazorat va davlat organlarining tadbirkorlar xo‘jalik faoliyatiga noqonuniy aralashishlarini cheklash va bunga qarshi kurashish;
- iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmlari erkin amal qilishini ta’minlash bilan bir qatorda, davlat va mintaqadagi organlarning iqtisodiyotni tartibga solish faoliyati samaradorligi va ta’sirchanligini oshirish kabilar maqsadga muvofiqdir.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi mintaqasi iqtisodiyoti rivojlanishining har qanday noxush vaziyatlarda ham mintaqaning uzuksiz va barqaror rivojlanishini, uning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta’minlashga qodir bo‘lgan hamda ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holatidir.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi mintaqadagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish darjasи, fan-texnika taraqqiyoti va uning yutuqlaridan mintaqasi iqtisodiyotida foydalanish hamda hozirgi vaqtida innovatsion rivojlanish yo‘liga qay darajada va ko‘lamda o‘tganligi bilan belgilanadi. Shu boisdan, mintaqani rivojlantirishning moddiy asosi kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni, barqaror iqtisodiy o‘sish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni, aholi turmush darjasи va sifatini oshirib borishni, shuningdek, mintaqaning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga qodir bo‘lgan rivojlangan ishlab chiqaruvchi kuchlarni tashkil etishdan iboratdir.

Mintaqani rivojlantirishda davlatning iqtisodiy xavfsizligi tizimi ishlab chiqarishni moddiy ta’minlash, ishchi kuchining holati, asosiy ishlab chiqarish fondining zamonaviyligi, ilmiy tadqiqotlar, texnologik yangiliklar va innovatsion ishlanmalar sohasining rivojlanganligi, ichki va tashqi bozorlarda milliy tovar va xizmatlarnig raqobatbardoshligi hamda sotilishi imkoniyatlari kabi tarkibiy elementlarning yig‘indisini ifodalaydi.

Umuman, mintaqani rivojlantirishda davlatning iqtisodiy xavfsizligi komponentlari quyidagilardan iborat:

- mintaqa sanoatining salohiyati;
- mintaqada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning rivojlanganlik darajasi;
- tabiiy resurslarning zahiralari;
- mintaqaning geografik joylashuvi;
- mintaqaning ijtimoiy-demografik rivojlanish darajasi;
- mintaqa iqtisodiyotini boshqarish, tartibga solish darajasi va samaradorligi.

Mintaqani rivojlantirishda davlatning iqtisodiy xavfsizligi tarkibiy elementlariga texnologik, texnik-ishlab chiqarish, valyuta-kredit, xomashyoviy, energetik, axborot xavfsizliklari kiradi.

Mintaqani rivojlantirishda davlatning iqtisodiy xavfsizligining texnologik tarkibiy qismi mintaqaning ilmiy-texnologik holatini ifodalaydi. Mintaqaning ilmiy-texnologik salohiyati fuqarolik va harbiy-mudofaaviy ishlab chiqarish sohalarida qisqa davr mobaynida eng yangi texnologik ishlanmalarni mustaqil ravishda yaratish imkoniyatiga ega bo‘lishini ifodalaydi.

Mintaqani rivojlantirishning texnik-ishlab chiqarish tarkibiy qismi tashqi iqtisodiy aloqalar buzilganida va ichki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat yomonlashganidagi salbiy oqibatlar, zarar va yo‘qotishlarning o‘rnini qoplash hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta’minalash, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo‘lgan sanoat va qurilish salohiyatini ifodalaydi.

Valyuta-kredit tarkibiy qismi mintaqaning xorijiy va mahalliy investitsiya hamda kreditlarni jalg qilish hamda ularni qaytara olish, iqtisodiy tizimining barqarorligini ta’minalash hamda noxush tashqi va ichki iqtisodiy vaziyatlarda ham moliya resurslariga bo‘lgan talab-ehtiyojlarni qondira olish imkoniyatidir.

Oziq-ovqat va xomashyoviy tarkibiy qismi mintaqa iqtisodiyotining samarali faoliyatini tashkil etish va aholi ehtiyojlari uchun zarur hajmlarda oziq-ovqat va xomashyo bilan ta’minalanganligini ifodalaydi. Mintaqaning oziq-ovqat va xom ashyo resurslari importiga o‘ta darajada bog‘liq emasligi, o‘zini-o‘zi

ta'minlash imkoniyatiga egaligi, bu borada mustaqilligini va iqtisodiy jihatdan xavfsizligini ifodalaydi.

Mintaqani rivojlantirishda energetik tarkibiy qismi mintaqa iqtisodiyotining energiya tashuvchilari bilan ichki iste'molini o'zi qondira olishini, mintaqa iqtisodiyotning energiya resurslariga tashqi bozorlarda narxlar o'zgarishlariga moslasha olishini ta'minlaydi.

Ekologik tarkibiy qismi mintaqa iqtisodiyotining shunday holatiki, unda mintaqaning iqtisodiy salohiyati ekologik muammolarni o'z vaqtida hal etish, tashqi atrof muhitning salbiy ta'sirini yumshatish, ekologik nazoratning samarali tizimini shakllantirish va amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mintaqani rivojlantirishda axborot tarkibiy qismi mintaqa iqtisodiyoti bilan o'zaro xorijiy hamkorlar bilan ishlab chiqarish, ilmiy texnikaviy, tijorat ma'lumotlarini almashtirish hamda ishlab chiqrishning texnologik va tijorat sirlarini himoyalashning samarali tizimining shakllanganligini anglatadi.

Mintaqani rivojlantirishda davlatning iqtisodiy xavfsizligi mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatining barqarorligini ta'minlashda o'z ifodasini topadi.

## **15.2. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi tahdidlar va omillar**

Mintaqa iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi tahdidlar ichki va tashqi tahdidlar guruhiga ajratiladi. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligiga tashqi tahdidlarga quyidagilar kiradi:

- mintaqa iqtisodiyoti va uning eng muhim sohalarining global tashqi iqtisodiy infratuzilma o'zgarishlariga bog'liqligi;
- mintaqaning asosiy turdag'i iste'mol va oziq-ovqat, boshqa turdag'i mahsulotlar importiga bog'liqligi;
- xorijiy korxonalarining mintaqadagi mahalliy korxonalarini ichki va tashqi bozolardan siqib chiqarishga urinishlari;
- mintaqaning qarz miqdorini oshib borishi.

Mintaqa iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki tahdidlar birinchi navbatda fuqarolik jamiyatiga ta'sir etuvchi

omillar, ya’ni mintaqqa aholisining turmush darajasi va sifatining pasayishi, iqtisodiy va moliyaviy inqirozlar, jinoyatchilik darajasining o’sishi, millatlararo nizolar sababli vujudga keladi. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligiga ichki tahdidlarni quyidaglar tashkil etadi:

- iqtisodiy o’sish sur’atlari va rivojlanishning pasayishi;
- iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining deformatsiyalashuvi;
- iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash uchun mahalliy byudjet moliyaviy salohiyatning etarli emasligi;
- mintaqada moliya bank tizimining etarli darajada rivojlanmaganligi;
- aholining bank tizimiga ishonchining pastligi;
- investitsiyaviy va innovatsion faoliyatning pasayishi, ilmiy texnika salohiyatining past darajadaligi;
- mintaqqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligi pasayishi;
- mintaqada korrupsiya, iqtisodiy jiyanchilik va huquqbuzarliklarning kuchayishi;
- mintaqada aholi mulkiy tabaqalanishining kuchayishi;
- aholi va mehnat resurslari sonining qisqarishi, aholi tarkibida qariya va pensionerlar ulushining kattaligi, demografik yuklamaning o’sib borishi;
- ijtimoiy soha rivojlanishi sur’atlarining pasayishi, ta’lim va sog’liqni saqlash xizmatlari sifatining yomonligi;
- uy-joy sharoitlarining yomonlashuvi, oziq-ovqat bilan ta’minlanishining yetarli emasligi;
- huquqiy, mehnat, moliyaviy, shartnomaviy intizomning pastligi;
- mintaqada soliq yukining yuqoriligi tufayli aholi o’rtasida daromadlarni yashirish va soliqlarni to’lashdan bo‘yin tov lashning kuchayishi va h.k.

Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ichki omillariga iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy omillar guruhlariga ajratish mumkin (8-jadval).

## 8-jadval

### Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ichki omillari

Nº	Omillar guruhi	Omillar mazmuni
1.	Iqtisodiy omillar	<ul style="list-style-type: none"> <li>- mintaqa iqtisodiyotining tarkibi</li> <li>- mintaqa iqtisodiyotining monopollashuv darajasi</li> <li>- ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi</li> <li>- mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligi</li> <li>- sanoat ishlab chiqarishning texnologik bazasi</li> <li>- moliyaviy tizimning holati</li> <li>- mintaqaning investitsiya siyosati</li> </ul>
2.	Tashkiliy omillar	<ul style="list-style-type: none"> <li>- mintaqa iqtisodiyotini boshqarish tizimi holati va samaradorligi</li> <li>- mintaqada infratuzilma obyektlarining holati</li> <li>- iqtisodiy resusrlarni xo'jalik oborotiga jalb etish samaradorligi</li> <li>- mineral xamashyo bazasini razvedka qidiruvni tashkil etish darajasi</li> <li>- mintaqada ilmiy texnika taraqqiyotini istiqbolli yo'nalishlarda rivojlantirishni tashkil etish</li> <li>- mintaqani oqilona boshqarish qarorlarni qabul qilish</li> </ul>
3.	Huquqiy omillar	<ul style="list-style-type: none"> <li>- mintaqaning rivojlantirishiga oid huquqiy me'yoriy qonunchilikni takomillashtirish</li> <li>- iqtisodiyotdagи monopolizmga barham berish, tartibga solish</li> <li>- huquqiy va ijrochilik intizomi</li> <li>- iqtisodiyotdagи korrupsiyaga va jinoyatchilikka qarshi kurash holati</li> <li>- moliyaviy mablag'lar harakatini nazorat qilish va boshqalar</li> </ul>
4.	Ijtimoiy omillar	<ul style="list-style-type: none"> <li>- mintaqada ijtimoiy sharoitlarning mavjudligi</li> <li>- mintaqada fuqarolarning daromadlar bo'yicha tabaqlanishi</li> <li>- mintaqada ijtimoiy ziddiyatlarning vujudga kelishi</li> </ul>

Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar guruhiga savdo-iqtisodiy, valyuta-moliyaviy va marketing omillari kiradi (9-javdal).

**9-jadval****Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning tashqi omillari**

<b>Nº</b>	<b>Omillar guruhi</b>	<b>Omillar mazmuni</b>
1.	<b>Savdo-iqtisodiy omillar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- mintaqada import tovarlari tarkibi (oziq ovkat va yuqori texnologik tovarlar ulushi)</li> <li>- mintaqaning strategik tovarlar importiga bog'liqlik darajasi</li> <li>- mintaqaning eksport tarkibi (raqobatdosh tovarlar ulushi)</li> <li>- mintaqada ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish bozorlarini nazorat qilish, ekport-import operaiyalarni bojxona nazorati</li> </ul>
2.	<b>Valyuta-moliyaviy omillar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- mintaqada moliya va qimmatli qog'ozlar bozorining holati</li> <li>- moliyaviy oqimlarning asosiy yo'nalishlari va hisob kitob munosabatlarining xarakteri</li> <li>- mintaqaning mahalliy byudjeti kamomadi darajasi</li> <li>- mintaqada bank tizimining holati</li> </ul>
3.	<b>Marketing omillar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- mintaqadan jahon bozorlariga eksport tovarlarini yo'naltirish va ushbu tovarlarning raqobatdoshligi</li> <li>- mintaqada ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish bozorlarini egallah imkoniyatlari</li> </ul>

Ushbulardan kelib chiqqan holda, mintaqqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning maqsadi, vazifalari va asosiy yo'nalishlarini, dastak va vositalarini o'z ichiga olgan majmuaviy mexanizmni shakllantiradi va amalga oshiradi.

### **15.3. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da mamlakatimizda mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha belgilangan vazifalari**

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi dunyoda o‘z xalqi va kelajagi uchun qayg‘uradigan har bir davlat yuksak mas’uliyatni anglagan holda o‘z taraqqiyot yo‘lini qat’iy belgilab oladi. Mustaqil O‘zbekistonning ham oldida o‘tgan davr mobaynida bosib o‘tgan tarixiy yo‘li va to‘plagan tajribasini xolisona baholash, mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarini tahlil qilish hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifasi turgan edi. Mazkur vazifani amalga oshirish yo‘lida aholining keng qatlami, jamoatchilik va ishbilarmon doiralar vakillari, davlat organlarining rahbarlari va mutaxassislari bilan amaliy suhbat hamda muhokamalar olib borildi. Qonun hujjatlari, mahalliy va xalqaro tashkilotlarning axborot-tahliliy materiallari, ma’ruzalar, tavsiyalari va sharhlari o‘rganildi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi.

Kelib tushgan takliflarni jamlash, chuqur o‘rganish hamda umumlashtirish asosida mamlakatning yaqin kelajakdagi taqdirini belgilash, barqaror va muvozanatli rivojlanishini ta’minlash, o‘z ichiga o‘rtta va uzoq muddatli maqsad va vazifalar tizimini mujassam etuvchi, istiqboldagi harakatlarni rejalashtirishga qaratilgan hujjat 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi hamda boshqa yana bir qator dasturlar qabul qilindi.

Harakatlar strategiyasi qabul qilingandan so‘ng davlat hokimiysi va boshqaruvi, sud-huquq, qishloq xo‘jaligi, neft va gaz, kimyo, konchilik, energetika, qurilish, arxitektura, yo‘l-transport kommunikatsiyasi, farmatsevtika, to‘qimachilik, xizmat ko‘rsatish, turizm, axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid Davlat rahbarining qator tashabbuslari amalga oshirildi. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlari kuchaytirildi.

Qabul qilingan davlat va hududiy dasturlar doirasida odamlarni o‘ylantirayotgan, kundalik tashvishlari bilan bog‘liq muammolar echimini topish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar ko‘rildi. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash, davlat boshqaruviga yangicha uslublarni joriy etish ishlari hamda jamiyat boshqaruvini takomillashtirish, shuningdek, odamlarga munosib turmush sharoitlarini yaratish bilan bog‘liq vazifalar samarali tarzda amalga oshirildi.

Eng asosiysi, jamiyat hayotining barcha sohalarini yanada erkinlashtirish va isloh qilish jarayonlari izchil davom ettirildi. Qaysi soha yoki tarmoqda bo‘lmisin, dolzarb muammolar aholi bilan ochiq muhokama qilinib, ularning echimini topishga erishildi. Barcha qarorlarni xalqning fikr-mulohazalari va murojaatlari asosida qabul qilish esa, islohotlarning tez va samarali amalga oshirilishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Shu bilan birga, davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari, jumladan, iqtisodiyot, bank-moliya sohasi idoralari, kommunal xizmat, ichki ishlar, tashqi ishlar, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, sud-huquq tizimining parlament va mahalliy kengashlarda hisobot va axborot berish tartibining yo‘lga qo‘yilishi orqali jamoatchilik nazoratini amalda joriy etishga erishildi.

Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilgan tub islohotlar va tadbirlar kishilarda ishchanlik kayfiyatini yanada kuchaytirdi va fuqarolik pozitsiyasini qat’iy mustahkamladi, davlat va jamiyat boshqaruvida har bir kishining ishtirokini kengaytirdi, mansabdar shaxslar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarda odamlarning manfaati yanada kengroq e’tirof etila boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasini “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning 5 bo‘limida mamlakatimiz xavfsizligini ta’minlash vazifalari belgilangan. Ushbu belgilangan vazifalar va shu vazifalar ortidan amalga oshirilishi lozim va xozirgi kunga qadar amalga oshirilgan chora-tadbirlarni ko‘rib chiqamiz.

Harakatlar strategiyasining 5-bo‘lim 5.1-bandida 6 ta asosiy milliy va mintaqaqiy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan vazifalar

mavjud. Jumladan, ushbu bandda “Mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar qudratini oshirish” vazifasi belgilangan. Ushbu vazifani ijro etish Mudofaa vazirligi, DXX, Mudofaa sanoati davlat qo‘mitasi, FVV, Milliy gvardiya, Davlat bojxona qo‘mitasi va boshqa manfaatdor vazirliklar belgilangan. Vazifani bajarish orqali:

- davlat harbiy xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yangi qonun hujjatlarini hisobga olib, Qurolli Kuchlarni qo‘llashni rejorashtirishning huquqiy asoslarini yangilash;
- Qurolli Kuchlar jangovar tarkibi va tuzilishi sifat ko‘rsatkichlarini takomillashtirish;
- harbiy kadrlarni o‘qitish va qayta tayyorlash, harbiy xizmatchilarining professional tayyorgarligini tashkil etishning innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqish;
- Qurolli Kuchlar milliy ruhini yuksaltirish, askar, serjant va ofitserlarni barkamol etib tarbiyalash tizimini takomillashtirish;
- mamlakat mudofaasini boshqarish milliy markazini yaratish va faoliyatini ta’minlash;
- ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida qo‘shinlarni boshqarish tizimini takomillashtirish;
- qo‘shinlarni 2018 - 2021 yillarda zamonaviy quroq-aslaha va harbiy texnika bilan ta’minlash, ularni modernizatsiya qilish va ta’mirlash kompleks dasturini ijro etish;
- davlat mudofaa buyurtmasi, mudofaaga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish sohasida yagona davlat siyosatini olib borish nazarda tutiladi.

Ushbu bandda “Davlat chegarasidan o‘tkazish punktlarida chegara nazorati sifatini oshirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish” vazifasi belgilangan. Ushbu vazifani ijro etish DXX, Mudofaa vazirligi, IIV, TIV, Davlat bojxona qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Davlat personallashtirish markazi belgilangan. Vazifani bajarish orqali:

- DXX Chegara qo‘shinlari nazoratchilar tarkibini mobil videokameralar bilan bosqichma-bosqich ta’minlash;
- zamonaviy talablarga javob beruvchi «shaxsni aniqlashtirish» tizimini joriy etish;

- chegara nazoratidan o‘tish jarayoni muddatini qisqartirishga qaratilgan pasport va chegara nazorati mexanizmini avtomatlashtirish, «elektron darvozalar»ni (E-GATE) bosqichma-bosqich joriy etish nazarda tutiladi.

Ushbu bandda “Mamlakatning axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ishlarning samaradorligini oshirish” vazifasi belgilangan. Ushbu vazifani ijro etish «O‘zaloqanazorat» inspeksiyasi, DXX, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Bosh prokuratura, IIV, Matbuot va axborot agentligi, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi belgilangan. Vazifani bajarish orqali:

- «raqamli kriminalistika» ixtisoslashtirilgan laboratoriyasini yaratish;

- milliy kibermakonda axborot xavfsizligi hodisalariga tezkor chora ko‘rish bo‘yicha «UZCERT» xizmatini takomillashtirish;

- axborot xavfsizligi talablariga muvofiq davlat organlarida qo‘llaniluvchi dasturiy ta’minotni sertifikatsiyalash mexanizmini tatbiq etish;

- kiberjinoyatlardan saqlanish va ularning oldini olish, shuningdek mazkur sohada etuk mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish nazarda tutiladi.

Ushbu bandda “Xorijiy sheriklar bilan harbiy va harbiy-texnik hamkorlikni faollashtirish tizimini takomillashtirish” vazifasi belgilangan. Ushbu vazifani ijro etish Mudofaa vazirligi, DXX, Milliy gvardiya, TIV, Davlat bojxona qo‘mitasi belgilangan. Vazifani bajarish orqali:

- xorijiy sherik davlatlar bilan birgalikda xalqaro harbiy va harbiy-texnik hamkorlikning miqyosi va geografiyasini kengaytirish;

- etakchi xorijiy davlatlarning qo‘sishnlari, shuningdek oliy harbiy ta’lim muassasalari va tadqiqot markazlari bilan birgalikda harbiy xizmatchilarni o‘qitish va malakasini oshirishni tashkil etish;

- Qurolli Kuchlar jangovar-xizmat faoliyatida xorijiy mamlakat qo‘sishlarining ilg‘or tajribasini chuqr o‘rganish va keng tatbiq etish nazarda tutiladi.

Ushbu bandda “O‘zbekistonning chegara oldi tumanlarida xavfsizlikni ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasida qonun buzilishini bartaraf etish, aniqlash va oldini olish

tizimini takomillashtirish” vazifasi belgilangan. Ushbu vazifani ijro etish DXX, IIV, Mudofaa sanoati davlat qo‘mitasi, Bosh prokuratura belgilangan. Vazifani bajarish orqali:

- chegara oldi hududlarining aholisi bilan ishlashda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, Musulmonlar idorasi vakillari va boshqa jamoat tashkilotlarining DXX Chegara qo‘shinlari bilan hamkorligini kuchaytirish;

- jamoat tashkilotlari xodimlarini chegara oldi tumanlarda huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha tizimli o‘qitish;

- O‘zbekistonning chegara oldi tumanlari aholisini terrorchilik va diniy ekstremistik tashkilotlarning g‘oyalari ta’siridan saqlash, qonun buzilishi va jinoyatchilik holatlarini kamaytirish choralarini amalga oshirish nazarda tutiladi.

Ushbu bandda “Markaziy Osiyo davlatlari bilan chegara o‘tkazish punktlarini takomillashtirish ishlarida o‘zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish” vazifasi belgilangan. Ushbu vazifani ijro etish Davlat bojxona qo‘mitasi, DXX, IIV, Bosh prokuratura, TIV belgilangan. Vazifani bajarish orqali:

- fuqarolar va transport kompaniyalariga chegara oldi o‘tkazish punktlarini kesib o‘tishda qulay sharoitlar yaratish;

- chegara oldi o‘tkazish punktlarining o‘tkazish qobiliyatini kengaytirish;

- bojxona nazorati samaradorligini oshirish;

- Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida tashqi savdo aylanmasi va o‘zaro munosabatlarni yangi bosqichga ko‘tarish nazarda tutiladi.

Ushbu bandda “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash” vazifasi belgilangan. Ushbu vazifani ijro etish IIV, Milliy gvardiya, DXX, FVV, Bosh prokuratura, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari belgilangan. Vazifani bajarish orqali:

- jamoat tartibini saqlash tadbirlariga jalb qilinayotgan kuch va vositalar maqsadsiz sarflanishining oldini olish maqsadida IIV, Milliy gvardiya, DXX, FVV, prokuratura, hokimliklarning vazifa hamda majburiyatlarini aniq taqsimlash va belgilab berish nazarda tutiladi.

O‘zbekistonning ko‘p millatli xalq ekanligi, ularning hayotiy ehtiyojlari va intilishlarini hisobga olgan holda, juda qisqa muddatda

mavjud vaziyat tanqidiy tahlil qilib chiqildi, zamon talablaridan kelib chiqqan holda yangi istiqbolli yo‘nalishlar belgilab olindi.

Harakatlar strategiyasining 5-bo‘limida keltirilgan xavfsizlik vazifalarini joriy davrgacha bajarilishi asosida ko‘plab ishlar amalga oshirildi. “Armiya va xalq birligi” tamoyiliga tayanib, respublika maktablaridan tortib oliy harbiy ta’lim muassasalarigacha o‘ziga xos noyob – uzlusiz harbiy-vatanparvarlik ta’limining yaxlit tizimi yaratildi.

Yangi Qurolli Kuchlar Akademiyasi shakllantirildi, harbiy bilim yurtlari faoliyati takomillashtirildi, ayrim litsey va kollejlarda yigitlarni oliy harbiy bilim muassasalariga tayyorlash bo‘yicha ixtisoslik joriy qilindi, Qurolli Kuchlar tizimida Yoshlar ittifoqi birlamchi bo‘linmalari tuzildi.

Milliy mudofaa-sanoat majmuasi shakllantirildi. Bu ishda birinchi qadam sifatida respublikaning barcha ixtisoslashtirilgan korxonalarini birlashtirgan Mudofaa sanoati davlat qo‘mitasi tuzildi. Xorijiy hamkorlar bilan birqalikda harbiy va boshqa turdagи mahsulotlarni ishlab chiqaradigan sanoat quvvatlari yaratish choralar ko‘rildi.

Xozirgi tahlikali davrda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojaro va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi mavjudligi, bizdan doimiy ogoh va hushyor bo‘lishni talab etmoqda. Shu borada O‘zbekiston chegaralarining xavfsizligi va daxlsizligini ta’minalash, mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, yurtimiz ostonasiga hech qanday tahdidlarni yaqin keltirmaslik kabi hal qiluvchi vazifalar belgilangan.

#### **15.4. O‘zbekistonda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolli dasturlari**

O‘zbekistonda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolli dasturlari o‘z oldiga hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, barqarorlikni va iqtisodiy o‘sish bararorligini ta’minalash, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini, investitsion va eksport salohiyatini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va himoya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mehnat bozorida keskinlik darajasini pasaytirish, aholi

daromadlari o'sishi va kam ta'minlanganlikni qisqartirish nazarda tutiladi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolli dasturlari mintaqalarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora tadbirlarini ishlab chiqish mamlakatda amalga oshirilayotgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasiga, Hukumatning moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarning barcha jihatlarini isloh qilish, tarmoqlar va hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish va ijtimoiy masalalarni hal etish bilan bog'liq qabul qilingan qarorlariga asoslanadi. Rivojlantirishning istiqbolli dasturlarini ishlab chiqish zarurati uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini cheklaydigan mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni, xavf-xatar va tahdidlarni hal etish, shuningdek, iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning hozirgi holatidan barqaror rivojlanishga o'tishning maqsadlari va ustuvorliklarini belgilash va aholi hayot darajasini oshirish bilan bog'liqdir.

Rivojlantirishning istiqbolli dasturlarida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan potensial xavf-xatar va tahdidlar tahlil qilingan. Xavf-xatarlarni tahlil qilishning asosiy xulosalari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, jahon iqtisodiyotining rivojlanishi ishlab chiqarish omillari samaradorligini oshirshga, shu jumladan, inson kapitalini jamlash va rivojlantirishga qa'tiy talablar qo'yadigan global bozorlarda raqobatning kuchayishi bilan birga kechadi.

Ikkinchidan, mintaqalarda mehnat resurslari tez o'sishi sharoitlarida bandlikni ta'minlash muammosi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni talab qiladi. Ayni vaqtida asosiy tarmoqlarning texnologik bazasi qoloqligi, eksportning xomashyoviy yo'naltirilganligi va yalpi qo'shilgan qiymatda qishloq xo'jaligining yuqori ulushi, xufiyona iqtisodiyot ko'lami yuqoriligi, mehnat samaradorligining pastligi, energiya va resurslar sarfining yuqoriligi bilan tavsiflanadigan mintaqaviy

iqtisodiyotining mavjud tuzilmaviy deformatsiyasi mavjud muammolarni hal etishning uzoq muddatli xususiyatini taqozo etadi.

Uchinchidan, bozor iqtisodiyoti amal qilishini ta'minlashning samarali vositalarini joriy etish, shu jumladan, xususiy mulkni himoya qilish va yer munosabatlarini tartibga solish, davlat organlari ishi samaradorligini oshirish, korrupsiyaga barham berish va moliya bozori rivojlanishini ta'minlashning samarali mexanizmlarini joriy etish amalga oshiriladi.

To'rtinchidan, mintqa iqtisodiyoti inson kapitalining sifati yuqori emasligi, yaratilgan daromadlar taqsimlanishidagi tengsizlik, zaif ijtimoiy himoya va ilmiy-texnik salohiyat, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish va ularning kamayishi bilan birga kechayotgan inklyuzivlikning past darajasi bilan tavsiflanadi.

Beshinchidan, mavjud muammolar ta'lim tizimining zarur moddiy-texnika bazasini ta'minlashdagi kamchiliklar bilan birgalikda tayyorlanayotgan kadrlarning darajasi pastligida va har xil ixtisoslikdagi kadrlarga talabning hududiy muvozanatli emasligida o'z aksini topmoqda. Ilmiy muassasalar bilan iqtisodiyotning real sektori o'rtasidagi o'zaro aloqaning zaifligi innovatsiyalarni joriy etish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish imkoniyatlariga to'sqinlik qilmoqda.

Oltinchidan, global iqtisodiy tahdidlar va industrlash-tirishning o'sishi, atmosferaga chiqarib tashlanadigan tashlama-larning ko'payishi, tabiiy xomashyoning yangi konlari o'zlashtirilishi natijasida noxush uzoq muddatli iqlim o'zgarishlari, shuningdek, tabiiy muhit va suv resurslarining kamayishi (shu jumladan, ekin maydonlarining qisqarishi va yer maydonlari unumdarligining tushib ketishi) iqlim o'zgarishlarining noxush trendi namoyon bo'lishida aks etadi. Bu kasalliklar darajasi o'sishiga, suv ta'minotiga va umuman hudud iqtisodiyoti rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish sohasida huquqiy baza va qonunlarni hamda boshqa normativ-

huquqiy hujjatlarni amalga oshirish mexanizmalari takomil-lashtirilmaganligi saqlanib qolmoqda, mahalliy va davlat boshqaruvi tizimida javobgarlikning tegishli tizimisiz boshqarish va uning qo'llanilishi, nazorat qilinmasdan boshqarishning to‘g‘ridan-to‘g‘ri vositalari ustunlik qiladi.

Hududlarda mavjud davlat korxonalari moliyaviy holatining zaifligi, to‘lov munosabatlarining buzilishi, o‘z aylanma mablag‘lari surunkali taqchilligi oqibatida sohalar ishidagi uzilishlar, xususiy lashtirish jarayonlari sekinlashishi va tadbirkorlik faoliyati erkinligi cheklanishi oqibatlari hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishi tendensiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan istiqbolli dasturlar, mintaqalarning iqtisodiyotiga salbiy tashqi omillarning ta’sirini yumshatish choralar, demografik tendensiyalar va mehnat bozoridagi keskinlik, hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirish zarurligi, bandlik o‘sishini ta’minalash va aholi hayoti darajasini yaxshilash mintaqalarning iqtisodiyotini rivojlanishning barqaror yo‘liga o‘tkazish va aholi farovonligini oshirish masalalarini kompleks hal etishda muhim yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Hududlarni rivojlantirish bo‘yicha istiqbolli dasturlarda hududlarni barqaror rivojlantirish maqsadlari va vazifalariga, aynan quyidagilar inobatga olingan:

1. Hududlarda kam ta’manganlik darajasini qisqartirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash, qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishga ko‘maklashish, sog‘lom turmush tarzini yuritish, barchani qamrab oladigan sifatli ta’limni ta’minalash, butun umr davomida ta’lim olish imkoniyatini rag‘batlantirish, gender tenglik vazifalarini hal etish;

2. Hududlarda suv resurslarini saqlash va oqilona foydalanish, sanitariyani rivojlantirish, barcha uchun qimmat bo‘lmagan, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan foydalanishni ta’minalash;

3. Hududlarda unumli bandlikni ta’minalash, puxta infratuzilmani yaratish keng qamrovli va barqaror

industrlashtirish va innovatsiyalarga ko‘maklashish asosida barqaror va umum qamrovli iqtisodiy o‘sishga ko‘maklashish;

4. Hududlarda mavjud shaharlar va aholi punktlarining ochiqligi, xavfsizligi, gavjumligi va ekologik barqarorligini ta’minlash, shuningdek, iste’mol va ishlab chiqarishning oqilona modellariga o‘tish, iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurashishning shoshilinch choralarini ko‘rish.

Istiqlolli dasturlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yo‘nalishlari bo‘lib xizmat qiladigan hududlarni o‘rtacha va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning maqsadlari, ustuvorliklari va vazifalarini belgilaydi va asoslaydi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash ham muhim yo‘nalish hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, ular faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan, soliq tizimining isloh qilinishi, ruxsat berish tartib-tamoyillarining soddalashtirilishi, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lidan rejali tekshirishlarning bekor qilinishi kabilar shular jumlasidandir. Bundan tashqari oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan aniq maqsadli “Har bir oila – tadbirkor” dasturi ham qabul qilindi.

Ma’lumki, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida 2019 yil 14 mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda hozirgi kunda aholini tadbirkorlik faoliyatiga kengroq va faol jalb etishga to‘sinqinlik qiluvchi, birinchi navbatda davlat organlarining tadbirkorlar bilan muloqot qilishning amaliy va shaffof tizimi mavjud emasligi bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha salbiy omillar saqlanayotganligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bunday muammolarning mavjudligi tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlanishiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Bu kabi muammolarni bartaraf etish esa

tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlarni baholashni zarurat etadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda kichik biznesni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat maqsadli dasturlarining samaradorligini baholashning turlicha uslubiy yondoshuvlar mavjud. Xususan, bu borada S.A.Popov muammoga mulütiplikativ samaradorlik printsipi nuqtai nazaridan yondoshib, "... davlat siyosati natijador va samarador deb hisoblanishi mumkin, agar uning vazifalaridan birining hal etilishi, parallel ravishda boshqalarining ham hal etish imkonini bersa"<sup>37</sup>. Xuddi shu tamoyilga ko'ra, kichik biznesning rivojlanishi bandlik darajasini oshiradi, bu o'z navbatida daromadlarning ko'payishiga olib keladi. Aholi daromadlarining oshishi tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabning ortishiga, bu esa o'z navbatida taklifning ortishiga olib keladi. Shu tariqa ushbu jarayonlarning ketma-ket va uzviy bog'liqlikda davom etishi, pirovad maqsadga ya'ni, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholi turmush sifatining oshishiga olib keladi.

Bu esa kichik tadbirkorlikning katta imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish va uni har tomonlama qo'llab-quvvatlashni zarurat etadi. Ma'lumotlarga ko'ra, kichik tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga 2018 yil yakuniga ko'ra 30648,8 mlrd.so'm kredit ajratilgan, shundan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishga 668,4 mlrd.so'm yoki ajratilgan jami kreditlarning 21,8 foizi to'g'ri keladi. Xuddi shu tahlil davrida, Samarqand viloyati tijorat banklari tomonidan "Har bir oila – tadbirkor" dasturi bo'yicha 4723 ta loyiha 101 milliard 699 million so'm miqdorida kreditlar ajratilgan<sup>38</sup> (10-jadval). Agar ushbu ajratilgan kredit mablag'larini har bir oilaga taqsimlasak 21 million 532 ming so'mni tashkil etadi. Bular natijasida, yangidan tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2,3 baravarga o'sgan<sup>39</sup>.

Oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari natijadorligini baholash mezonlari quyidagi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi (10-jadval).

<sup>37</sup> Попов С.А. Комплексный анализ оценки эффективности управления программами поддержки малого предпринимательства. Журнал "Фундаментальные исследования", 2013. - № 10. – с. 249.

<sup>38</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank ma'lumotlari. ([www.cbu.uz/uzc/publikacii/buleten/](http://www.cbu.uz/uzc/publikacii/buleten/)).

<sup>39</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 maydagi "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF – 5718-sonli Farmoni.

## 10-jadval

### **Oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari natijadorligini ifodalovchi baholash mezonlari va ko'rsatkichlari tizimi**

<b>№</b>	<b>Mezon va ko'rsatkichlar</b>	<b>2018 yil</b>
1.	Oilaviy korxonalar soni, (birlik)	12184
2.	Oilaviy tadbirkorlik hisobiga yaratilgan ish o'rnlari, (ming ta)	358,56
3.	Oilaviy korxonalarining maxsulot sotishdan tushgan sof tushumi,(mln. so'm)	679320,3
4.	Bitta oilaviy korxonaga to'g'ri keladigan maxsulot sotishdan tushgan sof tushum, (mln. so'm)	141,8
5.	Oila daromadlari tarkibida mulk va tadbirkorlik daromadlari, (%da)	55,2
6.	Oilalarning asosiy kapitalga kiritgan investitsiyalarilarining barcha investitsiyalar hajmidagi ulushi, (%da)	12,6 % (8.962 mlrd. so'm)
7.	Aholining banklardagi omonatlari YaIMga nisbatan, (% da)	12,4

Ushbu 10-jadval ma'lumotlari oilaviy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rni hamda uning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini ham ifoda etadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilda mamlakatimizda 12184 ta oilaviy tadbirkorlik subyektlari faoliyat ko'rsatib, ularning maxsulot sotishdan tushgan sof tushumi 679320,3 mln.so'mni (bitta oilaviy korxonaga to'g'ri keladigan maxsulot sotishdan tushgan sof tushum 141,8 mln.so'm) tashkil etgan. Ular hisobiga yaratilgan ish o'rnlari 358,56 ming tani tashkil etadi. Shuningdek, oila umumiy daromadlari tarkibida mulknishlatish va tadbirkorlik faoliyati hisobidan olingan daromadlari 55,2 foizni tashkil etgan. Bu raqamlardan ko'rinish turibdiki, oilaviy tadbirkorlik nisbatan kichik xo'jalik va kamgina mulkga ega bo'lishi bilan birga milliy iqtisodiyot rivojida o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda oilaviy tadbirkorlikning xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish vositalari shaklidagi mulklerining yildan-yilga o'sishi, ular faoliyatining raqobatbardoshligiga asos bo'lmoqda. Oila xo'jaliklarining asosiy kapitalga kiritgan investitsiyalarilarining barcha investitsiyalar hajmidagi ulushi 2018 yilda 12,6 % yoki 8,962 mlrd.so'mni tashkil etgan. Xuddi shunday o'sish tendentsiyasini aholining banklardagi jamg'armalarida kuzatish mumkin. Shu davrda aholining banklardagi omonatlari YaIMga nisbatan 12,4 foizni tashkil qilgan. Oila xo'jaliklari jamg'armalari miqdorining ko'payishi esa, ularning asosiy kapitalga kiritayotgan investitsiyalar hajmini oshirish imkonini bermoqda. Ushbu tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, oila xo'jaliklari daromadlarining o'sishi, ularning jamg'armalari hajmiga va investitsion imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa oilaviy tadbirkorlikni rivojlanishining ilk bosqichlari algoritmini ifoda etadi. Bu jarayonning muvafaqiyatli va uzluksiz kechishi davlat qo'llab-quvvatlash tizimining natijadorligi bilan baholanadi.

Ko'rinib turibdiki oilaviy tadbirkorlikning bunday imkoniyatlari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni muvafaqiyatli kechishida muhim ahamiyatga ega. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari ijrosini baholash imkonini beradi. Oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga ajratilgan mablag'lar natijadorligini quyidagi ko'rsatkichlarga nisbatan baholashni taklif etamiz:

- oilaviy korxonalar soni;
- yaratilgan ish o'rnlari soni;
- oila umumiy daromadlari tarkibida mulk va tadbirkorlik daromadlari hissasi;
- oilaviy korxona sofi tushumi;
- yalpi hududiy maxsulotdagi ulushi.

Ushbu natijadorlikni baholash ko'rsatkichlarining har biri (1) – formula yordamida aloxida xisoblanadi. Biroq dasturning umumiy natijadorligi ( $N_{\text{дастур}}$ ) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$N_{\text{дастур}} = \frac{N_{\text{ОК.лар сохи}} + N_{\text{ишикка}} + N_{\text{даромад удуши}} + N_{\text{софи тушум}} + N_{\text{ЯХМ}}}{5}; \quad (3)$$

Iqtisodiy adabiyotlarda samaradorlik kategoriyasining ijtimoiy-iqtisodiy moxiyatini ochib berishning turli yondoshuvlari mavjud. Bunday yondoshuvlarning xilma-xilligi o'rganilayotgan obyektning

xususiyatidan kelib chiqadi. Samaradorlikni klassik ta’rifiga ko‘ra, samaradorlik - natijaning xarajatga nisbati bilan aniqlanadi<sup>40</sup>. Shunga ko‘ra, ushbu nisbat ahamiyati qancha katta bo‘lsa, samaradorlik ham shuncha yuqori bo‘ladi. Bu quyidagi formulada hisoblanadi:

$$\mathfrak{D} = \frac{P}{3}; \quad (4)$$

Bu yerda,  $\mathfrak{Y}$  – ishlab chiqarish natijalari,  $\mathfrak{D}$  – ushbu natijalarga erishish uchun qilingan xarajatlar.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda belgilangan huquqiy me’yor va normalar asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu normalar, o‘z navbatida, tovar va xizmatlar, intellektual mehnat natijalari, shuningdek, jismoniy hamda huquqiy shaxslarning mamlakatlararo harakat yo‘nalishlari, shakllari usullari, shartlarini belgilab beradi.

Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minalash uchun davlat tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soladi. Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish mexanizmi iqtisodiy va huquqiy-ma’muriy usullarni o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy tartibga solish usullari bojxona to‘lovlari, yig‘imlari, qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlardan iborat.

Huquqiy-ma’muriy usullar litsenziyalash, kvotalash, tovar sifatini sertifikatsiyalash, ayrim tovarlar eksporti va importiga davlat monopoliyasini o‘rnatish, shuningdek, bojxona chegaralari orqali tovarlar, kapitallar va xizmatlarning o‘tib turishi bilan bog‘liq tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

## **17.2. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ekonometrik modellashtirish**

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ekonometrik modellashtirishning asosiy masalasi eng avvalo milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatuvchi tahdidlarni va shu tahdidlarning ta’sir ko‘lamini aniqlash, kelgusida milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalash imkoniyatlarini prognoz qilishdan iborat. Modellashtirish jarayoni, ob’yektni yoki jarayonni boshlang‘ich o‘rganish, uning faoliyat xususiyatlari va belgilarini ajratish, modellashtirish natijalarini ob’yekt haqidagi haqiqiy ma’lumotlar bilan taqqoslash, modelga tuzatish va oydinlashtirish kabilar asosida model qurishni tashkil etadi. Model milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatuvchi tahdidlarning ta’sir ko‘lamini va kelgusida xavfsizlikni ta’minalashni prognozlash hamda ilmiy anglashning muhim vositasi bo‘lib xizmat qilishi lozim. Modelda ifodalanuvchi tahdidlarni, ularning mantiqiy strukturasini saqlagan

holda, guruh tahdidlarining ketma-ketligini, xavfsizlikka ta'sir ko'rsatuvchi o'zgaruvchilar va ko'rsatkichlar o'rtasidagi aloqalarni inobatga olib o'zgartirish kiritish hamda qayta ishlash muhim hisoblanadi.

Hisoblashning xavfsizlik ko'rsatkichlari modellashtirish jarayonidan oldin tahlil o'tkaziladi va bu bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi, bular:

- ishonchlilikni baholashni ta'minlovchi boshlang'ich ma'lumotlarni tizimlashtirish;
- xavfsizlikka ta'sir ta'sir ko'rsatuvchi ko'rsatkichlarni guruhlash;
- qiyoslanadigan xavfsizlik ko'rsatkichlarini yagona qiyoslanadigan qiymatga keltirish, takrorlanuvchi, to'ldiruvchi qiymatlarni tartiblash;
- xavfsilikning umumiyligi tendensiyalarini va bog'liq o'zgaruvchilarning tarkibiy o'zgarishlar dinamikasini aniqlash;
- iqtisodiy-moliyaviy ko'rsatkichlarning xavfsizlik va bog'liq o'zgaruvchilarga aloqadorligini baholash;
- xavfsizlikni ta'minlash tahlili natijasini ifodalash;
- tahlil natijalaridan foydalanib prognoz modelini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bunday ko'rsatkichlarning maqsadi milliy va mintaqaviy xavfsizlikka ta'sir ko'rsatuvchi tahdidlarni aniqlash va tahlil qilinayotgan tahdidning xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha aniq tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Ekonometrik modelda xavfsizlikka tahdidlarni tahlil qilish uchun dastlab zarur bo'lgan tahdid ko'rsatkichlar aniqlab olinadi, ushbu ko'rsatkichlar ma'lumotlar bazasida kiritiladi, shu asosda tahdidni bataraf etish bo'yicha ma'lumotlar bazasi shakllanadi. Tahlil natijalarini olishda kiritilgan ma'lumotlar bazasi va dastlabki tahlil ma'lumotlari o'zaro ma'lumotlarning to'g'riliqi bo'yicha axborot almashinuvi amalga oshiriladi. Aniqlangan tahlil natijalari zaruriy tahlil ma'lumotlarini aks ettira olmasa (noaniqlik, ishonchsizlik, xatolik) dastlabki axborot almashinuvi yordamida o'zgaruvchi ko'rsatkichlar ma'lumotlar bazasiga qayta kiritiladi. Tahlil natijalari o'zida o'zgaruvchi ko'rsatkichlarning o'zgarish darajasini va natijaviy belgini oshirishning prognoz ko'rsatkichlarini ifoda etib, dastlabki zarur ko'rsatkichlarga tahlil natijalarini o'zaro taqqoslash imkonini beradi.

Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda har qadamda o‘zgaruvchi qiymatlar bilan ish ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Iqtisodiy o‘zgaruvchilar sifat va miqdoriy xususiyatlarga ega bo‘lib, bir-biridan funksional bog‘lanish ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Iqtisodiy ko‘rsatkichlarning miqdoriy munosabatlari va funktsional bog‘lanishlarini o‘rganish ekonometrikaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ammo, iqtisodiy hodisalar va ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar hamma vaqt ham funksional ko‘rinishda ifodalanishdan yiroq bo‘lishi mumkin. Bunday holda ko‘pincha korrelyatsiya bog‘lanishlari bilan ishlashga to‘g‘ri keladi, bunday bog‘lanish shunisi bilan xarakterlanadiki, ushbu ko‘rsatkichga o‘rganilayotgan asosiy omillardan tashqari boshqa, qo‘srimcha omillar ham ta’sir ko‘rsatadi, ularni ajratish va ko‘rsatayotgan ta’siri harakatini uslubiy ajratish (izolyatsiya) imkoniyati doimo ham bo‘lavermaydi.

Bunday bog‘lanishlar korrelyatsiya va regressiya tahlili yordamida o‘rganiladi. Korrelyatsiya tahlilining zaruriy asosi bo‘lib, ommaviylik hisoblanadi: yagona yoki bir nechta ma’lumotlar asosida u yoki bu qonuniyatlarni, asosiy omillarning ta’siri aniqlashning iloji yo‘qdir. Faqat yetarli darajada katta hajmdagi ma’lumotlarga tayangan holda o‘rganilayotgan ko‘rsatkichdagi asosiy omillar ta’siri ostida o‘zgarishlarni kuzatish mumkin, bunda boshqa omillar o‘zgarmaydi deb taxmin qilinadi. Haqiqatda esa ular o‘z navbatida o‘zgaradilar, bu esa u yoki bu darajada olingan natijalarda o‘z ifodasini ko‘rsatadi. Buning oqibatida o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni to‘la ifodalab bo‘lmashligi mumkin. Korrelyatsiya tahlili katta matematik apparatga asoslanadi. Masalan, to‘g‘ri chiziqli korrelyatsiya normal tenglamalar sistemasi yechimiga asoslanadi, egri chiziqli korrelyatsiya - ikkinchi tartibli, uchinchi tartibli va n - tartibli parabolaga, giperbola tenglamalariga va boshqa turdagiligi egri chiziqli tenglamalarga asoslanadi. Korrelyatsiya tahlili faqat shunday hollarda haqiqiy natijalarga olib kelishi mumkin, qachonki uni tuzish nazariy to‘g‘ri xulosalardan kelib chiqqan bo‘lsa.

Shunday ekan, bu yerda iqtisodiy nazariyaning ustunligi saqlanib turadi. Faqat iqtisodiy hodisaning dastlabki sifatli tahlili izlanish o‘tkazilayotgan ko‘rsatkichlarni aniq belgilash, asosiy va qo‘srimcha omillarni tanlash, ob’yektiv mavjud munosabatlarning miqdoriy qiymatlarini aniqlash va anglab olish imkonini beradi. Iqtisodiyotda

ekonometrik molellashni qo'llash iqtisodiy-matematik modellashtirish ko'rinishida amalga oshiriladi. Iqtisodiy-matematik modellashtirish yordamida u yoki bu haqiqiy iqtisodiy jarayon ifodalananadi. Bunday model faqat iqtisodiy jarayonni mohiyatini chuqur nazariy izlanishlar va tushunib yetish asosida tuzilishi mumkin. Faqat shundagina matematik model haqiqiy iqtisodiy jarayonga to'g'ri kelishi, uni obyektiv ifodalashi mumkin.

Ekonometrik modelni tuzishga yondashish induktiv va deduktiv bo'lishi mumkin. Modellashtirishda induktiv usuldan foydalanganida u yoki bu iqtisodiy jarayonning modeli iqtisodiy jarayonning sodda o'zgaruvchilarini qamrab olgan xususiy modellashtirish yordamida tuziladi, undan butun jarayonni umumiyligiga o'tiladi. Deduktiv usulda dastavval umumiyligiga model tuziladi va faqat uning asosida xususiy modellar yaratiladi, aniq matematik hisob-kitoblar algoritmi belgilanadi. Ekonometrik modellarni yaratishda induktsiya va deduktsiya usullari birgalikda foydalansilsa, ular birmuncha to'g'ri asoslangan bo'ladi. Bunday sharoitlarda tuzilgan modelni haqiqiy iqtisodiy jarayonga ko'proq mos kelishi, o'xshashligi ta'minlanadi; model ko'proq jihatdan obyektiv mavjud iqtisodiy munosabatlar va qonuniyatlarni ifodalaydi.

Qo'llanilayotgan matematik usullar rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyotining talablariga mos ravishda shakllanayotgan iqtisodiyotning turli muammolarini to'g'ri va aniq yechishga qaratilgan bo'lib boshqarish, rejalashtirish, tijorat, buxgalteriya hisobi va statistika hamda prognozlashda va boshqa ko'p yo'naliishlarda foydalanimoqda. Matematik dasturlash va matematikaning boshqa usullarini ko'pgina iqtisodiy va injenerlik xarakterga ega bo'lgan masalalarini yechishda foydalanish hisoblash texnikasi paydo bo'lishi bilan imkoniyat tug'ildi va samarali foydalanimoqda. Murakkab iqtisodiy masalalarini zamonaviy hisoblash texnikasiz to'g'ri yechishning imkoniyati yo'q. Shuning uchun zamonaviy kompyuter texnikasidan keng foydalanish zamon talabidir. Kompyuter texnikasi bugungi kunda matematika va statistikaning mavjud barcha usullaridan foydalanish imkoniyatini beruvchi elektron jadvallar va dasturlar bilan ta'minlangan. Izlanuvchi iqtisodchilar, katta muvafaqqiyatlarni ko'zlagan tadbirkorlar va menejerlar o'z faoliyatlarida bu usullardan kengroq foydalanishlari uchun ularni chuqurroq o'rganishlari kerak.

Asosiy tendentsiya modellarini tuzish dinamikaning bir o'lchamli qatorlarini, ya'ni mahsulotning alohida olingan turini ishlab chiqarishni xarakterlovchi konkret statistik ko'rsatkichlar dinamikasining qatorlarini tahlil qilishga asoslangan. Bu modellarni tuzish dinamikaning har qanday qatori nazariy jihatdan ajratish mumkin bo'lgan bir qancha omillarning ta'siriga uchraydi degan nuqtai nazarga asoslanadi.

Ilmiy adabiyotlarda bu omillar dinamika qatorlarining komponentlari deyiladi. Dinamika qatorlarini komponentlarga ajratish nuqtai nazaridan bu –nazariy abstraktsiyadir, chunki bu ajratish sof matematik protsedura bo'lib, statistik usullar bazasida amalgalashiriladi. Lekin, dinamika qatorlarining faktik darajalarini bo'lib-bo'lib yuborishning shartliligiga qaramay, bu usul tahlil qilish va prognozlashtirishning turli muammolarini hal qilishda yetarlicha foydali bo'lishi mumkin. Dinamika qatorlarining barcha komponentlari bir-birlari bilan o'zaro bog'langan va modellarning quyidagi ko'rinishida keltirilishi mumkin:

Additiv model:  $Y = T + K + S + E$ .

Multiplikativ model:  $Y = T \cdot K \cdot S \cdot E$ .

Kombinatsiyalangan model :  $Y = T \cdot K \cdot S + E$ .

Mavsumiy komponentli modellarni tuzish faqat dinamikaning boshlang'ich qatori o'ziga oyma-oy yoki chorakma-chorak keltirilgan ma'lumotlarni qamrab olgan holdagina mumkin. Agar dinamikaning boshlang'ich qatori yilma-yil keltirilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan bo'lsa, model faqat trendni va tasodifiy komponentani qamrab oladi. Dinamikaning nomavsumiy komponentlibir o'lchamli qatorlarining trend modelini tuzish bir necha bosqichda amalgalashiriladi:

1. Dinamika qatorlarini aprior (tajribaga asoslanmagan) tahlil qilish.
2. Dinamikaning tadqiq etilayotgan qatorida asosiy tendensiyaning mavjudligi haqidagi gipotezani tekshirib ko'rish.
3. Tegishli modelning asosiy tendensiyasini hamda parametrlarini aniqlash.
4. Tasodifiy komponentani tahlil qilish.
5. Umumlashtiruvchi modelni tuzish.

Mintaqalarda yalpi hududiy mahsuloti hajmining va tarkibini yillar bo'yicha dinamikasini tahlil qilishda tahlilning boshlang'ich

nuqtasi sifatida bazis yil tanlab olinadi.

Birinchi bosqichda dinamikaning tadqiq etilayotgan qatorlarini aprior tahlil qilishni va dinamika qatorlarining analitik hamda o'rtacha ko'rsatkichlarini tahlil qilishni amalga oshiriladi. Sotsial-iqtisodiy hodisalar dinamikasini va hodisalar jarayonini baholash uchun quyidagi analitik ko'rsatkichlar qo'llanadi:

- absolyut o'sish (kamayish) sur'atlari;
- nisbiy o'sish (kamayish) sur'atlari;
- qo'shimcha o'sish (kamayish) sur'atlari;
- bir foizlik o'sishning absolyut qiymati.

Bu ko'rsatkichlarning har biri uch ko'rinishda bo'ladi: zanjirli; bazisli; o'rtacha. Dinamikaning bu ko'rsatkichlarini hisoblash asosida davriy qator darajalarini taqqoslash yotadi. Agar taqqoslashning bazasi sifatida qabul qilingan bitta darajaning o'zi bilan amalga oshirilsa, bu ko'rsatkichlar bazis ko'rsatkichlar deb ataladi. Taqqoslashning bazasi sifatida yoki dinamik qatorning boshlang'ich darjasи, yoki rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadigan daraja tanlab olinadi.

Agar taqqoslash o'zgaruvchan bazada amalga oshirilayotgan bo'lsa va har bir navbatdagi daraja oldingisi bilan taqqoslanayotgan bo'lsa, bunday yo'l bilan hisoblab chiqilgan ko'rsatkichlar zanjirli ko'rsatkichlar deb ataladi.

Absolyut o'sish ikkita taqqoslanayotgan darajalar farqiga teng va muayyan vaqt oralig'idagi ko'rsatkich o'zgarishining qiymatini xarakterlaydi. Umumiy holatda absolyut o'sish (kamayish) quyidagi ko'rinishdi keltirilishi mumkin:

$$\Delta y_t = y_t - y_{t-k}$$

bunda  $y_t$  – dinamika qatorining joriy darjasи;  $t = 2, 3, \dots, n$ ;  $k = 1, 2, \dots, n-1$ .

$k=1$  bo'lganda joriy daraja  $y_1$  dan avvaligi daraja  $y_n$  ayirib tashlanadi va zanjirli absolyut o'sishni hisoblab chiqish formulasi kelib chiqadi:

$$\Delta y_t = y_t - y_{t-1}$$

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, bazis absolyut o'sish uchun qatorning boshlang'ich darajasiga nisbatan aniqlanadigan ifoda bo'ladi.

$$\Delta y_t^\delta = y_t - y_{t-1}.$$

Bazis absolyut o'sish formulasini umumiyroq ko'rinishda qayd qilish uchun  $y_1$  daraja muvaqqat qatorning taqqoslash bazasi uchun qabul qilingan -  $y_\delta$  darajasiga almashtirilishi mumkin:

$$\Delta y_t^\delta = y_t - y_{t-\delta}.$$

O'rtacha absolyut o'sish tadqiq etilayotgan ko'rsatkichning vaqtdagi o'zgarish tezligining umumlashtiruvchi xarakteristikasi bo'lib, sotsial-iqtisodiy hodisalar vaqt birligiga qancha birlik miqdorida o'zgarishini ko'rsatadi. Uni kuzatishning butun davri uchun aniqlashda oddiy o'rtacha arifmetik formuladan foydalaniladi.

$$\Delta \bar{y} = \frac{\sum_{t=2}^n \Delta y_t}{n-1}$$

Bunda  $\Delta y_t$  – zanjirli absolyut o'sishlar;  
 $n$ -dinamikalar qatoridagi darajalar soni yoki

$$\overline{D}_y = \frac{y_n - y_1}{n-1}$$

bunda  $y_n$  va  $y_1$  dinamika qatorining oxirgi va boshlang'ich darajasiga muvofiq

$$T_t = \frac{y_t}{y_{t-1}} \cdot 100$$

O'sish sur'ati qatorning ikkita taqqoslanayotgan darajasining foizdagi munosabatini tavsiflaydi.

O'sishning zanjirli sur'ati  $y t-1$  ga teng.

O'sishning bazis sur'ati quyidagi ko'rinishda keltirilishi mumkin:

$$T_t = \frac{y_t}{y_0} \cdot 100$$

bunda  $y_0$  – taqqoslash uchun qabul qilingan baza muvaqqat qatorning darjasasi.

O'sishning sur'ati doimo ijobiydir. Agar o'sishning sur'ati 100% ga teng bo'lsa, darajaning kattaligi o'zgarmaydi, agar 100% dan kam bo'lsa – darajaning kattaligi (qiymati) pasayadi, 100% dan oshiq bo'lsa – ortadi.

O'sishning o'rtacha sur'ati dinamikaning umumlashtirilgan xarakteristikasi hisoblanadi va qator darajalari o'zgarishining

intensivligini aks ettiradi. U butun kuzatuv davrida keyingi daraja oldingisining o'rtacha necha foizini tashkil etishini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'sishning zanjirli sur'atlaridan o'rtacha geometrik formula bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$\bar{T} = \sqrt[n]{T_2 \cdot T_3 \cdot \dots \cdot T_n}$$

yoki,

$$\bar{T} = \sqrt[n-1]{\frac{y_n}{y_1} 100}$$

O'sishning sur'ati nisbiy qiymatlardagi o'sishni xarakterlaydi. O'sishning foizlarda belgilangan sur'ati taqqoslanayotgan daraja taqqoslashning bazasi qilib olingan darajaga nisbatan necha foizga o'zgarganligini ko'rsatadi. O'sishning sur'ati absolyut o'sishning taqqoslash bazasi qilib olingan darajaga nisbatan foizlarda ifodalangan nisbatidir:

$$T_t = \frac{y_t - y_{t-k}}{y_{t-k}} 100,$$

Bunda  $y_t$  - dinamika qatorining joriy darajasi;  $t = 2, 3, \dots, n$ ;  $k = 1, 2, \dots, n-1$ .

Agar sotsial-iqtisodiy hodisalarning rivojlanishi mavjud bo'lsa, o'sishning sur'ati ijobiy, hodisalarning rivojlanishi pasayib ketsa yoki nol'ga teng bo'lsa, ya'ni kuzatilayotgan hodisa o'zgarmasa – salbiy bo'lishi mumkinligi shubhasizdir.

O'sishning zanjirli sur'ati:

$$T_t = \frac{y_t - y_{t-1}}{y_{t-1}} 100,$$

Shunday qilib, o'sishning zanjirli sur'ati o'sishning tegishlicha sur'atidanolinishi mumkin:

$$T_t = \frac{y_t}{y_{t-1}} 100 - 100 = T - 100,$$

Bunda  $T$  - o'sishning zanjirli sur'ati.

O'sishning zanjirli sur'ati bazis absolyut o'sishning taqqoslash bazasi qilib olingan qatordarajasi nisbatiga teng:

$$T_t = \frac{Dy_t}{y_t}$$

Bo`lganda  $T_t = T^{\delta} - 100\%$  ga ega bo`lamiz. Bunda  $T^{\delta}$  - o'sishning bazaviy sur'ati.

Tegishli ravishda o'sishning o'rtacha sur'ati ortishning o'rtacha

sur'atiorqali ifodalanishi mumkin:

$$\bar{K} = \bar{T} - 100\%$$

Absolyut o'sish bilan o'sish sur'atini vaqtning aynan bir xildagi davrlarida taqqoslanishi shuni ko'rsatadiki, real iqtisodiy jarayonlarda o'sish sur'atining pasayishi (sekinlashuvi) doimo hamabsolyut o'sishlarning kamayishi bilan kuzatilavermaydi. Shuning uchun ham, amaliyotda bu ko'rsatkichlarni tez-tez taqqoslab turishadi. Buning uchun, absolyut o'sishning tegishli sur'atiga nisbati sifatida aniqlanadigan bir foiz o'sishning absolyut qiymatini hisoblab chiqadilar:

$$| \% | = \frac{\frac{y_t - y_{t-1}}{y_t - y_{t-1}} 100}{y_{t-1}} = 0,01 y_{t-1}$$

Surxondaryo viloyatida yalpi sut sog'ib olish dinamikasi 2.1-rasmida keltirilgan. Dinamika qatorlarining o'rtacha va analitik ko'rsatkichlarin hisoblab chiqish metodikasi yetarlicha tarqatilgan, shuning uchun olingan natijalarni tahlil qilib chiqiladi.

Tahlil o'tkazishning keyingi bosqichida tendentsiyani o'rganishga o'tish maqsadga muvofiqli. Shu maqsadda trendning mavjudligi haqidagi gipoteza (faraz)oldinga suriladi va tekshiriladi. Hozirgi vaqtda tendentsyaning mavjudligini tekshirish uchun matematik apparatning quvvati va murakkabligi bo'yicha farqlanuvchi ko'plab mezonlar mavjud. Bu metodlar chorvachilik mahsulotlarining asosiy ko'rsatkichlarining ham vaqtda rivojlanishidagi umumiy tendentsiyani, ham turlar bo'yicha tendentsiya-o'rtacha va dispersion tendentsiyani belgilashga imkon beradi.

Tendentsyaning umuman mavjudligini ochib berishgava uning moddiy ifodalanishi – trendni aniqlashga imkon beruvchi metodlardan biri – kumulyativ T-mezondir. Bu metod o'z asosida  $Y_1$  qator darajalarining  $Y$  ning o'rtacha darajasidan og'ishlarning to'plangan summalari va shu og'ishlarning o'zlari o'rtasidagi nisbat bilan hisoblab chiqiladigan statistik tavsifini hisoblash va tahlilini qamrab oladi. Dinamikaning o'rganilayotgan qatorida  $T$ - kriteriy asosida tekshiriladigan tendentsiya bo'lmasligi mumkin, degan gipoteza ilgari surish mumkin. Amaliyotda uch ko'rinishdagi tendentsiya – o'rtacha, dispersiyalar va avtokorrelyatsiyalar ajratib ko'rsatilganligi uchun, tendentsiyalarning har bir ko'rinishlarining mavjudligiga dinamikaning

boshlang'ich qatorini tekshirib ko'rish lozim.

Mintaqalarda iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari dinamikasi qatorlarini o'rtacha va dispersiya tendentsiyasining mavjudligiga tekshirib ko'rish, qatorning o'rtacha darajalarini taqqoslash metodi hamda Forster-Stuart metodi asosida amalga oshirilishi mumkin.

O'rtacha taqqoslash metodi qator va dispersiyalarning o'rtacha darajalarinitaqqoslashga asoslangan. Bunda vaqt qatori (vaqtga bog'liq qator) a'zolarining soni bo'yicha taxminan bir-biriga teng bo'lgan ikkita qismga ajratiladi. Ularning har biri normal taqsimlanishga ega mustaqil tanlash to'plami sifatida ko'rib chiqiladi. Agar vaqt qatori tendentsiyaga ega bo'lsa, har bir to'plam uchun hisoblab chiqilgan o'rtacha va dispersiyalar o'zaro muhim ravishda farqlanishi kerak. Shunday qilib, tadqiq etilayotgan qatorda trendning mavjudligini tekshirish – o'rtacha ikkita normal taqsimlangan to'plamlarning tengligi haqidagi gipotezani tekshirishga olib keladi.

Dispersiyalarning tengligi haqidagi gipotezani tekshirish, hisob qiymati dinamika qatorining ikkita qismi uchun hisoblangan dispersiyalarning nisbati sifatida aniqlanadigan *F*- kriteriya yordamida amalga oshiriladi.

Agar ehtimollikning berilgan darajasida *F* ning hisob qiymati jadvalnikidan katta bo'lsa, ikkita normal taqsimlangan to'plamlar dispersiyalarining tengligi haqidagi gipoteza rad etiladi.

Mintaqalarda iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari dinamikasi qatorlarida tendensiyaning borligi isbotlanganidan keyin, matematik funksiya yordamida trendni tavsiflash amalga oshiriladi. O'rganilayotgan ko'rsatkichlar dinamikasi boshlang'ich qatorlarining empirik darajalari o'rtasidan o'tkazilgan egri chiziqni qo'llagan holda analitik tenglashtirish -ko'proq tarqalgan metod hisoblanadi. Trend tenglamasi shunday tanlab olinadiki, u, chorvachilikdagi o'rganilayotgan voqeа yoki jarayonlar rivojlanishining real mavjud bo'lgan tendensiya va qonuniyatlarini eng yaxshi tarzda approksimatsiya qilsin. Buning uchun turli darajadagi matematik ko'p hadli funksiyalar qo'llaniladi:

$$\bar{y}_1 = a_0 + a_1 \cdot t - \text{birinchi darajali};$$

$$\bar{y}_1 = a_0 + a_1 \cdot t + a_2 \cdot t^2 - \text{ikkinci darajali};$$

$$\bar{y}_1 = a_0 + a_1 \cdot t + a_2 \cdot t^2 + a_3 \cdot t^3 - \text{uchinch darajali};$$

$$\bar{y}_t = a_0 + a_1 \cdot t + \dots + a_k \cdot t^k \quad k - \text{darajali},$$

bunda  $a_0, a_1, \dots, a_k$  – ko`phadlarning parametrlari;  $t$ -vaqtini shartli belgilanishi.

Amalda, odatdagidek, amalga oshirilishi asosida tendensiya modellarining aniqlik ko'rastkichlarini hisoblab chiqish va tahlil qilish yotadigan matematik-statistik qiyoziy tahlil usullaridan foydalaniadi. Model adekvatlighining empirik o'lchovi bo'lib, uning turli yo'llar bilan aniqlanishi mumkin bo'lgan xatolarining kattaligi xizmat qiladi.

Trend modellari adekvatliligining eng sodda o'rtacha xarakteristikasi prognozning o'rtacha absolyut xatosi hisoblanib, quyidagi ko'rinishdagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\Delta = \frac{\sum_{t=1}^n (y_t - \bar{y}_t)}{n}$$

Trend tenglamasining o'rtacha absolyut xatosi belgining empirik va nazariy qiymatlarining og'ish darajasining umumlashtirilgan xarakteristikasini ko'rsatadi va o'rganilayotgan belgi qanday o'lchamlikka ega bo'lsa shunday o'lchamga ega.

Trend tenglamasini o'rganilayotgan ko'rsatkichning real mavjud bo'lgan tendentsiyalariga adekvatlighini baholash uchun amaliyotda ko'pincha yana quyidagi formula bo'yicha aniqlanadigan prognozning o'rtacha kvadratik xatosidan foydalaniadi:

$$\sigma = \sqrt{\frac{\sum_{t=1}^n (y_t - \bar{y}_t)^2}{n}}$$

O'rtacha absolyut va o'rtacha kvadrat xatolarning kamchiliklari-ularni o'rganilayotgan hodisa va jarayonlar darajalarining o'lchov masshtablariga jiddiy bog'liqligidir.

Shuning uchun amaliyotda xarakteristikalar o'zgarishi qonuniyatlarini baholashda trend modellari adekvatliligining ko'rsatkichi sifatida quyidagi ko'rinishdagi formula bo'yicha aniqlanadigan approksimatsiyaning o'rtacha xatosidan foydalaniadi:

$$\varepsilon_t = \frac{1}{n} \cdot \sum_{t=1}^n \left| \frac{y_t - \bar{y}_t}{y_t} \right| \cdot 100$$

Ushbu ko'rsatkich trend modellar adekvatliligining nisbiy ko'rsatkichidir va o'rganilayotgan belgilarning o'lchamlilagini aks ettirmaydi. Approksimatsiyaning o'rtacha xatosi tekislashning analitik

funksiyasi boshlang'ich qator qiymatlarini qanchalik yaqin aylanib o'tishini ko'rsatadi.

Shunday qilib, vazifa shunga keladiki, chovachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari o'zgarishining tendentsiyasini xarakterlovchi trendning ko'plab mumkin bo'lgan darajalaridan kompleksning faoliyat ko'rsatishida real mavjud bo'lgan tendentsiya va qonuniyatlarini eng yaxshi tarzda approksimatsiya qiluvchi bittasini tanlab olish kerak.

O'rtacha qoldiqlar moduli, approksimatsiyaning o'rtacha xatosi, Darbin-Uotson kriteriyasi testi orqali tekshiriladi.

Mintaqalarda iqtisodiy xavfsizlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasining bog'langan qatorlari tendentsiyasini modellashtirish va prognozlashtirishda bir necha jiddiy muammolar yuzaga keladi. Ularning ichida eng ahamiyatlilari mavjudligi o'rganilayotgan ob'ektning rivojlanishini ilmiy asoslangan va statistik jihatdan mohiyatli modelini tuzish imkonini bermaydigan multikollinearlik va avtokorrelyatsiya muammolaridir.

Multikollinearlik deganda regressiya tenglamasiga kiruvchi mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasidagi kuchli korrelyatsion bog'liqlikning mavjudligi tushiniladi.

Multikollinearlikning paydo bo'lish sabablari:

1. O'z dinamikasida qonuniy komponentlarga ega bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlar fazo-vaqt qatorida berilgan bo'ladi;

2. Mustaqil o'zgaruvchilar sifatida nisbiy kattaliklar, ya'ni qaysidir bir belgiga kiritilgan kattaliklar ishlatiladi;

3. Mustaqil o'zgaruvchilar sifatida umumiyligi qo'shiluvchilar bo'lgan kattaliklar, yoki bitti boshqasining tarkibiga kiruvchi kattaliklar ishlatiladi;

4. Mustaqil o'zgaruvchilar sifatida tuzilmani xarakterlovchi kattaliklar (masalan, yig'indisi o'zgarmas sonni beruvchi solishtirma og'irliklar) guruhi ishlatiladi;

5. Statistik to'plam bir turga mansub bo'lmaydi. Masalan, agar, turli sharoitlarda tuzilayotgan to'plam ikkita tarkibiy qismdan iborat bo'lsa, o'zgaruvchilar o'rtasidagi yuqori korrelyatsion aloqa bitta to'plamdagio'zgaruvchilarningboshqa to'plamdagiga nisbatan tasodifiy o'zgarishlar yuklaganligi bilan shartlangan bo'lishi mumkin;

6. Kuzatuvlarning miqdori yetarli emas;

7. Mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida shu o'zgaruvchilarni o'lchashdagi xatolar tufayli buzilgan chiziqli nisbatlar mavjud;

8. Mustaqil o'zgaruvchilar sifatida bitta belgining o'zini xarakteristikasi bo'lgan kattaliklarishlatiladi.

Multikollinearlikda argumentlar o'rtasida chiziqli bog'lanish mavjud. Agar modelga ikkita yoki bir necha chiziqli bog`langan mustaqil o'zgaruvchilar kiritilayotgan bo`lsa, bu chorvachilik mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarish dinamikasini bir necha pozitsiyadan tahlil qilishning o'tkazilishini murakkablashtiradi. Ya'ni:

birinchidan, eng muhim omillarni ajratib olish jarayoni murakkablashadi, chunki argumentni funktsiyaga ta'sir qilish darajasi absolyut kattalik  $\beta$ - koeffitsient orqali bir kattalikda belgilanadi va barcha omillarning o'zaro bog'lanmagan yoki ancha bo'shbog'langan sharoitda haqqoniy (to'g'ri) bo'ladi, degan qoidao'z kuchini yo'qotadi.

ikkinchidan, o'sha sababga ko'ra, regressiya koeffitsientlarining mazmuni, ularni iqtisodiy integratsiyalashga bo'lgan urinishda, buziladi.

Korrelyatsiyaning juft koeffitsientlarini tahlil qilish - omilli belgilar o'rtasidagi multikollinear bog'liqliknianiqlashning eng ko'p tarqalgan usullaridan biridir. Bu usulning mohiyati shundaki, ikkita yoki bir necha o'zgaruvchilar agar ular o'rtasidagi korrelyatsiyaning juft koeffitsientlari oldindan aniqlangan ma'lum kattalikdan katta bo'lsa kollinear (multikollinear) deb tan olinadi. Amalda juda ko'p hollarda ikkita argument, agar ular o'rtasidagi korrelyatsiyaning juft koeffitsientlari absolyut kattaligi bo'yicha 0,8 dan katta bo'lsa, kollinear deb hisoblaydilar.

Multikollinearlikni bartaraf etish uchunbir yoki bir necha chiziqli bog'langan belgilar modeldan olib tashlanadi, yoki aksincha, iqtisodiy-statistik tahlil bosqichida tanlab olingan belgilarning faqat ba'zilarigina modelga kiritiladi.

Dinamikaning bog'langan qatorlari yordamida model va prognoz tuzishdagi yana bir muammo – ularda avtokorrelyatsiyaning mavjudligidir. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari dinamikasi qatorlarining anchagina qismlarida darajalar o'rtasida, ayqniqsa ularning yaqin joylashganlari o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Uni qatorningdarajalari o'rtasidagi va shu qatorning

o'zi tomonidan dastlabki holatga nisbatan vaqtning h momentlari miqdorida siljitelgan korrelyatsion bog'liqlik sifatida tasavvur qilish qiyindir.

L ning davriy siljishi – lag deb, o'zaro bog'liqlikning o'zi esa-avtokorrelyatsiya deb ataladi.

Avtokorrelyatsion bog'liqlik chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari qatorlarining keyingi va ilgargi darajalari o'rtasida ayniqsa jiddiydir. Matematik-statistik tahlilning an'anaviy metodlari qatorning faqat alohida a'zolari o'rtasidagi o'zaro mustaqilligi holatidagina qo'llanilishi mumkin bo'lganligi uchun, dinamikaning bir necha o'zaro bog'langan qatorlarini tahlil qilishda ularning avtokorrelyatsiyasining mavjudligi va darajasini belgilash muhimdir.

Avtokorrelyatsiyaning ikkita turi farqlanadi:

1. Bir yoki undan ortiq o'zgaruvchilar kuzatilayotgandagi avtokorrelyatsiya;

2. Xatolar avtokorrelyatsiyasi yoki trenddan og`ishlardagi avtokorrelyatsiya.

Oxirisining mavjudligi regressiya koeffitsientlarining o'rtacha kvadrat xatolarining kattaliklarini buzib ko'rsatilishiga olib keladiki, bu regressiya koeffitsientlari uchun ishonch intervallari tuzishni, shuningdek, ularning ahamiyatliligini tekshirishni qiyinlashtiradi.

Mintaqalarda iqtisodiy xavfsizlikning asosiy ko'rsatkichlarining darajalaridagi avtokorrelyatsiya, faqat qo'shni (yondosh)ya'ni, bir davrga siljitelgan darajalar o'rtasidagina emas, balki yana har qanday son(miqdor)ga siljitelganvaqt birliklari ( $L$ ) o'rtasida hisoblab chiqilishi mumkin bo'lgan korrelyatsiyaning notsiklik koeffitsientlari yordamida o'lchanadi. Muvaqqat (vaqtli) lag deb nomlanuvchi bu siljish korrelyatsiya koeffitsientlari tartibini belgilab beradi: ( $L=1$  dagi) birinchi tartibning, ( $L=2$  dagi) ikkinchi tartibning.

Mintaqalarda iqtisodiy xavfsizlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi qatorining darajalarida avtokorrelyatsiyaning mavjudligini aniqlash uchun shuningdek, quyidagi formula bo'yicha aniqlanadigan Darbin-Uotson kriteriysidan foydalanish mumkin:

$$d_p = \frac{\sum (y_{t+1} + y_t)^2}{\sum y_t^2}$$

Darbin-Uotsonning kriteriysi  $d_p$  – bu muvaqqat qator modelini tuzishda olinadigan, ham darajalarda, ham qoldiqlarda avtokorrelyatsiyaning mavjudligini tekshirishga mo’ljallangan statistik kriteriyidir. Darbin-Uotson kriteriyining kritik kattaligi vaqtli qatorning uzunligi va ko’rib chiqilayotgan belgilar (V) ga bog‘liq bo`lgan  $d_1$   $d_2$  ko’rinishdagi ikkita qiymat bilan tabulyatsiyalangan.

Statistik modellashtirish va prognozlashtirish amaliyotida dinamika qatorlaridan avtokorrelyatsiyani chiqarib tashlash yoki kamaytirishning qator usullari mavjud bo’lib, ular orasida Frish-Bou metodi eng ko’p tarqalganidir. Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, vaqt modelga mustaqil omil belgi sifatida kiritiladi. Bunda boshlang’ich dinamik qatorlarning darajalari har qanday shakldagi, shu jumladan logarifmik shakldagi ko’rsatkichlarda keltirilishi mumkin.

Vaqt omilini kiritish- dinamikaning o’rganilayotgan qatorlarida keltirilgan barcha hodisalar rivojlanishining asosiy tendentsiyasini chiqarib tashlaydi, deb hisoblash qabul qilingan. Shuningdek, vaqt ni kiritish-trend tenglamasi bo’yicha olingan nazariy qiymatlardan empirik ma’lumotlarning og’ishidan foydalanishga o’xshashligi nazariy jihatdan isbotlangan.

Qo’shimcha o’zgaruvchilar sifatida vaqt ni kiritish dinamikaning bog’lamli qatorlariga ishlov berishning eng yaxshi natijali usulidir.

Frish-Bou metodini amalga oshirishda juft bog’lanishlar ko’pomillarga aylantiriladi hamda modellashtirilayotganga omilli belgilar ta’sirining zichligi va yo’nalishlarini baholash korrelyatsiya koeffitsientining to’plami asosida bajariladi.

Agar o’rganilayotgan ko’rsatkichlarning o’zgarish tendensiyasi, masalan, ikkinchi darajali ko’phadli tenglama orqali tavsiflanayotgan (ilmiy ta’rifi berilayotgan) holat uchun tuzilgan Frish-Bou metodi yordamida belgilar juftligining bog’liqligi modeli tahlil qilinayotgan bo’lsa, model yuqidagi ko’rinishga ega bo’ladi:

$$y_{x,t} = a_0 + a_1 x + a_2 t + a_3 t^2$$

Mazkur tenglamaning parametrlari, mohiyati model bo’yicha olingan empirik qiymatlarni nazariy qiymatlardan og’ish kvadratlari summasini minimizatsiya qilishdan iborat bo’lgan eng kichik kvadratlar metodi bilan aniqlanadi.

Bog’lanishning yo’nalishi va zichligini baholash korrelyatsiya koeffitsienti to’plamining quyidagi modifikatsiyasi asosida amalga

oshirilishi mumkin:

$$R = \sqrt{1 - \frac{\sigma_{gold}^2}{\sigma_y^2}}$$

$$Bu yerda: \sigma_{gold}^2 = \frac{\sum (y_i - \bar{y}_t)^2}{n}$$

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlarini modellashtirishda Frish-Bou metodini amaliy jihatdan afzalligi shundan iboratki, vaqt omilining kiritilishi – dinamikaning tadqiq qilinayotgan qatorlari bilan berilgan barcha ko'rsatkichlar rivojlanishining asosiy tendentsiyasini chiqarib tashlaydi. Bu, birinchi navbatda, avtokorrelyatsiya va multikollinearlikni dinamik qatorlardan chiqarib tashlashga yordam beradi.

Bundan tashqari, argument sifatida vaqt omiliga ega bo'lgan ko'p miqdordagi regressiya modeli parametrlari yaxshi iqtisodiy talqin ta'siriga berilgan bo'ladi.

Avtokorrelyatsiyani istisno qiladigan metod sifatida, afzalliklari yuqorida ko'rib chiqilgan Frish-Bou metodidan foydalanish tavsiya qilinadi. Modelni bu usul yordamida tuzish, vaqt omilini regressiya tenglamasiga belgining qo'shimcha omili sifatida kiritishga asoslangan. Bunday models dinamik emas, zero u, bog'lanishlar tuzilmasining zamon(vaqt)dagio'zgarishini hisobga olmaydi. Shu sababdan uni prognozlashtirishning maqsadlari uchun qo'llash cheklangandir. Lekin iqtisodiy amaliyotda bunday modellar keng qo'llanilayotganligi uchun iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari regressiyasining tenglamalari va ularning asosida istiqbolga mo'ljallangan prognoz tuziladi, bunday modellarini tuzishda ko'rsatkichlarning o'zlarini hamda ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'zgarishidagi asosiy tendentsiyalar va qonuniyatlar hisobga olinadi. Shunday qilib, trendni ekstrapolyatsiya qilish metodi mintaqalarda iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarining dinamikasini eng ko'p aniqlikda tavsiflar va aniqroq prognoz qiymatlarini beradi.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ekonometrik modellashtirish yordamida xavfsizlikni ta'minlash uchun samarali choralarini va qarorlarni ishlab chiqish va ularning ijrosini ta'minlash muhim hisoblanadi. Zamonaviy tahdidlar xavfsizlik ko'lamini aniqlashda ishonchli usul va vositalardan foydalanishni taqozo etadi. Tahdidlarni ekonometrik baholashda turli usullar

vositasida murakkab ijtimoiy-iqtisodiy xavflarning bog‘liqlik kuchini tadqiq etish, ularning qonuniyatlarini aniqlash va tajriba orqali ta’minlangan xavfsizlik darajasini aniqlash hamda kuzatish imkonini beradi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Innovatsion iqtisodiyot, tashqi iqtisodiy faoliyat, integratsiyalashuv, jahon bozori, ochiq iqtisodiyot, modellashtirish, ekonometrik model.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida xalqaro mehnat taqsimotida faol qatnashishning ahamiyati nimada?
2. Juhon xo‘jalik tizimiga integratsiyalashuv sharoitida mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda qanday vazifalar amalga oshiriladi?
3. Iqtisodiyotning ochiqligini ta’minlash va tashqi faoliyatni erkinlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar nimalardan iborat?
4. Tashqi iqtisodiy faoliyatning milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikga zid holatlar nimalardan iborat?
5. Davlat tashqi iqtisodiy faoliyati nimalardan iborat?
6. Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ekonometrik modellashtirishning asosiy vazifalarini tavsiflang?
7. Modelda ifodalanuvchi tahdidlarni va ularning mantiqiy strukturasini tavsiflang?
8. Hisoblashning xavfsizlik ko‘rsatkichlari modellashtirish jarayonidagi bosqichlar nimalardan iborat?

## GLOSSARIYLAR

**Afera** – qalloblik, muttahamlik, vijdonsiz harakat yoki ish.

**Bankrotlik** (ital. bancrotto - aynan singan kursi) – sinish; fuqaro, korxona, firma yoki bankning mablag‘ yetishmasligidan o‘z majburiyatlari bo‘yicha qarzlarni to‘lashga qurbi yetmasligi. Bankrotlik – korxonaning sud tomonidan belgilangan moliyaviy inqirozi, ya’ni kreditorlar tomonidan qo‘yilgan talablar va byudjet oldidagi majburiyatlarni belgilangan muddatlarda qondira olmasligi.

**Barqaror rivojlanish** - hozirgi davrdagi jamiyat taraqqiyotining eng muhim modellaridan biri bo‘lib, unga ko‘ra eng asosiy vazifa rivojlanishning uzviyligini ta’minlashdir. Barqaror rivojlanish iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa komponentlarni o‘z ichiga olgan holda nafaqat bugungi avlodlarning ehtiyojlarini qondirish, balki kelajakdagi avlodlar uchun ehtiyojlarning kafolatlanishini ham maqsad qiladi.

**Bozor muhofazasi** – milliy bozorning yoki ayrim tovarlar bozorining, davlatning eksport-importini tartibga soluvchi tadbirlar vositasida himoya qilinishi. B.M. chetdan tovar keltirishni cheklash, ta’qiqlash yoki boj to‘lovini oshirish orqali amalga oshiriladi.

**Boykot** (ing. boycott) – norozilik bildirish uchun biron-bir iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdan bosh tortish. Iqtisodiy aloqa qiluvchi tomonlarning manfaati o‘zaro zid kelib qolganda ularning biri boykot e’lon qiladi, kelishilgan shartnomani bajarish to‘xtatiladi. Savdo-sotiqlarida boykot tovarlarni yetkazib turishdan bosh tortish, oldin belgilangan narxdan voz kechish ko‘rinishlarida yuz beradi.

**Byurokratizm** – 1) totalitar davlatga xos boshqarish sistemasi; bu boshqarish sistemasi amaldorlarning (davlat xizmatchilarining), hukmron partiya va militsiya (politsiya) apparatining keng quloch yoygan tarmoqlari va xalq ommasi ustidan hukumronlik qiladigan, totalitar davlat yoki bir xovuch partokratiyaning manfaatini ko‘zlab, mehnatkashlarga zulm o‘tkazuvchi va ular ustidan zo‘ravonlik qiluvchi boshqa rasmiy ma’muriy shaxslar yordamida amalga oshiriladi; 2) quruq rasmiyatchilik, qog‘ozbozlik, sansalorlik, masalani ishning mohiyatiga va mehnatkashlarning ehtiyojiga zarar yetkazgan holda yuzaki hal qilish.

**Valyuta siyosati** – davlat va markaziy banklar tomonidan pul va valyuta muomalasi doirasida pulning xarid quvvatiga hamda mamlakat iqtisodiyotiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida o‘tkaziladigan tadbirlar majmuasi.

**Davlat qarzi** – davlatninng o‘z fuqarolari, banklar, korxona va tashkilotlar, xorijiy mamlakatlardan qarzi. Davlat o‘z xarajatlarini daromadi bilan qoplay olmay qarz oladi, qarz hisobidan o‘z byudjetining kamomadini vaqtincha qoplaydi. Davlat zayomlar chiqarib, ularni aholiga, korxona va tashkilotlarga sotadi.

**Investitsiya** – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kapital kiritish (qo‘yish). Moliyaviy investitsiya, aktsiya, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog‘ozlarni sotib olish; real investitsiya mamlakat ichkarisida va chet ellarda ishlab chiqarishga kapital kiritish (qo‘yish), shuningdek, yosh mustaqil davlatlarga qarz va subsidiyalar berish shakllarida amalga oshiriladi.

**Informatsion xavfsizlik** - shaxs, jamiyat va davlat hayotiy muhim manfaatlarining axborot urushi, interventsiya hamda dezinformatsiya tazyiqlaridan himoyalanganligidir. Informatsion xavfsizlikning mohiyati davlatning informatsion resurslarini saqlash, axborot sohasida shaxs va jamiyatning qonuniy huquqlarini himoyalashdan iboratdir.

**Informatsion xavfsizlik obyektlari** – axborot resurslari, ularning shakllanish, tarqalish va foydalanish tizimi, infrastrukturasi, tizim faoliyatini ta’minlovchi tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar.

**Informatsion xavfsizlik resurslari** – davlat va korxona, tashkilot va muassasalarning hujjatlar shaklidagi (kutubxona, arxiv, fond) axborotlar, kompyuter dasturlari, bilim va axborot bazalari hamda boshqa tashkilot turlaridan iborat.

**Inflyatsiya** (lot. inflatio – shishish, ko‘chish, ko‘tarilish) – pulning qadrsizlanishi; muomaladagi pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta’milanmagan pullarning paydo bo‘lishi.

**Ishsizlik** – aholi iqtisodiy faol qismining o‘ziga ish topa olmasdan qolishi. Mehnatga layoqatli bo‘lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta’milanmagan ishchi kuchi.

**Iqtisodiy jinoyatlar** – milliy iqtisodiyotga, uning tarmoqlari yoki sohalariga, korxona, tashkilot va muassasalar hamda fuqarolarga ziyon yetkazadigan yoinki ziyon yetkazishi mumkin bo‘lgan, jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)dir. Bunday jinoyatlarning sodir etilishi natijasida jamiyat, davlat, xo‘jalik subyektlariga, ayrim fuqarolarga moddiy ziyon yetkaziladi, jamiyatning iqtisodiy negizlariga tajovuz qilinadi. Ularga: 1) o‘zgalar mulkini talon-taroj qilish; 2) o‘zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoyatlar; 3) iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar; 4) xo‘jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar kiradi.

**Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar** - mamlakat manfaatlariga xi洛f ravishda bitimlar tuzish, qalbaki pul yoki qimmatli qog‘ozlar yasash, ularni o‘tkazish, valyuta bilan qonunga xi洛f ravishda muomala qilish, chet el valyutasini yashirish, soxta tadbirkorlik, soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish, bojxona to‘g‘risidagi qonunlarni buzish, rangli metallar, ularning parcha va rezgi chiqitlarini tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda sotish qoidalarini buzish kabilar kiradi.

**Iqtisodiy manfaatlar** – iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari (subyektlari)ning o‘zları tomonidan anglangan va ularni faoliyatga undovchi hayotiy ehtiyojlari, iqtisodiy faoliyatni harakatlantiruvchi kuch. Amal qilish darajasiga ko‘ra yakka shaxs, guruhiy yoki korporativ, milliy yoki umum davlat miqyosidagi iqtisodiy manfaatlar mavjud.

**Iqtisodiy mustaqillik** – milliy iqtisodiyotning chet davlatlarga bog‘liqligini kamaytirish va milliy manfaatlarga xizmat qilishi uchun shart-sharoitlarning ta’milanishi. Uning quyidagi mezonlari mavjud:

**Iqtisodiyotning ochiqligi** – mamlakat iqtisodiyotining chet el tovarlari, kapitali, ishchi kuchi migratsiyasi uchun muayyan darajada ochiq bo‘lishini taqozo etadi. Mamlakat chet el bilan iqtisodiy aloqalarini o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda va erkin yuritadi;

**Iqtisodiy siyosat** – mamlakat maqsadlari, vazifalari, manfaatlariga muvofiq holda iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga muayyan yo‘nalish berish, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish sohasidagi davlat, hukumat faoliyatining bosh

yo‘nalishi, tadbirlari tizimi. I.S. agrar, tarkibiy, investitsiya, moliya-kredit, ijtimoiy, tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnika, soliq, byudjet sohalaridagi siyosatni o‘z ichiga oladi.

**Iqtisodiy xavfsizlik** – iqtisodiy kategoriya bo‘lib, iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o‘sish ta’minlangan, ijtimoiy ehtiyojlar optimal darajada qondirilgan, ratsional boshqarish amalga oshirilgan, milliy va xalqaro darajalarda iqtisodiy manfaatlarning himoyalangandagi holatini ifodalaydi. I.X.milliy iqtisodiyot mustaqilligining, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va o‘z-o‘zidan takomillashib borishga qodirligini taüminlovchi shart-sharoitlar va omillar yig‘indisidir. I.X.iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining shunday holatdaki, bunday holatda mamlakat milliy manfaatlarining kafolatli himoya qilinganligi, mamlakat iqtisodiy rivojlanishining ijtimoiy yo‘naltirilganligi, ichki va tashqi jarayonlarining eng noqulay sharoitlarida ham mudofaa salohiyati yetarli darajada taüminlangan bo‘ladi.

**Ichki iqtisodiy xavfsizlik** – tabiiy, texnikaviy, iqtisodiy, infratuzilmaviy, ijtimoiy, mikro va makro iqtisodiy rivojlanishning hamda turli beqarorlikni, tanglikni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi tahdidlar taüsiridan himoya qiluvchi ichki immunitetlar bilan bog‘liqdir.

**Iqtisodiy xavfsizlikning mezoni** – iqtisodiy xavfsizlikning mohiyatini ifodalovchi muhim jarayonlar nuqtai nazaridan iqtisodiy xolatni baholash.

**Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy ko‘rsatkichlari** – iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarning miqdor jihatdan ifodalanishi.

**Iqtisodiy razvedka** – xorijiy davlatlarning, raqobatchi korxona (firma) larning iqtisodiy salohiyati, iqtisodiy siyosati va iqtisodiy holatiga, doiralariga oid muhim mahfiy ma’lumotlarni yashirinchalashni to‘plash.

**Iqtisodiy tahdid** – jamiyat, davlat va ularning subyektlari alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga, ular manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga to‘sinqinlik qiluvchi, ularga ziyon, zarar-zahmat keltiruvchi, xavf-xatar tug‘diruvchi omillar, shart-sharoitlar va vogeliklarni ifodalaydi.

**Iqtisodiy shpionaj** – raqibiga zarba berish, raqobat kurashida yengish, xo‘jalik faoliyatida o‘zib ketish maqsadida tijorat siri hisoblangan ma’lumotlarni yashirincha to‘plashga qaratilgan xufyona faoliyat.

**Iqtisodiy qonunbuzarlik** – xo‘jalik yuritish amaliyotida belgilangan va qaror topgan qonun-qoidalar va mezonlarga zid xattiharakat yoki harakatsizlik.

**Kompensatsiya** – ko‘rilgan zararni, xarajatlarni qoplash, qarzni qaytarish, o‘rnini qoplash, tovon to‘lovlari majmui.

**Kontrabanda** (ital. contrabando) – davlat chegarasidan mollar, qimmatbaho buyumlar va boshqa narsalarni qonunga xilof (yashirincha) usullarda o‘tkazish, shuningdek, ta’qiqlangan mollarni olib o‘tish uchun noqonuniy harakatlar qilish.

